

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi
Til va adabiyot instituti

I jild

Gulgina

*Kichkintoylar uchun
badiiy adabiyot
majmuasi*



«YANGI NASHR» nashriyoti
Toshkent – 2010

821.512.133-93. Bo'laqap o'g'adučta

G 95

BBK 83.8(50')

G96

«BARKAMOL AVLOD YILI»ga bag'ishlanadi

Mazkur ikki jildlik majmua ta'lif to'g'risidagi Qonun va ta'lif talablari asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi-muallif

Zamira IBROHIMOVA,

filologiya fanlari nomzodi,

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi

Til va adabiyot institutining katta ilmiy xodimi

Mas'ul muharirrilar:

Murod IBROHIMOV

filologiya fanlari nomzodi,

Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati;

Tursunboy ADASHBOYEV,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi bolalar va

o'smirlar adabiyoti kengashi boshlig'i

Taqrizchilar:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi MMXQTMOR rahbari S. S. Mirjalilova; psixologiya fanlari nomzodi F. N. Vahobova; filologiya fanlari doktori J. Jumaboyeva; filologiya fanlari nomzodi R. Barakayev; Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 455-sonli Boshlang'ich ta'lim-tarbiya markazi direktori D.Sh. Xidoyatova; Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi 20-sonli «Chehra» maktabgacha ta'lim muassasasining mudirasi N. O. Tursunova.

Hurmatli ota-onalar! Ustoz tarbiyachilar! Kelajakda farzandlarimizning qanday inson bo'lib yetishishi ko'p jihatdan Sizga bog'liq. Bugun Siz o'qib berayotgan asarlarining bilan ularning qalbiga ezzulik urug'larini qadar ekansiz, yillar o'tib ana shu urug' tup qo'yib, palak yozadi. Sizning mehnatingiz, e'tiboringiz o'zingizga mehr-muhabbat bo'lib qaytishiga shubha yo'q.

«Gulgina» majmuasi ikki kitobdan iborat. Qo'lingizdagи birinchi kitobga: chaqaloqlik davri(1 yoshgacha); ilk yosh (1 – 3); kichik (3 – 4) va o'rta (4 – 5) yosh davri bolalariga mo'ljallangan asarlar kiritilgan.

Ota-onalar va tarbiyachilarga qulaylik yaratish maqsadida har ikki kitobda badiiy asarlarni kichkintoylar ongi va qalbiga yetkazish yo'llari haqida «Badiiy so'zning qudrati» nomli uslubiy maqola berildi.

Majmua maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari va ota-onalarga, maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilariga, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi kollej o'quvchilarini, oliv o'quv yurtlari talabalari, shuningdek, ushbu soha mutaxassis, ustoz-murabbiylariga mo'ljallangan.


Loyiha menejeri A. Irisboyev

ISBN 978-9943-330-36-8

© "MEDIANASHR" MCHJ,

© "YANGI NASHR" nashriyoti,

2010-y.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

*Abdulla Oripov so'zi,
Mutal Burhonov musiqasi*

*Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!*

N a q o r a t

*Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!*

*Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona-yurt, mangu bo'l obod!*

N a q o r a t

*Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!*

SO‘ZBOSHI O‘RNIDA

Qadrli ota-onalar, buvi-yu bobolar, tarbiyachi va ustozlar!

Bola tarbiyasidek o‘ta mas’uliyatli vazifani amalga oshirishingizda, shubhasiz, badiiy adabiyotning alohida o‘rni bor. Qo‘lingizdagi majmua sizning ushbu xayrli ishni bajarishingizda beminnat xizmat qiladi, deb umid qilamiz. Chunki unda farzandlaringizni ilk yoshidan boshlab go‘zallikka oshno etuvchi, ezgulik, yaxshilikning nurli yo‘llari bo‘ylab yetaklovchi boy og‘zaki ijodimiz va yozma adabiyotimizning eng yaxshi namunalari joy olgan. Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sa’diy Sheroyi va Sharqning boshqa buyuk allomalari qalamiga mansub bolalarbop asarlar; axloq-odobga doir hadislar, shuningdek, turli xalq og‘zaki va yozma ijodidan ko‘plab asarlar tanlash asosida kiritilgan. Ularni saralashda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlariga, badiiylik darajalariga alohida ahamiyat berildi.


...Oilada yangi inson dunyoga keladi-yu, sizga unut bo‘layozgan bolalar adabiyoti bilan qayta oshno etadi. Qanday qilib, deysizmi? Juda oddiy. Chunki farzandingiz tug‘ilgan dastlabki kundanoq adabiyot sizga sidqidildan xizmat qilish uchun xonadoningizga kirib keladi. Dastlab farzandingizga bo‘lgan cheksiz muhabbatizingizni izhor qilish uchun u beshik boshida mehrli qo‘shiq bo‘lib taraladi:

*Alla, bolam, alla-yo,
Ko ‘rar ko ‘zim, alla-yo,
Suyar so ‘zim, alla-yo,
Shirin jonim, alla-yo,
Issiq nonim, alla-yo.*

Yig‘lab turgan farzandingiz allaning mayin ohangidan bu dunyoda yolg‘iz emasligini, siz kabi mehriboni borligini his etib tinchlanadi, orom olib uyquga ketadi.

Uyg‘ongach, siz uni sevib-suyib erkalaysiz:

*Oppoq, oppoq, oppog ‘im,
Qo‘zilar juni – qalpog ‘im.
Hamma yomon deganda,
O‘zginamning oppog ‘im.*



Yig'lasa, siz uni yana sevib-suyib ovutasiz:

*Suv keladi boshidan,
Hazratimning qoshidan,
Onaginang aylansin,
Ko 'zginangning yoshidan.*

Qanday yaxshi! Qadim katta momolarimiz, katta buvilarimiz tomonidan qoldirilgan oltin meros — qo'shiqlar bugun ham siz va farzandingiz o'rtasida mehrli munosabat o'rnatishda, unga bo'lган muhabbatiningizni izhor qilishingizda, avaylab-ardoqlab, cheksiz g'amxo'rlik ko'rsatishingizda sizga madadkor bo'lmoqda.

Alla, erkalamaga, ovutmachoqlardagi quyma misralar, kutilmagan ajoyib-g'aroyib o'xshatishlar, ritmik ohangdorlik, hayajonli ruh bolaning kayfiyatini ko'taradi, unga shodlik, quvonch olib keladi. Shu tariqa farzandlaringizning his-tuyg'ulari shakllana boshlaydi.

Farzandingiz katta bo'lgani sari, uning badiiy adabiyotga qiziqishi ham orta boradi. Endi siz unga asta-sekin jajjigina she'rlar, ertaklar va hikoyalar aytib bera boshlaysiz. Shu daqiqalarda bolangizga alohida e'tibor bersangiz, asar voqealari uning murg'ak qalbini butkul sehrlab olganligining, ertak yoki hikoya qahramonlari holtini, xatti-harakatlarini butun vujudi bilan his etayotganligining, hayajonlanayotganligining guvohi bo'lasiz. Bu tashqi ifodalarning hammasi bola qalbida ro'y berayotgan chuqur ichki kechinmalarning aksidir. Shu tariqa farzandingiz badiiy asarlar orqali ilk bora go'zal xulqning ulug'ligini, birovga yaxshilik qilishning qanchalik zavqlilagini, aksincha, chirkin xulq-atvorning, yomonlikning xunuk va jirkanchligini his etadi, fikr yuritadi. Asta-sekin uning ma'naviy dunyosi shakllana boshlaydi.

Farzandingiz katta bo'lgani sari hajm jihatdan kattaroq, mavzu jihatdan nisbatan murakkabroq asarlar talab eta boshlaysidi. Chunki endi unda voqe-a-hodisalar ning sodir bo'lish sabablariga qiziqish kuchayadi, idrok, tafakkur, nutq tobora rivojlanadi. Siz o'qib yoki so'zlab berayotgan badiiy asarlar uning hissiyotini, idrok va tafakkurini, xayol va xotirasini, iroda va diqqatini yanada rivojlantirib borishi bilan birga, uning qalbini asrlar davomida shakllangan milliy-ma'naviy boyligimiz, qadriyatlarimiz bilan limmo-lim to'ldiradi, ularni yuksak insoniylik ruhida tarbiyalaydi, shuuriga shuur qo'shadi.

Kelajakda farzandingizning qanday inson bo'lib yetishishi ko'p jihatdan sizga bog'liq. Bugun siz o'qib berayotgan asarlaringiz bilan uning qalbiga ezgulik urug'-

rini qadar ekansiz, yillar o'tib, ana shu urug' tup qo'yib, palak yozadi. Sizning mehnatingiz, e'tiboringiz o'zingizga mehr-muhabbat bo'lib qaytishiga shubha yo'q.

Qadrli ota-onalar va tarbiyachilar! Ushbu majmuani tuzishda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni talablariga suyanildi va Xalq ta'llimi vazirligi tasdiqlagan mакtabgacha ta'lif tizimidagi Tayanch dasturlaridan foydalanildi. Kezi kelganda shuni alohida ta'kidlaymizki, Tayanch dasturlarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lif-tarbiyaning maqsad va vazifalari, asosiy yo'naliшlari, shuningdek, bu yo'naliшlari bo'yicha bolaning rivojlanganlik darajasi va boshqalar yuzasidan aniq va puxta tavsiyalar berilgan. Xususan, unda bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'yicha maqsad va vazifalar, har bir guruh bolalariga yil davomida o'qiladigan, hikoya etiladigan, yodlatiladigan asarlar soni, nomi, mualliflari haqida aniq maslahatlar olish mumkin.

Lekin shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, qo'yilayotgan bu talab va tavsiyalar bolani badiiy adabiyot bilan oshno etishda qat'iy qolip bo'lib qolmasligi kerak. Unga namuna sifatida qarash, erkin, ijodiy yondashish lozim.

Majmuada badiiy asarlar bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha taqsimlangan: Birinchi kitob: Chaqaloqlik davri (1 yoshgacha); Ilk yosh (1–3); Kichik yosh (3–4) va O'rta yosh (4–5). Ikkinci kitob: Katta yosh (5–6) va maktabga tayyorlov (6–7) davri. Bu yosh davrlariga ham tarbiyachi va ota-onalar erkin yondashishlari, bolalarning saviyasi, qiziqish, tushunish va o'zlash-tirish darajalariga qarab oldinga, ya'ni kattaroq yosh davriga tavsiya etilgan asarlarga murojaat etishlari yoki, aksincha, orqaga, kichikroq yosh davridagi asarlarga qaytishlari mumkin.

Majmuuning har bir yosh davri xalq og'zaki ijodi bilan boshlanadi. Chaqaloqlik va ilk yosh davriga alla qo'shig'i bilan bir qatorda erkalamaga, ovutmachoq, beshikka solish marosimlarida aytiladigan qo'shiqlari tavsiya etilgan bo'lsa, kichik yosh davriga mavsum qo'shiqlari, aytishma-o'yin qo'shiqlari, maqollar, ertaklar tavsiya etilgan. Shu tariqa bolalarning yoshlari katta bo'lgani sayin, tavsiya etilayotgan asar xillari ham asta-sekin ko'paytirildi. O'rta yosh davriga mavsum qo'shiqlari, hukmlagichlar, aytishma-o'yin qo'shiqlari, chandishlar, ertak, rivoyat va dostondan kichik bir parcha tavsiya etildi. Katta yosh va maktabga tayyorlov davri bolalariga esa mavsum qo'shiqlari, yalinmachoqlar, qiziqmachoqlar, o'yin qo'shiqlari, cheklashmachoqlar, guldur-guplar, topishmoqlar, tez aytishlar, sanamalar, maqollar, ertaklar, rivoyatlar va dostonlardan parchalar tavsiya etilgan. Shuningdek, kichkintoylar saviyasiga mos jahon xalqlari ertaklaridan namunalar kiritilgan.



Majmuaning adabiy asarlarga bag‘ishlangan qismi o‘zbek va jahon xalqlari yozuvchilarining she’riy hamda nasriy asarlaridan iborat.

Ota-onalar va tarbiyachilar ishini yengillatish maqsadida she’riyat bo‘limini mavzu jihatdan bir qancha qismlarga bo‘lishni lozim topdik: O‘zbekiston – mening Vatanim; Yil fasllari; Tabiat olamida; Hayvonot dunyosi; Onalar va bolalar haqida v. b.

Nasr bo‘limiga esa, faqat janr jihatidan tartib berildi: u ertak, hikoya hamda (katta yosh va maktabga tayyorlov davriga) mumtoz adabiyot namunalari va qissadan parchalar asosida tashkil topgan. Shuningdek, o‘rta yosh va maktabga tayyorlov davrlariga «Buyuk siymolar haqida» bo‘limi ham kiritilgan bo‘lib, unda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Al-Buxoriy hamda Amir Temurlarning hayoti va faoliyatlari haqidagi matnlar joy olgan.

Ota-onalar va tarbiyachilarga yordam berish maqsadida har ikki kitobda badiiy asarlarni kichkintoylar ongi va qalbiga yetkazish yo‘llari haqida «Badiiy so‘zning qudrati» nomli uslubiy maqola berildi.

Xullas, kichkintoy bilan bevosita muloqotda bo‘layotgan har bir katta odamning niyati «Bola kitob bilan birgalikda o‘sib, kamol topsin», degan shior darajasida bo‘lishi kerak. Buning uchun kichkintoy uzlusiz ravishda har kuni kitob bilan uchrashishi zarur! Shundagina bola kitobga o‘rganadi, unga mehr qo‘yadi va u bilan do‘stlashadi. Ushbu majmuani tayyorlashdan ko‘zda tutgan asosiy maqsadimiz ham shundan iborat.

Tuzuvchi-muallif



Chaqaloqlik davri

1 yoshgacha



O'zbek xalq og'zaki ijodi

"OSMONDAGI OYIM, ALLA..."

Beshik qo'shiqlari

* * *



Alla, bolam, alla-yo.
Ko'rар ko'zim, alla-yo.
Suyar so'zim, alla-yo,
Alla, bolam, alla-yo.
Shirin jonim, alla-yo,
Issiq nonim, alla-yo.
Alla, bolam, alla-yo, alla,
Do'mboqqinam, alla-yo, alla.

* * *

Osmondagi oyim, alla,
Mening shirin choyim, alla.
Alla, bolam, alla,
Jonim bolam, alla.

Sahar chog'i bo'libdi,
Ichim nurga to'libdi.
Alla, bolam, alla,
Jonim bolam, alla.


Jigarimning porasi, alla.
Ko'zginamning qorasi, alla.



Alla, bolam, alla,
Jonim bolam, alla.

* * *

Alla qilsin, bolam-o,
Uyquda orom olsin-o.
Alla, alla, deganda,
Jimgina uxbab qolsin-o.
Alla, bolam, alla,
Ikki ko'zim, alla.



* * *

Uxla, qo'zim, alla-yo,
Shakar so'zim, alla-yo.
Ukam yig'lar, tunda ham
Alla aytadi onam.



Qo'shiqlari muloyim,
Obbo qilsin, alla-yey,
Uxlab bersin, alla-yey,
Alla, alla, alla-yey.

* * *

Jon bolam, erkatoyim,
Bulbulginam, alla.
Mehribonginam, alla.
Uxlasin oppoqqinam,
Shunqorginam, alla.



Onajonisi gulbog'i, alla,
Erkatoyginam, alla.
Otajonisi zo'r tog'i, alla,
Yop-yorug' oyginam, alla.

* * *

Kichkinasan, lolasan,
Alla, bolam, alla.
Qachon katta bo'lasan?
Alla, bolam, alla.



Bog' ichida chaman gullar,
Alla, qo'zim, alla.
Sayraydi shaydo bulbullar,
Alla, qo'zim, alla.

Tol ichidan tanlab olgan
Tol chavkonim bolam, alla.
Gul ichidan iskab olgan
Gul-u rayhonim bolam, alla.

Alla, bolam, alla,
Jonim bolam, alla.
Illi ko'zim, alla,
Shirin so'zim, alla.

* * *

Alla aytay tong otguncha,
Uyqu kelmas kun botguncha,
Nuri diydam, alla,
Qo'zichog'im, alla.



Alla, alla, alladan-ay,
Kokillari tillodan-ay.
O'qib kelgan mullodan-ay,
Alla, qo'zim, alla.

Alla, qo'zim, ol, qo'zim,
 Olmalari nor qo'zim.
 Anjirlari bol qo'zim,
 Alla, bolam, alla.



Umrimning shirin oni,
 Oq bug'doyning noni.
 Hamma yomon ko'rsayam,
 Oyisining joni,
 Alla-yo, alla.

Qizil gulning joni,
 Dilimning mehmoni.
 Darding olay o'zim,
 Onasining joni,
 Alla-yo, alla.

Sen boshimning bahori,
 Sen umrimning nahori.
 Sen qalbimning ohori,
 Onasining shunqori,
 Alla-yo, alla.



* * *

Alla aytib uxlataman,
 Alla, qo'zim, alla.
 Qanday seni yupataman,
 Alla, bolam, alla.

Kichkinasan, lolasan,
 Alla, bolam, alla.
 Qachon katta bo'lasan?
 Alla, bolam, alla.



Alla, alla, orastasan,
Alla, qo'zim, alla.
Gunohi yo'q norastasan,
Alla, bolam, alla.



Bog' ichida chaman gullar,
Alla, qo'zim, alla.
Sayraydi shaydo bulbullar,
Alla, qo'zim, alla.

Sendan kelar gul isi,
Alla, bolam, alla.
Ota-onamning birisi,
Alla, qo'zim, alla.

O'ymali to'nlar bo'yingga,
Alla, qo'zim, alla.
Qo'ydan-qo'chqor to'yingga,
Alla, bolam, alla.

Senga allalar aytaman,
Alla, qo'zim, alla.
Soyalaringda yotaman,
Alla, bolam, alla.



* * *

Qarchig'ay qushning bolasiday,
Daraxt boshi uyasiday.
Daraxt boshin yel olsa,
Shaydullodir onasi-ye.
Alla, bolam, alla.

“OLTIN BESHIKKA KIR SIN”

Chaqaloqni beshikka solish marosimi

Chaqaloqni beshikka solishdan oldin aytiladi:

- Shugina jonio, bir jonio,
Bo'ynimdag'i marjonio.
Xudo berdi sevsin, deb,
Oltin beshikka kirsin, deb.

**Chaqaloqni beshikka solayotganda, ataylab
teskari yotqiziladi:**


- Bunday yotadimi?
- Yo'q! Yo'q!
- Bunday yotadimi?
- Yo'q! Yo'q!
- Bunday yotadimi?
- Ha! Ha!

**Chaqaloq beshikka to'g'ri
holatda yotqizilgach, aytiladi:**

- Qoch, qoch, babasi,
Keldi egasi.
Uxlab dam olsin,
Quvnab uyg'onsin.

Bolani beshikka belagach, isiriq tutatiladi:

Isiriq, isiriq,
Chatnasin isiriq,
Patlasin isiriq,
Bolamga ko'z tegmasin...





* * *

Isiriq dona-yu dona,
Tutunidan to'lzin xona.
Kuya qolsin hasadli ko'z,
Ko'cha qolsin g'arazli ko'z.
Ko'chsin, ko'chsin, cho'lga ketsin,
Oqsin, oqsin, ko'lga oqsin,
Bachaginam yashnab-boqsin.



* * *

Isiriq ismon dedilar,
Ming dardga darmon dedilar,
Eshikdan kelgan baloga
Isiriq — qalqon dedilar.

**Bolani beshikka har safar belayotganda
yangitdan aytildi:**



Ket, ket, babasi,
Keldi egasi.

Yoki:


Beshigi — taxta,
Orqasi — paxta.
Egasi keldi,
Kuchugi, qoch.
Ichida yotganning
Bahrini och.

**Bolani beshikdan yechib olayotganda
aytiladi:**

Taq-tuqi gavora bo'lsin,
Dushmanlari ovora bo'lsin.
Uyqusi beshikda qolsin,
Dushmanlari eshikda qolsin.

* * *

Bolam orqasi — paxta,
Bolam beshigi — taxta,
Taxtasi yumshoqqina,
Shu bolam ushshoqqina.



So'ngra uch marta:

— «O's, o's, o's», — deya o'ng qo'l bilan bola yotgan o'rinni siypalanib, orqa beli uqalanadi, keyin: «O's, o's, o's», — deya bolaning o'ng va chap qo'ltig'idan ko'tarib qo'yiladi.

“BAHOR KELIB, QISH CHIQDI”

Aytim-olqishlar

Bolaning tishi chiqqanda aytiladi:

Ikki tishingdan aylanay,
Qilgan ishingdan aylanay.
Madrasaning qubbasiday
Lo'nda boshingdan aylanay.





* * *

Ikki tishingga dur bo'lay,
Etgan ishingga qul bo'lay.
Xaloyiqning ko'zi bo'lib,
Duogo'ying o'zim bo'lay.



Bola mustaqil o'tirganida aytildi:

O'tirsin-o, o'tirsin,
Boshini guldan to'ldirsin.
Shuginani ko'rghan qizlar
Havas bilan kuldirsin!

Bola mustaqil tura boshlaganida, yura boshlaganida aytildi:

Toy-toy, bolam, toy, bolam,
Shirin erkatoy bolam,
Yumshoq sarimoy bolam,
O'zimninggina oy bolam.

* * *



Adaq-adaq yursin,
Shunga tikan kirmasin.
Ko'zi qattiq bandaning
Ko'zi shunga tegmasin.


* * *

Chopib-chopib yurganda
Chaqir shunga urmasin.
Yugurib-yugurib yurganda
Sira tikan kirmasin.

* * *

Yugursa, onasi ko'rsa,
 Yugursa, otasi ko'rsa.
 Yugurib bozorga borsa,
 Go'sht-u birinj keltirsa.
 Onasi pazanda bo'lsa,
 Bolasi xo'randa bo'lsa.

**Bolaning barmoqlarini
 birma-bir bukib, aytiladi:**



Bosh barmoq,
 Bodom barmoq,
 O'cta terak,
 Hojimirak,
 Kichkina bo'bak.

Oxirgi satr aytilayotganda
 bolaning ko'ksi qitiqlanadi.

**Bolaning qo'lchalarini chapak-chapak
 qila turib aytiladi:**

Chapak-chapak,
 Pishirdik chalpak.
 Derazaga qo'yamiz,
 Sovishini kutamiz.

* * *

Hoy-hoy, chapak-chapak,
 Chapakisi kimga kerak?
 Otajoni bozor borsa,
 Telpagi suvsari kerak.



Bola kasal bo'lganida aytildi:



Dardingni olay o'zim,
To'rvaga solay o'zim.
To'rva teshilib ketsin,
Darding to'kilib ketsin.

* * *

Darding ursin daftarga,
Uchib yurgan kaptarga,
Iyik bilan biyikka,
Sakrab yurgan kiyikka.

* * *

Sadqaman-u, sadqaman,
Shu qizchaga sadqaman,
Qirmizchaga sadqaman.
Ko'zchasi og'rib qopti,
Endi boray qayga man?

Bolani yuvintirayotgan, cho'miltirayotgan paytda aytildi:



Oymoma illa,
Qanoti tilla.
Dilshodjonning yuzini
Sovuq suvga yuvma.

* * *

Aylanayin oqchamdan,
Lablari qaymoqchamdan.
Iskasam zomichadek,
Cho'milsa gul-g'unchadek.

* * *

Suv pok, sen nopok,
 Pok suv senga bo'lsin.
 Nopokliklar bari
 Yomonlarga bo'lsin.

* * *

Suv pok, sen nopok,
 Pok suv senga bo'lsin.
 Sani nopokliging
 Ko'chadagi bobo'vlarga bo'lsin.



**Bolaga yangi kiyim kiygizayotganda
 aytildi:**

Muborak bo'lsin, kiyib o'ssin,
 Kiyib yirtmak nasib etsin.

* * *

Kiyim to'zsin,
 Bolam o'ssin.
 Yoqasi xaqli bo'lsin,
 Etagi qutli bo'lsin!



* * *

San — bir yillik,
 Man — ming yillik.
 Kiya-kiya to'zdiraylik,
 Dugonalaridan o'zdiraylik.



* * *

Yoqasi moyli bo'lsin,
Etagi loyli bo'lsin.
Mayli, bir yilda to'zsin,
O'zi-chi, ming yil kulsin.



"XUDO BERDI SEVSIN, DEB..."

Erkalamalar

* * *

Aylanaman oydan,
Suv olaman soydan.
Go'ja tuydim bug'doydan,
Shuni bergen Xudoydan!



* * *


Desam-chi, ho, desam-chi,
Chorvoqqa gul eksam-chi?
Sedanali nonini
Qaymoq bilan yesam-chi?

* * *

Onasining ko'zmunchog'i,
Otasining o'yinchog'i.
Buvisining qo'zichog'i,
Opasining qo'g'irchog'i.


* * *

Dilrabo dilim, dedilar,
 Sayroqi tilim, dedilar.
 Onajonisining quvvati –
 Shugina belim, dedilar.



* * *

Otam, otam, otam, dedim,
 Qoshginasi qalam, dedim.
 Shoshmay turing, erka o'g'lim,
 O'zim sizga salom, dedim.



* * *

Soy bo'yida sakson tosh,
 Sakson toshning siri bor.
 Sirini bilib ko'rsak,
 Shu chaqaloqning rizqi bor.

* * *

Xudo berdi sevsin, deb,
 Bekning o'g'li bo'lsin, deb.
 Bek nonini yesin, deb,
 Bek to'nini kiysin, deb.



“ONAGINANG AYLANSIN KO‘ZGINANGNING YOSHIDAN”

Ovutmachoqlar



* * *

Chaqaloq ko‘p yig‘loqi,
Yig‘loqi, deb kim aytdi?
Yig‘loqi deganlarning
O‘zlari ko‘p yig‘loqi.

* * *

Chaqalog‘im yig‘loqi,
Voy, yig‘loqi, yig‘loqi.
Yig‘loqimas, sig‘loqi,
Voy, sig‘loqi, sig‘loqi.
Bas qil, ko‘zimning oqi,
Vuy... vuy...



* * *

Inga-inga,
Yig‘ladi bola.
Qo‘lchalariga
Tutqazdim lola.

* * *

Yig‘lama, jonim, yig‘lama,
Chaqa chaqib beraman.
Qurbaqaning oyog‘iga
Popuk taqib beraman.

* * *

Bolajonim, jon bolam,
 Yig'lamagin, jonim bolam,
 To'yga onang qo'ymadimi?
 Atalasidan bermadimi?



* * *

Suv keladi boshidan,
 Hazratimning qoshidan.
 Onaginang aylansin
 Ko'zginangning yoshidan.

* * *

Qurvaqa chaqa-chanoq,
 Bu bacha muncha yig'loq?
 Yig'lama, jonim urvoq,
 Yig'lama, qoqindiq.



* * *

Shu o'g'limga ne bo'libdi?
 Ko'zlariga yosh to'libdi.
 Voy, ko'zlarining qizarmasin,
 Dudoqlaring bo'zarmasin.
 Yig'lama, bas, darding olay,
 Kissachangga kishmish solay.



O'zbek bolalar she'riyati

“OYNI OLIB BERAYMI...”



Beshik qo'shiqlari

Gulchehra JO'RAYEVA

ALLA

Oyday kulcha ro'y-yuzing,
Oyday chaqnoqi ko'zing.
Oyingning oyday qizi,
Oyday otashi — o'zing, alla-yo.



Oy intilar yuzingga,
Mushtoq emish so'zingga...
Shirin tabassumini
O'xshatibdi o'zingga, alla-yo.

Uxlasin Oyxon, qo'zim,
Oymoma, yumma ko'zing.
Hozir bolam boshida
Chiroq bo'lib tur o'zing, alla-yo.



Saida ZUNNUNOVA

ALLA

Qunduzim desam ham oz,
 Yulduzim desam ham oz.
 Dunyoda nima go'zal
 Bo'lsa, undan o'zing soz.
 Orom ol, qo'zim, alla.



Asalmisan, qandmisan,
 G'azal, muhabbatmisan?
 Muncha shirinsan o'zing,
 Jonimga payvandmisan?
 Uxla, yulduzim, alla.

Oyni olib beraymi?
 Gullar terib kelaymi?
 Atrofingda o'rgilib,
 Shamol bo'lib yelaymi?
 Uxla, gulyuzim, alla.

Oyning shu'lasi – suvda,
 Hamma narsa uyquda.
 Mehrim tovlanib ketib,
 Kuylagim kelar juda,
 Uxla, qunduzim, alla.



Zafar DIYOR

ONA QO'SHIG'I

Uxla, qo'zim, do'ndig'im,
Uxla, mana, chiqdi oy.
Seni sevib, erkalab,
Jo'r bo'ladi menga soy.
Maqtovingni kuylasam,
Yumilmaydi hech ko'zim.
Uzoq tunlar onangga
Yo'ldosh — yorug' yulduzim.
Uxla, bolam, oygınam,
Kishnab turgan toyginam...



"ATAK-CHECHAK, ATAK-CHECHAK..."

Bolalar haqida

Mahmud VALIXONOV

JIM, DILOROM UXLAYAPTI

Belanchakda Dilorom
Uxlab, olmoqda orom.
Tom boshida, hoy, xo'roz,
Qichqirmay turgin biroz.
Hovuzdag'i qurbaqa,
Qilaverma vaq-vaqa.
Olapar, vovullamay,
Qani, jo'nab qol darrov,
Moshxon, sen miyov-miyov,
Deguncha, yuzingni yuv.

G'o'ng'illab, qovog'ari,
 Yaqinlashma, tur nari.
 Belanchakda Diloram,
 Uxlasin olib orom!

Aziz ABDURAZZOQ

CHAQALOQ


Mening ukam chaqaloq,
 Juda yig'loq, baqiroq.
 Toping, nega yig'laydi?
 Buni hech kim bilmaydi.
 Ko'chaga chiqmas ukam,
 O'rtog'i yo'q bitta ham.
 U yig'laydi zerikib,
 Meni kutib, zoriqib,
 Men matabdan kelaman,
 Unga o'rtoq bo'laman.



Safar BARNOYEV

CHAQALOQ

Chaqaloq der: "Inga-inga",
 Yig'lab der: "Qarang menga.
 Qo'llarimni yechib qo'ying,
 Qo'llarim gul, ochib qo'ying.
 Shokoladni opam yesin,
 Marmaladni akam yesin.
 Urihmasin gap talashib,
 O'ynasinlar erkalashib.
 Erkalashib o'ynasalar,
 O'ynab-o'ynab to'ymasalar,
 Men ularga qo'l beraman,
 Katta bo'lsam, yo'l beraman..."



Muhammadali QO'SHMOQBOY

OYMOMA

Xalq qo'shiqlariga ergashib

Oymoma — hulla,

Qanoti — tilla.

To'zim bersin sizga,

Umr bersin bizga.



Oymoma — pilla,

Ipagi — tilla.

Toychog'imga, iloyim,

Qanot bersin Xudoyim.

Oymoma, kayvon,

O'rabsiz qo'ton.

Bobov bo'lsin gung,

Alla kelsin o'ng.

Oymoma — illo,

Illu-yu, billo.

Ertamertan tong otsin,

Quyosh chiqib uyg'otsin.

DONIYOR

Doniyor-u, Doniyor,

Uyi to'la doni bor,

Dasturxonda noni bor,

Qoshida jahoni bor.

Beshigining yo'rg'asi,

Ertangi kunning sasi.

O'rgiladi ayasi,
Shundoq pahlavoni bor.

Yerga ursang, sapchiydi,
Ko'kka chiqaman, deydi.
Ko'zida oy shab yeysi,
Dil to'la osmoni bor.

Doniyor-u, Doniyor
Talpinadi qiyqirib.
“Dad-da!..” — der tilga kirib,
Ichga sig‘mas joni bor.

Miraziz A'ZAM

MIRSODIQVOY DEDI “HM”

Uyga kelsam, Mirsodiq
Gina bilan yig‘labdi.
Ko‘zlarida yosh liq-liq,
Oyimlarni izlabdi.

Turay desa beshikdan,
Oyoq-qo‘li bog‘loqlig.
Yig‘lasa ham, eshikdan
Yo‘qdir kirib-chiqmoqlik.

Xafa ekan Mirsodiq,
Kirib keldim eshikdan.
Kir yuvarkan oyimlar,
Yechib oldim beshikdan.


“Yig‘lamasdan yotsang jim,
Xursand bo‘ladi oyim.
Tushundingmi?” — degandim,
Mirsodiqvoy dedi: “Hm”.



Hamidulla YOQUBOV

TISH CHIQDI

Bahor kelib, qish chiqdi,
Chaqaloqqa tish chiqdi.
Kichkintoy, deb o'ylamang,
Unga ham yumush chiqdi.
Ovqatini chaynashga
Har kuni bir ish chiqdi.




Zafar ISOMIDDINOV

TETAPOYA

Tetapoyang
Bo'lakcha-da.
Uka, yurgin
Yo'lakchada.
O'tirma tek,
Turgin-chi, tik.
Qoyil, yasha!
Qadam tashla.
Atak-chechak,
Atak-chechak.
Chaling qarsak,
Chaling qarsak.
Tetapoya
Qilyapti u.
Erkatoy-e,
Kulyapti-yu.
Yiqilding, o'h,
Hechqisi yo'q.
Qo'y, yig'lama,
Qiziqsan-a.
Yiqilaman,
Rost, ba'zida





Alla. O‘zbek xalq bolalar qo‘shiqlari

Hatto men ham
Boshqalatdan.
O'tirma tek,
Turgin-chi, tik.
Qoyil, yasha!
Qadam tashla.
Atak-chechak,
Atak-chechak.
Chaling qarsak,
Chaling qarsak.
Tetapoya
Qilyapti u.
Erkatoy-e,
Kulyapti-yu.



Mavluda IKROMOVA

OPAJON, QARANG

Qo'llarni o'ynataymi?
Opajon, qarang.
Chapak chalib beraymi?
Opajon, qarang.

Bir o'tirib turaymi?
Opajon, qarang.
Oyoq do'pillataymi?
Opajon, qarang.

**QO'LLAR MASHQI****Qo'l barmoqlari bukib musht qilinadi:**

Chaq-chum, chaqa-chum,
Barmoq bukilar.



Chaq-chum, chaqa chum,
Qo'llar musht bo'lar.

**Qo'llar musht holatda bir-birining ustiga urib,
bolg'acha bilan mix qoqish taqlidiy harakati ko'rsatiladi:**

To'q-to'q, bolg'acha,
Quramiz uycha.
To'q-to'q, bolg'acha,
Uchib kel, qushcha.


**Qo'llar yordamida nog'ora chalish taqlidiy
harakati ko'rsatiladi:**



Tak-tum, taka-tum,
Nega ko'p shovqin?
Tak-tum, taka-tum,
Erta uyg'ongin.

**Qo'llar yordamida surnay chalish taqlidiy
harakati ko'rsatiladi:**

Nay-nay, nana-nay,
Chaladi surnay.
Nay-nay, nana-nay,
Ovozi shunday.



**Qo'llar yordamida childirma chalish taqlidiy
harakati ko'rsatiladi:**

Bum-bak, baka-bum,
Childirma chalar.
Bum-bak, baka-bum,
Bolalar o'ynar.

“KAPALAKJON, KEL BERI...”

Jonivorlar haqida

Mahmud VALIXONOV

GUL VA ARILAR

- Nima uchun arilar
Qo'nar gul yaprog'iga?
- Ashulalar aytishar
Gullarning qulog'iga.



Olim MAHKAMOV

KAPALAK

- Kapalakjon, kel beri,
Buncha parvoz etasan?
- Meni quvma, Erkinjon,
Gulni bosib ketasan.

Quddus MUHAMMADIY

BO'TALOQ

Tuya bola — bo'taloq
Chopib otar shataloq,
Shirmoy kulcha dumaloq.
Bo'taloqjon, bo'taloq,
Hadeb otma shataloq.
Ba'zi bir yer qatqaloq,
Yerdan yema shapaloq.





Odil ABDURAHMONOV

QO'ZICHOQ


Hoy, qo'zichoq, qo'zichoq,
Doim sening vaqting chog'.
Dikir-dikir chopasan,
Barra o'tlar topasan.
Turib o'zim ertalab,
Yuvib-taray erkalab,
O'ssin deyman seni chog',
Momiq yungli qo'zichoq.



Adham KARIMOV

ULOQCHAM

Hoy, uloqcham, uloqcham,
Tez kel, shal pang quloqcham.
O't keltirdim, yeb olgin,
Tezroq semira qolgin.



Hamidulla MURODOV

O'RDAGIM

O'rdagim sevar suvni,
Suvda o'tar har kuni.
Yomg'ir yog'ganda biroq,
Qochib qolishi chatoq.



Ilk yosh davri

1 – 3 yoshgacha



O'zbek xalq og'zaki ijodi

“ULG‘AYIB O‘S, SUBH-U SHOM, ALLA...”

Beshik qo'shiqlari

* * *



Men seni alla qilay, alla,
Ko'tarib katta qilay, alla.
Alla — jonning rohati, alla,
Uyqu — ko'zning quvvati, alla.
O'rik yog'och — beshiging, alla,
O'rgilib ketsin onang, alla.
Tut yog'ochdan beshiging, alla,
Termulib o'tsin onang, alla.
Alladan olgin orom, alla,
Ulg‘ayib o‘s subh-u shom, alla.
Yaxshilik bilan mudom, alla,
Dunyoda tarqatgil nom, alla.
El sevarim, alla,
Bo'l chevarim, alla!

* * *



Gulim-a, ona gulim,
Bog'imda bulbulimsan.
Besh inimning ichinda
Yolg‘izgina singlimsan,
Alla-yo, alla.
Otasining serkasi
Uxlab qolsin, alla-yo.
Onasining erkasi
Bo'lsin inson sarasi,
Alla-yo, alla.

* * *

Alla mening bir gulim-o,
 Gulga qo'ngan bulbulim-o,
 Alla-yo, alla.
 Alla aytarman o'zingga-yo,
 Uyqular kelsin ko'zingga-yo,
 Alla-yo, alla.
 Alla jonim, otingdan-ey,
 Nur yog'ilsin murtingdan-ey,
 Alla-yo, alla.
 Alla jonim, orom ol-ey,
 Ko'zing yumib, uxbab qol-ey,
 Alla-yo, alla.
 Alla seni yalqasin-o,
 Panohida saqlasin-o,
 Alla-yo, alla.
 Qaynoq qonim san mani-ey,
 Otam-onam san mani-ey,
 Alla-yo, alla.

* * *

Alla, qo'zim, alla,
 Qo'zichog'im, alla.
 Qo'zichog'im qo'y bo'lsin-ey, alla,
 Qo'ylar to'yga buyursin-ey, alla.
 Alla, bolam, alla-yo,
 Alla, qo'zim, alla,
 Qo'zichog'im, alla.
 Yo'rg'ala, toy, ot mindiray, alla,
 Sen bilan ishqim tindiray, alla.
 Alla, bolam, alla-yo,
 Alla, qo'zim, alla,
 Qo'zichog'im, alla.
 To'ylaringga qo'y so'yayin, alla,





Qo'y emas, qo'chqor so'yayin, alla,
Alla, bolam, alla-yo.

* * *



Past-pastgina tepadan
Toydim-tushdim-o, alla.
Qo'limga qaychi olib-o,
Senga, qo'zichog'im-o,
Chopon bichdim-o, alla,
Jonim bolam-o, alla.
Yenglari tor kelmasin deb,
Qo'lingga qarab-o, alla.
Chopon bichgan qo'limni-yo
Oyi bordir-o, alla.
Mening toylog'im-o, alla,
Jonim bolam-o, alla.

* * *



Alla, bolam, alla-yo,
Tog' yuraklim, alla-yo,
Xolis tilaklim, alla-yo.
Alla, bolam, alla-yo,
Qo'riqlovchi onang bor.
Allalovchi momong bor,
Shukronalar, bobong bor.
Alla, bolam, alla-yo,
Erka bolam, alla-yo.
Onasi panohida
Serka bolam, alla-yo.
Alla, bolam, alla-yo,
Umrlik bo'lsin, alla-yo.
Sharofatli zamonda
Iqboli kulsin, alla-yo.

* * *

Alla, bolam, allasi,
 Qamishdandir qal'asi.
 Qamish boshi qayrilsa,
 Javlon urar onasi.
 Alla, alla, oppog'im,
 Gullar ichra yaprog'im.
 Qizil gulni(ng) butog'i,
 Onasining adog'i.
 Alla, alla, to'xtasin,
 Qizil gulim so'lmasin.
 Dushmanlarim kulmasin,
 Shugina o'g'lim o'lmasin.
 Alla, alla, darmonim,
 Qizil gulim, xirmonim.
 Alla qilsin shu jonim,
 Jonimning shu darmoni,
 Alla, alla, oppog'im.

* * *

Alla qilsin, alla,
 Shirin so'zim, alla.
 Ikki ko'zim, alla,
 Quluntoyim, alla.

Darding dalaga, alla,
 Qator tuyaga, alla.
 Tuya yiqlisin, alla,
 Darding to'kilsin, alla.

Alla, alla, alla-yo,
 Jonim bolam, alla-yo,
 Ko'zim nuri, alla,
 Dilim huzuri, alla.





Alla, qulunim, alla,
Mangu o'lanim, alla.
Quluntoyginam, alla,
Kenjatoyginam, alla.

Do'ndig'im, jonim, alla,
Bir qoshiq qonim, alla.
Mehri bahorim, alla,
Kenja shunqorim, alla.

“OPPOQ, OPPOQ, OPPOG‘IM...”

Erkalamalar

* * *

Gulijon o'zi-o'zi,
Do'ppisi yo'rma do'zi.
Yo'rma do'zi yarashgan,
Buvisiga qarashgan.

* * *

Gulijon o'zi chaqqon,
Qoqi gulini taqqan.
Bir kulishi bor uchun
Oyijonisiga yoqqan.

* * *

Hamma gulni gul desam,
Qizil gulga o'xshamas.
Hamma qizni qiz desam,
Ra'noxonga o'xshamas.

* * *

Oppoq, oppoq, oppog'im,
 Qo'zi yungi — qalpog'im.
 Hamma yomon deganda,
 O'zginamning oppog'im.

* * *

Mening o'g'lim otlanadur,
 Qushlari qanotlanadur.
 Oq yuzlari so'lmasin,
 Havolar bulutlanadur.

* * *

Mening o'g'lim o'lmasin,
 Bog'ning guli so'lmasin.
 Bog'ning guli so'lgandayam,
 Mening o'g'lim o'lmasin.

* * *

Mani qizim oppoqqina,
 Boshida zar qalpoqqina.
 Kimlar shuni ko'rolmasa,
 Ko'ziga sho'r tuproqqina.

* * *

Xayrjonim — nahori,
 Bug'doy eksin bahori.
 Chumchuq yesin donini,
 Duo qilsin jonini.

* * *

Yulduzim, qunduzim,
Ko'rар ko'zlarim.
Hayotim davomi,
Qolar so'zlarim.

* * *

Suv keladi g'ozi bilan,
Tilda quvnoq sozi bilan.
O'g'lim ovga ketadi
Asil ovchi – tozi bilan.



* * *

Suv keladi Maridan,
Maridanmas, naridan.
Mening qizim chiroyli
Maridagi paridan.

* * *

Simtepada bir qush bor,
Qanotida kumush bor.
O'ynab turgan ukamning
Kulishida bir ish bor.

* * *

Aylanayin oyimdan,
Kishnoqi shu toyimdan.
Baxtginamning ko'kida
Porlog'i shu oyimdan.

* * *

Oymomo ko'chay, deydi,
 Oq uyni tutay, deydi.
 Oq uyning kanorasi,
 Ming tillo sadog'asi.

* * *

Oymomoxon – hulla,
 Qanotlari – tilla.
 Subhonollo sizga,
 Umr bersin bizga.

* * *

Osmondagi oylarni
 Oyna bilan to'xtatdim.
 Yaxshi kiygan yigitlarni
 Shu o'g'limga o'xshatdim.

* * *

Akbarjonim otlidir,
 Sallasi gul xatlidir.
 Ulug'lar nazar solsa,
 Qo'li barakatlidir.

* * *

Akbarjonim shu joyi,
 Bordir xolli toyi.
 Kokillari tilloyi,
 O'zim aylanay, iloyi.



* * *

To'lagan, To'lagan,
Yog‘ bilan silagan,
Ip bilan ulagan,
Oying aylansin-o,
Jon-jahonim To'lagan.

* * *

Qoramug‘ning donasiday
Ko‘zidan aylanay shuni(ng).
Kamon-yoyning qilichiday
Qoshidan aylanay shuni(ng).

* * *

Feruzaxon — oy qiz,
Kulgiga ko‘p boy qiz.
Kulcha yuzi shirmoy qiz,
Jo‘shqinligi sho‘x soy qiz.

* * *

Qizim, qizim, qizim-a,
Qizim kelsin o‘zima.
Uzumini osib yey,
Mayizini bosib yey.

* * *

Qizim, qizim xamir qorsin,
Qizim, qizim bozor borsin.
Buvisiga mayiz keltirsin,
Buvasi xizmatida tursin.

* * *

Sher bo'ladi o'g'limiz,
 Er bo'ladi o'g'limiz.
 Ko'p bo'ladi o'g'limiz,
 Xo'p bo'ladi o'g'limiz.
 Dehqon bo'lsin o'g'limiz,
 Polvon bo'lsin o'g'limiz.

Bolaning yuzini yuvish paytida aytildi:

Huvva-huv,
 Ariqda suv,
 Betingni yuv!
 Huvva-huv,
 Mushuk narvonda,
 Tovuq ayvonda.

* * *

Huvva-huv,
 Betingni yuv!
 Beshiktervatti
 Tervatib ketdi.
 Huvva-huv,
 Betingni yuv!

* * *

Oq kaptarim non yeydi,
 Ko'k kaptarim don yeydi.
 Kimning esi yo'q bo'lsa,
 Qo'lini yuvmay non yeydi.





“YIG‘LAMA-YEY, YIG‘LAMA...”

Ovutmachoqlar

* * *

Voy-voy, jonim, shu jonim,
Bo'ynimdag'i marjonim.
Nima bo'ldi o'zingga,
Yosh olibsan ko'zingga?
Sadqai yoshing ketsin,
Og'ir-og'ir damlarda
Doim bardoshing yetsin.

* * *

Ho... ho... nima bo'ldi?
O'pkaginang to'ldimi?
Hech kim senga qaramadimi?
Sochlaringni taramadimi?
Sochlaringni tarayman o'zim,
Sadqangman o'zim,
Sadqangman o'zim!



* * *

Yig‘lama-yey, yig‘lama,
Ilik chaqib beraman.
Qurvaqaning oyog‘iga
Munchoq taqib beraman.
Qurvaqa tuyaga mindi,
Tuya qulog‘im, dedi.
Bolajonim battar yig‘lab,
Unga qalpog‘im, dedi.
Yig‘lama-yey, yig‘lama.

* * *

Vuy-vuy, shuginani kim urdi?
 Vuy-vuy, shunga kim lab burdi?
 Yig'lama, oppoqqinam,
 Boshimdagi qalpoqqinam!

* * *

Yig'ilaring bor bo'lsin-ey,
 Shu o'g'lim shunqor bo'lsin-ey.
 Yaxshi-yomon kunlarda
 Bardoshli bola bo'lsin-ey.

* * *

Qo'y, yig'lama, jon o'g'lim,
 Oppog'im, bag'ri to'g'lim.
 O'g'il bola yig'lamas,
 Jigar-bag'rin tig'lamas.
 O'g'il bola yig'lasa,
 Uvol bo'ladi, o'g'lim,
 Jigar-bag'rin tig'lasa,
 Dushman kuladi, o'g'lim.




"BOYCHECHAGIM HILLOLIK..."

Mavsum qo'shiqlari

* * *

Boychechagim hillolik,
 Hamyon-hamyon tillolik.
 Hamma bozor — bir bozor,
 Tevarak-cheti lolazor.



* * *

Chaman-chaman ochilar
Bahor chog'i gullola.
Gulni yaxshi ko'radi
Katta-kichik — har bola.



* * *

Chitti gul-o, chitti gul,
Hay-yu, chitti gul.
Chitti gulga gul bosay,
Bir yoniga yon bosay.
Hay-yu, chitti gul,
Hay-yu, chitti gul!

Qo'ling qo'lvog'da bo'lsin,
Beling belbog'da bo'lsin.
Hay-yu, chitti gul,
Hay-yu, chitti gul!

Dukur-dukur ot keldi,
Chiqib qarang, kim keldi?
Hay-yu, chitti gul,
Hay-yu, chitti gul!



Aravada un keldi,
Childirmada gul keldi.
Hay-yu, chitti gul,
Hay-yu, chitti gul!

* * *

Laylak kelib soz bo'ldi,
Biz tomonda yoz bo'ldi,
La-la, lalalay!

Hoy, bolalar, tegmanglar,
Laylakjonlar ketmasin,
La-la, lalalay!

Ketib qolsa Laylakjon,
Xafa bo'lar bolajon,
La-la, lalalay!

* * *

Voy, gala, voy, gala, voy, ketdi,
Donlarni chumchuq yeb ketdi!
Kelmay-ketsin, sur chumchuq
Yana kelaman, deb ketdi!




“QUYONIM, QUYONIM...”

Aytishma o'yinlar

* * *

Quyonim, quyonim,
Nega buncha yig'laysan?
O'rningdan turib ko'r-chi,
Yuz-qo'ling yuvib ko'r-chi.
Oynaga qara-chi,
Sochingni tara-chi.
Bitta o'ynab ber,
Bitta o'ynab ber.



* * *

Sichqon-mushuk o'ynaymiz
Qo'limizni ushlashib.
Sichqon bo'lsa, yo'l bering –
Mushukvoydan qutulsin.



* * *

- Qayerga bordingiz?
- Bobomlar to'yiga.
- Nima yedingiz?
- Osh-palov.
- Menga qani?
- Mushuk yedi.
- Mushuk qani?
- Mushuk yo'q.

* * *

— Umidaxon — oy,
O'ng qo'lida choy.
Chap qo'lida non,
Voy,
Lablarida loy!

— Ozodaxon — oy,
O'ng qo'lida choy,
Chap qo'lida qand,
Hoy,
Lablarida moy!

* * *

- Adajon, hormang,
Ishga bormang.
Mani ko'taring,
Oh olib bering.
- Qanaqasidan?
- Mana shunaqasidan.
(Bosh barmoq ko'rsatiladi).

O'zbek xalq ertaklari

FIL BILAN XO'ROZ

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, dakan Xo'roz bilan Fil bo'lgan ekan. Kunlardan bir kun dakan Xo'roz Filning oldiga kelib, qattiq qichqiribdi:

— Qu-qu-qu-quv!

Fil hayron bo'lib: "Muncha chiranadi bu", — deb o'ylabdi. Xo'roz hamma-yoqni titib, cho'qib, don terib yeyaveribdi. Yana:

— Qu-qu-qu, quv-v-v! — deb qichqiraveribdi.

Uning ovozini eshitib: "Bir boplay buni", deb o'ylabdi Fil va unga qarab shunday debdi:

— Kim ko'p ovqat yeydi, senmi yo menmi?

Xo'roz:

— Men ko'p yeyman! — debdi chiranib.

Ular "kim ko'p ovqat yer ekan", deb garov bog'lashibdi.

Fil juda ko'p ovqat yebdi, keyin to'yib uyquga ketibdi. Uyg'onib qarasa, xo'roz hali ham donlab yurgan emish. Fil yana ovqat yeya boshlabdi. Ovqatni yeb bo'lib, yana uyquga ketibdi.

Bir vaqt uyg'onib qarasa, kech bo'lib qolibdi. Xo'roz bo'lsa hali ham donlab yurgan emish.

Don terib yeb, tez-tez:

— Qu-qu-qu! — dermish Xo'roz.

— Yeb to'ymas ekan-ku! — debdi Fil hayron bo'lib. — Bunaqa jonivorni sira ko'rghan emasman.

Xo'roz garovda yutgach, o'zicha: "Filning ustiga chiqib, bir tomosha qilay", deb o'ylabdi.

U pirr etib uchib, Filning ustiga chiqibdi. Filning jon-poni chiqib ketibdi:

— Voy-dod! Meni yeb qo'yadi! — deb qichqiribdi-da, shu qochganicha o'rmonga kirib ketibdi.



Xo'roz bo'lsa uning orqasidan qarab, qanotlarini tapillatib:
 — Qu-qu-quv! Men zo'rman! — deb qichqiribdi.

QIZG'ANCHIQ IT

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir it bor ekan. U juda ochko'z ekan. Bir kuni shu it sheriklari bilan talashib, kattakon bir suyakni olib qochibdi. U suv ustidagi yakka cho'pdan o'tayotsa, suvda bir it og'zida katta suyak tishlab, ko'zlarini olaytirib itga tikilib tur-gan emish. It: "Ir-r, ir-r-r", — deb tishini irjaytirgan ekan, suv ichidagi it ham tishini irjaytiribdi.



Qizg'anчиq it uning og'zidagi suyakni ham tortib olmoqchi bo'libdi va "Xap!" — deb itga tashlanibdi. "Xap" deyishi bilan og'zidagi suyak o'zidan oldinoq "cho'lп" etib suvga tushib ketibdi. Qizg'anчиq it rosa shalabbo bo'lib, suyagidan ajralib, suvdan chiqibdi.

IKKI ECHKI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonlarda ikki qaysar echki bo'lgan ekan.

Kunlardan bir kuni ikkalasi anhor ustidagi yakka cho'p ko'prik ustida uchrashib qolishibdi.

Ikkisidan biri yo'l berishi kerak ekan.

— Yo'l ber! — debdi biri.

— Sen yo'l ber! — debdi ikkinchisi.

— Seni deb orqamga qaytamanmi? — debdi birinchisi.

— Bo'lmasa, seni deb men orqamga qaytamanmi? — debdi ikkinchisi.

Shunday qilib, ikkalasi achchig'lashib suzishib ketibdi.

Keyin birinchi echki uch qadam, ikkinchi echki uch qadam orqaga qaytib, birdan bir-birlariga hamla qilishibdi. Shoxlari shoxlariga tegib, chaqmoq chaqqandek bo'libdi. "Qars!" etgan ovoz dalani tutibdi.

Ikkala qaysar echki yumaloq-yostiq bo'lib anhorga ag'darilib ketibdi.

FAROSATSIZ ESHAK

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir eshak bo'lgan ekan. U o'zini juda aqlli deb bilar ekan. Kunlardan bir kun u bir bog'ga kiribdi. Qarasa, daraxtlarda mevalar, polizda qovun-tarvuz-u qovoqlar pishib yotgan emish.

Eshak daraxtlardagi mevalarga, polizdagi qovoqlarga qarab, diqqat bo'libdi. Shal pang quloqlarini qimirlatib:

— Xudoyim-ku hamma narsani bilib yaratgan-a, lekin ko'p narsalar borki, ularni boshqacharoq qilib yaratish kerak edi-da, — debdi.

Daraxt shoxida o'tirgan chumchuq eshakdan:

— Qani, ayt-chi, senga bularning nimasi yoqmadi? — deb so'rabdi.

— Ko'rmaysanmi? — debdi eshak, olma-qovoqlarga imo qilib. — Shunday katta daraxtlarning solgan mevasini qara, bolalarning mushtumidan ham kichkina. Endi anovi qovoqlarni ko'r, kallamday keladi, nozik palaklarda ilinib turibdi...

— Hamma hikmat shunda-da, — debdi chumchuq.

— Bunda hikmat nima qiladi? — debdi eshak. —

Olmalar qovoqdek, qovoqlar olmadek bo'lsa, tuzuk bo'lardi.

Shunday deb, eshak olma daraxtiga surkangan ekan, bitta olma uzilib, "taq" etib boshiga tushibdi.

Shunda eshak: — Voy, boshim yorilayozdi!.. — debdi.

Chumchuq kulib:

— Yaxshiyamki, olma qovoqdek emas, bo'lmasa miyangning qatig'ini chiqarib yuborardi, — debdi.

— Rost aytding, og'ayni! — debdi eshak va olma daraxti tagidan nari ketibdi.



MAQTANCHOQ QUYON

Kunlardan bir kun maqtanchoq ola quyon sheriklariga:
 — Bo'ridan qo'rqlmayman, tulkini bir puflab osmonga uchirib yuboramani, — deb chiranibdi.

Hamma uning mardligiga qoyil qolib, yoqa ushlab turganida, bordan bo'ri kelib qolibdi.

— Xap, — deb quyonlarga tashlanibdi u.

Ola quyon hammadan oldin o'zini eshikka uribdi. Bo'ri uning yo'lini to'sibdi. Shu onda quyon o'lar-tirilariga qaramay bir sakragan ekan, bo'rining boshiga chiqib qolibdi. Buni tum-taraqay ochayotgan quyonlarning hammasi ko'ribdi. Bo'ri esa, ola quyonni irg'itib yuboribdi. Ola quyon zo'rg'a qutulib, bir necha vaqt nafasini rostlolmay changalzorda yotibdi.



U kech kirganda uyga kirib boribdi.

— Xayriyat, omon ekansan. Bo'rige yem bo'lgsan deb o'ylagan edik, — deyishibdi quyonlar.

— Be-e, — debdi ola quyon sir boy bermay va maqtanib ketibdi:

— Yem bo'lib bo'bman! Boshiga chiqib bir tepdim, til tortmay o'lib qoldi! Terisini shilib oldim.

Ola quyon o'rtaga chiqib, bo'rining terisini qanday shilganini maqtanib so'zlab ketibdi.

— Rahmat senga, ola quyon, bo'ridan qutulibmiz, — debdi quyonlar.
 — Ha, butunlay qutuldinglar, — debdi kerilib ola quyon va bo'ri poylab turmaganmikan deb, xavotirlanib atrofga qarab qo'yibdi.

U maqtanchoq, lekin juda qo'rkoq ekan.

Jahon xalqlari ertaklari

SHOLG‘OM

Rus xalq ertagi

Бобо sholg‘om ekibdi. — Sholg‘om, sholg‘om, qanddek bo‘lib o‘s, sholg‘om, sholg‘om, katta bo‘lib o‘s, — debdi.

Sholg‘om qanddek shirin, kattakon bo‘lib o‘sibdi.

Bobo sholg‘omni yerdan tortib olgani boribdi: tortib-tortib ko‘ribdi, lekin tortib chiqara olmabdi.

Bobo buvini chaqiribdi:

Buvi boboni,

Bobo sholg‘omni

tortib-tortib ko‘rishiбdi, lekin tortib chiqarisha olmabdi.

Buvi nabirasini chaqiribdi:

Nabira buvini,

Buvi boboni,

Bobo sholg‘omni

tortishibdi-tortishibdi, lekin tortib chiqarisha olmabdi. Nabirasi kuchugini chaqiribdi:

Kuchuk nabirani,

Nabira buvini,

Buvi boboni,

Bobo sholg‘omni

tortishibdi-tortishibdi, lekin tortib chiqarisha olmabdi. Kuchuk mushukni chaqiribdi:


Mushuk kuchukni,

Kuchuk nabirani,

Nabira buvini,

Buvi boboni,

Bobo sholg‘omni



tortishibdi-tortishibdi, lekin tortib chiqarisha olmabdi. Mushuk sichqonni chaqiribdi.

Sichqon mushukni,
Mushuk kuchukni,
Kuchuk nabirani,
Nabira buvini,
Buvi boboni,
Bobo sholg'omni

tortishibdi-tortishibdi, oxiri tortib chiqarib olishibdi.

QUYONNING ACHCHIQ KO'Z YOSHLARI

Buryat xalq ertagi

Kunlardan bir kun Qor Quyonga qarab shunday debdi:
 — Bilasanmi, negadir, boshim og'riyapti.
 — Aftidan, sen eriyotgan bo'lsang kerak, shuning uchun ham boshing og'riyapti, — debdi unga achinib Quyon. So'ngra to'nkaza o'tiribdi-da, achchiq-alam bilan yig'lab yuboribdi.



— Achinaman, senga nihoyatda achinaman, Qorjon... Axir, shu paytgacha meni panohingda asrab kelding. Tulkidan, bo'ridan, ovchidan berkinish uchun senga ko'milib olardim. Oh, endi qanday yashayman? Duch kelgan birinchi qarg'a, birinchi boyo'g'li meni ko'rishi bilan cho'qib tashlaydi-ku! Hozir o'rmon xo'jayining oldiga borib iltimos qilaman, azizim Qor, seni men uchun saqlab qolsin.

Quyosh borgan sari balandroqqa ko'tarilib, shiddat bilan qizdirar, qorlar erib, tog'dan jilg'a bo'lib oqardi. Bu holdan yuragi siqilgan Quyon yanada qattiqroq yig'labdi. Quyonning ovozini o'rmon xo'jayini eshitib qolibdi. Uning iltimosini diqqat bilan tinglabdi va shunday debdi:

— Quyosh bilan janjallashish niyatim yo'q. Qorni ham saqlab qololmayman.

Lekin senga yordam beraman. Oppoq po'stiningni kulranglisiga almashtiramiz. Shunday qilsak, yozda ham quruq butalar, barglar, o'tlar orasiga berkinib olasan va seni hech kim payqamaydi.

Quyon juda xursand bo'lib ketibdi.

O'shandan beri u hamma vaqt qishki oppoq po'stinchasini yozgi — kul ranglisiga almashtirar ekan.


SICHQON VA CHUMCHUQ

Udmurt xalq ertagi

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, Sichqon bilan Chumchuq bo'lgan ekan. Ular juda inoq va ahil yashar ekanlar. Har qanday ishni o'ylashib, maslahatlashib, kelishib bajarishar ekan.

Kunlardan bir kun Sichqon bilan Chumchuq yo'ldan uch dona javdari bug'doyning donini topib olishibdi. Ikkalasi "Bu donlarni nima qilsak ekan?"— deb uzoq o'ylashibdi. Keyin o'zaro maslahatlashib, donlarni dalaga ekib qo'yishga ahd qilishibdi.

Sichqon yer haydabdi, Chumchuq esa haydalgan yerni tekislab chiqibdi. Hosil mo'l bo'libdi. Do'stlar yana ishga kirishibdilar. Sichqon o'tkir tishlari





bilan bug‘doyni o‘ribdi. Chumchuq esa qanotlarini chaqqon, tez-tez silkitib, ularni yanchibdi. Shu tariqa ikki do‘sit bug‘doylarning bir donasini ham qoldirmay, hammasini yig‘ib olishibdi. Endi navbat yig‘ilgan hosilni teppa-teng, ikkiga bo‘lishga kelibdi. Ular bu ishning oson yo‘lini topishibdi: bitta bug‘doy doni – Sichqonga, bitta bug‘doy doni – Chumchuqqa, bir dona – Sichqonga, bir dona – Chumchuqqa... Bo‘lishibdi, bo‘lishibdi va oxirida birl dona bug‘doy ortib qolibdi.

Sichqon birinchi bo‘lib shunday debdi:

— Bu dona meniki bo‘ladi. Chunki men yer haydayotganimda burnim va panjalarim qonab ketguncha mehnat qilganman.

Chumchuq unga mutlaqo qo‘shilmabdi:

— Yo‘q, bu dona meniki bo‘ladi. Chunki o‘zing yaxshi bilasan, men yer tekislayotganimda qanotlarim qayrilib, qonab ketguncha ishlaganman.

Ular uzoq tortishibdi. Keyin Chumchuq birdan ortiqcha donni cho‘qib olibdi-yu, “pir” etib uchib ketibdi. U o‘zicha mag‘rurlanib o‘ylabdi: “Qani, Sichqonboy menga yetib, donimni olib ko‘rsin-chi!..”

Sichqon Chumchuqning ortidan quvlamabdi. Tortishuvni birinchi bo‘lib boshlagani uchun o‘zidan rosa xafa bo‘libdi. Keyin o‘z ulushini uyasiga tashibdi. “Chumchuq qaytsa yarashardik”, deb do‘sini rosa kutibdi. Lekin, afsus, Chumchuq qaytib kelmabdi. Shundan so‘ng Sichqon Chumchuqning bug‘doylarini ham o‘z omboriga olib kirib, yaxshilab joylashtirib qo‘yibdi. Shunday qilib, Sichqon qishi bilan qiyalmay, to‘q hayot kechiribdi.

Chumchuq esa qishni juda qiynalib,sovuoqda qaltirab, och-nahor o‘tkazibdi.

TULKI BILAN CHUMOLI

Qirg‘iz xalq ertagi

Julki bilan Chumoli do‘sit bo‘lib bug‘doy sepishibdi. Ayyor Tulki har kuni qornim og‘riyapti, boshim zirqirayapti degan bahona bilan dalaga chiqmasdan qimizxo‘rlikka ketaveribdi. Chumolining bir o‘zi ertadan-kechgacha ishlab suv quyar, o‘toq qilar ekan.

Nihoyat, bug‘doy pishibdi.

Tulki xirmonning bug‘doyga to‘lib ketganini ko‘rib, Chumolini aldab, hosilning barini o‘zi olmoqchi bo‘libdi.

— Chumoli do‘stim, shuncha bug‘doyni taqsimlab o‘tirishning nima keragi bor? Kel, yaxshisi, quvlashmachoq o‘ynaymiz. Xirmonga kim birinchi bo‘lib yetib kelsa, hamma hosil o‘shaniki bo‘lsin, — debdi.

Chumoli biroz o‘ylanib, nihoyat, rozi bo‘libdi.
Yonma-yon turishibdi.

— Qani, bo‘lmasa boshladik! — deya Tulki qichqiribdi-da, xirmon tomon yugurib ketibdi. Lekin chumoli ham bo‘sh kelmabdi. U Tulkining dumiga yopishib olibdi.

Tulki xirmon oldiga yetib kelibdi-da, silkinibdi. Shunda Chumoli sirg‘alib tushibdi-da, bug‘doy ustiga chiqib olib, o‘sha yerdan gap boshlabdi:

— Hoy, Tulki, namuncha imillamasang?
Tulki sarosimaga tushib qolibdi:
— Qachon kela qolding?
— Allaqachon! Men dam olishga ham ulgurdim,
sen bo‘lsang, hali ham hansirab turibsan.

Shunday qilib Tulki yengilib, boshqa hiyla o‘ylab topolmay jo‘nab qolibdi.

Chumoli barcha hosilni omborga tashib olib, qishda uni bir chekkadan yeb yotaveribdi. Dangasa Tulki bo‘lsa butun qish och qolibdi.



OCHKO‘Z QUSHCHA

Tay xalq ertagi

Bir zamonlarda jarangdor ovozli kichkina qushcha bo‘lgan ekan. Uning nomi “Bu – meniki” ekan, chunki u har safar qir-adir va daryolardan uchib o‘tayotib:

— Bu – meniki, bu – meniki! — deya chirqillarkan.

Bir kuni qushcha osmonda uchib borayotib mevasi g‘arq pishib yotgan bir daraxtga ko‘zi tushibdi. Daraxtning mevasi shunchalik ko‘p ekanki, qushcha ularni bir yilda ham yeb bitira olmasligi aniq ekan. Buning ustiga, daraxtning yon-atrofida birorta ham qush zoti ko‘rinmas ekan.

Qushcha o‘zining bunday topilmasidan behad xursand bo‘lib, asta daraxt shoxiga kelib qo‘nibdi. U shoxdan-shoxga sakrab, mevalarni cho‘qib yeya boshlabdi va tez orada qorni to‘yib qolibdi. Biroq u bu daraxtni boshqa qushlar ham

topib olib, uning mazali mevalarini yeb tugatishidan juda xavotirlanibdi. Qushcha qo‘rquvga chiday olmay, ovozining boricha:

— Bu — meniki, bu — meniki, bu — meniki! — deb chirqillabdi.

Qushcha shunchalik qattiq chirqillabdi-ki, uning ovozini tevarak-atrofdagi qushlarning hammasi eshitibdi. Ular biror hodisa yuz bermadimikin, degan xayolda zum o‘tmay o‘sha yerga uchib kelishibdi. Qushlar bu yerda ajoyib, mazali mevalar g‘arq pishib yotganini ko‘rishibdi-yu, yopirilib o‘zlarini mevalarga urishibdi. Bir-pasda hamma mevalarni cho‘qilab yeb tugatishibdi-yu, yana qaytib uchib ketishibdi.

Mittigina ochko‘z qushcha shi p-shiydam bo‘lgan daraxt atrofida chir aylanganicha:

— Bu — meniki! Bu — meniki! — deb chirqillab qolaveribdi. Aytishlaricha, mitti qushcha daraxt atrofida hozir ham aylanib uchib yurganmish.



O'zbek bolalar adabiy ertaklari

Mahmud MURODOV

VELOSIPED HAYDAGAN QO'G'IRCHOQ

Bir kuni Nazira degan qiz bog'chasi bormabdi. Bog'chaga kelgan bolalar shkafdan o'yinchoqlarini olib, o'ynay boshlashibdi. Naziraning qo'g'irchoq'i yolg'iz qolibdi. U egasini uzoq kutibdi, lekin Naziradan darak bo'lmasdi. Oxiri qo'g'irchoqqa alam qilibdi-da, shkafchadan sakrab tushib, ko'chaga yo'l olibdi. Yo'lakda Rustamning uch g'ildirakli velosipedi turgan ekan, qo'g'irchoq unga minib, Naziraning uyiga jo'nabdi.

Yo'lida qizil chiroq yonganda to'xtabdi. Yashil yongan-da o'tibdi, xullas, ko'cha qoidasini buzmabdi. Lekin juda tez yurishga harakat qilibdi. Uni ko'rgan tramvay, trolleybus haydovchilari, hatto uchib ketayotgan qushlar ham hayron bo'lib qolishibdi. Barbos degan kuchuk esa shuncha yugursa ham, orqada qolib ketibdi.

Nihoyat velosiped Naziraning uyiga yetib kelibdi. Eshikdan otlib kiribdi. Nazira uyda mushukchasini o'ynab o'tirgan ekan, qo'g'irchoq uni so'roqqa tutibdi:

— Nega bog'chaga bormading? Men zerikib qoldim.
Hozir oldimga tush, olib ketaman, — debdi.

— Bormayman, bormayman, — debdi Nazira.

— Bormaganingga qo'ymaymiz. Biz ham ovora bo'lib keldik, — deyishibdi derazadan uchib kirgan sochiq, tarrelka va qoshiqvoylar. Keyin ko'pchilik bo'lib Naziraga yalina boshlashibdi.

— Bo'ldi, bo'ldi, boraman, — deb Nazira o'z ovozidan uyg'onib ketibdi. Keyin shoshilib o'rnidan turib yuvinibdi, kiyinibdi. Sochlarni tarab, opasi bilan bog'chaga jo'nabdi. Eshikdan kiribdi-yu, shkafda jilmayib turgan qorako'z,



jingalak soch qo'g'irchog'ining oldiga chopqillab boribdi, uni qo'liga olib erkalatibdi:

— Sen zerikib qoldingmi? Endi bog'chaga sira-sira kech qolmayman, xafa bo'lma, — deb qo'g'irchog'ini bag'rige bosibdi.

To'lqin ILHOMOV

O'Z O'RNI BOR

Bog'bon bog'da ochilgan atirgulni ko'rib xursand bo'lib ketibdi:

— Muncha ham chiroyli bo'lmasang...

Buni ko'rib anjir o'ksinibdi:

— Mening gulim g'unchamning o'zida yetiladi. Uni hech kim ko'rolmaydi. Bog'bon esa unga qarab:



— Har narsaning o'z o'rni, vaqtি-soati bor, — debdi.

Kunlar o'tibdi. Anjir mevalari g'arq pishganda, bog'bon ularni savatga solibdi:

— Muncha asal bo'lib ketmasang...

Endi terak o'ksinibdi: — Mening na gulim bor, na mevam...

Bog'bon unga:

— Har narsaning o'z o'rni, vaqtি-soati

bor, — debdi.

Ko'p o'tmay bog'bon bog' o'rtasiga shiypon solishga ahd qilibdi.

Keyin terak yoniga kelibdi.

— To'g'ri o'sganing uchun rahmat. Juda ustunbop bo'libsan, — debdi.

Zamira IBROHIMOVA

SUV VA DARAXT

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonlarda bir Daraxt va Buloq bo'lgan ekan.

Ular yonma-yon yashar ekanlar. Buloq endigina ko'z ochgan, sho'x-sho'x qaynab chiqayotgan suvlari kichkinagina ariq hosil qilgan ekan. Nihol esa nozikkina, sal shamol tursa, butun tanasi chayqalib-chayqalib ketarkan...



Oradan kunlar, oylar, yillar o'tibdi, Buloq suvi katta ariqni to'ldirib oqa boshlabdi. Nihol ham ko'kka bo'y cho'zib, sarvqomat daraxtga aylanibdi. Bu yerdan o'tgan yo'lovchilar Daraxtning soyasida dam olib, Buloqning tiniq suvidan ichar ekan. Ketayotganlarida esa:

— Zap qomatdor daraxt bo'libdi-da, — deb maqtal ketisharkan.

Bu gaplardan Daraxtning dimog'i ko'tarila boshlabdi. U hatto Buloqni men-simay qo'yibdi.

— Agar bu yerda men gurkirab turmaganimda, yoningda kim ham to'xtardi? Na soyang bor, na husning! — debdi Daraxt Buloqqa.

Buloq xafa bo'lib ketibdi-yu, lekin indolmab-di.

Kunlardan bir kuni:


— Men bormanki, hayot bor! — deb qolibdi yana Daraxt.

Buloq ortiq chidolmapti va o'z oqimini o'zgartirib yuboribdi. Shundan so'ng Daraxt il-dizlariga bir tomchi ham suv kelmay qo'yibdi.

Daraxt buni ancha vaqtgacha sezmay, mag'-rur turaveribdi. Ammo ko'p o'tmay qandaydir o'zgarish bo'layotganini, a'zoi badani bo'g'ilib borayotganini sezibdi, qarasa suv o'z oqimini o'zgartirgan ekan.

— Nahotki, u menga quvvat berib turgan bo'lsa? — o'ylanibdi Daraxt.

Uning ahvoli tobora yomonlashibdi, yaproqlari qovjirab to'kila boshlabdi. Oxiri u suvning zarurligini, tiriklikning kuchi hamkorlikda ekanini tushunibdi. Shundagina suv yana eski yo'nalishi bo'yicha oqa boshlabdi.



Aziz ABDURAZZOQ

DUM-DUMALOQ QO'NG'IZ

Dum-dumaloq Qo'ng'iz yurgan yo'lida ko'pincha dumalab-dumalab ketar ekan. Juda ham semizlikning foydasi yo'q-da. U to'ppa-to'g'ri, tep-tekis yo'lda imillab-simillab bo'lsa ham yura olar ekan-u, ammo do'ng joylarda, o'ydim-chuqur yo'llarda, goh tepaga chiqishda, goh pastga tushishda yumalab ketar ekan. Shunaqa vaqtda dumalab-dumalab, keyin to'g'ri turib qolsa yaxshi, biroq chalqancha tushib, oyog'i osmondan bo'lib qolsa, uzoq vaqt tipirchilab,

g'o'ng'illab, to'ng'illab yotar ekan. Shunda birov o'nglab qo'ymasa, yotib-yotib o'lib ham qolishi mumkin ekan. Bir kuni shunaqa chalqancha yotib, ancha vaqt qiynalibdi. Baxtiga o'sha atrofda Mirzasher degan bolaning Dum dor degan chumchug'i o'ynab yurgan ekan. U dum-dumaloq qo'ng'izning yordam so'rab g'o'ng'illaganini eshitib qolibdi-yu, pirillab uchib borib uning yoniga qo'nibdi.

— Voy, nima bo'ldi senga ? — deb so'rabdi Dum dor.

— Ko'rib turibsan-ku, nima bo'lganini, — debdi dum-dumaloq Qo'ng'iz ho'ng-ho'ng yig'lab.

— Yig'lama, men senga yordam beraman, — debdi Dum dor.

U pirillaganicha uchib, Mirzasherning bog'iga boribdi. Bu vaqtda Mirzasher bog'idagi so'rida o'tirib olib, Dilshod bilan Shahnozaga qalin kitobdag'i ertaklar dan o'qib berayotgan ekan... Dum dor pirillab kelib so'riga qo'nibdi-da, dum-dumaloq Qo'ng'izning ahvolini tushuntiribdi. Mirzasher kitobni yopib, so'rida qoldiribdi-da: — Qani, ketdik, bolalar, — debdi. — Dum-dumaloq Qo'ng'izga tez yordam berishimiz kerak.

Mirzasher Dum dor boshlagan tomonga ketaveribdi. Dilshod, Shahnoza, Oggul ham unga ergashib boraverishibdi. Ular Dum dor ko'rsatgan joyga yetib borishganidan keyin, Mirzasher qiynalib yotgan dum-dumaloq Qo'ng'izni oyoqqa turg'izib qo'yibdi-da, tayinlabdi:

— Mehnat qilish kerak, qora baqaloq, — debdi u. — Chumolilarga o'xshab ishlagin. O'shanda ortiqcha semirmaysan, sal-pal ozasan, chopqillab-chopqil lab yurasan, nuqul yiqlavermaysan.

— Xo'p, endi harakat qilaman, — debdi dum-dumaloq Qo'ng'iz.



Anvar OBIDJON

JO'JANING HIKOYASI

Mana, eson-omon tuxumdan chiqib oldim. O'ziyam tor joyda qisilib, qorong'ida o'lgudek zerikib ketuvdim.

Mendan keyin ukalarim ham birin-ketin tuxum pachoqlashga tushishdi. Yorug'likka chiqishgach, ular ham menga o'xshab anchagacha ko'zlarini ocholmay turishdi. Shumshayib o'tirishganini ko'rib kulging qistaydi.

Hozircha oltitamiz. Men, yana bittamiz o'g'il, qolgan to'rttasi qiz. Yettinchi tuxum haliyam singani yo'q. Ayam bechora bundan xavotirda. Dam tuxumni bosib yotadi, dam unga asta qulq solib ko'radi — jimjit. Hali chiqsin, dadamdan bir kaltak yeishi bor bu yalqovning.

Ha, aytganday, judayam zo'r dadam bor-da. Boshida qip-qizil toj, bitta-bitta qadam tashlab yurishini ko'rsang, hava-sing keladi. Ko'p gapirmaydi, faqat ba'zan ko'kragini kerib turib, ma'nodor qichqirib qo'yadi. "Chi-chi-chiy, chi-chi-chiy!"


Yo'q, o'xhatolmadim. Tilim kelishmayapti.

Ayamning aytishiga qaraganda, shu yaqin atrofdagi xo'rozlar dadamni ko'rди deguncha, chumchuqlardek tiraqaylab ketisharkan. Lekin, ochig'ini aystsam, chumchuq nimaligini o'zim ham unchalik tushunolmay turibman. Uni qo'ying, buni qo'ying, payti kelib, men ham dadamga o'xshab polvon bo'p ketsam-a!

E, xayriyat, ana, yettinchi tuxum ham yorildi. Iye-iye, bu kim bo'ldi endi? Na menga o'xshaydi, na ukalarimga. Tumshug'i yap-yapaloq, oyog'i ham boshqacha — panjalarining orasida pardasiyam bor. Voy, tavbangdan ketayin-ey!

— Bu — o'rdak-ku! — deb birdan shovqin soldi ayam. —Menga o'rdakning tuxumini bostirishibdi. Muttahamlar!

Dadam kenjatoya hafsalasizlik bilan qarab qo'ydi-yu, indamadi. Kenjatoy bo'lsa, he yo'q-be yo'q, chopganicha borib, o'zini suv to'la tog'oraga otdi. Bir-ikki sho'ng'ib olgach, gerdavolib suzishga tushdi.





Oxiri aytganim keldi: u dadamning bitta tarsakisini yedi-yu, tog‘oradan chetga uchib ketdi.

Boshqalardan kattaroq bo‘lganim uchun, ularni tergab turishga haqim bor. Shuni hisobga olib, tarsakidan zada yemay, yana tog‘oraga tirmashayotgan kenjatoyga qarab o‘shqirdim:

— Vey, o‘rdak! Qoch jomchaning oldidan!

Xuddi gapimga tushunmayotgandek, bezrayib turishini qarang. Yapaloq tum-shug‘ingdan o‘rgildim seni! O‘rdak bo‘lsang, o‘zingga!

...Oshna, uqtiribroq ayt-chi, o‘rdak degani nima o‘zi?



O'zbek bolalar she'riyati

“KELDI BAHOR, GUL BAHOR...”

Yil fasllari haqida

G'ulom SHOMURODOV

KO'KLAM QO'SHIG'I

Bugun kurtak

O'qir ertak:

- Bahor keldi,
- Bahor keldi.

Sochi tol-tol

Silkinar tol:

- Bahor keldi,
- Bahor keldi.

Sho'x qaldirg'och

Sayrar g'och-g'och:

- Bahor keldi,
- Bahor keldi.

Tojdor turna

Chalar surnay:

- Bahor keldi,
- Bahor keldi.

Jilg'a quvnab,

Oqar kuylab:

- Bahor keldi,
- Bahor keldi.

Hammadan ham

Biz shod, xurram:

- Bahor keldi,
- Bahor keldi.






Shukur SA'DULLA

BAHOR

Keldi bahor, gul bahor,
Erib bitdi oppoq qor.
Uchib keldi qushlarjon,
Daraxtlar taqdi marjon.

Suvlar oqar shildirab,
Yulduz boqar miltirab.
Chumolilar yayrashar,
Sho'x bulbullar sayrashar.



Anvar OBIDJON

BAHOROYNING ASHULASI

Boychechagim
Ko'k maysa,
Tugunchasi
Bir paysa.
Tegmang,
Guli ko'paysin,
Tugunchasi
Do'mpaysin.

Shukur SA'DULLA

YOMG'IR YOG'ALOQ

Yomg'ir yog'aloq,
Yam-yashil o'tloq.
Endi ekinlar
Chiqarar qulqoq.

Tarnovdan oshib,
Tushadi shoshib.
So'ng jilg'alardan
Oqadi toshib.

Ariqlar to'lar,
Zo'r anhor bo'lar.
Suv serob ekan,
Ko'p paxta unar.

Yomg'irdan foyda
Maysaga, donga.
Yurt serob bo'lar
Oq bug'doy nonga.

Yomg'ir yog'aloq,
Tomchi yumaloq.
Yomg'ir tinganda
Chiqar kamalak.



Hamidulla MURODOV

KAMALAK

Savalab o'tgach yomg'ir,
Yarqirab ketdi osmon.
Jilmaydi Quyosh bobo,
Ko'katlarga kirdi jon.

Osmonda-chi, osmonda
Popuk taqib, och pushti,
Usta bir rassom chizgan
Kamalak ko'zga tushdi.





BOYCHECHAK



Ochiladi
Chiroyli —
Ochgani yurt
Chiroyin.
Boychechagim
Oq chechak —
Bahoroya
Kelinchak.

**“YOZDAN DARAK BERMOQDA, QARANG,
LAYLAK KELMOQDA...”**

Aziz ABDURAZZOQ

YOZNING ZIYNATI



Qaldirg'ochlar keldilar,
Qo'shiq aytib, vijirlab.
Simga qo'nib kuldilar,
Bolalarday bijirlab.

Kiyimlari oq, qora,
Ipak kabi mayindir.
Ko'zlari sho'x, qop-qora,
Mo'ljallari tayindir.

Mo'ljallari — loy makon,
Tez qurilib bitadi.
Ichidan duv polapon
Uchib chiqib ketadi.

Bu ham yozning xizmati,
Yozimiz qushlarga boy.
Qush ham yozning ziynati,
Bag'ishlar yozga chirov.

Nurullo OSTON

YOZ

Oydin tunlar pallasi,
Baqalarning yallasi.
Handalakning bo'yłari,
Dehqonbuva to'yłari
Yozdan darak bermoqda,
Qarang, laylak kelmoqda.



Asom ZIYOMAT

YOZ SHAMOLI

Shivir-shivir
Yoz shamoli
Esar asta,
Eh, navoli.

Bog' oralab
Guv-guv yelar,
Behi hidin
Olib kelar.

Obid RASUL

HUSAYNI

Yoz fasli, avgust ayni,
Bog'da pishar husayni.
Ingichka bel — pilladek,
Ko'zni olar tilladek.





Shirinligi qand-asal,
Hosili haddan afzal.
Buni ekkan yosh bog'bon,
Ochiq ko'ngil, xushmezbon.

"YAPROQLARNI SIM-ZAR ETDING, OLTIN KUZIM..."

Tursunboy ADASHBOYEV

KUZ

Yana xazonrezgilik,
Bog'lar rangi siniqdi.
Dilda hokim ezgulik,
Anhorda suv tiniqdi.



Oq yaktakli qayinlar
Taqdi yana zar baldoq.
Qushlarga gap tayinlab,
Chag'-chag'laydi zarg'aldoq.



Ufq orti lolagun,
Daraxtlardan rang olar.
Xayrlashib kuz bugun,
Sochar oltin tangalar.

Asom ZIYOMAT

OLTIN KUZIM

Mevalarni
Shakar etding,
Yaproqlarni
Sim-zar etding,
Oltin kuzim.


To'kin-sochin
 Dala-yu bog'...
 Dehqonlarning
 Dimog'i chog',
 Saxyi kuzim.

Kavsar TURDIYEVA

PAXTA

Ishonmasang, biroz kut,
 Axir, har yil kuzakda
 Pag'a-pag'a oq bulut
 Paydo bo'lar ko'sakda.

Bulutlar-chi, dur kabi
 G'o'zalarga sochilar,
 Ushlay deya ularni
 Chanoqlar lang ochilar.



Anvar OBIDJON

PAXTA VA CHIGIT

Paxtaginam lo'ppicha,
 Chanoqlarga do'ppicha.
 O'zi oppoq,
 Bir qarang.
 Bolachasi
 Jigarrang.




“QOR HAVOSI UFURAR...”

Nurullo OSTON

QOR HAVOSI

Qor havosi ufurar,
Shamollar yer supurar.
Uchar so'nggi xazonlar,
Tussiz bog'-u biyobon,
Bo'm-bo'sh ko'cha, xiyobon.
Osmon xira va rangsiz,
Bosib kelar qish jangsiz.



Hamidulla YOQUBOV

QOR

Qor, qor, qorlar,
Atrof porlar.
Yilt-yilt nurdek,
Oppoq undek.

Shakar undek,
Shakar, desam.
Agar yesam,
Og'rir tishim.

Qor, qor, qorlar,
Atrof porlar.
Yilt-yilt nurdek,
Oppoq undek.

Anvar OBIDJON

QORQIZ

Yo'laklarim – olmos qor,
 Ko'yaklarim – olmos qor,
 Sochlarim ham olmos qor,
 Tojlarim ham olmos qor.

Oqqina oqqush-oqqizman,
 Qorbobo qorgan qorqizman.
 Yo'y mang meni sho'r tuzga,
 O'xhatmanglar g'irt muzga.

Tilim novvot, qaynoqdir,
 Ko'nglim yumshoq, qaynoqdir.
 Oqqina oqqush-oqqizman,
 Qorbobo qorgan qorqizman.

**Zafar DIYOR****ARCHA**

Archa-archa, jon archa,
 Yaproqlaring ninacha.
 Atrofingga yig'ilib,
 Qo'shiq aytadi barcha.
 Barglaringga alvondan
 Gul-lentalar taqdik biz.
 Har shoxingga rango-rang
 Elektrlar yoqdik biz...



“RIZQIM — DON VA SHUDRINGCHOY, CHIKA-CHUP!”

Qushlar haqida

Anvar OBIDJON

BULBUL QO'SHIG'I

Qizil gulda o'ynayman,
Chika-chuka.
Atirgulda tunayman,
Chika-chup.
Mening kulcham — to'lin oy,
Chika-chuka.
Rizqim — don va shudringchoy,
Chika-chup!



MUSICHA QO'SHIG'I

Meni ko'plar yuvosh der,
Kuk-ku-g'u.
Ba'zi birov bevosh der,
Kuk-ku-g'u.
Dehqon meni siylaydi,
Kuk-ku-g'u.
Omborchilar quvlaydi,
Kuk-ku-g'u.

G'ani ABDULLAYEV

QIZILISHTON

Daraxt qurtin teraman,
Taq-tuq-taq.
Unga shifo beraman,
Taq-tuq-taq.

Bog'lar bo'lsin hosildor,
 Taq-tuq-taq.
 Bog'bonga men madadkor,
 Taq-tuq-taq.
 Nog'oracho'p tumshug'im,
 Taq-tuq-taq.
 Nafsiz ketmas qo'shig'im,
 Taq-tuq-taq.



Quddus MUHAMMADIY

QIZILISHTON

Bog'ma-bog' yurar to'q-to'q,
 Tumshug'i naq xanjar o'q.
 Hashoratni qiradi,
 Dorboz o'yin quradi.

QALDIRG' OCH

Odam do'sti – qaldirg'och,
 Ko'zlari kuladi qiyg'och.
 Bola ochar ko'klam-yoz,
 Ini loy, oy nusxa, soz.



Aziz ABDURAZZOQ

TO'RG'AY

To'rg'ay, to'rg'ay, to'rga kel,
 Bug'doyzor, qir, o'rga kel,
 Qo'shiq ayt don haqida,
 To'qchilik, non haqida.



Nurullo OSTON

ZAG'IZG'ON

Laqillamay sahardan,
Darak bergen shahardan.
Yuraklarga dalda ber,
Yoz kelar, deb va'da ber.
Kelib qolsak duch agar,
Faqat keltir xushxabar.

QUSHLAR BOG'CHASI

Chumchuq, To'rg'ay, Popishak,
Ildam-ildam chopishsak.
Ko'klam sozin chalaylik,
Bog'chaga yo'l olaylik.
Unda bog'cha opamiz,
Kutar Zag'cha opamiz.



"BOLA QUYON CHOPDI, CHOPDI..."

Quyonchalar haqida

Zafar DIYOR

QUYONLAR

Oppoq-oppoq,
Uzun quloq quyonlar,
Mendan aslo
Qo'rqib, qochib yurmanglar.

Qani sizlar?
Tortinmayin kelingiz.
Sizga maysa —
O't keltirdi egangiz.

Habib RAHMAT

QUYONCHA

Bola quyon
 Chopdi, chopdi,
 Bitta joydan
 Sabzi topdi.
 Voh-ey, voh-ey.

O'lja sabzi
 Qizil, asl.
 Yesa bormi,
 Tanga huzur.
 Oh-ey, oh-ey.

Apil-tapil
 Chaynadi u.
 Loy ekan, vuy,
 Tfу, tfу.
 Voy-yey, voy-yey.



Muqimjon QODIROV

“BOTIR” QUYON

Bilmasdan
 Qo'rqoq, demang.
 Men qo'rqlmayman
 Hech kimdan.
 Agarda qo'rqoq
 Bo'lsam,
 Chiqarmidim
 Inimdan!



Miraziz A'ZAM

BIR QUYON



Qoplon uni quvgandi,
Sirtlon uni quvgandi...

— Hamma bunda zo'r ekan, — deb
Arazlab ketdi quyon.

Borsa daryo bo'yiga,
Baqa qochdi "uyi"ga.

— Mendan qo'rqqan bor ekan, — deb
Suyunib ketdi quyon.

"SHIRINLIGI XUDDI BOL, PISHGANINI TERIB OL..."

Mevalar haqida

Yusuf SHOMANSUR

DOVUCHCHA

— Shoxda shig'il dovuchcha,
Ko'm-ko'k, yashil dovuchcha.
Kesak otib qoqaymi?

— Yo'q!

— Bu gap hazil, dovuchcha.
O'zing yerga tushasan,
Pishib hil-hil, dovuchcha!



Erkin VOHIDOV


O'RIK

Qantak o'rik
Otim bor,
Xo'p mazali

Totim bor.
 Mag'zimga berkitgan
 Qantim bor,
 Novvotim bor.

OLMA


Men sizlarning
 Olmangiz,
 Xomligimda
 Olmangiz.
 Nortojiga
 O'xshab so'ng,
 Voy, qornim, deb
 Qolmangiz!



Anvar OBIDJON

ANJIR

Kecha-kunduz
 Uxlamay,
 Meva tugdim
 Gullamay.
 Mevam o'zi
 Gulchadir,
 Tillo rangli
 Kulchadir.
 G'o'daymayman,
 Sipoman.
 Ko'p dardlarga
 Shifoman.
 Meni yesa





Mutallib,
Yurmas edi
Yo'talib.



QULUPNAY

Anorchaga
O'xshatmang.
Fonarchaga
O'xshatmang,
Adashmang-da,
O'rgilay,
Ismim —
Bibi Qulupnay.
Jo'yaklarda
Yursangiz,
Meni totib
Ko'rsangiz,
Yorishadi
Ta'bingiz,
Qizaradi
Labingiz.



H. ERMATOV

NOK

Nok mevalar asili.
Erta pishar hosili.
Shirinligi xuddi bol,
Pishganini terib ol.



SHAFTOLI

Ko‘pligidan shaftoli
Shoxi yerga bukilar,
Tirgovichlar ushlolmay,
Shamol tursa, to‘kilar.

Musulmon ASQAROV

ANOR

Oramizda
Yo‘q baxil,
Bir uyda ming
Do‘sit ahil.



YONG‘OQ


Aslim so‘rsang,
Tog‘likman.
Ismim — Yong‘oq,
Yog‘likman.

**“DIRING-DIRING,
POLIZGA KIRIB TURING...”**
Poliz mahsulotlari haqida

Ravshan FAYZ

BODRING

Bodring der: — Diring-diring,
Polizga kirib turing.





Polizga kirgan chog'da,
Palagim bosmay yuring.

Men ham sizday bolaman,
Qovoq solib olaman.
Palagimni bossangiz,
Achchiq bo'lib qolaman.

Odil ABDURAHMON

KARAM



Oyim karam berdilar,
— Tozalab qo'y, — dedilar.
Shoshilib archsam shu choq,
Hammasi ekan po'choq.


Anvar OBIDJON

PIYOZ

Yerga chuqur
Botsam men,
Berkinvolib
Yotsam men,
Izlab topdi
Oshpazlar,
Meni chopdi
Oshpazlar.
Yig'lamadim —
Polvonman...
Lekin juda
Hayronman:
Oshpazlarning
O'zlari
Nega yoshlari
Ko'zlarin?

SHOLG'OM


Popuk bargli
 Boshim bor.
 Vazmingina
 Toshim bor.
 Dumi uzun
 Rediska —
 Menga
 Kenjatoy uka.
 Yosh-da,
 Picha shoshar u —
 Bahordayoq
 Pishar u.
 Men shoshmayman,
 Beg'amman,
 Shuning uchun
 Sholg'omman.



Obid RASUL

TURP

Bir taxta eksam turp,
 Chiqdi yerdan yugurib.
 Qo'shquloq, shalpangquloq,
 Mevasi dum-dumaloq.
 Yesam qars-qars, xuddi nok,
 Ta'mi yoqar odamga,
 Osh oldidan bir tovoq
 Qirib berdim dadamga.






TARVUZ



Tarvuzim bir quchoq,
Choponi ola po'choq.
Biriga ursak pichoq,
Paqqa yorildi shu choq.
Qizil go'sht-u yupqa et,
Karji asal, tatib ket.

G'ani ABDULLAYEV

QOVUN



"Eski chopon" qovunni
Qiluvdim tilim-tilim,
— Usti yomon xunuk-ku,
Qo'ying, so'y mang, — der o'g'lim.
Bir karjini yeb ko'rgach,
O'z-o'zidan uyaldi.
— E, ichi shirin ekan,
Yana bormi? — deb qoldi.

Tursunboy ADASHBOYEV

QOVUN YEDIK



Men va To'lan
Kuni bilan
Uyda edik,
Qovun yedik.
Tilib-tilib,
Maza qilib,
Dadam yedi
Kosa qilib...

“QO‘G‘IRCHOQ‘IM QO‘RQMAYDI...”

O'yinchoqlar haqida

Shukur SA'DULLA

TOYCHOQ

Toychog‘im bor — uchqur ot,
 Quralay ko‘z — tulpor zot.
 Egar-jabduq uraman,
 Minib, olg‘a suraman.
 O‘zi — yog‘och, yoli — qil,
 Ovunchog‘im, olg‘a yel!



BUZOQ

Men buzoqman, buzoqman,
 Shoxim chiqqan — suzoqman.
 Lekin yumdalab tortmang,
 Uyon-buyonga otmang.

Iflos yerga yo‘latmang,
 O'yinchoqman, qulatmang.
 Buksangiz, qayrilaman,
 Oyoqdan ayrilaman.

Sigir bo‘lmayman unda,
 Qaymoq bermayman kunda.
 Mayli, o‘ynang erta-kech,
 Lekin ozor bermang hech!



Mahmud YUNUS

YO'RG'AM



Uchqur yo'rg'am,
Chuv, deyman.
Yo'rg'alarni
Quv, deyman.
Ortda qolsin
Shamol ham...
Shunda barcha
Balli, der.
Marraga tez
Yet, deyman.
Bu poygada
Yut, deyman.



Adham RAHMAT

AYIQCHAM

Ayiqchamning oyog'i
Tushdi uzilib,
Qarab turar ayiqcham
Ko'zi suzilib.

Ayiqchamni men juda
Yaxshi ko'raman.
Oyoqchasini o'zim
Tikib qo'yaman.



Sa'dulla AHMAD

QO'G'IRCHOQ

Qo'g'irchoq, ko'zing munchoq,
O'zing menga o'yinchoq.
Hay-hay, o'ynab tinmaysan,
Taqib qo'yay ko'zmunchoq!

Ergash RAIMOV

POLVON

Kichikkina ayiqcham,
 Puchuqqina ayiqcham.
 Juda ham yumshoq badan,
 Kiyimi duxobadan.
 Dum-dumaloq, sep-semiz,
 Biz uni polvon deymiz...



Aziz ABDURAZZOQ

QO'G'IRCHOG'IM QO'RQMAYDI

Men bog'chaga ketaman,
 Qo'g'irchog'im qoladi.
 Kech bo'lganda kelaman,
 Meni kutib oladi.

Jim-jit uyda bir o'zi
 Yig'lamasdan yotadi.
 Kulib turgan yuz, ko'zi
 Menga juda yoqadi.

Yuvib-tarab, quchib men
 Sochlarni o'raman.
 Qo'rwmagani uchun men
 Uni yaxshi ko'raman.



Habib RAHMAT

KOPTOGIM

Koptogimni
 Ko'rgandim,
 Sho'xligim
 Toshib ketdi.

Yerga qattiq
Urgandim,
Bir sakrab,
Qochib ketdi.

Anvar OBIDJON

KOPTOKLAR QO'SHIFI

Sakrog'ichmiz, chaqqonmiz,
To'p-to'p-to'p.
Biz sotuvga chiqqanmiz,
Ko'p-ko'p-ko'p.



Ranjimaymiz temsangiz,
To'p-to'p-to'p.
Birpas jim tur desangiz,
Xo'p-xo'p-xo'p.

"LOLAJON ALLA AYTAR..."

Bolalar dunyosi

Saida ZUNNUNOVA

ALLA

Qo'g'irchog'im, oppog'im,
Uxla, uxla, orom ol.
Men alla aytgan chog'im
Sen tezgina uxbab qol.

Yig'loq bo'lsang, suymayman,
Yaxshi bola bo'l doim.
Men ham darrov uxlayman,
Alla aytganda oyim.

Yasataman uychangni,
Sen picha uxlab tursang.
Tikaman ko'yakchangni,
Xalaqit bermay yoursang.

Yaxshi bola har qachon
Gapga kiradi oson.
Uxla, oppog'im, uxla,
Men alla aytgan zamon.

G'iyoş KOMILOV

LOLANING ALLASI

O'yindan charchagan choq,
Dam olsin deb qo'g'irchoq,
Lolajon alla aytar,
Sho'x, quvnoq yalla aytar.
Lekin asta o'zini
Mudroq bosar ko'zini.

Aziz ABDURAZZOQ

QO'G'IRCHOQ

Qo'g'irchog'im yasandi,
Kiyintirdim men o'zim.
Mendan juda xursand u —
Suyuntirdim men o'zim.

Avval yalang'och edi,
Oriq va xunuk edi.
Go'yo bir yog'och edi,
Ko'zlari so'nik edi.

Mana, endi chiroyli
Qizaloq qo'g'irchog'im.



Yuzi qizil shirmoydek,
Qizg'aldoq qo'g'irchog'im.

Muhammadali QO'SHMOQBOY
MITTI CHAVANDOZ

Birga to'lib
Sultonmurod,
Yigit bo'lib
Sovutar ot.
Sapchib, o'zin
“Ot”ga otar,
Yumib ko'zin,
Qamchi chotar.
Oti — shamol,
Suvday yo'rg'a.
Uchqur xayol
Yetar zo'rg'a.
O'ynar ot-ot
Kulgan kuncha —
Sultonmurod:
“Alla taxtim
Tayyor, — deydir. —
Uxlar vaqtim
Bo'ldi, dr-r-r,
Dr-r-r...”



Ne'mat ORIF
MEHMON BO'LGAN YAXSHI-DA

Loydan nonni
Pishirdik.
Konfetlarni
Tushirdik.

O'ynadik
Mehmon-mehmon.
Mehmon ko'p,
Qani mezbon?!

Tursun ORTIQXO'JAYEV

TUSHLIK

Ovqatlandim
Maza qilib,
Dasturxonni
Toza qilib.
Olma, o'rik
Yedim rosa.
Tarovuzni-chi,
Qildim kosa.
Jonim — qaymoq,
Somsa, norin...
Voy-voy, endi,
Og'rir qorin.



Habib RAHMAT


XO'ROZQAND

Xo'rozqandim, xo'rozqandim
Shirin-shirin,

Mazasini darrov bilar
Tilim, tilim.

Yalayverdim, yalayverdim,
Oh, oh, oh.

Bundoq boqsam, cho'pi qopti,
Voh, voh, voh.



Tursunboy ADASHBOYEV

NASIBANING OLMASI

Nasibaning olmasi
Tushib ketdi ariqqa.
Tutqich bermay o'ynaydi,
O'xshab oltin baliqqa.
Sodiqjon ko'rib qolib,
Olmani ushlab berdi.
Rahmat aytib Nasiba,
Yarmini tishlab berdi...

Ahmad TOSHxo'JAYEV

TOHIRNING JAVOBLARI



- Ko'zing nechta?
- Ikkita.
- Qulog'ing nechta?
- Ikkita.
- Qo'ling nechta?
- Ikkita.
- Oyog'ing nechta?
- Ikkita.
- Boshing nechta?
- Bittadir.
- Soching nechta?
- Ko'ptadir!..

Shukur SA'DULLA

LOLA VA MUSHUK

Men — Lolaman, Lolaman,
Ozoda qiz bolaman.
Ertal bilan turaman,
Yuz-qo'limni yuvaman.



Quyoshjon va Laylakxon. O‘zbek xalq ertagi

Mushugim bor — qora Mosh,
O'zi juda ham yuvosh.
Mendan oldin turadi,
Yuz-ko'lini yuvadi.



Miraziz A'ZAM

QO'Y SUZGANDA

Anuv qo'y-chi, hov, ada,
Yomon bolaykan juda:
Boshi bilan bir turtdi,
Meni qattiq yiqtidi.

Ollobergan PO'LATOV

KICHIK BOLA

Ekkan novdam ulg'ayib,
Daraxt bo'ldi kattakon.
Lekin men avvalgiday
Kichik bolaman hamon.

Asom ZIYOMAT

TOYCHOQ

Biyamiz qulunladi,
Yunglari biram mayin.
Dikir-dikir chopqillab
O'sayapti kun sayin.

Onasiga talpinsa,
Rahmim kelar toyimga.
— Biyani kamroq sog'ing, —
Yolvoraman oyimga.



Umida ABDUAZIMOVA

SHIRINTOY

Shavkatjonning sevgani –
Shirin choy, shirin choy.
Shundan hamma der uni
Shirintoy, shirintoy!

Yuz-qo'lini yuvmay goh:
— Bering, — der shirin choy.
Dangasa ham erinchoq,
Shirintoy, shirintoy!

Shunday qilsa, bermaymiz
Shirin choy, shirin choy.
Erkalatib demaymiz:
Shirintoy, shirintoy!

Shukur QURBON

QATLAMA

Tosh tashlasam, suv yuzida
Xalqachalar titraydi.
Qatlama ham o'xshar shunga,
Faqat qimir etmaydi.



O'zbek bolalar hikoyalari

Raim FARHODIY

TONGGI SO'Z

Ahmad tongda uyg'ondi-yu, yugurib hovliga chiqdi. Qarasa, baroq mu-shugi unga qarab kelyapti. Boshini egib, oyoqlari ostida erkalana boshladи:

— Miyov-miyov!

Ahmad hayron bo'lib turdi-da, yo'lida davom etdi. Shunda tong shamoli g'uvillab, unga ergashdi. Daraxt yaproqlarini shitirlatib, kuylay boshladи:

— G'uv-g'uv...

Qayerdandir bir chumchuqcha uchib kelib, daraxt shoxiga qo'ndi. So'ngra Ahmadga qarab, sayray boshladи:

— Chiriq-chiq-chiriq...

Ahmad qushchaning qo'shig'ini berilib tingladi-da, yana yo'lga tushdi.

Qarangki, qadrdon kuchugi — Qoplon inidan chiqib qoldi. U ham to'ppato'g'ri Ahmadning oldiga chopib keldi. Dumini likillatib, vovulladi:

— Vov-vov-vov!

Ahmad hovuz bo'yiga keldi. Suvda g'oz va o'rdaklar suzib yurishardi. Ular qirg'oqqa yaqinroq kelib, qichqirishdi:

— G'oq-g'oq-g'oq!

— G'a-g'a-g'a!

Shu payt qo'shni uyning eshigi ochilib, Nigora ko'rindi. U jilmayib:

— Salom, Ahmad! — dedi.

— Salom, Nigora! — javob berdi Ahmad ham.

Shundagina u yo'lда uchratgan do'stlari — mushuk, shamol, Qoplon, g'oz va o'rdaklarning unga nima deyishganini tushunib oldi.

Bolalar, erta tongda aytildigan bu so'zning qanday so'z ekanligini bilasiz-a?



Abdusodiq IRISOV

BILMAY QOLIB

Rayhon yong'oq chaqib yedi-da, po'chog'ini oyoq ostiga tashladi. Akasi Baxtiyor chopib chiqqan edi, yong'oq po'chog'ini bosib oldi, po'choq oyog'iga kirib, qonatdi. Baxtiyor yig'ladi. Baxtiyorga qo'shilib Rayhon ham yig'ladi. Chunki u akasining oyog'i og'riganiga rahmi kelib ketdi. Unga yordam bergisi kelardi-yu, lekin qo'lidan kelmasdi.

Rahmat AZIZZO'JAYEV

OYIJON

Qosim ko'cha eshikdan hamisha bo'lar-bo'lmasga "oyi", deb yig'lamsirab kelar, oyisi biror yumush buyursa "yo'q, yo'q", deb uni bajarmas edi.

Qosim ammasinikiga borganda hayron bo'ldi. Ammasining kenja o'g'li – o'zi tengi Po'latjon oyisi biror yumush buyuradigan bo'lsa, "xo'p, oyijon", der ekan. Qosimga bu muomala juda yodqi. U uyga qaytgach, oyisini "Oyijon", deb chaqirgan edi, oyisi ham oshxonadan turib: "Qosimjon, keldingmi, o'g'lim?" – deb javob berdi.

Qosim xursand bo'lganidan jilmayib qo'ydi.

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

HASSA

Qobil boboning ikki nabirasi – Shavkat bilan Shuhrat qo'shni xonada o'ynab o'tirishar edi. Nima bo'ldi-yu, ikkovlari bahslashib qolishdi.

Shavkat yugurib bobosining oldiga chiqdi-da:

— Bobo! Kim odobli, menmi yoki Shuhratmi? — deb so'radi.

Qobil bobo hovliga chiqmoqchi bo'lib turgan edi. Uning kumush halqa qadalgan hassasi Shavkat bilan Shuhrat o'ynab o'tirgan uyda edi.

— O'g'lim, avval mening hassamni keltirib ber, keyin men o'ylab javob beraman, — dedi nabirasiga.

- Yo'q, avval aytasiz! — oyoqlari bilan polni tepib turib oldi Shavkat.
- Axir, o'ylab ko'rish kerak-da, — dedi Qobil bobo.
- Bo'lmasa, hassangizni keltirib bermayman, — Shavkat qaysarlik bilan polga o'tirib oldi, — keltirib bermayman.

Qobil bobo hassasini keltirish uchun o'rnidan endigina turgan edi, shu payt xonaga bobosiga salom berib Shuhrat kirib keldi.

— O'g'lim, hassamni sen keltirib ber! — dedi Shuhratga bobosi.

— Xo'p bo'ladi, bobojon! — dedi Shuhrat bobosining gapi tugamasdanoq.

U kumush halqa qadalgan hassani darrov keltirib, bobosiga berdi. Keyin o'rnidan tura-yotgan bobosining qo'lidan ushlab, turishga yordamlashdi.

— Rahmat, o'g'lim, — dedi Qobil bobo nabirasining peshonasini silab, — umring uzoq bo'lsin!

— Bobo, kim odobli? Menmi yoki Shuhratmi, ayting, axir?! — der edi Shavkat yer tepinib. Qobil bobo kumush halqali hassasini do'qillatganicha hovliga chiqarkan:

— Shuhrat odobli! — deb javob berdi.



Zohir A'LAM

MAY YOMG'IRI

Botirvoyning otasi qishloqdan yer olgan. Yoz bo'yi kapa tikib dalada yashaydi. Yeriga bo'lak-bo'lak qilib pomidor, kashnich, shivit, piyoz ekadi. Bir kuni otasi narida chopiq qilayotgan paytda, osmonni qora bulut qopladi.



Chars-churs chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gumburladi, sharros yomg'ir quydi.

Botir o'zini panaga oldi.

Yomg'ir suvlari jilg'a-jilg'a bo'lib oqa ketdi. Mana, jilg'achalarning biri yugurgilab keldi-da, yo'lidagi chumoli iniga sizib kira boshladi.

Odatda, chumoli ini do'ppayib qo'rg'onga o'xshab turadi. Lekin bu inning qo'rg'onini Botir boyagina tepib, har tarafga sochib tashlagandi. Botir suvning kirishini bir oz kuzatib, chumolilarning ahvolini ko'z oldiga keltirdi. Ularga juda achindi. Daraxt panasidan yugurib chiqdi-da, inning atrofiga to'g'on yasashga tushdi. Gir aylantirib loy bilan o'rab chiqquncha usti-boshi shilta-shalabbo bo'ldi.

Shu payt qo'lida ketmon ushlagan otasi yugurib kelib qoldi.

— Hoy, nega panaga o'tmay, ivib o'tiribsan? — so'radi u hayron bo'lib.

Nima deyishini bilmagan Botir to'g'risini aytib qo'ya qoldi.

Gap eshitaman deb o'ylagandi, unday bo'lmadi. Chumolilarni himoya qilganini bilib:

— Yaxshi qilibsan, o'g'lim, — dedi otasi.

Hakim NAZIR

OPPOQ BUVANING NEVARALARI

Oppoq buva ravonda dam olib o'tiribdi. Nevaralari uyda radio eshtishyapti. Radiodan "Jo'jalarim" qo'shig'i aytilsa, ular qo'shilishib aytishadi. Hindcha aytса, dikir-dikir o'yinga tushishadi. Sal o'tgach, katta ashula boshlangan edi, kichik nevara:

— E, bu yaxshimas, o'chirib qo'yaman! — dedi. Katta nevara singlisini qaytardi:

— O'chirma, oppoq buvam xafa bo'ladi.

Kichik nevara ravonga chiqib:

— Oppoq buva, siz shu ashulani yaxshi ko'rasizmi? — deb so'radi.

— Ha, oppoq qizim, juda yaxshi ko'raman, — dedi buvasi.

— Unaqa bo'lsa, men ham juda yaxshi ko'raman, — dedi kichik nevara.

Mahmud MURODOV

MEHRIBON

Salimjonning dadasi kechqurun katta qovun so'ydi-da, bir kosasini onasining oldiga qo'ydi. Qolganlarini laganda karjladi. Salimjonning onasi Karomat shkafdan qirg'ich keltirib, buvisining qovunini qirib berdi. Hammalari qovun yeya boshladi. Faqat Salimjongina qo'l cho'zmay o'tirdi.

- Ol, nega yemayapsan? — deb so'radi oyisi.
 - Mengayam o'shanaqa qilib bering, — dedi Salimjon buvisi yeayotgan qovunga ko'z tashlab.
 - Voy, buvimning tishlari yo'q-ku. Sen ham qarimisan?
- Salimjon indamadi. Keyin ko'z qirini tashlasa, buvisi qirilgan qovunni ham kavshanib yeapti. Salimjon asta laganga qo'l cho'zdi.
- Ertasi kun Salimjon bog'dan shaftoli uzib chiqdi-da, buvisiga mehribonlik bilan:
- Buvijon, qirg'ichingiz qani, shaftoli qirib beraman, — dedi.

BO'LIB YEYISHDI

Ziroat opa ishdan qaytganda, qizchasi Odila eshik oldida o'ynab o'tirgan edi. U yugurganicha borib, onasini quchoqladi. Ona Odilaning peshonasidan o'pdi. Sumkasidan uch dona konfet olib berdi.

- Hammasi o'zimgami? — deb so'radi Odila.
- Ha, o'zingga, — dedi Ziroat opa.
- Yo'q, o'zimgamas. Bo'lib yeymiz.

Uyga kirganda Odila konfetlarni buvisiga berdi.



— Buvijon, bo'lib bering.

Buvisi:

— Mana bular senga, — dedi-da, ikkita konfetni Odilaga uzatdi. — Mana bu bittasi Sobir akangga.

— Yo'q, bunaqamas, — dedi Odila.

— Bo'lmasa ikkitasini akangga bera qol, — dedi buvisi.

— Bunaqayammas, — dedi Odila yana kuyunib.

— Qanaqa qilib bo'lay, o'zing ko'rsata qol.

Odila hamma konfetni qo'liga olib, bittasini buvisiga, bittasini akasiga berdi.

Birini o'zi olarkan:

— Ana shunaqa bo'ladi, — dedi-da konfetni og'ziga soldi.

Yayra SA'DULLAYEVA

YO'LDA

Ular birin-ketin bog'chadan chiqishdi. Rauf, Yulduz, Nargiza, Olima... Biri onasining bo'ynidan quchib olgan, biri sevinchdan shataloq otgan, yana biri... Ular orasida Yulduz pildirab boradi. U oyisi bergen olmani g'archillatib yeb: "Aynaniy, oyimdan", — deb erkalandi. Hamma quvnab-quvnab boradi-yu, ammo Alisher negadir oyisiga tixirlik qiladi. Yig'lay desa, ko'zidan yosh chiqmaydi. Dam oyisining sumkasiga yopishadi, dam oyisining: "Qo'y, bolam", — deyishiga qaramay, narsa to'la to'rxaltani tortqilaydi.

— Olma topib berasiz, olma yeymen, — dedi u battar g'ingshib.
 — Xo'p, o'g'lim, uyda bor, hozir... — uni ovutishga urindi oyisi.
 — Yo'q, hozir topib berasiz. Ana, Yulduz yeb ketyapti-ku. Alisher birdan oyisining oyoqlariga yopishdi.

— Olma yeyma...a...n!

O'tgan-ketgan bolalarning qarashlaridan jahli battarroq chiqib, baqiraverdi. Shu orada bolalardan birining qo'lidagi o'yinchoq mashinaga ko'zi tushib: "Mengayam mashina", — deb oyisini battar xit qildi. Oyisi bir narsa degan-

di, yerga yotib oldi. Top-toza kiyimlari tuproqqa belandi. "Tur, odamni uyatga qo'yayapsan", — deb oyisi turg'izmoqchi bo'lsa, yerga battarroq yopishdi. Undan hech qaysi bola kulmadi. Aksincha, "viy, erkator", — deb qo'yishdi. Yulduzning xunob bo'lgan onaga rahmi kelib, qo'lidagi olmasini Alisherga uzatdi.

— Ma, ola qol! — mehribonchilik bilan dedi Yulduz.

— Obor! — Alisher uning qo'lini turtib yubordi. Olma yerga tushib, dumalab ketdi. Yulduzning biram yig'lagisi keldi, lekin o'zini tutdi.

Oyisining aytganiga kirmaydigan bunday bola oldida yig'lagandan kulgani yaxshi.



Muhabbat HAMIDOVA

DO'MBOQ

Bog'chadan qaytishayotganda chiroyli bir targ'il mushukcha Farhodga ergashib qoldi. Oyisi shuncha haydasa ham, u ayanchli miyovlagancha Farhodning oyog'iga surkaldi.

— Oyijon, uyg'a olib ketaylik. Mosh mushugimizga o'g'il bo'ladi. Ikkovlashib sichqonlarni tutishadi, yo'q demang, jon oyijon, — yalindi Farhod.

— Sog'lom mushukchaga o'xshaydi, egasidan adashib qolgan bo'lsa kerak. Mayli, olib ketamiz, — rozi bo'lди onasi.

Uyga kelishgach, Farhod uni sekingina Moshning yoniga qo'yib:

— Qara, Mosh, senga o'g'il olib keldim. Xafa qilmasdan birga o'ynanglar, xo'pmi? — deb Moshning peshonasidan silab qo'ydi.

Ammo Mosh big'illaganicha mushukchaga bir zum qarab turdi-da, to'sat-




dan oldingi oyog‘i bilan uning beliga tap-tap tushirdi. Mushukcha bo‘lsa qochish o‘rniga uning bo‘yniga osilib erkalandi. Nihoyat Mosh ham murosaga kelib, uni yetaklab xontaxta tagiga olib ketdi.

Farhod mushukchani Do‘mboq deb atadi. Do‘mboq ozoda, beozor edi. U Farhodga juda o‘rganib qoldi. Kechqurunlari ham uning yostig‘i yonida xurillab uqlab qolardi. Ertalablari esa Farhod bog‘chaga ketayotganida uni darvozagacha kuzatib qo‘yardi. Farhodning bog‘chadan qaytayotganini ham Do‘mboqvoy hammadan oldin sezar va darvoza tagidagi kichkina yoriqdan kallasini chiqarib, xursand bo‘lib kutib olardi.



Kichik yosh davri

3 — 4 yoshgacha



O'zbek xalq og'zaki ijodi

“YOMG‘IR... YORUG‘ KUNING BO‘LADI...”

Tabiat haqida

Shamol tursa, qo‘rqmagine,
Shamol bobong bo‘ladi.

Yomg‘ir yog‘sa, yig‘lama,
Yorug‘ kuning bo‘ladi.

Oy ko‘rinsa, cho‘chima,
U chuchmomang bo‘ladi.
Oftob ko‘rsang, hayiqma,
Nurafshoning bo‘ladi.

Kuchuk ko‘rsang, qo‘rqma,
Kuchuk oshnang bo‘ladi.

Mushuk ko‘rsang, cho‘chima,
Mushuk oshnang bo‘ladi.

Sigir ko‘rsang, sarg‘ayma,
Sigir oqlik bo‘ladi.

Bug‘doy ko‘rsang, bukilma,
Bug‘doy noning bo‘ladi.

Paxta ko‘rsang, pisinma,
Paxta ko‘rpang bo‘ladi.

Toychoq ko‘rsang, tortinma,
Toychoq oshnang bo‘ladi.

Chumchuq ko‘rsang, cho‘kinma,
Chumchuq oshnang bo‘ladi.

Tuya ko‘rsang, tortinma,
Tuya oshnang bo‘ladi...
Olov ko‘rsang, olayma,

Olov oshnang bo'ladi.
 Suvni ko'rsang, seskanma,
 Suv ham oshnang bo'ladi.
 Yerni ko'rsang, talpingin,
 Yer ham oshnang bo'ladi.
 Osmon ko'rsang, intilgin,
 Osmon oshnang bo'ladi.
 Daraxt ko'rsang, tirmashgin,
 Daraxt oshnang bo'ladi.
 Ariq ko'rsang, arqira,
 Ariq oshnang bo'ladi.
 Soyni ko'rsang, soylangin,
 Soy ham oshnang bo'ladi.
 Gulni ko'rib, yashargin,
 Gullar oshnang bo'ladi.
 Tog'ni ko'rsang, talpingin,



Tog'lar oshnang bo'ladi.
Bog'ni ko'rsang, balqigin,
Bog'lar oshnang bo'ladi.
Odam ko'rsang, izzat qil,
Odam qavming bo'ladi...

"HAY-YU, CHITTI GUL..."

Mavsum qo'shiqlari



* * *

Boychechagim hillodir,
Hamyon-hamyon tillodir.
U bozor-u bu bozor,
O'rtasida lolazor...

* * *

Boychechagim bolasi
Qulog'ida donasi.
Donasini olaylik,
Yugurib chiqsin onasi.

Boychechagim, boychechak,
Qo'limda ko'p boychechak.
Boychechagim, boychechak,
Terdim to'la bir etak.

Boychechagim aslidir,
Bahor faslin vasfidir.
Boychechagim, boychechak,
Qo'limda ko'p boychechak.

* * *

Kelsa yilboshi — navro'z,
 Olam guliston bo'lg'usi,
 Osmondan yer-u zaminga
 Obi rahmat yog'gusi.

Navro'z keldi jahonga,
 Borib aytgin otangga,
 Otang bersin bir tanga,
 Oborib ber mullangga.

* * *

Bog'larda gul, bog'da gul,
 Atirguli sizga,
 Qizil guli bizga,
 Hay-yu, chitti gul.
 Gulda kapalak,
 Guldor kapalak.
 Kapalagi sizga,
 Tillaqo'ng'iz bizga,
 Hay-yu, chitti gul.

Qo'lim-qo'lim,
 Bog'da yo'lim.
 Yuring, o'rtoq,
 So'ri so'lim,
 Hay-yu, chitti gul.

Bog'bon bobo
 Der: "Marhabo!"
 Bizlar deymiz:
 — Rahmat, bobo!
 Hay-yu, chitti gul.



* * *

Laylak keldi, yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi.
Laylak boradi tog'ga,
Quloqlarida halqa.
Halqasi tushib qoldi,
O'tirdi yig'lamoqqa:
— Men bibi hoji edim,
Qizlarga boshchi edim.
Qizlar o'yin tushganda,
Men nog'orachi edim.
Bir kun nog'oram buzildi,
Tanoblari uzildi.
Qorbuvaning dastidan
Qanotlarim suzildi.



* * *

— Laylak keldi, soz,
Qanoti — qog'oz.
Biz tarafda ham
Bo'lar endi yoz!

— Laylaklar tutar,
Baqani yutar.
So'ng qaqirlashi
Olamni tutar!

— Laylak kelsa, soz,
Boshlanadi yoz.
Cho'milsak soyda,
Bizga qanday soz!

* * *

Laylak keldi, yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi.
Bizni deb uchib keldi,
Uzoqdan ko'chib keldi,
La-la, lalalay!

Tinmasdan mehnat qilib,
Tol boshiga in soldi,
La-la, lalalay!

* * *

Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga.
— Xola, xola, kulcha ber.
Xolam dedi:
— O'tin ter.
O'tin terdim bir quchoq.
O'g'liga berdi yog'li kulcha,
Menga berdi dog'li kulcha.

* * *

Olma, anor, shaftoli,
Pista, bodom, qaroli,
Olxo'ri-yu olchalar,
Chillaki-yu bolchalar:
Bizni to'yib yeng, deydi.

“BEDANAJON, BO‘LMA MENDAN BEGONA...”

Hukmlagichlar



* * *

Bedanajon, bedana,
Bo‘lma mendan begona.
Don beray,
Suv beray,
Chigirtka, tariq beray,
Kesak solay to‘rvoqqa.
Sen zo‘r bergen
“vot-va-loq”qa.

* * *

Bedanam uchdi,
Bedapoyaga tushdi.
Bedananing bargi
Shamolga uchdi.
Vaqir-qas.



* * *

Vaqir-vaqir qurbaqa,
Vaqirlamay tur, baqa.
Ravshanlarday urishmay,
Shirin suhbat qur, baqa.

* * *

Olatog'ga boraman
 Ot o'ynatib,
 Yonboshimda miltig'im
 Yaltillatib.

Quyon otib kelaman
 Pitillatib.
 Pishiraman qozonda
 Biqillatib.

* * *

Pashsha, pashsha, pashsha,
 Pashshani qirib tashla.
 Esing bo'lsa, yo'q qilib,
 Ozoda bo'lib yasha!



“YAXSHI BOLANING YUZI ISSIQ...”

Aytishmalar

* * *

- Karim qayda?
- Uchish joyda.
- Qayga uchar?
- Oyga uchar.
- Nima bilan?
- Kema bilan.
- Komandir kim?
- Sher amakim.
- Qachon ketdi?
- Oyga yetdi.

* * *

- Kim odamga qarab esnaydi?
- Mushuk.
- Kim odamga qarab kerishadi?
- Kuchuk.
- Kim odamni “bir, ikki!” deb sanaydi?
- Tovuq.
- Shuning uchun ularning afti?
- Sovuq!

* * *



- Nega uning yuzi issiq?
- Yaxshi bola.
- Nega uning afti sovuq?
- Yomon bola.
- Nimaga u yomon bola?
- Ko'zi ola.
- Ko'zi ola bo'lsa nima?
- Ishi chala.
- Odobi-chi?
- Fe'li yomon,
Tantig'-naynig'.
- Nima deyish kerak unga?
- Esingni yig'!

* * *

Anvar yebdi qaymoq,
Og'zi bo'pti boyloq.
— Sigirga o't sol! — desa,
Oyog'imish maymoq.

— Buzoq suzar, — debdi,
— Ipni uzar, — debdi.

Shunda sigir:

— Qaymoq
Iching buzar! — debdi.

* * *

Sotvoldi miltiq
Sotvoldi,
Osmondan o'rdak
Otvoldi.
O'rdagi cho'lga
Quyuldi,
Sotvoldi ko'lga
Yugurdi.
Ko'lga yetolmay
Sotvoldi,
Baqani ko'rib
Yotvoldi.



“HAMMOMPISH... HAMMANIKIDAN OLDIN PISH...”

O'yin qo'shiqlari

* * *

Danagim, danak,
Do'ppi danak.
Sochilib tush,
Bitta qolmay
Ochilib tush,
Xo'p-pa!!!



* * *

Hammompish,
Hammompish,
Hammanikidan
Oldin pish.
Hammadan oldin
Pishmasang,
Buzilib ket,
O'yilib tush,
Hammompish!..



* * *

Loy o'yin.
— Pongmi, pis?
Qaysisi durust?!
Pong!..

* * *


Halinchak uchdim,
Yulduzlarni quchdim.
Mana senga, ukajon,
O'yinchoq olib tushdim.

* * *

Hakalakam,
Dukalakam,
Chori-chambar,
Beli anbar.
Otaqo'zi og'da,
Yumaladi bog'da.

* * *

— Oq terakmi,
Ko'k terak?
Bizdan sizga kim kerak?
— Polvon o'g'lingiz kerak.



* * *

Miyov-miyov mushugim,
Ahmadali qiyshig'im.
Bugun sichqon tutolmay,
Och qoldi sho'r tumshug'im.
Ushlab oling,
Ushlab oling!..

* * *

Mushuk bordi dalaga,
Sichqon qochdi etikka.
Onasi ochdi darvozani,
Yemish bo'ldi mushukka.



* * *

— Oq sholi.
— Ko'k sholi.
— Oq sholini oqlaylik!
— Ko'k sholini ko'klaylik!
— Guruchidan Oyxonning
To'yigacha saqlaylik!

- 
- Ho'p-p!
 - Ho'p-p!!...
 - Oq sholi,
 - Ko'k sholi!!!

* * *

Quyonim-quyonim, nima bo'ldi?
Kasalga o'xshab o'tiribsan.
Qoshingga o'sma qo'ymabsan?
Ko'zingga surma surmabsan?
Bitta o'ynab ber,
Bitta o'ynab ber!

“QARA, BURNING PUCHUQ...”



Chandishlar

* * *

- Oy degin-chi!
- Oy.
- Og'zing loy.

* * *

- Kuchuk degin-chi!
- Kuchuk.
- Qara, burning puchuq.

* * *

- Bir, degin-chi!
- Bir.
- Nega bo'yning kir?

* * *

- Olim, de.
- Olim.
- O'zingga o'zing zolim.

* * *


- Taroq, de.
- Taroq.
- Yuzingni yalasin baroq.

* * *

- Nima desam, men ham, deya tasdiqlay olasanmi?
- Ha.
- Men ertalab turdim.
- Men ham.
- Yuzimni yuvdim.
- Men ham.
- Eshak hangradi.
- Men ham.

* * *

- Burgut suvda suzadimi?
- Burgut tog'da yayraydi.
- Balli.
- Ilon uzum yeydimi?
- Ilon uzum yeydi.
- E... E... Ahmoq shunday deydi.





O'zbek xalq maqollari

OTA-ONALAR HAQIDA

* * *

Ona bilan bola — gul bilan lola.



* * *

Ota-onasi duosi o'tga, suvgaga botirmas.

* * *

Ota-onangni hurmat qilsang,
Boshqalardan hurmat ko'rasan.

* * *

Ota oldidan o'tma,
Odob oldidan ketma.

BOLALAR HAQIDA

* * *

Ona — daraxt, bola — meva.

* * *

Bola aziz, odobi undan aziz.

* * *

Bola — loy, ona — kulol.

* * *

Bola qalbi — gul.

* * *

Bolalik — podsholik.

* * *

Bol shirin,
Boldan bola shirin.

ODOB HAQIDA

* * *

Bolam odam bo'lsin, desang
Yoshlikdan odob ber.

* * *

Odobli bola elga manzur.



* * *

Odob oltindan qimmat.

* * *

Odobni bolaga yoshdan boshla.



* * *


Inson hayosi — odob sadosi.

* * *

Kattaning hurmati — qarz,
Salomlashmoq kichikka — farz.

NON HAQIDA

* * *



Non ham non, ushog'i ham non.

* * *

Nonga hurmat — elga hurmat.

* * *

Yarimta non ham rohati jon.

* * *

Molsiz uy bor, nonsiz uy yo'q.

DO'STLIK HAQIDA

* * *

Do'stlik tanishlikdan boshlanadi.

* * *

Baxt garovi — do'stlik.

* * *

Do'sting bo'lsa, bog'ing chamandir.

* * *

Daraxtni tomiri saqlar,
Odamni do'sti saqlar.

* * *

Dil og'ritgan do'st emas.



SOG'LIK HAQIDA

* * *

Sog' tanda — sog'lom aql.

* * *

Sog' yuray desang, ozoda bo'l.

* * *

Sog'lik — umrning garovi.

* * *

Sihat tilasang, ko'p yema,
Izzat tilasang, ko'p dema.

* * *

Sog'ligim — boyligim.

O'zbek xalq ertaktari

QUYONJON VA LAYLAKXON

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Kichkina bir chordevorda chol-kampir quyonlar nevarachalari — qizil ko'yakli Quyonjon bilan yashar ekanlar.

Quyonjon buvi bilan bobosining hamma ishlarini bajarar ekan. Bobo quyon unga ajoyib ertaklar so'ylar, buvi quyon shirin ovqatlar pishirib berar ekan.

Yozning issiq kunlari boshlanibdi. Bir kuni chol-kampir quyonlar shinni qiyom qilmoqchi bo'lishibdi. Ular Quyonjonniga chaqirib:

— Quyonjon! O'tin bilan tut terib kelsang, shinni qiyom qilamiz! — deyishibdi.

— Xo'p, jonom bilan, — debdi Quyonjon.

U o'rtoqlarini yig'ib:

— Bobom bilan buvum shinni qiyom qilmoqchilar. Yuringlar, o'tin bilan tut terib kelamiz, — debdi.

Quyonchalar o'tin yig'gani chorbog'ga chiqishibdi. Chorbog'da quruq xasco'plar kamdan-kam ekan. Quyonchalar qo'shni bog'larni oralab nari ketishibdi. Yurib-yurib rosa charchabdilar-u, yig'gan o'tinlari sira ko'paymabdi.

Ular tut termoqchi bo'lishibdi. Yana bo'lmabdi. Tut daraxti ustiga chiqib qoquvchi azamat topilmabdi. Quyonchalarning o'zlari chiqay desalar, yoshlik qilibdilar.

Nima qilishni bilmay, boshlari qotibdi.

Shu vaqt qizil ko'yakli Quyonjon osmonda qanot silkib uchib o'tayotgan do'sti Laylakxonni ko'rib qolibdi.

— Salom, Laylakxon! — deb qichqiribdi u.

Laylakxon bir to'da rang-barang sharlarni bolalariga olib ketayotgan ekan.

— Nima qilib yuribsizlar? — deb so'rabdi Laylakxon.

Quyonjon:

— Bobom bilan buvum shinni pishirmoqchilar. Shunga o'tin izlab yuribmiz. O'tin topolmay ovoramiz, — debdi.

Laylakxon:

— G'am yemanglar, bir burda nonni kam yemanglar. Men sizlarga o'tin



topib beraman. Qani, yuringlar. Sizlarni tomosha qildiraman. So'ngra oq pat bolalarim bilan tanishtiraman, — debdi.

Quyonchalar juda sevinib ketishibdi. Keyin:

— Bizlar charchadik. Siznikiga qanday qilib boramiz? — deyishibdi. Laylakxon kulib:

— Men bilan birga borasizlar. Qani, bo'linglar, qanotim ustiga mininglar.

Laylakxon quyonchalarga bittadan shar beribdi. Qizil ko'yakli Quyonjonga havorang, chiroyli shar tegibdi.

Quyonlar sevinganidan chapak chalib yuboribdilar.

Laylakxon uzun oyoqlarini bukib o'tiribdi. Quyonchalar birin-ketin Laylakxonning ustiga minib olibdilar. Qizil ko'yakli Quyonjon esa Laylakxonning yelkasiga minib, u bilan gaplashib ketibdi.

Laylakxon quyonchalarga butun qishloqni tomosha qildiribdi. O'z uylari ustidan olib o'tib, ularga hovli o'rtasidagi kichik kursida o'tirgan Ayiqxon bilan Mushukjonne, chopib ketayotgan Saman toychani va toycha ustidagi chavandoz Maymunchani ko'rsatibdi.

Quyonchalar juda xursand bo'libdilar.

* * *

Yo'lda katta tut daraxti uchrabdi. Tut pishib, ezilib yotgan ekan.

Quyonchalarining havaslari kelib, so'laklari oqibdi:

— Tut! Tut!

— Laylakxon, siz qoqing, biz teraylik.

Laylakxon ko'nibdi.

Quyonchalar sharlarga osilib baland osmondan asta-sekin yerga tushibdilar.

Laylakxon qanotlarini yig'ib, katta tut daraxtiga qo'nib, tut qoqa boshlabdi. Quyonchalar terishibdi.

Keyin yana uchib ketishibdi. Eng oxiri Laylakxonning uyasiga yetib borishibdi.

— Tanishinglar, mening bolalarim! — debdi Laylakxon bolalarini ko'rsatib.

Ular Laylakxonning uzunoyoq, oqpat bolalari bilan tanishibdilar.

Biroz dam olishibdi. Keyin:

— Biznikiga mehmondorchilikka yuringlar, — deb taklif qilishibdi. Uyimizda maza qilib o'ynaymiz.

— Boramiz, boramiz! — deb chuvvos solishibdi Laylak bolalari. Laylakxon bir quchoq o'tin olib, oqpat bolalariga beribdi. O'zi bo'lsa ustiga quyonchalarni mindirib, to'g'ri Quyonjonning uyiga qarab uchibdi. Tezda yetib borishibdi.

Chol-kampir ularni ko'rib juda ham xursand bo'lishibdi.

Tutni qozonga solib, o'choqqa olov yoqib yuborishibdi. Bir zumda qiyom tayyor bo'libdi.

— Qani, marhamat.

Hammalari shinniga qoshiq urishibdi: mehmonlar bunday shirin shinnini umrlarida birinchi marta yeishlari ekan.

Shu payt Laylakxon kakillab yuboribdi, uning oqpat bolalari birdaniga o'yinga tushib ketishibdi. Quyonlar bo'lsa chapak chalib, ashula aytishibdi.

Buncha shirin bu shinni,
Bu shinni, bu shinni.
Yoray deydi tilingni
Shirini, shirini.
Laylakxon, senga rahmat,
Yuz rahmat, ming rahmat.
Quyonlarga qilding sen
Ko'p xizmat, ko'p xizmat.

Ular shunday qilib butun kunni o'yin-kulgi bilan o'tkazishibdi.





Otaylor. Kel. yuguray, quv

ECHKI BOLALARI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, baland tog' bag'ridagi sero't, ko'm-ko'k vodiyda bir echki o'z bolalari bilan yashar ekan. Birinchi bolasi Bulbuli, ikkinchisi Gulsari, uchinchisi Sarguli, to'rtinchisi Xamirturush, beshinchisi Mirzaxo'rish, oltinchisi Lolaqizg'aldoq deb atalar ekan.

Echki bolalarini juda ham sevar, ular uchun hatto o'z jonini ham ayamas ekan. U har kuni tog' bag'ridagi o'tloqqa o'tlagani chiqib ketar ekan. Bolalariga esa eshikni ichkaridan tambalab olishni, uydan hech yoqqa chiqmaslikni tayinlar ekan. Shundan keyin ko'm-ko'k o'tloqdagi barra o'tlardan to'yib-to'yib yer, baland tog' bag'ridan sharqillab oqib tushayotgan shishadek tiniq buloq suvidan qonib-qonib ichar ekan. Uning butun fikri-zikri bolalarini boqish ekan. Bolalari uchun tog'dagi qalin, barra o'tlardan yig'ib qopga solib, ularni ko'tarib uyga qaytar ekan, eshikni ohista taqillatib, muloyim ovozi bilan bolalarini chaqirib shunday der ekan:

Bulbulijon bolam,
 Sargulijon bolam,
 Gulsarijon bolam,
 Xamirturush bolam,
 Mirzaxo'rish bolam,
 Lolaqizg'aldoq bolam,
 Och eshikni, jon bolam!
 Qopim to'la o't keltirdim,
 Yelinim to'la sut keltirdim.
 Och eshikni, jon bolam!

Shunda uloqchalar quvonishib, eshikni ochar ekanlar. Ona echki keltirgan maysa o'ti va shirin suti bilan bolalarini xo'p to'yg'izar ekan. So'ngra ularni yalab-yulqab, erkalab uxlatar ekan. Ertasiga echki yana bolalarini emizib, ularning oldiga barra o'tlarni tashlab, o'tloqqa jo'nayotganida:

— Bolalarim, juda ehtiyot bo'linglar. Men uyda yo'q paytimda eshikni ichkaridan tambalab olinglar, uydan hech yoqqa chiqmanglar, hech kimga eshikni ochmanglar, — deb tayinlar ekan.

— Xo'p, onajon, ehtiyot bo'lamiz, — deb javob berishar ekan uloqchalar. O'rmonda yashaydigan keksa bo'ri payt poylab ona echki o'tlagani ketgan vaqtida, ularning uyiga kelib, xuddi ona echkidek eshikni taqillatib, qo'pol xirildoq ovoz bilan ashula boshlabdi:

Bulbuli bolam,
Lolaqizg'aldoq bolam.
Orqam to'la o't obkeldim,
Yelinim to'la sut obkeldim,
Eshikni och, bolalarim!

Echki bolalari: «Bu xirildoq tovush bilan ashula aytayotgan kim?» — deb so'rabdilar.

— Men oyilaring bo'laman, — debdi bo'ri.
Uloqlar bu chaqirgan o'z onalari emasligini darhol sezishibdi.

— Yo'q, sen bizning onamiz emassan, onamizning ovozi senikiga o'xhash xirildoq emas, onamiz oppoq, qoshlarida o'sma, ko'zlarida surmalari bor, — debdi echki bolalaridan biri. Shunday qilib, echki bolalari eshikni ochishmabdi.

Birozdan so'ng ona echki o'tloqdan qaytib kelibdi, u bolalarining qilgan ishlaridan xursand bo'libdi:

— Mening aqli, quloqli bolajonlarimdan o'zim o'rgilay, — deb uloqchalarini erkalabdi...





UCH TULKI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonlarda Qashqa nomli quyon bor ekan. Bir kuni u eshagiga minibdi-da, xo'tigini ergashtirib, changalzor orqasida yashaydigan xolasinikiga ketibdi.

Ariq labida qum zambarak o'ynab o'tirgan quyonchalar:

— Changalzor qo'rqinchli, yolg'iz borma! — deyishibdi qichqirib. Qashqa ko'nmabdi. Kun qizigan, tush payti ekan. Sho'x xo'tik boshidagi popuklarini silkitib dirkillar, bo'ynidagi qo'ng'irog'i ha deb jiringlar ekan.

Changalzorda ota, ona va bola tulkilar yashar ekan. Qo'ng'iroq ovozini eshitib, ularning quloqlari dikkayibdi.

— Qaysar Qashqa kelyapti, — debdi bola tulki.

— Adabini beramiz, — debdi ona tulki. — Men eshagini olib qochaman.

— Men xo'tigini olib qochaman, — debdi ota tulki.

— Men kiyimlarini, — debdi bola tulki.

Qashqa changalzorning qoq o'rtasiga yetibdi.

Qashqa eshakni haydar ol-dinda boraveribdi, charchagan xo'tik esa ancha keyinda qolib ketibdi. Qashqa ortiga qaray-verib, oxiri bo'yni og'ribdi va:

— Xut-xut-xut, — deyaverib charchabdi.

Eng oxiri u "Qo'ng'iroq jiringlayapti-ku, xo'tik kelyapti-da", deb o'ylab bemalol ketaveribdi.

Buni ko'rgan ota tulki asta kelib, xo'tik bo'ynidan qo'ng'iroqni yechib olibdi-da, eshakning dumiga bog'lab qo'yibdi. Keyin xo'tikni olib qochibdi.

Muyulishdagi daraxtlar orasida birdan ona tulki paydo bo'libdi. U quyondan so'rabdi.

— Hoy, quyoncha, yakka o'zing qayoqqa ketayapsan?



Qashqa: "Tag'in shum tulki xo'tigimni olib qochmasin", — deb shartta qayrilib qarabdi, qarasa, xo'tik yo'q.

— Voy, xo'tikkinam... qayda qolding? — deb birdan yig'lab yuboribdi.

— Yig'lama, — debdi ona tulki, — xo'titing qayoqqa borishini bilmay, narigi muyulishda turibdi. Borib, haydab kel! Men eshagingga qarab turaman.

Qashqa suyunganidan eshakni qoldirib, orqaga yuguribdi.

— Voy, lapashang-e, — deb kulibdi ona tulki va eshakka mina solib, qochibdi.

Qashqa xo'tigini topolmay, quruq qaytib kelibdi. Qarasa, eshagi ham yo'q. Biram qo'rqib ketibdiki, asti qo'yavering. "Endi o'zimni ham o'g'irlab ketmasalar edi..." deb o'ylabdi u.

Qashqa chopqillab ketayotgan ekan, ko'l labida yig'lab o'tirgan jajjigina tulkichaga yo'liqibdi.

— E, birodar, — debdi tulkicha. — Sho'rim quridi. Bozorga borayotgandim, bir hamyon oltinim suvga tushib ketdi, endi nima qilaman? Otam o'ldiradi...

— Yig'lama, — debdi Qashqa, rahmi kelib.

— Suzishni bilsang, olib chiqib ber. Yuz tangasini senga beraman, — debdi tulkicha.

Qashqa: "Eshak bilan xo'tikning bahosi yuz tanga tursa kerak... Bunga eshak sotib olsam bo'ladi..." deb o'ylabdi.

— Bo'pti, — debdi Qashqa.

U hash-pash deguncha kiyimini yechib suvga sho'ng'ibdi.

— Murodimga yetdim, — deb kulibdi tulkicha.

Qashqa oltinni topolmay chiqsa, ko'l labida tulkicha ham, kiyimlari ham yo'q emish.

Shu-shu, Qashqa changalzordan hech qachon yolg'iz yurmaydigan bo'libdi.

BAROQXON

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan, bitta baroq mu-shuk bo'lgan ekan. U yakka o'zi katta chinor tagidagi bir uyda yashar ekan.

Kunlardan bir kun mushukning bu yerda yashashini qarg'a bilib qolibdi va u



hamma hayvonlarga aytib qo'yibdi. Qarg'adan bu gapni eshitgan tipratikan mushukning uyiga kelibdi-da:

— Baroqjon, Baroqjon, eshigingni och, ikkovimiz birga yashaymiz, — debdi.

— Muncha xunuksan, kelib-kelib sen bilan o'rtoq bo'lamanmi? — debdi mushuk va tipratikanni uyiga kirimabdi.

Ertasiga Baroqxonning uyiga olmaxon kelibdi.

— Baroqjon, Baroqjon, eshigingni och, inoq bo'lib birga yashaylik, — debdi u ham.

— O'zing sig'asanmi, duming sig'adimi, — deb mushuk olmaxonni ham uyiga qo'ymabdi.

Olmaxon o'sal bo'lib qaytib ketibdi.

Olmaxondan keyin chopqir quyon kelibdi.

— Baroqjon, Baroqjon, eshigingni och, yo'lda ochko'z bo'ri turibdi, — debdi u. Baroqjon quyonga ham eshigini ochmabdi.

Quyondan keyin aka-uka O'mbaloq bilan Do'mbaloq degan ayiqchalar kelishibdi.

— Baroqjon, Baroqjon, eshigingni och, biz O'mbaloq bilan Do'mbaloq bo'lamiz, sen bilan birga o'ynagani keldik, — deyishibdi.

Mushuk ularni kirimabdi. Ayiqchalar unga yolvorib:


— Biz uyimizga boraylik desak, yo'limizda och bo'ri yuribdi, jon o'rtoq, eshigingni och, — deyishibdi.

— O'zlarining qo'pol ekansizlar, eshigim zo'rg'a turibdi, tegib ketsalaringiz, ag'darilib tushadi, — deb ayiqchalarni ham uyga kirimabdi.

Bir vaqt dumini tarab tulki, labini yalab bo'ri kelibdi:

— Baroqjon, Baroqjon, seni bir ko'rishni orzu qillardik, olg'ir bobong yo'lbars bizga qarindosh bo'ladi, — deb mushukdan ruxsat so'ramay ham o'zları uning uyiga kirib kelishaveribdi. Baroqjonni gapirgani ham qo'ymay maqtay boshlashibdi.

— Voy-voy, bu gilamlarni qarang-a, bu kiyim-boshchlarni qarang-a, idish-tovoqlarni qarang-a, — deb uni taltaytirib yuborishibdi. So'ngra yo'lbarsning



uyini maqtay boshlashibdi. Ularning maqtovini eshitgan Baroqjon o'ziga-o'zi yo'lbarsning uyi mening uyimdan ham chiroyli ekan debdi va ularga:

— Men borib yo'lbarsning uyini ko'rib kelay, sizlar mening uyimni poylab o'tiringlar, — deb Yo'lbars bobonikiga qarab ketibdi. Yo'lda payt poylab turgan ko'k bo'ri unga tashlanibdi. Baroqxon jon holatda bo'rining ko'ziga chang solibdi, bo'ri ko'zining og'rig'iga chidolmay uni qo'yib yuboribdi. Baroqxon uyiga qaytib kelsa, tulki bilan bo'ri uni o'z uyiga kiritishmabdi. Shunda Baroqxon nima qilishini bilmay dod solibdi. Uning dodlab yig'lashini eshitgan ti prati-kan, olmaxon, quyon, O'mbaloq va Do'mbaloqlar yetib kelishibdi. Hamma-lari bir bo'lib bo'ri bilan tulkining jazosini berishibdi. Baroqxon hamma hay-vonlarni uyiga o'zi taklif qilibdi va ularga:

— Jon o'rtoqlar, qolinglar, bирgalikda do'st bo'lib yashaymiz, do'stlikda gap ko'p ekan, — debdi. Shunday qilib, Baroqxon ular bilan bирgalikda bexatar yashabdi va murod-maqsadiga yetibdi.

QUMURSQA

O'tgan zamonda bir kishi safarga chiqqan edi. Bir soydan o'tishga to'g'ri keldi. Qish vaqt edi. Eshakning keyingi oyog'i muzga toyib, yiqildi, beli sindi. U kishi xafa bo'lib, muzga qarab shunday debdi:

— Ey, muz aka, sen eng zo'rmisan?

Muz:

— Men zo'r bo'lsam, kun meni erita olarmidi?

Shunda u kishi kunga qarab:

— Ey, kun, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Kun:

— Men zo'r bo'lsam, bulutlar mening ko'zimni olarmidi?

Shunda u bulutga qarab:

— Ey, bulut aka, sen zo'rmisan? — debdi.

Bulut:

— Men zo'r bo'lsam, yomg'irlar meni teshib-teshib o'tarmidi?

Shunda u kishi yomg'irga qarab:

— Yomg'ir aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Yomg'ir:

— Men zo'r bo'lsam, yerga singib ketarmidim?

Shunda u kishi yerga qarab:

— Yer aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Yer:

— Men zo'r bo'lsam, o'tlar teshib chiqarmidi?

Shunda u kishi o'tga qarab:

— O't aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

O't:

— Men zo'r bo'lsam, mollar yulib-yulib
yeyarmidi? — debdi.

Shunda u kishi molga qarab:

— Mol aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Mol:

— Men zo'r bo'lsam, bo'rilar yermidi?

Shunda u bo'riga qarab:

— Bo'ri aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Bo'ri:

— Men zo'r bo'lsam, merganlar otarmidi?

Shunda u merganga qarab:

— Mergan aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Mergan:

— Men zo'r bo'lsam, o'q solingan xaltamni sichqon va kalamushlar qirqib
tashlarmidi?

Shunda u kishi sichqonga qarab:

— Sichqon aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Sichqon:

— Men zo'r bo'lsam, qumursqalar qulog'imdan chimchib olarmidi? —
dedi.

Shunda u qumursqaga qarab:

— Qumursqa aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Qumursqa:

— Men zo'r, men zo'r, — debdi. — Otangning olti yuz botmon bug'doyini



yetti tog'dan oshirib yeganman. Men zo'r, men zo'r, men zo'rman! — debdi.

- Qorning nima uchun katta? — deb so'radi u kishi.
- Jigarim zo'r, — debdi qumursqa.
- Beling nima uchun ingichka? — deb so'rabdi u kishi.
- Mehnatim zo'r! — dedi qumursqa.
- Kallang nima uchun katta? — debdi u kishi.
- Davlatim zo'r! Mehnatim zo'r, davlatim zo'r, men zo'r! Men zo'r! — debdi qumursqa.

TULKI BILAN TOVUS

Ertagi-yo ertagi, echkilarning bo'rtagi, qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan, ko'k muzga mingan ekan, muruti singan ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, ola qarg'a azonchi, qora qarg'a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to'rg'ay to'qimchi ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumি kalta bo'ri bor.



Kunlarning birida tulki ketayotgan ekan, bir tovus dumini setora-setora qilib kelaveribdi. Shunda tulki aytib-diki:

- Ey, tovus, ajab-ajab o'yinlarining bor ekan, bir yaxshilab o'ynab bergen.

Tovus dumini setora-setora qilib o'yinga tusha beribdi. Tulkining qorni

och ekan, o'ynab turgan paytida uni ushlab olibdi. Bir vaqt tovus qarasa, tulkinining avzoyi buzuq, uni yemoqchi bo'lib turibdi. Tovus:

— Ey, tulki, nima qilyapsan? — debdi.

Tulki aytibdi:


— Mening qornim och edi, seni yegim kelib qoldi.

Tovus:

— Xo'p, mayli, meni yegin, lekin ko'z oldimda bir fotiha o'qib ye, hech armonim qolmas edi, — debdi.

Shunda tulki pichir-pichir qilib qo'lini ko'taribdi.

Tovus tulkinining oldidan "var" etib uchib ketibdi. Tulki qo'lini ko'targanicha tovusga qarab shunday deb fotihasini davom etaveribdi: — Ovqat yemasdan oldin fotiha o'qigan ahmoq ekan, ovqatni yeb bo'lib, undan keyin fotiha o'qish kerak ekan.




O'zbek xalq afsona va rivoyattari

NON — HAMROH

Qadim zamonda ikki kishi uzoq safarga chiqmoqchi bo'lishibdi. Yo'l olis, odam yursa, oyog'i, qush uchsa, qanoti kuyadigan biyobonlardan o'tar ekan.

Ulardan biri boy odam ekan. U o'zi bilan bir xalta oltin olibdi. Ikkinchisi kishi esa kambag'al ekan. U o'zi bilan bir xalta qotgan non olibdi. Shunda boy kambag'al sheringining ustidan kulibdi:

— Quruq non bilan olis yurda tirikchilik qilib bo'larkanmi? Oltin olish kerak, oltin har qanday yurda ham qadrli, istagan narsani sotib olish mumkin, — debdi.



Kambag'al sherigi indamabdi.

Ikkovlon yo'lga chiqishibdi. Yo'l yuribdilar, yo'l yursalar ham mo'l yuribdilar. Inson zoti yashamaydigan sahro-yu cho'llardan o'tib, rosa char-chab, ochiqibdilar. Bir yolg'iz

daraxt soyasida dam olish uchun o'tirishibdi. Xurjunni oltin bilan to'ldirgan boy kishining ochlikdan tinkasi quribdi, ammo bir burda non so'rashdan or qilibdi.

Safarga nondan boshqa hech narsa olmagan kishining sheringiga rahmi kelibdi. Unga bir burda non sindirib beribdi. Ikkovi baham ko'rib ovqatlanibdilar va eson-omon manzilga yetib borishibdi.

Oltinga ishonib nonni mensimagan odam xijolatda qolibdi, xatosini tushunibdi. Ota-bobolarimizning "non — hamroh" degan hikmatini hech unutmaslik zarurligini anglabdi.

ALISHER BILAN BULBUL

Ilgari zamonda G'iyosiddin kichkina degan odamning Alisher degan o'g'li bo'lgan ekan. Bola yoshlidan uddaburon, ziyrak bo'lib o'sibdi. U to'qqiz yoshga to'lganda she'rlar yoza boshlabdi. Odamlar u yozgan she'rlarni qulqoq berib tinglaydigan bo'lishibdi.

Alisher bir kuni bog'ga chiqib yangi yozgan she'rlarini o'qiy boshlabdi. Yosh kuychining qo'ng'iroqday jarangdor, tong shamoliday mayin ovozi qirqog'aynining shoxida o'tirgan bulbulni ham o'ziga maftun etibdi. Qushcha Alisherning yelkasiga qo'nibdi-da:

— Ey, xushovoz shoir, sen o'qigan she'r bulbullarning erta tongdagi navosidan ham yoqimli ekan. Ismingni bilsam bo'ladimi? — debdi.

Men Alisherman! — javob beribdi u.

— Bildim, bildim, sen shoir ekansan. Endi o'zingga chiroyli bir taxallus tanlab ol, — debdi.

Alisherga bulbulning “navo” degan so‘zi yoqib qolibdi. Shundan keyin o'z g'azallarining qatiga “Navoiy” deb yozadigan bo'libdi.



Jahon xalqlari ertaktari

OLMAXON

Qozoq xalq ertagi

Olmaxon paxmoq dumini likillatib, shoxdan-shoxga sakrab, o'ynab yurgan ekan, birdan daraxt soyasida uxbab yotgan bo'rining ustiga tushib ketibdi. Bo'ri shu zahotiyoy olmaxonni tutib olibdi.



Bo'ri olmaxonni bo'shatibdi. U lip etib daraxt shoxiga chiqib olibdi va o'sha yerdan turib:

— Iltimos, meni o'lirma, qo'yib yubor, — deb yalinibdi olmaxon.

— Mayli, faqat savolimga javob ber: Nima uchun sizlar doim quvnoq va beg'amsizlar? — debdi unga bo'ri.

— Oldin qo'yvor, keyin savolingga javob beraman. Hozir qo'rqqanimidan yuragim yorilib ketay deyapti-yu, tilimga so'z keladimi, — debdi unga javoban olmaxon.

Bo'ri olmaxonni bo'shatibdi. U lip etib daraxt shoxiga chiqib olibdi va o'sha yerdan turib:

— Sen doim yomonlikni o'ylaganing uchun jahldorsan. Biz esa hech kimga yovuzlik qilmaymiz, shuning uchun doimo quvnoq va baxtiyormiz, — debdi bo'rining savoliga javoban olmaxon.

ENG BOY XOLA

Olmon xalq ertagi

Ota va ona o'rdak bolalarini yotqizib, endi hordiq chiqarmoqchi ekan, eshik taqillab qolibdi. Ota o'rdak eshikni ochgan ekan, bashang kiyingan Boyvuchcha xolaga ko'zi tushibdi. Mehmon taklifni kutmayoq ichkariga kiribdi.

— Men bolalaringizdan bittasini so'rab keldim. Kambag'al bo'lsangiz ham, bolalaringiz ko'p. Men boyman-u, ammo farzandim yo'q. Ulardan birini bersangiz, hammamiz baxtli bo'lardik.

Ota o'rdak qaysisini bersak ekan, degandek ona o'rdakka qarab qo'yibdi.

— Bilmadim, — debdi ona ma'yus. — Bolalar uxlab yotibdi, ko'raylik-chi. Ota o'rdak fonar yoqib, ona o'rdak bilan yuqori qavatga ko'tarilibdi.

— To'ng'ich o'g'limizni tanlaymizmi? — debdi ota o'rdak.

— Yo'g'-e, to'ng'ichimiz siz bilan yer chopadi-ku. Keyingi karovatda katta qizimiz yotibdi. O'shani bera qolaylik.

— U senga uy ishlarida yordam berib turibdi.

Ota-oná navbatdagi karovatga qarashibdi.

U yerda qizlari pishillab uxlab yotgan ekan. Ularni ham bergilar kelmabdi. Kichkintoy judayam chiroyli ekan-da.

— Kenja o'g'limizni beramizmi?

— E, yo'q, — debdi ona o'rdak. — Uni ham bera olmaymiz. Axir, asaltoyimiz hammamizdan ham yaxshi suzadi.

Ular burchakdagi karovatga qarashibdi. U erda Diki Di yotgan ekan.

Diki qanotlari orasidan boshini chiqarib mo'ralab-mo'ralab qo'yibdi.

Ona o'rdak esa ko'rpasini to'g'rilib, ustiga yopibdi. Ular Diki Dini ham tanlay olishmabdi. Boy xolaning oldiga tushib, farzandlaridan birontasini ham bera olmasliklarini aytishibdi. Boy xola g'alati bo'lib ketibdi. Umrida birinchi marta uyi to'la boyligi, zeb-u ziynati tatimay qolibdi. Birozdan keyin ona o'rdakning yoniga o'tiribdi-da, yirtiq-chirtiqni birgalikda yamashga tushibdi.

TENTAKVOY QANDAY QILIB OYNI QUTQARDI?

Efiopiya xalq ertagi

Bor ekan-u, yo‘q ekan, bir qishloqda Tentakvoy yashar ekan. Bu qishloqning odamlari ham ancha sodda ekan. Bir kuni Tentakvoy suv olgani quduqqa boribdi. Bir zumda atrofga qorong‘i cho‘kibdi. Tentakvoy quduqqa qarasa, u yerda Oy turganmish.


— Sho‘rimiz qurib qoldi, yordam beringlar! — deb qichqiribdi u. — Oymoma cho‘kib ketyapti.

Qishloq odamlari yugurib kelishibdi. Ular tezda quduqdagi bor suvni chelaklab tortib olishmoqchi bo‘lishib, ishga tushishibdi. Qancha urinishsa ham, Oymomani tuta olishmabdi. Bir payt arqonga nimadir ilinib qolibdi.

— Bu — Oymoma, boshqa narsa bo‘lishi mumkin emas, — debdi Tentakvoy. — Qani, hammamiz bir tortaylik-chi!

Hamma bor kuchi bilan tortibdi, birdan arqon uzilib, ular chalqanchasiga yerga yiqilishibdi. Tepaga qarashsa, Oymoma osmonda turgan emish.

— Ura, qutqardik! — deb qichqiribdi Tentakvoy. — Oymoma osmonga chiqib olibdi. Oymoma bizga rahmat aytsin, biz harakat qilmaganimizda u bir umr suvdan chiqa olmasdi.



KAKLIKNING NEGA DUMI YO‘Q?

Afrika xalq ertagi

Mavu qushlarga qanot ulashibdi-yu, dumga kelganda uni har kim o‘zi sotib olishi shartligini aytibdi. Dumlar qaysi bir shaharda sotilib, narxi besh kauri turarkan.

Mavu hamma qushlar yig‘iladigan kunni aytibdi. Tayinlangan kunga qushlar kauri bilan kelib, o‘zlariga yoqqan dumni sotib olishibdi. Faqat kaklik kelmabdi; bechora pulsiz qolgan bo‘lsa kerak-da.

Mavuning unga rahmi kelib, bir oz kutishga qaror qilibdi: balki u shunchaki hayallayotgandir?

Ammo kaklik kelmabdi. Shunda Mavu unga atagan dumni yovvoyi kaptarga sotib yuboribdi.

Kaptar shahardan qaytib kelgandan so‘ng kaklikka dumini ko‘rsatib, maqtana boshlabdi:

—Shahar ikki qadam, nega u yerga uchib borishga qo‘rqasan? O‘zingga ziynat sotib olarding?

Kaklik bo‘lsa unga javoban:

—Ziynat degani jasurlikka kirmaydi,—debdi.

Shunday qilib ular san-manga borib qolishibdi. Aytishlaricha bu janjal shu kunlargacha ham tugamagan emish. Kaptar kaklikni ko‘rdi deguncha:

—Shahar yaqin, shahar yaqin!—deb mayna qilib baqirishga tusharkan. Kaklik esa unga:

—Ziynat degani jasurlikka kirmaydi,—deb javob qilarmish.

O‘sha kundan boshlab, ular o‘rtasidagi ahillik yo‘qolibdi.

QISQICHBAQA VA QARG‘A

Litva xalq ertagi

Kunlardan birida och qolgan qarg‘a ko‘l ustidan uchib keta turib qisqichbaqa ni tutib olibdi. Qisqichbaqa ko‘radiki, ish chatoq, shundan keyin qarg‘ani maqtay boshlabdi:

— Qanday go‘zalsan-a, qarg‘ajon, bu-naqangi chiroyli patni hech bir qushda ko‘rmaganman-a!

Qarg‘a indamabdi, hech qanday javob ham bermabdi, qisqichbaqa bo‘lsa maqtayveribdi:



— Ovozing ham yoqimli bo'lsa kerak-a?
 Maqtovdan qarg'a hushidan ketayozibdi, lekin hech narsa demabdi. Bir ozdan keyin qisqichbaqa yana maqtay boshlabdi:
 — Chindan ham jamiki qushlarning podshohi bo'lsang kerak-a?
 Qarg'a faqat:
 — Ha, — debdi.
 Qisqichbaqa shalop etib suvga tushibdi-yu, suzib ketibdi. Qarg'a bo'lsa og'zini ochganicha qolaveribdi.

TUYANING QISMATI

Uyg'ur xalq ertagi

Qadim zamonalarning birida chiroyli tuya bo'lgan ekan. Uning tarvaqaylab o'sgan chiroyli shoxi, ipakdek mayin yoli, uzun dumi, har qanday sharpani eshitadigan uzun qulog'i bor ekan. Uning har jihatdan to'kisligi hamma hayvonlarning havasini keltirar ekan. Ular tuyadagi biror narsani o'zlariga olish payida yurishar ekan. Bir kuni tuya o'tlab yurganida yoniga bug'u kelibdi.



— Assalomu alaykum, bizning go'zalilikda tengsiz shohimiz. Sizga qasd qilganchalar past bo'lsin, — deb uni alqay ketibdi bug'u. So'ng maqsadga o'tibdi. — Ey, qadrdon tuya aka, men ota-onamni ko'rgani borib kelmoqchi edim. Chiroyli shoxingizni bir-ikki kunga berib tur-sangiz, qaytib kelgan kunim qaytarib beraman.

Tuya maqtovlarga uchib unga shoxini beribdi. Bug'u shoxni boshiga qo'ndirib jo'nab qolibdi. Bir kuni tuyaning yoniga eshak kelibdi.

— Ey, go'zallik xoqoni, agar imkoni bo'lsa, menga qulog'ingizni berib tursangiz. Biz qishloq uchun mos joy qidirib kelmoqchimiz. Mana shu turq-tarovatim bilan boshqa hayvonlarning ko'ziga ko'rinxay qo'ya qolay, — debdi eshak.

Tuya erib ketib unga qulog'ini beribdi. Oradan bir necha kun o'tgach, ot kelibdi.

— Ey, go'zallik podshosi, sizning oldingizga bir o'tinch bilan keldim. Iltimosimni yerda qoldirmassiz, degan umiddaman. Sizning husningiz bo'lgan dumingizni berib tursangiz. Narigi yaylovda akam to'y qilayotgan ekan. To'ydan qaytgan kunim darrov qaytarib beraman, — deb yolvoribdi ot.

Tuya unga sumi bilan yolini beribdi. Shu ketganicha qaytib uning ko'ziga ko'rinxabdi. Tuya ularni to shu kungacha kutar emish. Hatto suv ichayotganda ham kelishmayotganmikin, degan ilinjda yon-veriga qarab qo'yar ekan.

QO'LQOP

Ukrain xalq ertagi

Bobo o'rmondan o'tib ketayotgan ekan, ketidan kuchukchasi ergashibdi. Bobo ketaveribdi, bir mahal yo'lda qo'lqopi tushib qolibdi.

Bir sichqon yugurib kelib, qo'lqop ichiga kirib olibdi.

— Endi men shu yerda yashayman! — debdi u. Shu vaqt sakrab-sakrab, qurbaqa kelib qolibdi:

- Bu qo'lqopda kim yashaydi! — debdi u.
- Kumur-kumur sichqonboy yashaydi. O'zing kimsan?
- Vaqir-vuqur qurbaqaman, menga ham joy ber!
- Kela qol.

Endi ular ikkovlashib yashay boshlashibdi. Qo'lqop yoniga yugorganicha quyonvoy yetib kelibdi.

- Bu qo'lqopda kim yashaydi?
- Kumur-kumur sichqonboy, vaqir-vaqir qurbaqa yashaydi. O'zing kimsan?
- Shalpangquloq quyonman. Meni ham kiritilgalar!
- Kela qol.



Endi ular uchta bo'lishibdi. Zing'illagancha tulki yetib kelibdi:

- Bu qo'lqopda kim yashaydi?
- Kumur-kumur sichqonboy, vaqir-vaqir qurbaqa, shalpangquloq quyonvoy, o'zing kimsan?

— Tulkinisa bo'laman. Meni ham kirittinglar!

Shu bilan endi ular to'rtta bo'lishibdi. Bir mahal qarashsa, qo'lqop tomonga Bo'rivoy yugurib kelib qolibdi.

- Bu qo'lqopda kim yashaydi?
- Kumur-kumur sichqonboy, vaqir-vaqir qurbaqa, shalpangquloq quyonvoy va tulkinisa, o'zing kimsan?
- Bo'rivoymen. Meni ham kirittinglar!
- Ha, kela qol!

U ham kiribdi, endi ular beshta bo'lishibdi. Shunda birdaniga allaqayoqdan so'yloq tish to'ng'iz kelib qolibdi:

- Xur-xur-xur, qo'lqopda kim yashaydi?
- Kumur-kumur sichqonboy, vaqir-vaqir qurbaqa, shalpangquloq quyonvoy, tulkinisa va bo'rivoy. O'zing kimsan?
- So'yloq tish to'ng'izman, meni ham kirittinglar!
- Ana xolos, hammaning ham qo'lqopga kirgisi kelaverar ekan-da.
 - Sig'maysan, axir!
 - Bir iloj qilib sig'ib qolarman, kirittinglar!
 - Nima ham derdik, kira qol!



bo'kiribdi.

- Kumur-kumur sichqonboy, vaqir-vuqur qurbaqa, shalpangquloq quyonvoy, tulkixon, bo'riboy, so'yloq tish to'ng'iz. O'zing kimsan?
- Xo'-xo'-xo', ancha-muncha ekansizlar-ku! Men ayiq polvon bo'laman, meni ham kirittinglar!


- O‘zimiz sig‘mayapmiz-ku, seni qayerga kiritamiz?
- Bir ilojini qilinglar!
- Ha mayli, nima ham derdik, bir chekkaga kela qol!

U ham kiribdi, yettita bo‘lishibdi, qo‘lqop yorilay-yorilay deb arang tur-ganmish.

Bir vaqt bobo qarasaki, qo‘lqopi yo‘q. Qidirib topay deb orqasiga qaytibdi. Kuchukchasi oldiga tushib yuguribdi. U yugurib ketaveribdi. Bir mahal qarasa, qo‘lqop yerda yotganmish, o‘zidan-o‘zi qimirlar emish. Kuchukcha buni ko‘rib:

- Vov, vov, vov! — deb huribdi.

Qo‘lqop ichidagilar qo‘rqib ketishibdi, yugurib chiqib, o‘rmonga qarab qochishibdi. Bobo kelib, qo‘lqopini olib ketibdi.



O'zbek bolalar adabiy ertaktari

Aziz ABDURAZZOQ

BOYCHECHAK

Ra'no degan qiz bor ekan. Ularning uyi shahardan chetroq joyda ekan. Derazadan qarasa, kattakon dala, dalaning narigi boshida tepaliklar ko'rinish turar ekan.

Bir kuni qor yog'ib turganida Ra'noning buvisi shahardan mehmon bo'lib kelibdi. Ra'no juda suyunibdi. Buvisi unga kechqurunlari ertaklar aytib beribdi. Ba'zida u Ra'noga ashula ham aytib berar ekan. Ayniqsa, buvisining boychechak haqidagi ashulasi Ra'noga juda yoqib qolibdi. Ra'no uni yodlab olib, har kuni aytadigan bo'libdi. Bir kuni u buvisidan boychechak qayerda o'sishini so'rabdi. Buvisi Ra'noni deraza yoniga boshlab borib, dalani, tepaliklarni ko'rsatibdi.

— Huv, o'sha dalada, tepaliklarning etagida boychechak uqlab yotibdi, — debdi buvisi.

— U qachon uyg'onadi? — deb so'rabdi Ra'no.

— Qorlar erib, bahor kelayotganida eng birinchi uyg'onadigan gul boychechak bo'ladi, qizim, — debdi buvisi.

— O'shanda men sizga boychechak terib kelaman, — debdi Ra'no.

U o'sha kundan boshlab qorlarning erishini, boychechakning yerdan chiqishini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Har kuni ertalab o'midan turganida qorlar eriganmikan, deb tashqariga qaraydigan bo'libdi. Buni buvisi sezib yurgan ekan.

— Qorlar hali erimaydi, qizim, — debdi u. — Erisa, yana yog'adi. Hali to'qson chiqishiga ancha bor.

— To'qson nima, buvi? — deb so'rabdi Ra'no.



— To'qson deganim to'qson kunlik qish-da, qizim, — debdi buvisi. — To'qson chiqadi, undan keyin navro'z keladi, ana o'shanda boychechak ochiladi.

— Navro'z kim, buvi? — deb so'rabdi Ra'no.

— Navro'z — bayram, — debdi buvisi. — Bahor bayrami. Ungacha men uyimga borib kelay. Men kelguncha sen boychechak haqidagi ashulani o'rtoqlaringga ham o'rgatib qo'y. Boychechak ochilganida borib ashula aytib, terasizlar. Shunday deb buvisi shaharga jo'nab ketibdi.

* * *

Ra'no buvisining aytganini qilib o'rtoqlariga ashula o'rgatibdi. Bir kuni qorlar erib, yerlarning loyi qurib, ko'm-ko'k o'tlar chiqib, kunlar sal-pal isib, shamollar ham odamga yoqadigan bo'lib qolganida Ra'noning buvisi shahardan kelibdi. Ra'no juda suyunibdi. Buvisi hamma bilan ko'rishihibdi. Keyin buvisi Ra'noning oyisi, dadasi bilan gaplashib o'tirganida:

— Buvi, endi to'qson chiqdimi? — deb so'rabdi.

— Ha, qizim, endi boychechak tersang bo'ladi, — debdi buvisi. — To'qson allaqa-chon chiqib ketdi. Ertaga Navro'z bayrami boshlanadi.

Ertasiga Ra'no ko'chaga chiqib o'rtoqlarini topibdi. Ular derazadan ko'rinish turadigan dalaga yugurishibdi. U yerdagi tepalik-larning yoniga borib boychechak izlashibdi. Bu vaqtida boychechaklar endigina uyqidan uyg'onib, yerning tagidan qanday chiqishni o'ylab turishgan ekan. Ulardan bittasi qizlarning ovozini eshitishi bilan yerni yorib, boshidagi tuproqni silkitib chiqibdi. Lekin atrofga qarab, qizlarni ko'rmabdi. Chunki oftob charaqlab turganidan uning ko'zları qamashib qolgan ekan. Shunda haligi boychechak osmonga qarab, ingichka ovoz bilan:

— Salom, quyosh! — deb qichqiribdi. U xursand bo'lib kulgan ekan, atrofdagi tepaliklar qo'ng'iroqday jaranglab ketibdi. Uning ovozini eshitib, qizlar yugurib kelishibdi.





- Kim u kulayotgan? — debdi Ra'no.
- Bu men — boychechakman. Salom, qizlar! — debdi boychechak.
- Qizlar ham baravariga:
- Salom, boychechak! Navro'z bayraming muborak bo'lsin! — deyishibdi.
- Keyin ular boychechakning atrofida o'yinga tushib, Ra'noring buvisi o'rgatgan ashulani boshlab yuborishibdi:

Boychechagim boylandi,
 Qozon to'la ayrondi,
 Ayroningdan bermasang,
 Qozonlaring vayrondi.
 Qattiq yerdan qazilib chiqqan boychechak,
 Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak.
 Boychechakni tutdilar...

- Yo'q, meni tutmanglar! — debdi boychechak.
- Qizlar jim bo'lib qolishibdi.
- Meni yulmanglar! — debdi u yana. — Bo'lmasa, oyimni chaqiraman. Oyi!
 Shunday deyishi bilan uning yonidan bitta katta boychechak o'sib chiqibdi...

* * *

- Kim mening bolamni xafa qilmoqchi! — debdi u.
- Shunda qizlar yana o'yinga tushib, boshqa ashulani boshlab yuborishibdi:

Boychechakning bolasi, bolasi,
 Qulog'ida donasi, donasi.
 Donasini olay desak,
 Yugurib chiqdi onasi, onasi.

Keyin ular baravariga:

- Salom, boychechakning onasi! Navro'z bayraming muborak bo'lsin! — deyishibdi.

Boychechakning onasi jahlidan tushib, u ham salomlashibdi:

- Salom, qizlar! — debdi. — Sizlar yaxshi ekansizlar. Men bo'lsam bolamni olib ketasizlar, deb o'yabman.



— Olib ketamiz-u, lekin yana olib kelib, o'zi o'sgan joyga ekib qo'yamiz, — debdi Ra'no. — Bugun bayram. Uyda buvimlar borlar. Men buvimplarga boychechak olib kelaman, degan edim.

Boshqa qizlar Ra'noning gapini tasdiqlashibdi. Ular ham buvilariga, buvalariga boychechakni olib borib ko'rsatmoqchi ekanliklarini aytishibdi. Bunga boychechakning onasi rozi bo'libdi.

— Bo'lmasa, bizlarni ildizimizdan uzmasdan, loy bilan qo'shib olinglar, — debdi u. Keyin boshqa bolalarini chaqiribdi:

— Hoy, bolalarim, chiqinglar, navro'z keldi, bizlarni qizlar o'ynatib kelishmoqchi.

U shunday deyishi bilan butun atrofdan boychechaklar boshlaridagi tuproqni silkitib chiqib kelishibdi. Qizlar ularni avaylab bitta-bittadan olib uylariga yugurishibdi. Hammalari buvilariga, buvalariga olib borib ko'rsatishibdi. Buvalari, buvalari boychechaklarni qo'llariga olib, "omonlik, omonlik", deb yuzlariga, ko'zlariga surtishibdi. Keyin qizlar boychechaklarni olib ketib, joyjoyiga ekib qo'yishibdi. Ashula aytib, uy-uylariga tarqalishibdi.

Agar har yili Navro'z bayramida qizlarning boychechak haqidagi ashulasini eshitsangiz, bu Ra'nolarning ovozi deyavering. Chunki bu atrofda Ra'no bilan o'rtoqlaridan boshqa hech kim boychechak haqida bunchalik chiroqli ashula aytolmaydi.

MEHMON KELDI

Бир бор екан, бир yo'q екан, Ra'no degan qiz бор екан. У уйда бирор исхилиши керак bo'lsa, ойисининг айтшини кутиб турмай баярaverар екан. Bir kuni u ertalab turib oyisiga tushini aytibdi:

— Oyi-chi, oyi, bugun yaxshi tush ko'rdim. Tushimda menga yo'l-yo'l chit ko'ylak olib kelganmishsiz.

— Yaxshi tush ko'ribsan, — debdi oyisi. — Yo'l-yo'l chit ko'ylak ko'rgan bo'lsang, demak, uyimizга mehmon kelar екан.

Bu gapni eshitgan Ra'no oyisi bilan dadasi ishga ketganidan keyin uylarni, hovlilarni supurib, hamma yoqni chinniday qilib qo'yibdi. Ammo o'sha kuni hech qanday mehmon kelmabdi-yu, kechqurun oyisi Ra'noga xuddi tushida ko'rganiday ko'ylak olib kelibdi.

Bir kuni ertalab choy ichib o'tirishganida Ra'no oyisiga ikki burda nonni ko'rsatibdi. Ularning ikkovi ham tishlangan ekan.

— Qarang, oyi, bilmasdan ikkita non tishlab qo'yibman.

— Demak, mehmon kelar ekan-da, — debdi oyisi.

Yana bir kuni ertalab choy ichib o'tirishganlarida oyisiga choy quyilgan piyolasini ko'rsatibdi.

— Buni qarang, oyi, — debdi Ra'no. — Choyimda bitta cho'p tippa-tik turibdi.

— Yaxshi, — debdi oyisi. — Demak, mehmon kelar ekan-da.

Ra'no bu gapdan xursand bo'libdi, oyisi bilan dadasi ishga ketganlaridan keyin uylarni, hovlini, hatto ko'chani ham supurib, tozalabdi, tovoq-qoshiqlarni yuvibdi, stolga dasturxon yozib, har xil non, shirinlik va mevalarni terib qo'yibdi.

Keyin ko'cha eshigini ochib qo'yibdi. Ostonada mehmonlarning kelishini kutibdi. Ammo bu gal ham hech qanday mehmon kelmabdi. Ra'no xo'rsinib, uyga kirib ketibdi.

Shu-shu, Ra'no mehmon kelib qolar deb, har kuni hamma yoqni tozalab ozoda qilib qo'yadigan bo'libdi. U qo'lida ushlab turgan bir narsasi yerga tushib ketsa ham, daraxtda, zag'izg'on sayrab qolsa ham, mehmon keladi deb suyunadigan bo'libdi. Bir kuni hovlisidagi o'rikning eng uchida zag'izg'on sayrabdi. "Mehmon keladi", deb o'ylabdi Ra'no. Zag'izg'on

ko'cha tomonga qarab uchgan ekan, Ra'no yugurib ko'chaga chiqibdi.

— Zag'izg'on, mehmonlarga ayt, bizlarnikiga kelishsin! — deb qichqirib qolibdi.

Shu payt:

— Mana, mehmon bo'lib kelyapmiz, — degan ovoz eshitilibdi.

Ra'no qarasa, buvisi bilan xolasi ko'chadan o'tishayotgan ekan. Ra'no yugurib ularning oldiga boribdi. Buvisi ham, xolasi ham u bilan quchoqlashib ko'rishihibdi. Ular uyga kirganlarida hamma yoq ozoda, tartibli bo'lgani uchun Ra'noni rosa maqtashibdi.



Mahmud MURODOV

TO'P

Bir to'p bor ekan. U dum-dumaloq, bir tomoni loladek qizil, bir tomoni gul bargidek yashil, juda chiroyli ekan. Uning qo'li ham, oyog'i ham bo'limgan ekan. Shunga qaramay, tinib-tinchimas ekan. Hali osmonga sakrar, hali yerga tushar, hali chetga sapchir, hali o'tloqqa yumalarkan. Ba'zan karovat tagiga kirib, jim yotarkan.

Bolalar to'p ketidan quvishar, lekin to'p tutqich bermay qochaverarkan.

Bir kuni to'p sakrab, tomga chiqib olibdi. Bunday qarasa, hovlidagi supada xo'ppa semiz bola pishillab uqlab yotganmish. To'pning g'ashi kelibdi. Hamma bolalar o'ynab yursa-yu, bu...

To'p bir sakrab bolaning qorniga tushibdi, bola cho'chib uyg'onib:

— Kimsan? — deb baqiribdi.

— To'pman. Nega shu paytgacha uqlab yotibsan? Qorningni qara, shishib ketibdi, — debdi to'p.


— Ishing bo'lmasin. Jo'na bu yerdan.

Bo'lmasa, dodingni beraman, — debdi-da, bola to'pga bir musht tushiribdi.

To'p uchib borib, supa chetidagi daraxt tanasiga zarb bilan urilibdi-da, qaytib kelib bolaning boshiga tegibdi. Bolaning jahli chiqibdi. U o'midan turib, to'pni tepibdi. To'p devorga urilib, yana qaytib kelibdi. Bu gal bola zarb bilan bir tepgan ekan, to'p devordan oshib ko'chaga tushibdi.

— Baribir, qaytib kelaman, — deb baqiribdi to'p.

Har kuni to'p devordan, tomdan oshib tushaveribdi. Bola uni haydab, tepaveribdi. Shunday qilib, to'p yalqov bolani chaqqon, kuchli qilib yuboribdi. Bola bundan xursand bo'lib, to'p bilan do'stlashib olibdi.



MIRMUHSIN

OLXO'RI VA O'RIK

Bahor keldi. Bog'larda gullar ochildi. Osmonda qushlar uchdi. Yerda chumolilar o'rmalashdi. Ariqlarda suvlar shildirab oqdi.

Zumrad degan jamalak sochli puchuqqina qizcha bog'ga kirdi.

U ko'm-ko'k maysalarni oralab, ko'priklardan o'tib, olxo'ri daraxtining tagiga keldi. Qo'llarini ko'targan edi, bo'yi yetmadi. Keyin u:

— Olxo'ri, olxo'ri! Dovuchchangdan ber! — dedi.

Olxo'ri bo'lsa:



— Tez kunlarda pishaman,
Savatchangga tushaman,
O'shanda kel! — dedi.

Zumrad o'rik daraxtining yoniga keldi. Qo'llarini uzatdi. Bo'yi yetmadi. Keyin u:

— O'rik, o'rik! Dovuchchangdan ber! — dedi.
O'rik bo'lsa:

— Tez kunlarda pishaman,
Yerga tap-tap tushaman,
O'shanda kel! — dedi.

Zumrad bir quchoq chuchmoma, lolaqizg'aldoqlarni olib, bog'dan qaytib chiqdi.

Bir kuni Zumrad yana ko'm-ko'k maysalarni oralab, ko'priklardan o'tib, bog'ga kirdi. Olxo'ri daraxtining yoniga kelib, qo'llarini uzatdi:

— Olxo'ri, olxo'ri! Olxo'ringdan ber!

Shoxlari egilib yotgan olxo'ri shunday dedi:

— Savatchangga sol, pishdim,
Shakar bo'lib yetishdim.
Qizlarga ulash, mayli,
Tishlaring qamashmaydi.

Zumrad egilib turgan shoxlardagi sap-sariq olxo'rilarni savatchasiga soldi. Undan keyin o'rikning yoniga keldi:

— O'rik, o'rik! O'rigingdan ber! — dedi.

— Savatchangga sol, pishdim,
Shakar bo'lib yetishdim.
Qizlarga ulash, mayli,
Tishlaring qamashmaydi, — dedi.

O'rikni bir silkitgan edi, yumshoq bo'lib pishgan o'riklar yerga tap-tap tushib, paq-paq yorila boshladi.

Zumrad o'riklarni terib, savatchasini to'ldirdi. Yana ko'm-ko'k maysalarni oralab, ko'priklardan o'tib, qaytib ketdi.

Rauf TOLIB

GULLAR VA SHAMOL

Bir bor ekan, bor bo'lganda ham, bir-biridan chiroyli, bir-biridan xushbo'y gullar bor ekan. Tong chog'ida yellar mayin esganida ular asta-sekin tebranishar, raqsga tushisharkan. Quyosh bobo ko'kda jilmayib ko'ringanida, gullar yana ham ochilib ketisharkan. O'tgan-ketganlarning ularga havasi kelarkan. Lekin ular o'rtasidagi bahsni hech kim eshitmas ekan. Faqat Shamolgina...

— Gullar ichida eng sarasi o'zimman, — debdi oltindek yaraqlagan Sariq gul himhim tovlanib. — Shu'la sochishda quyoshga o'xshayman. Qarab turib, quyoshning ham menga havasi keladi.

— Sal pastroq tushing, juda oshirib yubordingiz-ku, — debdi Oq gul g'ashi kelib. — Chamanga oro bergen men bo'laman. Tong o'z chiroyini mendan olgan. Siz quyosh bo'lsangiz, men oyman.

Gulsafsar bu gaplarni eshitib, chidab turolmabdi.

— Bu yerda biz ham bormiz. Odamlar bizga bekorga qarashmaydi.

— Husnda tanho men o'zimman, — debdi kerilib Pushti gul.

— Chiroyda menga teng keladigan gul topilmasa kerak, yo gapim yolg'onmi? —



debdı Karnaygul va Atirgulga qarabdi. Maqtanchoqlarning gapidan Atirgulning yuzlari qip-qizarib, lov-lov yonib ketibdi. Rayhon esa uyalganidan o'zini gullar panasiga olibdi.

Shu payt daryo tomondan esgan Shamol bog'ga kirib kelibdi-da, gullar gapini eshitib qolibdi. Eshitibdi-yu, hayron bo'libdi.

— Gullarjon, — debdi Shamol chidolmay. — Ayting-chi, kim o'zini maqtaydi? Nahotki, sizlar...

Kutilmaganda gullar ham jim bo'lib qolishibdi. Shamol esa gapida davom etibdi:

— Men chiroyliman, deb bir-biringizga gal bermaysiz-a? Rayhonga qarang, u xunukmi?

Hamma Rayhonga yalt etib qarabdi. Maqtovlarga o'rganmagan Rayhon qimtinib, o'zini panaga olibdi.

— To'g'ri, — debdi Shamol — u biroz ko'rimsiz. Lekin xushbo'ylikda sizdan qolishmaydi. Sizga aytsam, har biringizning o'z o'rningiz bor. Unutmangki, maqtanish yaxshilikka olib kelmaydi.

Gullar ohista tebranishibdi. Shamolning gaplarini tasdiqlashibdi. Shamol ham shod bo'libdi-da, ularning xushbo'y hidini uzoq-uzoqlarga olib ketibdi. Shu bilan ertak ham tamom bo'libdi.



Muxtor XUDOYQULOV

BEBOSH VARRAK

— **M**en xohlagan joyimda uchaman, hech kimga bo‘ysunmayman, — deb i pini uzib ketdi baland osmonga uchirilgan Varrak. Lekin o‘scha zahotiyoy chirpirak bo‘lib yiqilib tushdi.

O‘zboshimchalikning oqibati shu-da!

**BEDANA**

Hamma qushlar, parrandalar in qurishib yashashar, Bedana esa: “Bedananing uyi yo‘q, qayga borsa pitpildiq”, — deb yallo qilib yurardi. Oxiri borib tuzoqqa ilindi.

Kim ishyoqmas bo‘lsa, holiga voy.

BESHIKTERVATAR

— **B**uncha nimjonsan, Beshiktervatar? — deyishdi Beshiktervatarga.

— Jussamga emas, ishimga qaranglar, — dedi u. — Men hatto ilonga ham bas kela olaman.

Uning g‘ayratiga balli, deyishdi.



Jahon bolalar adabiy ertaklari

Aka-uka GRIMMLAR,
Germaniya

TULKI BILAN G'OZLAR

Bir kuni Tulki o'tloqqa kelibdi. O'tloqda ajoyib, semiz-semiz g'ozlar sayr etib yurgan ekan. Tulki ularni ko'rib juda sevinib ketibdi-da:

— Maza bo'ldi, hozir hammangni yeyman! — debdi.

G'ozlar esa:

— Tulkijon, bizlarni yema, rahm qil! — deya yalinishibdi.

— Rahm qilish-a, bo'limgan gap. Hammangni yeyman, — debdi yana Tulki.

Endi qanday qilib qutulsak ekan, deb o'ylab qolishibdi g'ozlar.

Shunda bittasi:

— Tulkijon, o'lish oldidan bitta qo'shiq aytishimizga ruxsat ber. Qo'shiqni aytib bo'lganimizdan keyin hammamizni yeysan. Hatto o'zimiz qarshingda qator tizilib turamiz, semizrog'imizni tan-lashing oson bo'ladi, debdi.

— Mayli, qo'shiq aytsangiz, ayta qolinglar, — debdi Tulki. Dastlab bitta g'oz qo'shiq aytibdi. Uning qo'shig'i mana bunaqa uzundan uzoq ekan: "G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!.."

Undan keyin ikkinchi g'oz jo'r bo'libdi: "G'a-g'a-g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!.."

Undan keyin uchinchi g'oz: — "G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!.." deb qo'shiq boshlabdi.

Ulardan so'ng to'rtinchisi xonish qilibdi: "G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!.."

To'rtinchchi g'ozdan keyin beshinchi g'oz ham: "G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!.." — deb qo'shiq boshlabdi.

Oxiri hamma g'ozlar birgalikda qichqirib "g'a-g'a-g'a" lashishga tushibdilar:



“G‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a,
g‘a-g‘a-g‘a!..”

Qachonki g‘ozlar qo‘srig‘i tamom bo‘lsa, ertak ham tugaydi. Shundagina tulki g‘ozlarni yeydi.


Biroq aqlli g‘ozlar qo‘sishni to‘xtatishni o‘ylashmabdi. Ular hozir ham:
“g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a...” — deb qichqirishib turgan emish.

Mkrtich KORYUN,
Armaniston

KIM AQLLI?

Qkki chumchuq chug‘urlashib qolishdi.

- Men aqlliman!
 - Yo‘q, men aqlliman!
 - Sen emas, men!
 - Yo‘q, sen emas, men!
- Bu bahsni qizilishton ko‘rib turgan edi.
- Sen ayt-chi, qaysi birimiz haqmiz? —
- deb so‘rashdi undan janjalkash chumchuqlar.
- Qizilishton biroz xayolga cho‘mdi, keyin:
- Menimcha, kim oldin jim bo‘lsa, o‘sha aqlliyoq, — dedi.



Korney CHUKOVSKIY,
Rossiya

JO‘JA

Bir jo‘ja bo‘lgan edi. U kichkinagina edi. Lekin o‘zini nihoyatda kattaman deb o‘ylar va boshini yuqoriga ko‘targanicha savlat to‘kib yurar edi. Mana bunday:



Uning onasi bor edi. Onasi Jo‘jani juda yaxshi ko‘rardi. Onasi mana bunday edi:



Onasi uni chuvalchanglar bilan boqardi.

Kunlardan bir kuni Qora mushuk Onasiga hamla qildi va uni hovlidan nariga quvib yubordi.



Jo‘ja devor yonida yolg‘iz o‘zi qoldi.

Shu payt devor ustiga baquvvat, nihoyatda ko‘rkam bir Xo‘roz uchib chiqib bo‘ynini mana bunday cho‘zdi:



Va bor ovozi bilan: “Qu-qu-qu-quv!” – deb qichqirdi. So‘ngra “Men qanday botirman-a! Men qanday polvonman-a!” – deganday viqor bilan tevarak-atrofga qarab qo‘ydi.

Xo‘rozning o‘zini bu darajada mag‘rur tutishi Jo‘jaga juda yoqdi. U ham bo‘ynini cho‘zdi. Va bor kuchi bilan chiyilladi: “Chi-chi-chi-chi! Men ham botirman. Men ham polvonman!” Lekin qoqinib ketib, “shalop” etib ko‘lmakka yiqlib tushdi. Mana bunday:



Ur, to'qmoq. O'zbek xalq ertagi



Ko'lmakda Qurbaqa o'tirgan edi. U Jo'jani ko'rib kulib yubordi: "Xa-xa-xa-xa! Xa-xa-xa-xa! Xo'rozday bo'lishingga hali ancha bor!" Qurbaqa esa mana bunday edi:



Shu payt Jo'janing yoniga Onasi yugurib keldi. Unga mehr ko'rsatib, erka-ladi. Mana bunday:



Donald BISSET,
Angliya

OYNADAGI QURBAQA

Yorug' jahonda Rojer degan kuchukcha yashardi. Uzzukun oynaga qaragan-qaragan edi.

— Rojer, oynaga qarashni bas qil-chi! — derdi onasi.

Royer oynaga qarar ekan: "Men eng chiroyli kuchukman", — deb dum-larini likillatib qo'yardi.

Kunlardan birida Rojer o'ynagani ko'chaga chiqib ketibdi. Onasi devordagi oynani olib, bo'sh oyna raxining o'zini osib qo'ydi. So'ngra hovlisi atrofidagi

ko‘lmakda yashayotgan qurbaqani chaqirdi va undan oyna raxiga chiqib turishi-ni iltimos qildi.


Royer uyga keliboq oynaga chopdi.

Xo‘sh, u oynada nimani ko‘rdi?

— Yo‘q, yo‘q, yo‘q, bu men emas. Bunday bo‘lishi mumkin ham emas! — deya akilladi Royer va oynaga qaradi. O, vov-vov, uning barmoqlari buncha beo‘xshov! Xuddi qurbaqanikiga o‘xshaydi-ya! Axir, u qurbaqa emas, eng chiroyli kuchukcha-ku!

Royer ko‘zlarini chirt yumdi, yana ochdi. Va yana oynada qurbaqavoyni ko‘rdi.

Voy, tasqara Royer!



“Agar qurbaqa bo‘lsam, ko‘lmakda yashashim kerak, — deya o‘yladi Royer. — Yaproqlarni kema qilib pashsha tutaman. Suyak-ku yaxshi-yu... qurbaqa bo‘lgach, nachora”.

U ko‘lmak tomon chopib ketdi. U yerda yaproqqa o‘tirib olib kuta boshladidi. Axir, u qurbaqa yemasidda! Barglar uni ko‘tarolmas, Royer bilan birga suvga sho‘ng‘iy boshlashdi. Royer burnigacha suvga botib ketdi. Shu payt ko‘lmakdan bir qurbaqa sakrab chiqdi.

— Vaq-vaq! Nima qilyapsan bu yerda, esi past kuchukcha?

— Men kuchukchaga o‘xshaymanmi? — hayron bo‘ldi Royer va suvdan boshini chiqardi. — Haqiqiy kuchukchaga-ya?

— Yana nimaga bo‘lmasa? Oynaga qaraganmisan, suvdan chiqib aksingga qara-chi? Vaq-vaq! Voy, noshud kuchukcha-yey!

Royer qirg‘oqqa chiqdi-da, suvga qaradi: — Vov, vov, men kuchukchaman! — Dumlarini likillatib, irg‘ishlab uyiga jo‘nadi. Endi u oynaga qaraydimi, yo‘qmi? Kim biladi, a, bolalar?

O'zbek bolalar she'riyati

“YO'RGAK ICHIDAN... KURTAK MO'RALAR...”

Yil fasllari haqida

Temur UBAYDULLO

BAHOR

Unga belandi dunyo,
Qor yoqqanda bo'ralab.
Olam uxlaydi go'yo,
Oq choponga o'ralib.

Go'zal bahor kelganda
Qishning ko'rpasin otdi.
Uyqudag'i olamni
Kulib-kulib uyg'otdi.

Asom ZIYOMAT

GULBAHOR

Tomchi tomar
Tarnovlardan —
Tiq, tiq, tiq:

— Kun ilidi,
Sojida qiz,
Chiq, chiq, chiq...

Shamol kelib
Eshik qoqar —
Taq, taq, taq:



— Bahor keldi,
Sojida qiz,
Boq, boq, boq...

T. BAHROMOV

SUMALAK

Tarnovlarda sumalak,
Sumalak.
Suv tomadi chak-chak-chak,
Sumalak jilolanar,
Dur yog'ar.
Oftobda jilolanar,
Nur yog'ar!
Tomchilar billur rangda,
Qarang-a!
Ko'z yoshin qilmas kanda,
Attang-a!
Qishni kuzatsak kerak,
Sumalak.
Bahordan berar darak —
Chak-chak-chak.



OTAYOR

BAHOR KELDI

Bahor keldi, uyg'otib
Dillar zavq-shavqin.
Anhorlarda toshib suv,
Soladi shovqin.

Yerdan ko'm-ko'k maysalar
Ko'tarmoqda bosh.

Dehqon kezar dalada
Chiqmasdan quyosh.

Har qadamda o'zgarish —
Bir yangilik bor,
Vatan bo'ylab kezmoqda
Sevimli bahor.

Muhammadjon QO'SHOQOV

KURTAK MO'RALAR

Bahor yurar yasanib,
Kiyib baxmal ko'ylagin.
Qirlar, adir, bog'larda
So'ylab hayot ertagin.

Salomiga egilar
Kokil-kokil novdalar.
Ko'm-ko'k yo'rgak ichidan
Jajji kurtak mo'ralar.



OLMA GULLAGANDA

Xuddi sarabodroq
Olma gulladi oppoq.
Uchib kelib bolari,
Ketidan bolalari,
Guldan-gulga shoshildi,
Bizga asal tashidi.



Mavjudा HAKIMOVA

G'O'RA

O'rigimiz gulladi,
Gullari lo'ppi-lo'ppi.
Go'yo birdan boshiga
Kiydi u gulli do'ppi.

Gullar qani? Asar yo'q,
Uch kun o'tdi bor-yo'g'i.
Yam-yashil barg chiqardi,
Yashnab ketdi yaprog'i.

Yashil yaproqlar ichra
G'o'ra bo'pti yashirin.
Hozir achchiq, pishganda
Qanddek bo'ladi shirin...

OTAYOR

KEL, YUGURAY, QUV



Hoy, Sarvi, Gulnoz,
Mirvali, Dilnoz,
Ketdik sayrga,
Ko'klam fasli soz!

Ketdik sayrga,
Qir, adir, dalam –
Hammayoq, qara,
Lolazor-gilam.

Lolazor-gilam,
So'lim – bog'lar ham,

Kel, yuguray, quv
Dugonam — Sanam.

Kel, yuguray, quv!
Cheki yo'q parquv —
Maysadan shabnam
To'kilsin duv-duv.

Ketdik sayrga,
Hoy, Anvar, Toshbu!
Biz kabi o'ktam
Ko'klam fasli bu!

Odil ABDURAHMON

YOMG'IR

Ishimiz yog'ish bilan,
Bulutni sog'ish bilan.
Tiq-chiq, tiq,
Tiq-chiq, tiq.

Ana momaqaldiroq,
Qo'ziqorin ham bodroq.
Tiq-chiq, tiq,
Tiq-chiq, tiq.

Quyosh ham kulib qoldi,
Maysalar unib qoldi.
Tiq-chiq, tiq,
Tiq-chiq, tiq.

Usting biroz ho'l bo'lar,
Ammo g'allang mo'l bo'lar,
Tiq-chiq, tiq,
Tiq-chiq, tiq.





“YOZ KELDI-YU, YOZ KELDI...”

Nurullo OSTON

YOZ KELDI



Yoz keldi-yu, yoz keldi,
Doira bilan soz keldi.
Uchib kelgan laylaklar
Qanoti qog'oz keldi.

Tunni qilib tongotar
Sho'x bolalar dong qotar.
Bir tutam yoz tunida
Dehqon tongni uyg'otar.

Odil ABDURAHMON


QUYOSHJON

Yon, quyoshjon,
Jon quyoshjon,
Otdi oppoq
Tong, quyoshjon.



Don-dunimga
Hosil tilab,
Boshlarini
Qo'ygin silab...

Yurtimizga
Nur sochaver,
Xalqimizga
Baxt ochaver.



Fayzi SHOHISMOIL

OFTOBJON

Osmonning ko'z qarog'i,
Oftobjon.
Yer yuzining charog'i,
Oftobjon.
Umring sira qarimasin,
Oftobjon.
Nuring yurtdan arimasin,
Oftobjon.
Boshimizda porlab tur,
Oftobjon.
Yaratganga ming shukur,
Oftobjon.

Aziz ABDURAZZOQ

BUG'DOY PISHDI


Bug'doy pishdi oltinday,
Xuddi quyosh singari.
Chunki unga oldindan
Quyosh nuri singgandir.

Nonimiz ham shu sabab
Quyosh kabi yumaloq.
Uni doim avaylab,
E'zozlagin, ey, o'rtoq.



Safо OCHIL

LAYLAK KELSA...



Laylak kelsa...
Yoz bo'ladi.
Cho'milishga
Soz bo'ladi.
Laylaklarga
Ming-ming rahmat.
Ularga tosh
Otma, Ahmad.
Sen tosh otsang,
Men tosh otsam,
U tosh otsa,
Kelmas laylak.
U kelmasa,
Kelmaydi yoz.
Yoz kelmasa,
Sira bo'lmas
Umrimiz soz!

Habib RAHMAT

SHABNAM

Ninachining ko'zi misoli,
Shabnam o'ynar yaproqda.
Shu'la bilan tillashib u,
Durdek porlar shu choqda.

Bir lahzalik jilva aylab,
Fayz bag'ishlar gullarga.
Ko'zlarimni hayron qilib
Singib ketar nurlarga.

“KUZ KELDI QO'SHIQ KUYLAB...”

Anvar HOJI

KUZ

Kuz keldi qo'shiq kuylab,
Yaproqlar tushar o'yin.
Qurt-qumursqlar tezdan
Axtarib qoldi uyin.

Daraxtlar to'kdi bargin,
Ketar qishki uyquga.
Yelar asta izg'irin,
Qo'l tiqib bo'lmas suvga.

Lekin bizni yengolmas
Kuz ham qishki qahraton.
Yoz bo'yi biz chiniqdik
Quyosh nuriga obdon.



Raim FARHODIY

KUZ ALLASI

Kuz. Barg to'kar daraxtlar,
Shox tebranmas karaxtday.
Uxlar qayin, uxlari tol,
Teraklar ham bemalol.
Yum ko'zingni bu palla,
Alla, uxlugin, alla.
Ovoz bermas zog'chalar,
Jim oqar ariqchalar.
Selkillatmas mo'ylovin,

Laqqa ham topgan joyin.
Ko'zingni yum bu palla,
Alla, uxlagin, alla.
Ko'rinas ko'kda yulduz,
U ham, demak, yumgan ko'z.
Yelaverib xo'p toldi,
Shamol ham uxbab qoldi.
Ko'zingni yum bu palla,
Alla, uxlagin, alla.



Ravshan FAYZ

KUZDA

Ariq, anhor, ko'llarda
Shovqin-suronlar sindi.
Artilgan shisha kabi
Ko'kka boqsam, ko'z tindi.

Yulqinib kelgan shamol
Olmani qoqib ketdi.
Terolmadim — ariqqa
Tushdi-da, oqib ketdi.

“QOR YOG‘AR ELAK-ELAK...”

Aziz ABDURAZZOQ

QISH KETAR

Qushlar qishdan qo‘rqishib,
Kuzda uchib ketdilar.
Gala-gala to‘zg‘ishib,
Afrikaga yetdilar.

Biz ketmaymiz, qish ketar,
Ko‘rdik uning nechtasin.
Sovuq bo‘lsa, isitar
Uyimizning pechkasi.




To‘xtaxon RAHIMOVA

YOG‘DI-YOG‘DI

Hech tinmasdan,
Erinmasdan
Tuni bilan
Qor yog‘di.

Derazadan
Qarab Shokir,
Ko‘zlaridan
Nur yog‘di.

Xursand bo‘lib,
Ko‘ngli to‘lib,
Tohir deydi:
— Dur yog‘di.





Buvim deydi
Zavqqa to'lib:
— Bolaginam,
Un yog'di.

Uxlab yotgan
Shudgorlarga
Baraka-yu
Qut yog'di!



Salim ASHUR

QOR YOG'AR

Zavq ularshib,
Ko'z qamashib,
Yog'ar pag'a-pag'a qor.
Har bir uchqun
To'qlik uchun
Sepin yoyar har nahor.
Oppoq dala,
Go'zal palla,
Zavq bag'ishlar insonga.
O'ynab uchib,
Yerni quchib,
Baxt keltirar dehqonga!

Zafar ISOMIDDINOV

CHANA

Ur-ra, qor yog'di, ana,
Yana birgamiz, chana.
Dam olding bahor-yozda,
Xizmat qil-da ayozda.



Valijon AHMADJON


LAYLAK QOR

— O'ynab uchgan
 Laylak qor,
 Qanotingda
 Nima bor?
 — Yurting meni
 Etar lol.
 Qanotimda
 Gulbahor.

Raim FARHODIY

XAYRLI TUN

Kuz oqshomi. Xayrli tun
 Bolalarga nahorgacha.
 Biroq maymoq
 Ayiqcha-chi?
 Xurrak otar bahorgacha.



“MENING OYIM HAMMADAN YAXSHI!..”

Yodgor baxshi IS'HOQOV

ONAM YAXSHI

Kim yaxshi, deb so'rasangiz,
 Deyman: Onam, onam yaxshi.
 Eng bebaho gavhar, durdan
 Onam yaxshi, onam yaxshi!

Baland, qorli tog'lardan ham,
 Sermevali bog'lardan ham,



Oppoq, oydin tonglardan ham
Onam yaxshi, onam yaxshi!

Eng muattar gullardan ham,
Esgan mayin yellardan ham,
Eng dilrabo kuylardan ham
Onam yaxshi, onam yaxshi!

Yodgor baxshi rubob bilan,
Madhin kuylar bob-bob bilan,
Mehri tengdir oftob bilan,
Onam yaxshi, onam yaxshi!

Naima RAHMONOVA

HAMMADAN YAXSHI



Nargizaoyga oyijonisi
O'qib berdi shunday hikoya:
— Onasini yo'qotib qo'yib,
Yig'lab yurar edi Hilola...

— Oying qanday edi, qizaloq? —
Deya unga bersalar savol,
— Mening oyim hammadan yaxshi! —
Qizcha javob qaytardi darhol.

Nargizaoy der oyisin quchib:
— O'sha qiz-chi, aytibdi yolg'on,
Bu dunyoda hammadan yaxshi
Siz o'zingiz, jonim onajon!

Umarali QURBONOV

AYAJONIM

Jajji nihol,
 Gulg'unchaman.
 Mehringizdan
 Bol ichaman.
 So'zlarizingiz
 Joylab dilga,
 Otlanaman
 Porloq yo'lga!
 Siz – quvonchim,
 Hayajonim,
 Mehribonim —
 Ayajonim!




Qambar OTA

OYIMLARDAY MULOYIM

Ko'kka qarab yotardim,
 Tunda oy to'lib chiqdi.
 Oyimlarday muloyim —
 Jilmayib kulib chiqdi.
 Naq tepamda turganday
 Oyimlarning o'zları.
 Mendan hech uzilmaydi
 Oymomaning ko'zları.
 Oyim chindan oy bo'lsa,
 Osmon bo'lgim keladi.
 Baxtlariga bir umr
 Posbon bo'lgim keladi.

Xudoyberdi KOMILOV

OFTOBIMIZ SO'NMASIN



Oyim yopgan kulchalar
Oftobjonga o'xshaydi.
Osmondag'i Oftob ham
Issiq nonga o'xshaydi.
Oyim yopar kulcha non,
Jon oftobi bo'lsin deb.
Oftob sochar nur-ziyo,
Jahon nurga to'lsin deb.
Baxtimizga Oyimiz,
Oftobimiz so'nmasin.
Tinchlik, Oftob yuziga
Hech vaqt g'ubor qo'nmasin!

Tursun ORTIQXO'JAYEV

KULCHA NON

Non yopganda
Mening oyim,
Kichik kulcha
Yopar doim.
Kulcha juda
Mazali,
Sedanali,
Jizzali.
Yegan sayin
Yegim kelar,
“Rahmat, oyi”,
Degim kelar.

Umida ABDUAZIMOVA

OYNI OLIB BERING

— Oyi, oyni olib bering,
Cho'ntagimga solib bering!...

— Bu gapingdan Oymomaning
 Hushi uchib ketadi,
 Seni ko'rsa, osmonidan
 Suvga tushib ketadi!
 — Suvga tushsa, tutmoq uchun
 Qarmog'imni solaman.
 Hushi uchsa, pufak qilib,
 Mahkam bog'lab olaman...

Turg'unboy PARPIYEV

BUVIJONIM

Mehribonim,
 Buvijonim —
 Uyimizning quyoshi,
 So'zlaridan
 Tomadi bol,
 Salkam to'qsonda yoshi.
 Buvim har tong
 Erkalab xo'p,
 Peshonamni silaydi.
 Unib-o'sgin,
 Ey, o'g'lonim, —
 Deb, menga baxt tilaydi.

Otash XOLMIRZAYEV

RAHMAT, BOLAM

Bobomlarni jondan suyib,
 Qo'llariga suvlar quyib,
 Qilsam doim achom-achom,
 Derlar bobom:
 — Rahmat, bolam!
 Rahmat, bolam!




Hassalarin keltiraman,
Yonlarida o'ltiraman.
Achchiqqina choy damlasam,
Derlar bobom:
— Rahmat, bolam!
Rahmat, bolam!

“BIRGA O‘YNAYLIK...”

Bolalar dunyosi

SAYYOR

KENG MAYDONDA



Firdavs keng maydonda
Mashinasin yurgizar.
Charchab qolib bir onda,
Garajida turg'izar.

Hamma bola bo'lib jam,
Mashinaga tegarlar.
— Maylimi, der, uchirsam,
Bir joyini egarlar.

— Charchadi, axir, bu ham,
Dam olsin, der, tegmangiz.
Katta bo'lsin mashinam,
Minasizlar hammangiz.

Qambar OTA

ASSALOM

(qo'shiq)

Har kun tongda turaman,
 Quvnab yayrab yuraman.
 Dildan ota-onamga,
 Salom deyman hammaga.

N a q o r a t :

Salom so'zi muqaddas,
 Salom o'zi muqaddas.
 Avvalo, Haqqa salom,
 Qadrdon xalqqa salom.

Quyosh, maysa, o'tloqqa,
 Do'st, qadrdon, o'rtoqqa,
 Tog'a, xola, ammaga,
 Salom deyman hammaga.

N a q o r a t :


Mehr tarab Vatanga,
 Sog'liq tilab har jonga.
 Yayrab desam assalom,
 Zavq olaman bir olam.



Abdurahmon AKBAR

YOZ MO'JIZASI

Tushmasin desang
 Ko'rpaga kuya,
 Qurmasin desang
 O'rgimchak uya,



Kun tandirdayin
Qizigan mahal
Yoygin ularni
Oftobga, Asal.
Shunday degandi
Buvim tunov kun.
Ish boshladilar
Oyimlar bugun.
Berdim ularga
Erinmay yordam.
Hovliga chiqib
“Semirdi” ko‘rpam.
Kun kulgach, atrof
Ziyoga to‘ldi.
Yostiqlarim ham
Nurga “cho‘mildi”.
Oyimlar yuvib
Bo‘lgach talay kir,
Yoyganlarimiz
Yig‘dik birma-bir.
Shoshmay kiydirib
Toza jildlarin,
Taxmonga yana
Joyladik barin.
Xo‘s, nima bo‘pti?
Deb surarsiz o‘y.
Hamma mo‘jiza
Oqshom berdi ro‘y.
Osmon seryulduz
Garchi tun edi,
Kelardi uydan
Quyoshning hidi!

Qambar OTA

BOG‘CHAMIZDA

Hamma bola inoqmiz,
Yaqin do'stmiz, o'rtoqmiz
Bog'chamizda.

Sog' bo'ling, deb o'ynatar,
Quvnoq bo'l, deb kuylatar
Bog'chamizda.

Tanimiz kuchga to'lar,
Tilimiz burro bo'lar
Bog'chamizda.

Yuzlar o'xshar oftobga,
O'rganamiz odobga
Bog'chamizda.

Yo'llar bizni hayotga,
Minnatdormiz g'oyatda
Bog'chamizdan.

NURBEK

DASTYOR QIZ

Dastyor bo'lib qoldi Lola
beshga kirib.
Hovli yuzin supuradi
erta turib.
Qarashadi uy ishiga
onasining,
Chiroyiga chiroy qo'shdi
xonasing.
Dasturxonni endi birga
tuzatadi.
Buvisi shod bo'lib, uni
kuzatadi.



**Shukur QURBON****DO'STLIK**

Farrux borsa ertalab,
 Bog'chasida duv-duv gap:
 Kimdir uning yo'g'ida
 Narsalarin titibdi,
 Hech kimdan so'rab-netmay,
 Sovunin ishlatibdi.
 — Masalan, kim? — dedi u,
 G'iybatchiga boqib tik.
 — Otini ayt, otini!
 Hammani quchdi hadik.
 Chunki u jajji boksyor,
 Jahli ham yomon ancha.
 Hisobida nokdaun,
 Nokautlar bor qancha.
 Lekin u aqli ham,
 Narsa deb urishmaydi.
 Sovunini ishlatgan
 Do'sti ekan.
 — Ha mayli,
 Men ham uning yo'g'ida
 Narsalarin titaman.
 Hech kimdan so'rab-netmay,
 Sovunin ishlataman.
 Shunday qilib duv-duv gap
 Bir zumda tindi-qoldi.
 Tengdoshlar orasidan
 Farrux o'z joyin oldi.

**Yodgor baxshi IS'HOQOV****BARNO VA DARYO**

Barno:

— Hoy, jo'shqin daryo,
 Hoy, shoshqin daryo,
 Ziloldek suving
 Namuncha shirin!

Daryo:

— Hoy, qizim Barno,
 Oy qizim Barno,
 Men qaynab-jo'shib,
 Qir, tog'lar oshib,
 Toshlarda pishib
 Kelganim uchun
 Shirinman, tushun!

Muxtor RAZZOQOV

O'JAR

Mansur o'rik danagin
 Chaqdi tishda tinmayin.
 Nasihatni olmadi,
 O'jarligi qolmadi.
 Endi og'rib tishlari,
 Pushaymonlik ishlari.

Ahmad OLIMIY

KARIM QIZG'ANCHIQ

Karimjonga dadasi
 Koptok keltirib berdi.
 O'rtoqlari yolvorib:
 — Birga o'ynaylik, — derdi.
 — Ho, ho, eskip qolsinmi?
 O'ynamayman siz bilan.
 Do'stlari arazlashib,
 Ketib qolishdi birdan.
 Yolg'iz qolib Karimjon,
 Qilar endi pushaymon.



Ernazar RO'ZIMATOV

POLIZDA

Keng polizni
 Oralab,



Tarvuz yig'dik
Saralab.
Tarvuz sig'mas
Quchoqqa,
Do'stlar, keling
Bu yoqqa...
Tanlab olib
Biz birin,
So'yib yedik,
Oh, shirin.
Dehqon bobom
Saidahmad
Bo'lzin doim
Salomat!

Yusuf SHOMANSUR

QO'ZIVOY

Polizga kirib Qo'zi
Tarvuzga tushdi ko'zi.
U tarvuzni oldi-da,
Qulog'ining oldida
Siqib turib so'radi:
— Isming nima?
— Qo'zivoy...
— I-ye, adash ekanmiz,
Shirindirsan o'zimday.
Qo'zivoyni Qo'zivoy
Ketdi qo'yib yelkaga.
Totib ko'rgach, polizga
Kelar yana ertaga.

Anvar OBIDJON

SOXTA "AMAKI"

Jiringladi telefon,
Dastakni oldi To'g'on.
Dedi: — Xizmat, akasi?

Tovushin qilib yo'g'on.
 — Amakijon,
 Men — Go'zal,
 Kerak edi Gulasal...
 Javob qildi "amaki":
 — Gulasal opam kasal...

"QIZIL GULNING G'UNCHASI — ATIR TO'LA XUMCHASI..."

Gullar olamida

Muhammadjon QO'SHOQOV

GUNAFSHA

Gunafshaxon, gunafsha,
 Guli mitti tugmacha.
 Ko'rinishi siyoh rang,
 Olib uni taqmasang,
 Sendan xafa bo'ladi.

Taqsang, yashnab turadi,
 Ko'rganmisan bahorda,
 Terganmisan nahorda?
 Suv bo'yida ochilar,
 Hidi har yon sochilar.




BOYCHECHAK

U ochildi tong chog'ida,
 Erka chechak, oy chechak.
 Boychechak, deb atadilar,
 Gullar ichra kelinchak.

Qarab tursam, u — gunafsha,
 Loladan ham suluvroq.



Bahor keldi, deb chorlovchi
Go'yo jajji qo'ng'iroq.



Anvar OBIDJON

QIZIL GUL

Qizil gulning
G'unchasi —
Atir to'la
Xumchasi.
Yaproqlari
Yostiqcha...
Tikanlari —
Ortiqcha.

Habib RAHMAT

G'UNCHA

Muncha yumilgan labi
Ochilmas-ey,
Kulmas-ey.
Bolarilar parishon
Izlashar, gul kulmas-ey.
Shamol uni qitiqlar,
G'uncha nim kului asta.
Bolarilar qoshiga
Yetib keldi birpasda.



Ravshan FAYZ

MOMAQAYMOQ

Momaqaymoq — moh, dedim,
Paxtaday yumshoq, dedim.
Hurpayib turganiga
Kerakdir, o'rtoq, dedim.

Sekin borib “pox” desam,
Momiqgul cho‘chib ketdi.
Men uning g‘amin yesam,
U shoshib ko‘chib ketdi.

“TONGDAN BULBUL TARATDI BIR YOQIMLI, XUSH NAVO...”

Qushlar haqida

Habib RAHMAT

QUVONCH

Tuxumdan chiqib jo‘ja,
Rohat qilib kerishdi:
— Qorong‘ilik qursin-a,
Xayriyat, tong yorishdi.



BULBULJON

Tongdan bulbul taratdi,
Bir yoqimli xush navo.
Nazarimda bahorni
Olib keldi u go‘yo.
Bulbuljon, bahor qushi,
Bulbuljon, bahor o‘zing.



Muz yurakni eritib
Har ko‘ngilni yayratgan.
Sen emasmi mitti jon
Kuyida gul yaratgan.
Bulbuljon, bahor qushi,
Bulbuljon, bahor o‘zing.



Sen bahor, gul shaydosi,
Doim shodumon ko'ray.
Dunyoda gul ko'paysin,
Dunyoda sen ham ko'pay.
Bulbuljon, bahor qushi,
Bulbuljon, bahor o'zing.

Ziyoviddin MANSUR

BULBULIM



Bulbulim, hoy, bulbulim,
Nag'maga boy bulbulim,
Gullagan shu hur Vatan
Senga xush joy, bulbulim!
Bog'larimda mangu qol,
Yayra, sayra bermalol.
Baxtli bu el vasfini
O'z tilingda kuyga sol.
Bulbulim, jon bulbulim,
Erka xushxon bulbulim,
Shu chaman yurt ta'rifin
Ayla doston, bulbulim.

Quddus MUHAMMADIY

CHITTAK

Tok so'rimiz boshiga
In qurdi bir juft chittak.
Qushlar mittisi go'zal
Uchqur, yo'rg'a, yugurdak.
Tutar o'zin ozoda,
Chumchuqdek befarq emas.
Yurar yeri maysazor,
Parlari chiviq atlas.

Cho'milishi ham qiziq,
Silkinib yuvar parin.
Mening qushcha o'rtog'im –
Qadrdonim eng qalin.
Pashsha, chivin ko'rinsa,
Lip etib tutib olar.
Chuldirab "chig'ir-chig'ir",
Sho'x qo'shiq kuylab qolar...

Hamroqul ASQAR**BEDANA**

Tutib olib solishar,
Sal chiqarsam nafasni.
Odamzodga hayronman,
Buncha sevar qafasni.

Dilshod RAJAB**BOYQUSH**

Qiziq, nega odamlar
Uni boy qush degan-a?
Bir ko'rsaydim uyasin,
Nimalar bor ekan-a?

Tursunboy ADASHBOYEV**NEGA OG'RIMAS BOSHING?**

— Qizilishton, temirchiga
O'xshab ketar bardoshing.
Erta-yu kech to'q-to'q qilib,
Og'rib qolmasmi boshing?





— Do'stim, kasbim — uy qurish,
Demak, halol non-oshim.
Peshona ter to'kkanning
Og'rimas sira boshi.

Dadamirza ORIFBOYEV

IKKI MUSICHA

Bir kuni musichalar
Urishib, jang qilishdi.
Patir-putur cho'qishib,
Bir-birini yulishdi.

Bu shovqinni eshitib,
Hovliga chiqdi Baroq.
Zo'rg'a qochib qutuldi
Shunda ikki urishqoq.



Muhammad RAHMON

HAKKA XOLA

— Hakka xola,
Cho'p tashiysiz.
G'iz-g'iz qatnab
Ko'p tashiysiz.
To'y-po'y bormi,
Yoqib olov,
Damlayapsiz
Balki palov?
Cho'pingiz yo
Tandirgami —
Somsa, jizza
Patirgami?
— G'iz-g'iz qatnab
Ko'p tashiyman,



Gul o 'stirolmagan bola. Koreys xalq ertagi

Tumshug'imda
 Cho'p tashiyman.
 Xas-cho'plarim
 Bolam uchun,
 Qanotlari
 Olam uchun.
 Bitsin, deyman
 Tezroq uyi...
 Keyin bo'lar
 Beshik to'yi!

Anvar OBIDJON

G'URRAK QO'SHIG'I


Musichaga o'xshayman,
 g'ur-r-ru.
 Keng dalada yashayman,
 g'ur-r-ru.
 Keling, dala serfayz,
 g'ur-r-ru.
 Terib yeymiz tutmayiz,
 g'ur-r-ru.

Samat SHOKIR

CHUMCHUQ

Derazadan pirillab
 Uyga chumchuq kiribdi.
 Hovliga chiqolmasdan
 Boshi qotib turibdi.

Uni ko'rib mushukning
 Ko'zi yondi, olaydi.



Chumchuq-chi, qo'rqa-pisa
To'rt tomonga qaraydi.

Boplab quvdim mushukni,
Chumchuq sal yayrab qoldi.
So'ng cho'chitmay, avaylab
Men uni qo'lga oldim.



Asqad MUXTOR

OLASHAQSHAQ


Barg ostiga berkinib,
Kim u "shaq-shaq" etgan?
Boqsam, yong'oq o'g'risi
Olashaqshaq ekan.

"TALASHMAYIN YEYMIZ BIZ..."

Hasharotlar haqida

Odil ABDURAHMON

KAPALAK NIMA DEYDI?



Jonzodlarmiz,
Beozor:
Yashnayapti
Bedazor.
Bu chamanlar
Qanday soz.
Yashamoqqa
Umr oz...

QO'NG'IZ NIMA DEYDI?

Tilla qo'ng'iz
 Deydi: "G'iz, g'iz.
 Qo'yvor meni,
 Ishim tig'iz.
 Birovga sen
 Berma ozor,
 Bekorchidan
 El ham bezor!"



Nurullo OSTON

TILLAQO'NG'IZ

Tillaqo'ng'iz maqtandi:
 — Buvimning oftobiman,
 Dadamning erkatoyi —
 Oyimning oppog'imani.

Aziz ABDURAZZOQ

CHIGIRTKA

— Hoy, chigirtka, chigirtka,
 Sen ham ekin yeysanmi?
 Hoy, chigirtka, chigirtka,
 Ekmay tekin yeysanmi?

— Men ham ekin yeymen, ha,
 Lekin tekin yemayman.
 Yesam halol deyman, ha,
 Sira tekin demayman.

Ekin yesam, o'rniga
 Qo'shiq aytib beraman.



Yotganingda o'rningga,
Alla aytib turaman.



G'ani ABDULLAYEV

CHUMOLI

Bellar qildek, tin bilmas,
Bizlar bir jon-bir tanmiz.
Intizom hech buzilmas —
Tizilishgan marjonmiz.

Topsak hamki bir uvoq,
Talashmayin yeymiz biz.
Ahillik noni har chog'
Barakali deymiz biz.

"TOYCHOG'IM BOR, TOYCHOG'IM..."

Uy hayvonlari haqida



Aziz ABDURAZZOQ

TOYCHOG'IM

Toychog'im bor yaylovda,
Qizil otning bolasi.
Tovlanadi olovday
Yolining har tolasi.

Gijinglagan, kishnagan
 Toychog'im bor, toychog'im.
 Yayrab yurgan, yashnagan
 Toychog'im bor, toychog'im.
 Yaqin bo'lar yirog'im,
 Uni minib yursam man.
 Toychog'im bor, toychog'im,
 Ot bo'lar deb xursandman.

Oydin HOJIYEVA

ULOQCHA

Sakrab yurar uloqcha,
 Bo'ynida qo'ng'iroqcha.
 Uloqchaga suv berai
 Tol tagida buloqcha.

Uloqchaning fe'lidan
 Qo'rqib turar nihollar.
 Sindirma, deb niholni,
 Quvlab qolar shamollar.

Qarang echki xolaning
 Shoxini, suzib kelar.
 — Urishma, — deb, —
 bolamni, —
 Ko'chani buzib kelar.

Dikirlama, uloqcha,
 Bebosh-u bequloqcha!
 Yaxshi gapga kirmasang,
 Suv bermaydi buloqcha!



Nurullo OSTON

QO'ZICHOQ

Qarang, buncha yam-yashil
Qizg'aldoqrang dalalar.
Bunda buncha ko'p ekan
Menga o'xhash barralar.
Dikirlatib chopaman
To'rt oyog'im — yo'rg'amni.
Yo'qolmasin deb, cho'pon
Taqib qo'ydi sirg'amni.



Anvar OBIDJON

XO'TIK QO'SHIG'I

Qamish ruchkam bor edi,
Iha-iha.
Ukam uni ham yedi,
Iha-iha.

Borsammikan maktabga,
Iha-iha.
Olsammikan spravka,
Iha-iha.

Rauf TOLIB

ORZUGA AYB YO'Q

Qo'zi o'ylar: "Bo'rilar,
Qani, yesa o't-o'lan.
O'rtoq bo'lib olardim
Darrov men ular bilan".

* * *

O'ksinib,
 O'ylar Sichqon:
 "Kichkinaman va nimjon.
 Eshitilsa bir tovush,
 Pitillaryman shu zamon.
 Dildagi armonim shu:
 Mushuk bo'lsaydim agar,
 Dunyoda hech narsadan
 Qo'rqmas edim muqarrar".

TUYA

Oshiqmas tuya,
 Yuradi sekin.
 Juda uzoqqa
 Boradi lekin.

Shukur QURBON

O'RKACHLAR

Belini belbog' bilan
 Mahkam bog'laganidan,
 O'rkachlar chiqib ketgan
 Tuyaning badanidan.

Qutbi NOSIROVA

TUYA

Qand uzatsam, yoqmadni,
 Non uzatsam, boqmadni.
 — Tuya, — dedim, — tuyajon,
 Ko'ngling nima tusaydi?
 — Bir tup yantoq bo'lsaydi...



Shukur SA'DULLA

MITTI



Mitti degan mushugim,
O'ta ketgan olg'ir, shum.
Mitti poylab turadi,
Sichqonvoyni ko'radi.

Sichqon mushukni ko'rib,
Qochar teshikka urib.
Sichqon qochib qutular,
Mushuk esa tutilar.



Ma'mur QAHHOR

QORA MUSHUKCHA

Oyi, qora mushukchaga
Popuk taqib qo'yaylik.
Oyi, qora mushukchani
Oppoq rangga bo'yaylik.
Shunda qora mushukchani
Quvmas daydi bolalar.
“Falokatning belgisi” deb
Atamaydi xolalar.
Hamma uni ko'rgan oni
Deydi: “Buncha chiroylit!”
Oyi, qora mushukchani
Oppoq rangga bo'yaylik.

Aziz ABDURAZZOQ

KAPALAKNI QUVGAN KUCHUK

Kapalakni quvlar kuchuk,
Ushlolmasdan uvlar kuchuk.

Uvlamagin, sodda kuchuk,
Yig'lamagin, sodda kuchuk.

Nega kerak u kapalak?
U — kapalak emas, suyak.



Quddus MUHAMMADIY


XO'ROZIM

Qu-qu-qu-qu xo'rozim,
Uyimda xushovozim.
Paq-paq qanot parvozim,
Qu-qu-qu-qu xo'rozim!

Gultoji gul boshida,
Tovuq, jo'ja qoshida,
Uyim ichi-tashida,
Charx uradi xo'rozim.

Xo'rozim mard, qo'rqlaydi,
Patiga gard yuqlaydi,
Jo'jasin cho'qimaydi,
Mardi maydon xo'rozim!

Bir don topsa qayerdan,
Qu-qu-qu-qular birdan,
Tovuq, jo'jasin sevgan
Ota babaq xo'rozim!



Yunus TOLIPOV

IKKI XO'ROZ

Ikki xo'roz
Talashib don,
Bir-birini
Cho'qir chunon.
Xo'p urishib,
Holdan toyib,
Ola xo'roz
Bo'ldi mayib.
Oq xo'rozning
Kuchi qochib,
Donni izlar
Qorni ochib.
Vo ajabo,
Yerda don yo'q,
Yeb qo'yibdi
Bir to'p chumchuq.



Jahon bolalar she'riyati

Grigoru VIERU,
Moldoviya

OFTOB, OFTOBJON

- Oftob, oftob, oftobjon,
Nuring ko'pmi, ayt, tezroq?
- Qancha desam? Bilmayman,
Do'stlarga yetar biroq!

- Oftob, oftob, oftobjon,
Isinar qancha odam?
- Sanashni xush ko'rmayman,
Talpinar butun olam!



Qodir MIRZOALYIEV,
Qozog'iston

SHKAFGA YETSA BO'YIM

Qandni solib shkafga
Mening oyim,
Xafa qilib yuradi,
Meni doim.

Tezroq o'sib-ulg'ayish —
Orzu-o'yim.
Hech bo'lmasa shkafga
Yetsin bo'yim.

TIKAN TERDI

Minsam yog‘och otimni,
Oyim so‘rar: — Ha, qayga?
Biz parmanchak tergani
Ketayapmiz to‘qayga.

Kechga qadar o‘ynadik,
Maza bo‘ldi buyog‘i.
Qo‘lim terdi parmanchak,
Tikan terdi oyog‘im...

Omondurdi ANNADURDIYEV,
Turkmaniston

NINACHI

Ninachining ortidan
Mushuk chopadi g‘iz-g‘iz.
Hovli qolib, ko‘chaga
Quvib chiqar izma-iz.
Qo‘rquv solar mushukvoy
Ishonib o‘z kuchiga.
Ninachi yo‘q, qarasa,
Alam qilar ichida.
Qo‘nib opti mushukning
Quyruqchasin uchiga.

Musa JONG‘OZIYEV,
Qirg‘iziston

QOR YOG‘DI


Uch kun tinmay qor yog‘di,
Xuddi paxta ekkanday.

Suv muzladi, qorbobo
 Oynak qoqib ketganday.
 Hech erinmay, bulutlar
 Uch kun elagin qoqdi.
 Qishloq, ovul, tomlarga
 Osmondan shakar yog'di.
 Chug'urlashib bolalar
 Qordan odam yasashdi.
 Tayoq berib qo'liga,
 Bu – Cho'pon, deb atashdi.

Samuel MARSHAK,
Rossiya

FIL

Tufti berishdi filga,
 Dedi u kirib tilga:
 — Tiking, qilib sal katta
 Ham ikkitamas, to'rtta!




BO'TALOQ

Sho'rlikkina bo'taloq,
 Yedirishar oz tomoq.
 Bir kunda yeysi faqat
 Ikki chelak lim ovqat!

Agniya BARTO,
Rossiya

QUYONCHA

Tashlab ketdi egasi,
Yomg'irda qoldi quyon.
Tusha olmay kursidan
Jiq-jiq ho'l bo'ldi quyon.



AYIQCHA

Polga tashlab ayiqchani
Uzishdilar qo'lin ham.
Men uni tashlamayman,
Chunki yaxshi ayiqcham.



KOPTOKCHA

Tanyaoy yig'lab shishdi:
Koptogi suvga tushdi.
— Yig'lama, Tanyaoy, bas:
Koptoging cho'kib ketmas!

O'zbek bolalar hikoyalari

Yayra SA'DULLAYEVA

ASSALOMU ALAYKUM

Олма shoxiga ilingan to‘rqovoqlardagi bedana sho‘xgina sayrab, shirin uyqudayotgan Ra’no qizni uyg‘otib yubordi. Ra’no qop-qora ki priklarini pirpiratib, ko‘zini ochdi. Qarasa, onasi o‘rnida yo‘q, ukasi beshikda pishillab uxbab yotibdi. Qizaloq ijirg‘anib yotishni yomon ko‘radi. Uyqusi o‘chdimi – turadi-qo‘yadi. Hatto tepasiga onajoni kelib “Tura qol, qizim”, deb erkalab o‘tirishi ni ham kutmaydi. Axir, buvijoni: “Yaxshi qiz o‘zi uyg‘onadi, yig‘lamaydi”, deydi-da doim. Ra’no o‘rnini tuzatib qo‘ygisi keldi. Eplashi biram qiyin bo‘ldi-biram qiyin bo‘ldi. Ko‘rpasining uyog‘ini tekislayman desa, buyog‘i tortiladi. Mayli, sal katta bo‘lsin, buvijonining o‘rnini ham o‘zi yig‘ib, chiroyli qilib qo‘yadi.

Shu payt onasining ovozi qulog‘iga judayam yoqimli eshitildi.

— Asalim, novvotim, turdingmi?

Mahbuba opa qizalog‘ini yuqoriga azot ko‘tarib, keyin bag‘riga bosdi. Ra’no qiqir-qiqir kului. Haytovur kulgasidan ukasi uyg‘onib ketmadi. Onajoniga salom bergisi keldi-yu, berolmadi. Yuzini yuvmay turib, birovga salom berish mumkin emasligini u yaxshi biladi-da. Uning o‘rniga qizaloq ham onasining bo‘ynidan mahkam quchdi. “Asalim, novvotim”, deb erkalashi yana ham yoqib ketdi.

— Oyijon, asal shirinmi, novvotmi?

— Ulardan ham sen shirinsan.

Ra’no quvnabgina Mahbuba opaning bag‘ridan tushdi. Yuz-qo‘lini yuvib keldi. Chiroyli sochig‘iga artinib, joyiga ilib qo‘ydi. Oshxonada nonushta tayyorlayotgan onajonining oldiga chiqib, salom berdi.

— Va alaykum assalom, endi buvijoningga salom ber.

Ra’no avvonda tasbeh o‘girib o‘tirgan buvijonining oldiga chiqdi. Kampir uni ko‘rib yal-yal yonib ketdi. Qizaloq do‘mbillab borib, o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, unga salom berdi:



— Assalomu alaykum.

Kampir alik olayotib ko'zlar chaqnab turgan nabirasini "Aqli qizim, dono qizim", deb maqtab qo'ydi. Nimchasining cho'ntagidan yaltir-yultir qog'ozga o'ralgan popuk olib, unga tutdi: "Hali yegin", — deya tayinladi u.

* * *

Mahbuba opa xontaxta ustiga paxtaday oppoq dasturxon yozdi. Yumshoqqina non, sopol tovoqda qaymoq keltirib qo'ydi. Buvisi faqat shu tovoqchada qaymoq yeyishni yoqtiradi. O'zi sigir sog'ib, o'zi qaymoq suzib kelgan yoshlik davarlarini eslaydi. Nabiralarining esida qolsin deb, kichkina-kichkina sopol tovoqqa sut soldirib, ayvonning ikki ustuni orqasiga o'rnatilgan taxtaga qo'ydirib, ustiga doka yoptiradi. Xudoning bergen kuni nonushtaga yangi suzilgan qaymoq yediradi. Bolalar ham shunga o'rganishgan.

Mahbuba opa Ra'noga ham jajjigina sopol tovoqda qaymoq keltirdi. Ra'noning qaymoq rangiga havasi kelib ketdi: "Oppoq". Buvijoni buni darrov sezal qoldi. "Qaymog'ing meni tezroq yeb qo'ysin", — deyapti.

Ra'no kutilmaganda: "Qaymog'im, oppog'im", — deb yubordi. Buvisi jilmayib qo'ydi. Bir-ikki tishlam

nonni maydalab nabirasining idishiga soldi va botirib-botirib qo'ydi. O'zi: "Bismillohir rahmonir rohim", deya og'ziga soldi. Ra'no qarasa, buvijoni qaymoqni qo'li bilan yeyapti. U ham shunday qilmoqchi edi, buvisi:

— Qoshiqchang bilan yeya qol, bo'lmasa, hammayog'ingni qaymoq qilib yuborasan, — dedi.

Choy ichib bo'lishgach, buvijoni fotiha o'qidi. Ra'no ham kichkina qo'lcharlarini ochib turdi. "Yurtga tinchlik bersin", — dedi kampir. "Ona qizim katta bo'lsin, chodirlarga kelin bo'lsin!" — dedi kampir yana. Nabirasi ham yuziga fotiha tortdi. So'ng piyolalarni yig'ishtirib hovliga tushdi. Ariqchada jildirab oqayotgan suvda tozalab yuvdi. Xayolida suv unga qo'shiq aytib berayotganga o'xshaydi. "Ovozlaring muncha chiroyli", — dedi suvga sal egilib. Suvda g'ira shira aksi ko'ringanga o'xshaydi. "Voy, seni qara, meni suvratga olayapsanmi?"



Suv uning so'zini tasdiqlagandek jilvalandi, unga imo qildi. "Hozir bувijo-nimga qaray, hali o'rtoqlarim chiqqanida sen bilan suvsepar o'ynaymiz".

* * *

Ra'no piyolalarini joyiga olib ketayotib, hovlidagi gullarga qarab-qarab qo'ydi. Bugun rosa ochilishibdi: oq, qizil, pushti. Atirgulning hidi butun hovlini tutadi-ya. Gullarning yonidan o'taturib bувijoniga o'xshab sadarayhonni silkitib yubordi. Uning xushbo'y hidi hammayoqqa taraldi. Qizaloq beixtiyor: "Salom, gullarjon!" — deb yubordi.

Bувijoni esa hassasiga tayanib, dam gullarga, dam hosili shovul bo'lган daraxtlarga qarab turardi.

- Bувijon, nega daraxtlar shoxlarini egib turishibdi?
- Ular senga salom berishyapti. Mevamdan yesin, deyishyapti.

Ra'no daraxtlarning salom berishini sira eshitmagan edi, ko'zlar javdirab ketdi. "Yaxshilab qaragin, ular gapiryapti. Seni katti qiz bo'lsin", — deyisha-yapti. Buvisi aytdimi, demak, daraxtlar bilan gaplashsa bo'larkan, hali o'rtoqlariga, albatta, aytadi. Ishonishmasa, ishonishmasin. Baribir: "Bizning olma gapiradi, duo qiladi", — deydi.

Latif MAHMUDOV

TO'QSON YILGACHA O'RTOQ

Барно ertalab tursa — yonida mushugi yo'q. Hammayoqni qaradi. Karovatning tagidan ham, shkafning ichidan ham, buvisining taxmonidan ham, hech qayerdan topolmay xomush bo'lib turgan edi, buvisi so'radi:

- Ha, bolam?
 - Mushugim qani?
 - Voy, mushugingni olsin, — dedi buvisi. — Ana, hovlida koptok o'ynayapti.
- Bарно oyog'ining uchida turib hovliga qaradi. Mushuk yarmi qizil, yarmi sariq koptokni uyoqdan-buyoqqa dumalatish bilan ovora edi. Барно xo'mraydi, lablari osildi, barmog'ini og'ziga solib tumtayib oldi. Buvisi nevarasining avzoyiga qarab:
- Nima bo'ldi, bolam? — degan edi, Барно entikib qo'ydi.

— Anavini ko'rmayapsizmi, mensiz o'zi o'ynayapti, bo'ldi, o'rtoqchilik-dan chiqdim. Oldimga kelsin, boshiga mushtlab-mushtlab haydab yuboraman.

Mushuk Barnoning ovozini eshitib, darrov yugurib keldi, suykaldi, o'z aybi uchun uzr so'ragandek cho'zib miyovlab qo'ydi. Barnoning jahli chiqib ketdi: urib-urib haydab yubordi. Mushuk hovliga tushdi-yu, indamay oshxonaga kirib ketdi.

Shu kuni nima qilishini bilmay Barno juda zerikdi, ko'chaga chiqdi, uyg'a kirdi, o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Buvisining orqasida ergashib yurgan mushukni chaqirmoqchi bo'lib ikki-uch og'iz ochdi-yu, yalingisi kelmay indamadi. Kechga tomon sabri chidamay:

— Buvi, — dedi.



— Nima, bolam?

— “Anavi” nega ketingizdan yuribdi?

Buvisi orqasiga o'girilib kulib yubordi.

— Otini aytan qolsang bo'lmaydimi, bolam! Nima ekan, deb hayron bo'lib o'tiribman.

Buvisi nevarasining mushuksiz juda-juda zerikib qolganini darrov payqadi-yu, qanday qilib yarashtirib qo'ysam ekan, deb o'yladi. So'ng mushukni qo'liga olib, qulog'iga bir nima deb pichirladi. Barnoni ko'rsatib, yerga qo'yib yuborgan edi, mushuk yugurib ayvonga chiqdi-yu, Barnoning ro'parasiga cho'nqaydi. Barno ichida quvonsa ham, yalingisi kelmay yuzini teskari burib, mushukka jimjilog'ini cho'zdi:

— Qilichmi, to'qmoqmi?

Mushuk hech narsaga tushunmay bir buvisiga, bir Barnoga qarab “miyov”-lab qo'ygan edi, buvi kula-kula dedi:

— To'qmoq, qizim, to'qmoq!

— Bo'lmasa to'qson yilgacha o'rtoq, — dedi Barno.

Shunday qilib, mushuk bilan Barno to'qson yilgacha o'rtoq bo'lishdi-yu, shu-shu bir-birlarini hech xafa qilishmadi!

Abdulhay NOSIROV

YANGI MASHINA

Abdulhamid hovliga yangi yuk mashinani ko'tarib chiqdi. Ibrohim uni ko'rib:

- Yangimi? — deydi.
- Abdulhamid kerilib: — Yangi, — deydi.
- Kim olib berdi?
- Ayam, — deydi Abdulhamid yana cho'zib.
- Abdulhamidning qo'lidagi mashinani ko'rghan bolalar darrov davra qilib o'rab olishdi.
- Zo'r mashinaykan-a? — Bahodir mashinani maqtaydi.
- Chirog'i ham borakan, — Sarvar mashinani ushlab ko'rmoqchi bo'ladi.
- Abdulhamid esa, mashinani bag'riga mahkam bosib oladi.
- Bunaqa mashina menda ham bor, — deydi O'ktam beparvogina.
- Bunaqasi senda yo'q, — deydi Abdulhamid qad-dini tik tutib. — O'zi bitta.
- Bor.
- Yo'q.
- Bor bo'lsa, ko'rsat-chi, — deydi Ibrohim.
- Uyimda, shkafda-da, — deydi O'ktam sekingina.
- Qum tashiydigan mashinami? — so'raydi Sarvar.
- Qum tashisa ham bo'ladi, — deydi O'ktam bo-shini egib.
- Abdulhamid, yur, mashinangda qum tashib o'ynaymiz, — deydi Ibrohim.
- Men belkuragimda qum solib turaman, — deydi Bahodir.
- Ho, iflos bo'lib qolsinmi? — Abdulhamid mashinasini bag'riga yana mahkamroq bosadi.



- Iflos qilmaymiz.
- Yo'q, hozir, — Lola uyiga yugurib ketadi. Hayal o'tmay bir parcha atlas laxtak ko'tarib chiqdi.
- Yangi mashinaning ko'rmanasi bo'ladi-da. Ma, ol. Iflos bo'lib qolsa artib qo'yasan.

Abdulhamid Lolaning qo'lidan atlas laxtakni oladi-da:

- Yuringlar, qum tashiyimiz, — deb maydonning bir chekkasiga uyib qo'yilgan qum tomon yugurib ketadi.
- Ur-re, qum o'ynaymiz, — deb bolalar ham unga ergashadi.

Musharraf ZAYNIDDINOVA

TOVUSH

Bu derazaga yaqin qo'yilgan karovat — Guliniki. Ana tokchada qo'ng'i-roqli soat chiq-chiq yurib turibdi. Har kuni ertalab soat jiringlaganda Guli uyqudan ko'zini ochadi. Keyin soatga qarab gapiradi:

— Meni uyg'otding-a? Rahmat senga, endi bog'chamga kech qolmayman-a?

Oyisi qiziga kulib qarab turadi:

— Guliginam, tura qol, — deydi-da, peshonasidan o'padi.

Mana shunday. Kun o'tadi, kech kiradi. Yana yangi tong otadi. Soat bo'lsa hech tinmay chiq-chiq qilaveradi, charchamaydi. Kechqurun Guli uqlashga yotganda soatni o'ylaydi. Gohida oyisidan so'raydi:

— Oyi, soat nima deb gapiradi?

Oyisi unga soatlarning gaplaridan qiziq-

qiziq cho'pchaklar aytib beradi. Juda g'alati-ya? Yaqinda Guli bir narsani sezib qoldi. Nazarida soat kunduz kunduz ko'ra kechasi qattiqroq chiqillaydi. Bu haqda hozircha u hech kimga aytgani yo'q. Oyisidan ham so'ramadi. Kelinglar, bolalar, hammamiz o'ylab ko'ramiz. Nega soat tovushi kunduzidan ko'ra kechasi yaxshiroq eshitiladi? Yoki Guliga shunday tuyuldimikin-a?



MEHRIBON

Dam olish kuni hovlimizda aylanib yurgandim. Naima opam o'z bolalari — Noila, Matluba va G'ayratjonlar bilan uyga kirib keldi. Birozdan keyin Noila:

— Vali tog'a, bizlarga olma olib berasiz-a? — dedi.

Bularning baxtiga olma tushmagur ham tamom bo'lib qolgan edi. Shunga qaramay, Noilaxonning aytganini qilib, umid bilan olmaning ustiga chiqdim va kuchim boricha daraxt shoxlarini silkitdim. Uchta olma tushdi. Men olmalarni yuvib, jiyanlarimga bittadan bo'lib berdim. Noilaxon bo'lsa qo'lidagi olmasiga qarab:

— Vali tog'a, pichoq qayerda? — deb so'rab qoldi mendan.

— Pichoqni nima qilasan? — dedim hayron bo'lib.

— Hozir ko'rasiz! — dedi kulib va uyga kirib, o'zi pichoq topib chiqdi.

Pichoq bilan olmasini teng ikkiga bo'ldi-da, bir bo'lagini onasiga uzata turib:

— Mang, ona, — dedi.

— Voy, onaginang o'rgilsin, o'zing yeya qol, — dedi opam Noilani quchoqlab. U bo'lsa qoshlarini chimirib:

— Kerak emas, siz yemasangiz, men ham yemayman, — dedi.

Abdulla AVLONIY

AQLLI QARG'A

Kunlar yoz fasli o'ldig'indan har yerda suvlar qururmish. Bechora Qarg'a suv yo'qlig'indan nihoyatda suvsarmish. Tillari osilub, har tarafdan suv axtarmoqda ekan, birovning oldinda turgan ko'zani ko'rib, yoniga kelub boqsa, ichinda suv bor. Lekin bo'ynini suqub ichay desa, bo'yi yetmaydi. Biroz o'ylandida, tumshug'i ila toshlarni yig'ub, ko'zaning ichiga tashlay boshladи. Oz vaqt ichinda ko'zaning ostindagi



suv ustiga chiqib, tosha boshladи. Aqlли Qarg'a suvdan ichub, tashnalik balosin-dan qutulib, uchub ketdi.

OLMOS

AYYOR QARG'ALAR

Kech kuz. Kun sovuq edi. Shudgorda to‘p-to‘p qora, ola qarg‘alar qag‘-qag‘lashib uchib yurishardi. Patlari hurpaygan, har bittasining kattaligi tovuqday-tovuqday kelardi.

Qarg‘alar goh katta yo‘ldagi yong‘oqlarda qag‘illab uchishar, goh esa to‘da-to‘da bo‘lib asfalt yo‘l ustida chag‘-chug‘lab qolishadi. Nima qilishayotgan ekan, deb ularni kuzata boshladim. Qarg‘alar daraxt tepasida qolib ketgan yong‘oqlarni balanddan asfaltga tashlashar, yong‘oq yorilgach, baravar mag‘ziga yopirilishardi.

Yong‘oqning mazasi qarg‘alarga yoqib qolgan edi. Ularning quvligiga qoyil qolasan kishi.

MUSICHA

Kanareykalar qafasi oldiga bitta musichaning o‘ralashib qolganini sezib yuribman. U ayvonga kelib qafasdan to‘kilgan don-dunni yeb yuradi.

Ba’zan qafasga qistirilgan olma, apelsinni cho‘qib ochadi.

Bir kuni kitob o‘qib o‘tirsam yana o‘sha musicha qafasning chetiga qo‘nib turibdi. Kuzatib turdim. Musicha bemalol kanareykaning ovqatini cho‘qlardi.

Chunki kanareykaning don-duni va suvi doimo tayyor turadi. Sovuq tushishi bilan issiqliqina uyga ko‘chib kirishadi, ularning nima ham tashvishi bor, deb o‘ylasa kerak-da musicha.

Eh, dangasa musicha. Axir, sen erkinlikda yayrab



yuribsan-ku, uchsang qanotlaring ham bor. Kanareykalar doniga ko‘z olaytirmay, o‘z rizqingni o‘zing yerdan topib yesang bo‘ladi-ku!

Zamira IBROHIMOVA

RAHMAT, BOR BO‘LING

G'ayratjon yaqinda beshga to‘ladi. U juda g‘ayratli bola, hamma ishga jon-jahdi bilan yopishadi.

G‘ayratjon tomorqada dadasingning yer chopishiga havas bilan qarab turdi-da:

- Dada, ketmonni bering, men ham chopay, — dedi.
- Bu ketmon senga og‘irlilik qiladi, — dedi dadasi.
- Jon dadajon, berib turing.

Dadasi ketmonni berdi. G‘ayratjon uni ushlab ko‘rdi-yu, ammo ishlata olmadi.

— Aytdim-ku, o‘g‘lim, — dedi dadasi ketmonni uning qo‘lidan olarkan. — O‘zingga mos ketmoncha olib beraman.

Ertasi kuni dadasi ketmoncha olib keldi. G‘ayratjon sevinib ketdi. U dastasi oqish ketmonchaning uyoq-buyog‘ini aylantirib ko‘rdi. Xuddi dadasingning ketmoniga o‘xshaydi. Faqat kichkinagina, chiroyli. “Iya, nega qarab o‘tirib-man, yer chopish kerak-ku!” — dedi o‘ziga-o‘zi va irg‘ib o‘rnidan turdi:

- Dada, yuring bog‘ga!
- Hozir, o‘g‘lim.

G‘ayratjonning g‘ayrati ichiga sig‘may, ketmonchasini yelkasiga qo‘yib chiqib ketdi...

Ota bilan o‘g‘il tomorqada zavq bilan yer chopishayotgan edi, oyisining ovozi eshitildi:

- Hormangla-ar!

G‘ayratjon oyisiga kulib qaradi-da, nam tuproq yopishgan ketmonchasini yuqori ko‘tarib, ovozining boricha: “Bu — ket-mon-cha!” — dedi.

Oyisi bilan dadasi miriqib kulishdi. G‘ayratjon ham ularga qo‘silib, ketmonchasini silkita-silkita qiyqirib kuldii. Kulgidan to‘xtaganda dadasi:

- G‘ayratjon, ish qilayotgan odamga birov “Hormang!” desa, “Rahmat,

bor bo'ling!" deb javob qaytarish kerak. Chunki "Hormang" degani "Charchamang" degani bo'ladi. Tushundingmi? — dedi.

G'ayratjon tushundi. Endi u tez-tez uy darazalariga qarardi. Deraza ochiq, ammo oyisi ko'rinasdi. Qani endi, oyijoni yana bir marta "Hormanglar!" desa. Shunda G'ayratjon baralla "Rahmat, bor bo'ling!" deb o'zining odobli, aqlli bola ekanligini ko'rsatgan bo'lardi.

Karim RAHIM

YONG‘OQ

Muharram opa so'rida ish tikib o'tirgan edi. Birdan o'g'li Tal'at ko'chadan hovliqib kelib qoldi.

— Oyi, oyi, Islomlarning uyiga-chi, doktor keldi, doktor, — shoshib-pishib dedi u. — Ikkita. Mashinasi ham bor.

— Nimaga kelganini bilasanmi? — Muhamram opa o'g'liga ma'noli tikildi.

— Ha, Islomni olib ketarmish, — gapira boshladi Tal'at. — Uning bo'ynini bog'lab qo'yishibdi. Islomning-chi, ovoziyam chiqmayotgan ekan. Nega unaqa bo'ldiykan, oyi?

— Kecha oyisidan berkitib bir tarelka yong'oqni bitta qo'ymay yegan ekan, — dedi oyisi.


Tal'atning qip-qizil, yumaloq yuzlari birdan oqarib, rangi dokadek bo'zarib qoldi. U shoshib tomog'ini ushladi. Keyin "hiq-hiq" qilib yo'talib ham qo'ydi-da:

— Oyi, mening tomog'im bo'g'ilmaydim? — Tal'at ko'zlarini mo'ltiratib onasiga tikildi.

— Nega bo'g'iladi, o'g'lim? — taajjublandi

Muharram opa.

— Boya tokchadagi yong'oqni sizdan bekitib yegan edim, — dedi Tal'at. — Tarelkada bitta qolgandi.



DILBAR

Qikki yuzi qip-qizil Dilbar xonaning o'rtasiga o'tirib olib qaychi bilan rangli qog'ozni qiyib, qo'g'irchog'iga ko'yvak qilib o'tirar edi. Dilbar stol ustidan qo'g'irchog'ini olish uchun o'rnidan turgan edi, birdan etagiga yig'ib o'tirgan mayda qiyqindi qog'ozlar yerga sochilib ketdi. Uyga yozilgan gilam iflos bo'ldi.

Dilbar darrov katta-katta qog'ozlarni terib oldi-da, dahlizda turgan supurgini olib, xonani boshidan tozalab supurishga kirishdi.

— O'h-ho', ona qiz degan shunday bo'lsin-da. O'zimning oppoq qizim, shirin qizim, aqli qizim katta bo'lib, uy supuradigan bo'lib qolibdi-ku, — dedi qiziga, qo'lida bir dasta kosa ko'tarib uyga kirib kelgan Salomat opa.

Supurgini ikkala qo'l bilan mahkam ushlab, engashib jon-jahdi bilan supurayotgan Dilbar yalt etib onasiga qaradi-da:

— Oyi, bu supuringiz yomon ekan. Odanni charchatyapti, menga yaxshi, kichkina supurgi olib kelib bering, — dedi.

— Xo'p bo'ladi, oppoq qizim, — dedi Salomat opa qo'lidagi kosalarini shkafga qo'ya turib.

— Oyi, o'zingizga ham yaxshisidan olib kelasizmi? Bu yomon-ku, sizni ham charchatib qo'ymaydimi?

— Charchatadi, qizim. Mana, supurish shunaqa qiyin bo'ladi, shuning uchun uyni qo'qitmagin, deb seni urishaman-da, — dedi Dilbarga tikilib turgan Salomat opa.

— Endi hech iflos qilmayman, supurgi olib bersangiz, har kuni o'zim supuraman. Bog'cha opamiz ham onangizga yordam bering, deganlar.

— Xo'p, qizim, ertaga olib kelib beraman, — dedi qizini erkalatib Salomat opa.

Ertasi kuni Salomat opa Dilbarga kichkinagina, chiroylı, qip-qizil dastasi ixcham qilib bog'langan supurgi olib kelib berdi.



Dilbar endi har kuni ertalab uyni supuradi. U juda ozoda qiz. O'rtoqlari bilan o'ynaganda ham to'polon qilmaydi, uyni iflos qilmay o'ynaydi. Chunki u supurishning qadriga yetadi.

Parizod MUHAMMADYOROVA

NIGORA

Nigora fartugini kiydi, keyin stol yoniga ikki kursini sudrab kelib, bittasining ustiga kattagina tovoq qo'ydi-da, unga suv quydi. So'ngra o'zi bir kursiga chiqib, tovoqni stolga oldi. Onasidek yengini shimarib, stoldagi idish-tovoqlarni yuva boshladi.

Uch-to'rt kun bo'ldi – buvisi kasal. Oyisi kechqurun dori-darmon beradi, uni yuvintiradi, ovqat yediradi. Ertalab bo'lsa, ishga kechikaman, deb shoshilib ketadi. Idish-tovoqlar yuvuqsiz qoladi.

Ertalab Nigorani bog'chaga oyisi olib bordi. Kechqurun bo'lsa Valining oyisi olib keldi. Buvisining kasal bo'lib yotgani juda-juda yomon bo'ldi-da. Kasal bo'lib nima qilar ekanlar-a?

Nigora idishlarni sindirib qo'ymay deb, qo'rqib, ehtiyot qilib yuvdi. Yuvuqsiz idish-tovoqlar anchagina ekan, qarang, butun stol usti to'lib ketdi. Keyin u

sochiqni olib, idishlarni arta boshladi. Shunda bir piyola qo'lidan taq etib tushib ketdi. Nigora qo'rqqanidan "Voy", deb ko'zini chirt yumib oldi. "Sindi!" — dedi o'zi-o'ziga. Keyin ko'zini sal ochib qarasa, piyola stolda yonboshlab yotibdi. Qo'lini uzatib piyolani olgani botinmay turdi. Keyin olib ko'rsa, butun ekan. Sevinchidan yuragi dukillab ketdi. "Sinmabdi!"



Nigora idishlarni yaxshilab arta boshladi. Artib bo'lib, ustma-ust taxlab qo'ydi. Sochiqni olib, endi ularning ustiga yopayotgan edi, eshikdan oyisi kirib keldi. Ikki qo'lida ikkita sumka, yukning og'irligidanmi, shoshilganidanmi, terlab ketibdi.

Kursida tip-tikka turgan qizini ko'rib, uning jahli chiqqandek bo'ldi.

— Nima qilib turibsan? — deb hayron bo'lib so'radi u qizidan. Nigora indamay, ha, deb qo'lini fartugiga artib: "So'ramasdan qilganimga urisharmi-kinlar-a?" — deb o'y lab turardi.

Oyisi stol oldiga kelib, sochiqni ko'tardi. Top-toza yuvib qo'yilgan idish-tovoqlarni ko'rib yuzi yorishib ketdi.

— Buvning turdilarmi? — dedi u.

Shunda Nigora:

— Men yuvib qo'ydim, oy! — dedi sevinib. Oyisi yana ham xursand bo'lib ketdi:

— Voy, oppoq qizim-ey, oyingga qarashibsan-da, — dedi. Qizining yuzi dan o'pdi-da, kursidan yerga tushirib qo'ydi. Keyin shoshib-pishib ovqatga unnab ketdi.

Avval akasi mактабдан qaytdi. Keyin uyga dadasi kirib keldi. U kiyimini yechib, endi qo'lini yuvgan edi, oyisi bir lagan oshni stolga keltirib qo'ydi.


— Kelinglar, ovqat sovib qoladi.

— Nechuk bugun ovqat barvaqt pishdi? — deb so'radi dadasi.

— Ishdan erta kelsam, qizingiz idish-tovoqlarni yuvib qo'yibdi, tezda ovqatga unnab ketdim, — dedi jilmayib oyisi.

— Barakalla, qizim, qani-qani, bir achom qilay, — deb dadasi qizini quchoqlab, peshonasi dan o'pdi-da, stol yoniga — kursiga o'tqizib qo'ydi.

Hamma ovqatga o'tirdi. Belini ushlab, inqillab-sinqillab narigi uydan buvisi ham chiqdi.



— Osh mazali bo'libdi, — dedi dadasi, oshni ishtaha bilan yer ekan.

Nigora oshdan ozgina yeb ko'rgan edi, rostdan ham juda-juda shirin ekan.

Hamma xursand bo'lganidan keyin ovqat ham shirin bo'ladi-da!

To'lqin RASULOV

LOLNING GULI

Lola bugun juda erta uyg'ondi. U hovliga chiqib ariq bo'yida o'tirgan buvisining oldiga keldi:

— Nima qilyapsiz, buvijon? — dedi qoshlarini chimirib Lola.

— Gul ekyapman, qizim, — dedi buvisi, keyin undan so'radi. — Bugun bog'changga borasanmi?

— Ha, boraman, — dedi Lola va cho'nqayib o'tirdi-da, buvisining qanday gul o'tqazayotganini tomosha qildi. Shunda u bog'cha hovlisidagi gulzorni esladi. Lola bir kuni shu gulzordan o'rtog'i Gulnor bilan kapalak tutmoqchi bo'lган edi.

Lola buvijonisi ekayotgan har xil gullarga qarab qoldi:

— Buvijon, gulingizdan menga ham bering, — deb so'radi u.

— Nima qilasan? — dedi buvisi unga qarab.

Lolaning yuzlari qizarib ketdi:

— Bog'chamizda-chi, buvi, katta gulzor bor, o'sha yerga ekaman.

— Xo'p, xo'p, qizim, — dedi buvisi kulib, — qani, savatchangni olib kel...

Lola uydan savatchasini olib chiqdi. Buvisi unga gulsafsar, rayhon, gulbeor va boshqa ko'chatlardan solib berdi.



Lola savatchasini ko'tarib bog'chaga ketdi. Uni ko'rgan tarbiyachi Shohida opa va o'rtoqlari hayron bo'lishdi.

— Bu nima, Lola? — deb so'rashdi bolalar savatdagи ko'chatlarga qarashib.

— Bu — gul, — dedi Lola. Buni-chi, opa, buvim berib yubordilar, bog'chaga ekamiz.

— Juda yaxshi, — dedi Shohida opa Lolaning qo'lidan savatchani olib. — Hozir hammasini gulzorga ekamiz...

Ular Shohida opa bilan gulzorga hamma ko'chatlarni o'tqazishdi. Yoz ham keldi. Bog'cha gulzorida Lolaning gullari qizil, oq, sariq, ko'k ranglarda tovlanib ochildi. Gullar ustida xoldor qanotli kapalaklar Loladan xursand bo'layotgandek uchib yurishardi. Lola va o'rtoqlari buni ko'rib quvonib ketishdi.

Oltmis O'SAROV

SALOM, TUPROQ

Oydin dadasi bilan pomidor o'tqazardi.


Ular oldi jo'yaklarga jildiratib suv oqizishdi. Pushtaga nam yugurgach, Oydin dadasi o'rgatgandek, barmoq yo'g'onligidagi cho'pni ikki qarich, ikki qarich yerga suqib, chuqurcha hosil qildi. Dadasi shu chuqurchalarga pomidor ko'chatining tomirlarini joylashtirib, atrofini tuproq bilan bekita boshladi. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan ikki qator pomidor nihollari xuddi bog'cha bolalari safga tizilganday bir tekisda saf tortib ko'zni quvontirdi.

Jo'yakka yana bir bor suv oqizishdi. Lekin sal vaqtdan keyin o'tqazilgan nihollar so'lg'inlashib, yerga bosh egishdi. Bu holni payqagan Oydin dadasidan so'radi:

- Nima bo'ldi ularga?
- Ko'chatlar yerga — tuproqqa salom berishyapti, — javob berdi Maqsud aka.
- Nega salom berishyapti? — yana so'radi Oydin.

— Bu ko'chatlar boshqa tuproqdan keltirildi. Endi ular: "Bizni bag'ringga olganing uchun rahmat. Bundan buyon sen bilan birga bo'lamiz", — deb ta'zim qilishyapti, — javob berdi dadasi. — Ertaga tuproq ko'chatlarni erkalab boshini ko'taradi.

Oydin ertasiga o'tqazilgan nihollarning qad rostlab, yashnab turganini ko'rди. Shunda u tuproqqa salom bergan nihollarga quvonch bilan boqdi.



Mahmud MURODOV

DOG'

Anvarjonning dadasi ishdan qaytishda bir talay shaftoli olib keldi. Ular shunday chiroylik, xuddi oltinga o'xshaydi.

Stol atrofiga Anvarjon, dadasi, oyisi, opasi, ukasi o'tirib shaftolixo'rlik qilishdi. Anvarjon bir shaftolini ikkiga bo'lgan edi, barmoqlari orasidan shir etib sharbat oqib ketdi.

— Suvini oqizmay, shoshmay yenglar, — dedi oyisi tayinlab. Ular shaftolini maza qilib yeishdi. Qo'llari shira bo'ldi.



— Yana yeysizlarmi? — deb so'radi dadasi.

Bolalar bosh chayqashdi.

— Bo'lmasa, og'iz-qo'llaringizni yuvib kelinglar! Anvarjon shoshib, dasturxonning bir chekkasiga qo'llarini artdi. Mo'tabar bilan G'anijon bo'lsa qo'llarini yuvib, sochiqqa artishdi.

— Aqlli o'g'lim, yaxshi qizim, — deb erkaladi dadasi G'anijon bilan Mo'tabarni.

Anvarjon ham yugurib borib qo'lini yuvdi, artindi.

Keyin dadasiga "men ham aqlli bolaman" demoqchi bo'lgan edi, ko'zi dasturxondag'i dog'ga tushdi. Dasturxon "Meni nima qilib qo'yding!" deyotgandek edi.

Rauf TOLIB

IZ

Zamira xola uyga kirdi-yu, fig'oni falakka chiqib ketdi. Axir, nega xafa bo'lmasin, hozirgina polni chinni-chiroq qilib yuvib chiqqandi. Shundoqqina botinka izi bo'lib ketibdi.

— Bilmadim, bu bolalarga qachon aql kiradi o'zi? Qachon bundoq mehnatning qadriga yetishadi? Axir, endi kichkinami? Maktabga borishsa.

Zamira xolaning jahli chiqib, hovlida koptok o'ynab yurgan Sherzodni chaqirdi.

— O'g'lim, bu yoqqa kel!

Sherzod endigina ko'chaga qochmoqchi bo'lib turuvdi, ulgurolmay qoldi, noiloj uyga kirdi. Qarasa, oyisining avzoyi buzuq.

— Bu qanaqa qiliq? Shoshmay, avval botinkangni yechib, keyin uyga kirsang bo'lmaydimi? Qara, hammayoqni iz qilib tashlabsan-ku!

Sherzod juda quv bola. U osongina qutulish yo'lini o'ylardi. "Oyim-ku, hozirgina ko'chadan keldilar. Mening uyga kirganimni ko'rib o'tiribdilarmi?" deb qo'ydi ichida.

— Oyijon, — dedi Sherzod mug'ombirona kulib. — Men, axir, uyga kirmadim-ku.

— Sen kirmasang, kim kirdi? — jahl bilan dedi Zamira xola. Shunda Sherzod:

— Ukam Bunyodning boyu uyga kirib ketayotganini ko'rghan edim, — dedi.

Zamira xola battar tutoqib ketdi: “Bunyod o'zi kichkina, oyog'ining izi shunaqa katta bo'ladimi? O'z aybingni ukangga to'nakashga uyalmaysanmi, a?”

Sherzod og'iz ocholmay qoldi. “Masalaning bu tomonini sira o'ylamagan ekanman-da! Eh, xomkalla!”

Nega o'shanda botinkasini yechib kira qolmagan ekan? Ochig'i, iplarini yechishga eringandi. Nega erindi? Sherzod hozir pollarni artib qo'yib, gunohini oqlashi mumkin edi. Ammo yolg'on gapirib qo'lga tushib qolgani yomon bo'ldi-da! To'g'risini aytganda, balki oyisi kechirarmidi? Kechirardi, albatta.

Hamid BADALOV

QIP-QIZIL OLMA

Fursunoy va Tohira — opa-singil. Ularning hovlisi keng, o'yinchoqlariyam juda ko'p. Tursunoyning tug'ilgan kuniga qo'shni bolalar — Farhod, Shoira, Nigoralar ham kelishdi. Katta hovli xuddi bog'chaga aylanib qoldi. Ularning o'yin-kulgulariga Tursunoy bosh bo'ldi. Bolalar bog'chada o'rgangan qo'shiqlarini aytib berishdi.

Ertasiga nimagadir Tohira yeb turgan konfetidan yana olib chiqdi.

O'rtoqlariga ularshdi.

— Yenglar, dadam olib kelganlar, juda mazali!

— Shirin ekan, — dedi konfetni hash-pash deguncha yeb bo'lgan Vazira.

Buni kuzatib turgan ammasi o'zicha xursand bo'lib qo'ydi.

— Yasha, qo'zichog'im! Bu fe'ling otangga tortgan. Otang ham qizg'anish nima ekanligini bilmasdi.

Bugun Vazira uyidan bir qizil olmani tishlab chiqdi. Tohiraning ham olma yegisi kelib ketdi.



- Menam bitta tishlay!
- Ho... — dedi Vazira, olmasini orqasiga yashirib.

Shu payt Tursunoy uyga kirib, tog'orachada olma olib chiqdi-da, bolalarga ularshdi. — Ol, sen nega yemaysan? — dedi Tursunoy Vaziraga. Bir chetda turgan Vazira tortinibgina olmaga qo'l uzatdi.

Ibrohim RAHIM

DARAXTNING OYOG'I

Bog'cha hovlisida Hasanjon bilan Husanjon o'ynab o'tirib, ro'paradagi panjara orqasida bir oyoqlab qunishib turgan tovuqni ko'rib qoldilar.

— Uni qarang, Hasan aka, anavi tovuqning bir oyog'i yo'q ekan. Bir oyoqlab qocholmaydi. Ushlab olaymi?

Hasanjon ham daf'atan bir oyoqda turganini ko'rib qoldi. Ukasining shunga fahmi yetmagani uchunmi, unga bir karomat ko'rsatmoqchi bo'lib, dedi:

- Shu tovuqni bir zumda ikki oyoqli qivoraymi?
- Ho... qib bo'psiz.

Hasanjon qum orasidan danakday tosh olib, qunishib turgan tovuqqa otdi. Tovuq shu zahoti bir sakrab ikki oyoqlab nariga qochdi.

Husanjon akasining ko'rsatgan bu karomatiga tan berganday iljayib qo'ydi.

Ular yana qum o'ynashni davom ettirdilar. Shu orada yomg'ir tomchiladi. Hasan-Husan pana joyga borib oldilar. To'satdan shamol ko'tarildi. Shamol zarbidan hovlidagi daraxtlar egilib-bukilib turardi. Ayniqsa, bir olcha niholi "dod-faryod" qilganday har yoqqa tashlanardi-yu, o'rnidan jilolmasdi. Husanjon uning nochorligiga achinib, kuyunib ketdi. Birozdan keyin "bilag'on aka"sidan so'radi.

- Shu olchani ham yurg'izvoralasizmi?
- Yo'q, yurgizolmayman.
- Nega?
- Daraxtning oyog'i bitta-da...
- Nega daraxtlarning oyog'i bitta, ikkita emas, a?
- Shuniyam bilmaysanmi, oyog'i ikkita bo'lsa, hovlimizdan qochib keta-di-ku.



Do 'stjon Matjon. Ko'klam sep yoydi

Yoqut RAHIMOVA

BU SIZGA, OYIJON

Ona bir kuni bolalariga nisholda surtilgan, orasiga sedana solingan bir dona shirin non olib keldi. U belanchakda yotgan kenjatoyi Shahnozaga shishada sut berib, bog'chadan kelgan Nodir bilan Dilnozaga shirin nonni teng ikkiga bo'lib uzatdi. Shu payt Dilnoza o'zining bo'lagini qaytib onasiga berdi:

— Onajon, o'zingizga qolmadi-ku! Oling, menikidan yeng, ola qoling!
 — Yo'q, asalginam, yeyaver. Mening qornim to'q! — dedi onasi mehribonlik bilan. Dilnozaning nima qilayotganiga qarab turgan Nodir ham o'zining bo'lagini onasiga uzatdi.

— Oyijon! Menikidan yeng, ola qoling!

— Ona o'g'lining bu harakatidan hayron bo'lib qoldi. Chunki Nodir avvallari hech bunday qilmasdi, qo'liga nima olsa, shoshib-pishib o'zi yeb qo'ya qolardi. Ona o'g'lining mehribon bo'lib qolganidan quvonib ketdi.

Uning nonidan ozgina ushatib olib, yana o'ziga qaytarib berdi.

— Nima, Nodiringiznikidan yedingiz-ku! Menikidan ham yeysiz, yeysiz! — xarxasha qildi Dilnoza. Onasi uning nonidan ham ozgina olib, og'ziga oldi.

Shu payt belanchakda yotgan Shahnoza "aya-aya"lab qoldi. O'girilib qarasha, Shahnoza ham belanchakdan turishga intilib, og'ziga so'rg'ich kiydirilgan sut to'la shishasini onasi tomon uzatardi.





Jahon bolalar hikoyatari

Mixail PRISHVIN,
Rossiya

MUSHUK

Derazadan Vaskaning bog‘ oralab ketayotganini ko‘rganimda mayin ovoz bilan:

— Vasen-ka! — deb chaqiraman.

Shundan keyin u ham javob berib miyovlaydi. Ammo qulog‘im og‘irroq. Shuning uchun ovozini eshitmayman. Faqat chaqiranimdan keyin pushtirang og‘zi ochilayotganini ko‘raman, xolos.

— Va-sen-ka! — deb chaqiraman uni.

U menga:

— Hozir boraman, — deb miyovlaganini sezaman.

U yo‘lbarsga o‘xshab viqor bilan yurib uyga kiradi.

Ertalab, yemakxonaning qiya ochiq eshigi tirkishidan kun tushdi deguncha, Vaska shundoqqina eshikning tagida, qorong‘ida meni kutib turadi. U yemakxonada mensiz hech narsa bo‘lmasligini biladi. Shuning uchun boshqa joyda bo‘lsa, mudrab, meni ko‘rmay qolishdan qo‘rqib ostonaga kelib oladi. U bu yerda allaqachondan beri o‘tiribdi. Choynakni olib kirishim bilan erkalanib, miyovlab menga otiladi.

Choy ichishga o‘tirsam, u chap tizzamga o‘tirib olib harakatimni, qand kesadigan ombur bilan chaqmoq qandlarni qanday maydalayotganimni, nonni qanday kesayotganimni, sariyog‘ni nonga qanday surayotganimni kuzatib turadi. U tuzlangan sariyog‘ yemasligini bilaman, agar kechasi sichqon tuta olmagan bo‘lsa, faqat kichkina gina bir bo‘lak non yeysi, xolos.

U stol ustida mazali narsa — pishloq po‘stlog‘i yoki kolbasa yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, tizzamga o‘tirib oladi-da, biroz g‘imirlagach, uxbab qoladi.



Choy ichib bo'lib, o'rnimdan turganimdan keyin, u uyg'onib, deraza tomon yo'l oladi. U tongda gala-gala bo'lib uchib o'tayotgan zag'cha va qarg'alarni sanab, boshini har tomonga qiyshaytiradi. Katta shahardan u o'ziga faqat qushlarni tanlaydi va faqat shular bilan shug'ullanishga intiladi.

Hayot u uchun kunduzi qushlarni, kechasi esa sichqonlarni ovlashdan iborat: kunduzi uning qora ko'zi xira tortib, faqat qushlarni ko'radi, kechasi esa qora ko'zlar ravshan tortib, faqat sichqonlarni ko'radi.

Bugun radiatorlar issiq, shuning uchun derazalar terlab xiralashgan. Mushugim zag'chalarni sanab chiqishga qiynaldi. Oxiri nima qildi, deng? U o'ylab-o'ylab, orqa oyoqlarida turib, oldingi oyoqlarini oynaga tiradi-da, uni arta boshladidi. Artib bo'lib, keyin xotirjam, xuddi chinni o'yinchoqqa o'xshab cho'qqayib o'tirib oldi-da, yana zag'chalarni sanab, kallasini bura boshladidi.

Kunduzi qush ovlaydi, kechasi esa sichqon. Vaskaning butun hayoti shundan iborat.

**Lyubov VORONKOVA,
Rossiya**

ZO'RAVON TOVUQ

Tanya pashshaxonada uxlardi. Ertalab dahlizdag'i kichkina deraza oldiga xo'roz kelib, shunaqayam qichqirdiki!

Tanya uyg'onib ketdi. U pashshaxonaning bir chetini ko'tarib, derazaga qaradi — quyosh tepaga kelib qolibdi.

Tanya o'midan turdi-da, ich ko'ylagida hovliga chiqdi.

Hovlida onasi tovuqlarga "tu-tu-tu"lab don berayotgan edi.

Hammayoqdan — qo'rg'ondan ham, ko'chadan ham, hovlidan ham tovuqlar yugurib, uchib kelishardi. Ular qanotlarini patillatishar, qaqillashardi.

— Tanechka, yaxshi uxladingmi? — deb so'radi onasi. — Juda qattiq uxlaganga o'xshaysan-a? Mening brigadamdagilar ancha ish qilib qo'yishdi — biz butun bir pichanzorni o'rib



bo'ldik, g'aram ham qilib qo'ydik, sen bo'lsang endigina uyg'onibsan! Qanaqa tush ko'rding, gapirib ber-chi?

Tanya ko'm-ko'k osmonga, yashil qayin daraxtiga qaradi... Onasining yuziga, uning quvnoq ko'ziga boqdi va kulimsirab:

— Bilmayman, — dedi.



Tovuqlar donni shoshib-pishib cho'qilashardi. Bittasi — ola-bula paypoqdori esa kechikib qoldi. U uzoqdan shoshilib keelayotgan bo'lsa kerak. Bo'ynini cho'zib olgan, qanotlarini yozib yuborgan. Kutilmaganda Tanyaga tashlandi. Tanya qalqib ketdi.

— Obbo, zo'ravon-e! — dedi Tanya. — Odamni turtib yiqitadi-ya.

Onasi xoxolab kulib yubordi va Tanya ning sariq jingalak sochidan o'pdi.

— Voy, polvon qizim-ey, — dedi u.

— Tovuqqa kuching yetdi-ya!

Chopib borib yuvingin-da, ko'ylagingni kiyib ol, hademay buving nonushtaga chaqirib qoladi.

SOMSA YO'QOLIB QOLDI

Sanyaning buvasi, onasi va Tanyaning o'zi stol atrofida o'tirishardi. Stol ustida katta mis samovar shaqillab qaynar, uning yonida — xurmachada usti qaymoq tutgan, qaynatilgan sut turardi.

Hammalarining piyolalari har xil rangda. Buvisiniki havorang, oyisiniki gulli. Tanyaning piyolasiga xo'roz rasmi solingan.

Buvasing esa piyolasi yo'q edi. U choyni stakanda ichardi. Stakanda esa faqat bitta ko'k yo'l bor edi.

Buvisi pechkadan issiq kartoshka to'la tovoq oldi, stol ustiga katta kosada mol oyog'idan pishirilgan dirildoq (xolodes) qo'ydi. Tanyaning taqsimchasiga pishgan so'lqildoq somsa qo'ydi. Tanya suyunib ketdi.

— Buva, — qichqirdi u, — sizga somsa yo‘q! Menga esa bor!
 — Yo‘q bo‘lsa nima bo‘pti — dedi buvasi. — Men zangori qushchani ko‘ryapman, sen ko‘rmayapsan.

— Qani, qani zangori qushcha?
 — Hov, ana, qayin daraxtida o‘tiribdi.

Tanya derazadan boshini chiqardi. Bitta qayin daraxtiga qaradi, ikkinchisiga qaradi. Arg‘uvon daraxtiga ham qaradi.

— Qush qani?

Buvasi o‘rnidan turib peshayvonga chiqdi, qaytib kirib, yana zangori qushchani ko‘rganini aytdi.

— Buvangning gapiga quloq solma! — dedi buvisi. — U jo‘rttaga aytyapti.

— Juda g‘alatisiz-da, buva, — Tanya ning jahli chiqdi. — Nuqul aldaysiz!

U joyiga o‘tirib, qo‘lini somsaga uzatdi: somsa g‘oyib bo‘lgan edi! Tanya somsani kim oldiykin, deb hammaga bir-bir qaradi. Onasi kular, biroq uning taqsimchasida somsa yo‘q edi. Buvasingning idishida ham somsa yo‘q edi. Buvasi esa hayron edi:

— Nima bo‘ldi? Somsa yo‘qolib qoldimi? Darvoqe, hozir hovlida ko‘rdim, shekilli?

— Qanaqasiga hovlida ko‘rasiz?

— Uyga kirayotgandim, ro‘paramdan somsa chiqib qoldi. “Qayoqqa ketyapsan?” — deb so‘radim. U esa: “Quyoshda isingani ketyapman”, — dedi.

Tanya zinapoyaga yugurib chiqdi. To‘ppa-to‘g‘ri! Somsa panjarada yotibdi, quyoshda isinyapti. Tanya sevinib, somsani oldi-da, uyga qaytib kirdi.

— Qochoqni topdingmi? — so‘radi onasi. — Juda soz. O‘tirib choyingni ich. Somsangni tezroq yeb ol, yana qochib ketmasin!

Buvisi esa boshini qimirlatdi-da, sekingina:

— Obbo, choli tushmagur-ey! Doim hazil qilganingiz-qilgan, — deb to‘ng‘illadi.





A. SEDUGIN

SHIVIRLAB GAPLASHISHDI

Ота bilan o‘g‘ilchasi gaplashib o‘tirishardi. Ular onaning divanda uxbab qolganini sezmay qolishdi. Birinchi bo‘lib uni o‘g‘il ko‘rdi.

— Dada, dada, uni qarang, — dedi u shivirlab. — Oyimning qoshlari oldiga ajin tushibdi. Nega bunday bo‘ldiykin?

— Sen tunov kuni kichkina qizchani urganing esingdami? — deb so‘radi dadasi.

— Esimda.

— Ana, o‘shaning ertasiga oyingda ajin paydo bo‘ldi.

— Lablari oldidagi ajinlar-chi, ular ham meni deb tushganmi?

— Ehtimol shundaydir. — Ota biroz o‘ylanib qoldi. Keyin onaga qarab:

— Ana, peshonasida ham ajin paydo bo‘libdi.

Bola ma'yus qarab qoldi. Shunda dadasi:

— Bunga biz ikkimiz ham aybdormiz. Kel, bundan keyin onangni xafa qilmaylik, ozor bermaylik. Shunda ajinlari ham ketib qoladi, — dedi.

Ona uxlardi. Ota-bola suv quygandek jim o‘tirishdi.

Shu payt g‘o‘ng‘illab qovog‘ari uchib o‘tdi. Ona uyg‘ondi. Qarasa, ota-bola unga tikilib o‘tirishibdi.

— Nega menga buncha tikilib qoldinglar? — deb so‘radi ona.

— O‘zimiz, shunday, — dedi ota.


O‘g‘il sakrab turib oyisining bo‘ynidan achom qildi va yuz-qo‘lidan o‘pdi.

Uning hozirgina ma'yus bo‘lib turgan yuzlari mehr to‘la jilmaydi.

O' rta yosh davri

4 – 5 yoshgacha





O'zbek xalq og'zaki ijodi

**"RIZQI RO'ZIMIZ
TOG' BO'LSIN..."**

Mavsum qo'shiqlari

* * *

Eski yil ketdi,
Yangi yil keldi.
Doshqozonlar tizilsin,
Sumalaklar suzilsin.

* * *

Bug'doylar pishib, chosh bo'lsin,
Yeganimiz osh bo'lsin,
El-u yurtimiz bog' bo'lsin,
Rizqi ro'zimiz tog' bo'lsin.

* * *

Baka-baka-bum, boychechak,
Baka-bum, boy tilla.
Boryaptilar boy bilan,
Quyon qochdi toy bilan.
Qozonga yog' soldingizmi?
Uyma cho'zma qildingizmi?
Uymangizdan uyib oldik,
Cho'zmangizdan cho'zib oldik.

* * *

Chitti gulga chit bosdim,
 Ro'molimga gul bosdim.
 Ro'molimning guli bor.
 Uchar-uchar qushi bor.
 Uchib keldi havoga,
 Qaytib tushdi daryoga.
 Daryo suvi quridi,
 Baliqlari chiridi,
 Ha-yu, chitti gul,
 Ha-yu, chitti gul.



* * *

Chuchvara qaynaydi-ya,
 Ocham menga bermaydi-ya,
 Bermasa-bermasin-a,
 Bizning uyga kirmasin-a.
 Oshimizdan ichmasin-a,
 Chitti gul, chitti gul.

* * *

Laylak keldi, yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi.
Dala-dashtlar qulf urdi,
Daryo bo'yi soz bo'ldi.
Laylak keladur tog'ga,
Quloqlarida halqa.
Halqasi tushib qopti,
Topib bersangiz olqar:
Man bibi hoji edim.
Qizlar o'yin tushganda,
Man nog'orachi edim.
Nog'orasi buzildi,
Zanjirlari uzildi,
Nog'orachi o'rniga
Laylak bo'ynim cho'zildi!



* * *

Takir-takir, takir-tak,
Qo'shiq aytadi laylak,
Qayrag'ochda uyi bor,
Qumtepada to'yi bor.
To'planishib har kuni,
Tilga olamiz uni.

* * *

Shaftoli pishdi,
Tagiga tushdi.
Xomini uzdim,
Dadam urishdi.

* * *

Ishkomda uzum pishdi,
 Uzumga ko‘zim tushdi.
 Chopib bordim birpasda,
 Yeya boshladim asta.

“XOLA, XOLA, KULCHA BER!..”

Yalinmachoqlar

* * *

Oftob chiqdi olamga,
 Yugurib bordim xolamga:
 — Xola, xola, kulcha ber!
 Xolam dedi: — O‘tin ter,
 Keyin yugurdim qirga,
 O‘rtog‘im bilan birga.
 O‘tin terdik bir quchoq,
 Bilmadik sira charchoq.
 Xolam qordilar xamir,
 Kulcha yopdi bir tandir.
 Bizga kulcha berdilar,
 Peshonamizdan o‘pdilar.
 Oftob chiqdi olamga-ye!
 Yugurib bordim xolamga-ye!..



* * *

Shamol, shamol,
 Bag‘ring kamol.
 Onangni suv olib ketdi,
 Otangni suv olib ketdi,
 Esa qolsang-chi!

* * *

Shamol, bag'ring kamol,
Cho'loq ketmoningni olib qoch!

"CHIR-CHIR KAPALAK..."

Hukmlagichlar

Tilla qo'ng'izga aytiladi:



Tilla qo'ng'iz,
Tilla qo'ng'iz,
Non beraman,
Sut beraman,
Oh beraman,
Ucha qol.

Zag'izg'onga aytiladi:

Xushxabar:
To'y bo'lsin,
To'pig'i – saniki!

Kapalakka aytiladi:



Chir-chir kapalak,
O'rta qo'lim tikanak.

Qaldirg'ochga aytiladi:

Qaldirg'och, g'och-g'och,
Eshicingni tezroq och,

Eshigingni ochmasang,
 Menga yordam bermasang,
 Do'stlashmayman sanminan,
 Gaplashmayman sanminan.
 Ashulalar aytmayman,
 Uchib kelsang, qo'ymayman.

* * *



Qaldirg'och, g'och-g'och.
 Eshigingni och-och.
 Eshigingni ochmasang,
 Tuynugingdan kiraman.
 So'k oshingni ichaman.
 Ichaman-u, qochaman.

* * *

Chumchuq churq-churq etadi,
 Tutni to'kib ketadi.
 Cho'qigani mayli-ya,
 Nega to'kib ketadi?!

* * *

Chumchuq donni yeb ketdi,
 Ertaga beraman, deb ketdi,
 Poyezd yo'ldan o'tganda,
 Bermayman, deb uchib ketdi!



* * *



Qarg'a sayrab: "Qag‘", — deydi,
Mening vaqtim chog‘, — deydi.
Sayrar joyim so‘rasang,
Qor qoplagan tog‘, — deydi.

* * *

Qarg'a sayrab: "Qag‘", — deydi,
Doim vaqtim chog‘, — deydi.
Mehmon kelar uyingga,
Ko‘rpachangni qoq! — deydi.

"OLATOY, BULATOY, MAN SANI YO‘RG‘ALATAY..."

Qiziqmachoqlar

* * *



Ana o'sha tog'midi?
Tog‘ yoqasi bog'midi?
Bog‘ yonida uymidi?
Uy atrofi gulmidi?
O'sha gullar ichida
Sayyoraxon bormidi?!

* * *

Olatoy, bulatoy,
Man sani yo‘rg‘alatay.
Yo‘rg‘alama , chop a qol,
Tezroq shamolga yetay,


Shamoldan o'zib ketay.
 Onam dili qon bo'pti,
 Yoshlari marjon bo'pti,
 Marjonining ipi yo'q.
 Ipi emas, sepi yo'q...

* * *

Ikki g'oz-a, ikki g'oz,
 Biri saman, bir bo'z.
 Mindim bo'zning ustiga,
 Tushdim tarvuz ustiga.

Tarvuz yo'li oq nazar,
 Ichida maymun kezar.
 Maymunchani qo'rqtidim,
 Quyonchani hurkitdim.

Men ketaman elimga,
 Po'ta bering belimga.
 Do'g'aychaga kelmasam,
 Tuzoq quring yo'limga.



“SIZGA OSMONDAGI OY KERAKMI?..”

Cheklashmachoqlar

* * *

- Ona-on, kim ona?
- Men — ona.
- Sizga osmondagи oy kerakmi?
- Kishnab turgan toy kerakmi?
- Bizga kishnab turgan toy kerak.



- Kishnab turgan toy menman.
- O't, bizdan ekansan!

* * *

Onaboshi, onaboshi,
Qizlarning qalam qoshi,
Nima yeysan, ne olasan?
Atalami, palov oshi?

* * *

- Mati, mati,
Kimning navbati?
- Meniki.
- Oftobni olasanmi
Yoki yulduzni?

* * *

- Mati, mati,
Kimning navbati?
- Meniki.
- Tarvuzni olasanmi
Yoki qovunni?

* * *

- Boshla, boshliq,
Qalam qoshliq,
Nimani olasan,
Tovuqni yo xo'rozni?



* * *

— Biz ikki gul-u lola,
Kimga gul, kimga lola?

* * *

— Kimga olma, kimga nok?

* * *

— Kimga ot, kimga aroba?

“CHIQSIN SHU BOLA...”

O'yin boshlanmasi

* * *

Men o'tirdim,
Kashta tikdim.
Voy, qo'lchamga
Suqildi igna,
Jaq-juq,
Sen chiq.



* * *

La-la-la, la-la-la,
Chiqsin shu bola.
La-la-la, la-la-la,
Chiqa qolsin shu bola.



* * *

Igna-igna,
Uchi tilla.
Suvga chiqsa
Akmal,
Mo'min,
Jaq-juq, chiq!




* * *

Lagan-lagan,
Hilpillagan.
Ko'zi qora,
Sen chiq!

* * *

Chug'urchuq, chumchuq,
Sen tur, sen chiq!



"O'YNAB-O'YNAB KUYLAYMIZ..."

Aytishma o'yinlar



* * *

— O'ynab-o'ynab kuylaymiz,
Kuylab-kuylab o'ynaymiz.
Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
— Erkin qo'zichoq kerak!

* * *

— Ola-bula kapalak,
Orqa sochim jamalak.

Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
— Xayri qizaloq kerak!
Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
— Sayrab turgan dil kerak!
— Dillarning qaysi biri?
— Gulandomdir o'tkiri.

* * *

— Qo'shnijon-u, qo'shnijon!
— Labbay, qo'shnim Sevarxon!
— Uyga chiqing tez, chaqqon.
Kelishdi uyga mehmon.
— Taq-tuq, tasadduq!

* * *

— Oyi, oyи, xolam keldi!
— Qani-qani?
— Mana-mana!
— Esonmisiz, omonmisiz?
Qopga tiqqan somonmisiz?
Orqa-boshingiz olovdek,
Damlab qo'ygan palovdek.



* * *

Quyonim, quyonim,
O'rningdan tursang-chi!
Quyonim, quyonim,
Oynaga qara!
Quyonim, quyonim,
Sochingni tara!

Quyonim, quyonim,
Yuzlaringni yuv!
Quyonim, quyonim,
Qo'llaringni yuv!
Endi shartingni ayt.

* * *

Pishak-mushuk,
Mushuk-sichqon,
Sichqon qochdi,
Mushuk tutildi.

* * *

Pishakvoyjon, pishakvoy,
Dumi uzun pishakvoy,
Kelgin, sichqon tutamiz,
Tutamiz-u, butamiz!

* * *

Oltin darvozadan
Bolalar o'tsinlar.
Hammagini qo'yamiz,
Bittasini qo'yaymiz.

* * *

Darvoza, darvoza,
Oltin qulflari darvozadan
Hammani o'tkazamiz.
Faqat, faqat bir kishini
O'tkazmaymiz, o'tkazmaymiz!

O'zbek xalq topishmoqlari

MEVA VA SABZAVOTLAR HAQIDA

* * *

O'zi shirin tukligina,
Mazasi ham totligina.

(Shashloq)

* * *

Osti sariq, usti sariq,
Shirin, totli, ichi tariq.

(Anji)

* * *

Sariqligi — zar, dedim,
Totib, asal-qand, dedim.

(Ku, O)

* * *

Kichkina dekcha,
Ichi to'la mixcha.

(Anor)

* * *

Xo'ppa semiz,
Bir tuki yo'q.

(Zarvun)

* * *

Qat-qat to'nli,
Qarich bo'yli.

(Karjam)

* * *

Urmasdan yig'latadi.

(Piyoz)





UY-RO'ZG'OR ANJOMLARI HAQIDA

* * *

Men boqsam,
U ham boqar.

(*vulO*)

* * *

Bir do'stim bor ajoyib,
Agar kim unga kulib boqsa,
Kulib boqar iljayib.

(*vulO*)

* * *

Og'zi yo'g'-u, tishi bor,
Boshimizda ishi bor.

(*baroq*)

Oyog'i yo'q — yuradi,
Og'zi yo'q — gapiradi.

* * *

(*patS*)

Kunduzi yig'iladi,
Kechasi yoyiladi.

* * *

(*vdl, ok*)


Qo'lsiz, oyoqsiz ko'yvak kiyar.

* * *

(*bilsoy*)

Tepdim, tepdim,
Terakka chiqdim.

(*Narxon*)



HAYVON VA PARRANDALAR HAQIDA

* * *

To'rt oyoqli,
Temir tuyoqli.

(40)

* * *

Quyon emas,
Uzun qulqoq.
Ot emas,
To'rtta tuyoq.

(Eshak)

* * *

Pastakkina bo'yli,
Issiqliqina po'stinli.

(4, oč)

* * *

Vov-vov, deydi, baqiradi,
Tug'ishganin chaqiradi.

(4I)

* * *

Osti tosh, usti tosh,
O'rtaida jondor bosh.

(abqashqa)

* * *

Uzun qulqoq,
Kalta dum.

(uočnč)





* * *

Qochdi, qo'rg'onga kirdi.

(*Sichqon*)

* * *

Ko'rinishi arqon,
Qo'lsiz-oyoqsiz chopar.

(*uon*)

* * *

Boshi — taroq,
Dumi — o'roq.

(*Zoli, oX*)



O'YINCHOQLAR HAQIDA

* * *

Singlimga o'xshar o'zi,
Aslo yumilmas ko'zi.

(*Og'irchay*)

* * *

Tarvuzim bor urug'siz,
Pichoq bilan kesilmas.
Kesganingda ham uni,
Maza qilib eb bo'lmas.

(*Koprik*)

* * *

Toyim bor, kishnamaydi,
Yoz chog'i ishlamaydi.

(*Chana*)



TEZ AYTISHLAR

* * *

Tohir tungacha to‘p tepdi.

* * *

Tok tagida tovuq tuxumi turibdi.

* * *

To‘ra to‘rni to‘satdan tashladi.

* * *

G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi.

* * *

Jo‘ja cho‘chib go‘ja cho‘qir.

* * *

Asad asil asal saqlaydi.

* * *

Olma shoxida olmaxon osilib turibdi.



* * *

Boqi botir buzoq boqar.

* * *

Guli guldonda gul keltirdi.

* * *

Oydin oyni oynadan ko'rdi.

* * *

Polvon pomidorli palov pishirdi.

* * *

Olmaxon olmadan olmani ol!

* * *

Eshik oldida buloq,
Buloqdan suv ichar uloq —
Shalpang qulog.

* * *

Novvoy non yopar,
Nonni novvot, deb sotar.

* * *

Lola allalaydi,
Sora arralaydi.

* * *

Oq tepada oq kaptar,
Ko'k tepada ko'k kaptar.





O'zbek xalq maqollari

OTA-ONALAR HAQIDA

* * *

Ota — aql, ona — idrok.

* * *

Ota-bola — bir bog‘,
Biri — gul, biri — bog‘bon.



* * *

Ona — mehribon,
Ota — g‘amgusor.

* * *

Otalar so‘zi — aqlning ko‘zi.

* * *

Onalar so‘zi — baxtning o‘zi.

* * *

Otangni quyosh bilsang,
Onangni oy bil.

ODOB HAQIDA

* * *

Odob — kishining zeb-ziyinati.

* * *

Odobli o‘g‘il — ko‘kdagi yulduz,
Odobli qiz — yoqadagi qunduz.

* * *

Odobning boshi — til.

* * *

Odobning yaxshisi — kattaning siylovi.

* * *

Odob ziynati — rizq.

* * *

Inson — odobi bilan,
Osmon — oftobi bilan.

* * *

Kattaga hurmatda bo‘l,
Kichikka izzatda bo‘l.

* * *

Qadr qilsang, qadr topasan.



NON HAQIDA

* * *

Non — asl don.

* * *

Non bolasi — non ushoq.

* * *

Non bo'lsa, bas, o'zgasi — havas.

* * *

Non yemoqchi bo'lsang, o'tin tashishdan erinma.

* * *

Non to'qligi — el to'qligi.

DO'STLIK HAQIDA

* * *

Do'st do'stga boqar,
Suv soyga oqar.

* * *

Qush — qanoti bilan,
Odam — do'sti bilan.

* * *

Do'st — do'stning tayanchi.

* * *

Do'st ko'p — boylik ko'p.

* * *

Chin do'st yurakdan so'zlar

* * *

Hikmat — birlikda.

YAXSHILAR VA YOMONLAR HAQIDA

* * *

Yaxshi bilib so'zlar,
Yomon tilib so'zlar.

* * *

Yaxshi — bog‘-u bo‘ston,
Yomon — qora qozon.

* * *

Yaxshi bo‘lsang, yaqin ko'p.

* * *

Yaxshi bo‘lsang, yasharsan,
Nasibangni osharsan.



* * *

Yaxshi qand yedirar,
Yomon — pand.

* * *

Yaxshi bilan yursang,
Yetar murodga.
Yomon bilan yursang,
Qolarsan uyatga.

DARAXTLAR HAQIDA

* * *

Daraxt bir joyda ko'karar.

* * *

Daraxt ildizi bilan kuchli,
Odam — do'stlari bilan.

* * *

Daraxt yaprog'i bilan ko'rakam,
Odam — mehnati bilan.

* * *

Daraxt — havodan, odam — mehnatdan.

* * *

Daraxtdan meva olaman desang,
Niholligida parvarish qil.

* * *

Daraxtni tomiri saqlar,
Odamni do'sti saqlar.





Temur Ubaydullo. Xo‘roz

O'zbek xalq ertaklari

HALOLLIK

O'tgan zamonda bir dehqon bo'lgan ekan. Uning kambag'al oshnasi bor ekan. Kunlardan bir kuni u dehqondan bir tanob yerini sotishini iltimos qilibdi. Dehqon yerning bir chekkasidan ajratib, kambag'al oshnasiga sotibdi. Yerni olgan odam jo'jabirdek jon ekan. U yer sotib olganidan juda suyunibdi. Bir qalin og'aynisidan qo'sh ho'kiz olib kelib, yerni bir marta haydab chi-qibdi. U ikkinchi marta haydaganida, bir nima omoch toshiga tegibdi. Dehqon parvo qilmay haydayveribdi. Qaytib o'sha yerga kelganida, omoch tishi yana haligi narsaga urilibdi. Kambag'al dehqon: "Ilgari bu yerda daraxt bo'lgan, uning to'nkasi qolib ketgan, shekilli", deb o'yabdi-da, ketmon olib kelib, omoch tishiga qadalgan narsani kavlay boshlabdi. Nihoyat u yerdan xumcha chiqibdi. Uni ochib qarasa, ichi to'la tilla emish. Dehqon yerning qolgan qismini ham haydab, urug'ni sepibdi. So'ng ho'kizlarini egasiga topshirib, o'zi uyiga bormay, xumchadagi tillani ko'tarib, to'g'ri yer sotgan dehqon oshnasining uyiga boribdi. U oshnasiga:

— Sizdan olgan yerimni haydayotgan edim, mana shu xumchani topib oldim. Shu tilla sizniki ekan, uni sizga olib keldim, — debdi.

Dehqon kambag'alga:

— Men sizga o'sha yerni sotganman. Shu yerda nimaiki bo'lsa, u sizniki bo'ladi. Men yerning ichida tilla borligini bilmaganman. Sizga Xudo beribdi. Bola-chaqangiz bilan maza qilib yashang, — deb xumchani olmabdi.

Kambag'al dehqon esa: "Bu boshqa kishining moli, uni olsam, o'g'ri, gunohkor bo'laman", deb o'yab, yana boy dehqonga uzatibdi. Ular ikkalasi hech kelisha olmabdilar. Nihoyat ular namozi asr o'qilayotgan masjidga boradigan, u yerdagi odamlardan so'rab bu ishni hal qiladigan bo'lishibdi.

— Qishloqdagi yetim-yesir va beva-bechoralarga bo'lib beringlar, — deb maslahat berishibdi u yerdagi namozxonlar. Bunga dehqon ham, kambag'al



ham rozi bo'lishibdi. Shunday qilib, ular tillani qishloqdagi beva-bechoralarga, kambag'al, yetim-yesirlarga bo'lib berishibdi.

Kambag'al dehqon esa o'z mehnati bilan halol kun ko'rib, murod-u maqsadiga yetibdi.

CHIVINBOY



Chivinboy uchib bordi-da, yantoq ustiga qo'ndi. Yantoqning tikani uning tumshug'iga kirdi. Chivinning qahri kelib, echki akasining oldiga bordi.

— Echki aka, echki aka, shu yantoqni yesangiz-chi, — dedi.

Echki:

— Qoch, o'shangan meni ro'para qilma! Ko'm-ko'k barra maysa turganda, endi sening gapingga kirib, yantoqni yeymamni? — dedi.

Chivin:

— Hap senimi, shoshmay tur, bo'ri akamga borib, seni unga yedirmasam, xo'p yurgan ekanman, — dedi. Chivin bo'ri oldiga bordi:

— Bo'ri aka, bo'ri aka, ana shu echkini yesangiz-

chi! — dedi.

Bo'ri:

— Ko'p meni laqillatma, qo'y go'shti turganda, shayton echkining go'shtini yeymamni? — dedi.

Chivin:

— Hap senimi, mergan akamga aytib seni o'ldirtymasam, toza chivin bo'lib yurgan ekanman, — dedi-da, to'g'ri uchib merganning oldiga bordi.

— Mergan aka, mergan aka, — dedi Chivinboy. — Shu bo'rini otib tash-lasangiz-chi, echkini ye, desam, yemayman, — dedi.

Mergan:

— Mening bo'ridan boshqa otadigan ovim ko'p. Sening gapingga kirib, bo'rini otib yuramanmi? — dedi.

Chivinboy:

— Hap senimi, qarab tur, sichqon akamga aytib, sening dori soladigan xaltangni teshdirmasam, yurgan ekanman, — deb sichqon oldiga uchib bordi.

— Sichqon aka, sichqon aka, ana shu merganning dori xaltasini teshing, u ko‘p jonivorlarga zarar yetkazadi, — dedi.

Sichqon:

— Bug‘doy, arpa turib, menga endi merganning xaltasini teshish qoldimi?

Chivinboy:

— Hap senimi, shoshmay tur, mushuk akamga aytib, seni yedirmasam, toza yurgan ekanman, — dedi-da, to‘g‘ri mushuk oldiga uchib bordi.

— Mushuk aka, mushuk aka, ana shu sichqonni yesangiz-chi, merganning dori xaltasini tesh desam, yo‘q deydi, — dedi.

Mushuk:

— E, qo‘ysang-chi, mening yeydigan narsalarim ko‘p, qo‘yning go‘shti turganda, sichqon poylab yurarmidim.

Chivinboy:

— Hap senimi, shoshmay tur! Seni kuchuk akamga aytib, bir talatmasam yurgan ekanman, — deb to‘g‘ri kuchukning oldiga uchib bordi:

— Kuchuk aka, kuchuk aka, ana shu mushukni bir o‘xhatib talang! Sichqonni ye, desam yemaydi, — dedi.

Kuchuk:

— Sening gapingga kirib, bekordan-bekorga mushukni talaymanmi? — dedi.

Chivinboy:

— Hap senimi, shoshmay tur! Bolalarga aytib, bir urdirmasam, qonga bulatib yasatmasam, yurgan ekanman, — deb uchib bordi. Chivin yo‘lda bir to‘da bolalarga yo‘liqdi.

— Hay, bolalar, shu kuchukni bir boplab uringlar, mushukni tala desam, talamaydi, — dedi.

Bolalar:

— Bizning boshimizni ko‘p aylantirma, o‘zimizning o‘yinimiz ko‘p. Endi o‘yinni qo‘yib, ovora bo‘lib, kuchukni quvlab yuramizmi? — deb javob berishdi.

Chivinboy:

— Hap senlarnimi, shoshmay turinglar, onalaringga aytib, bir o‘xhatib savalatmasam, yurgan ekanman! — dedi.



Chivin charx yigirib o'tirgan momoning oldiga borib:

— Hoy, onajon, shu bolalaringizning bir adabini berib qo'ying, kuchukni uringlar, desam, urishmaydi, — dedi.

Momo:

— Mening ishim boshimdan oshib yotibdi, hali paxtalarim savaqsiz, endi men hamma ishimni tashlab, biror sababsiz bolalarni quvib, urib yuraymi? — dedi.

Chivinboy:

— Hap senimi, shoshmay tur! Men borib shamol akamga aytib, sening paxtalariningi uchirib yubormasam, yurgan ekanman, — dedi.

Chivin shamolga qarab shunday debdi:

Shamol, bag'ri kamol,
Bolalarga qo'yningni och.
Ota-onang o'libdi,
Cho'loq ketmoningni olib qoch!

Shu payt bir qattiq shamol turibdi. Shamol momoning paxtasini uchiribdi. Momo qo'liga kaltak olib, bolalarni quvlabdi, bolalar kuchukni ura ketishibdi, kuchuk mushukni talay ketibdi, mushuk sichqonni quva ketibdi, sichqon xaltani tesha ketibdi, mengan bo'rini otibdi, bo'ri echkini quvlabdi, echki yantoqni yeb qo'yibdi.

Shunda Chivinboyning vaqtি xush bo'lib, murod-maqsadiga yetibdi.

UR, TO'QMOQ

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir kampir bilan bir chol bo'lган ekan. Ular ovchilik bilan kun o'tkazar ekanlar. Bir kuni chol tuzoq poylab o'tirgan edi. Tuzoqqa bir katta laylak tushdi. Yugurib borib laylakni tuzoqdan chiqargan edi, laylak odamdek so'zlamoqqa boshladi:

— Chol, men laylaklarning boshlig'imani, meni qo'yib yubor, nima tilasang, shuni beraman. Mening makonim shu qarshidagi tog'ning orqasida "Laylakvoyning uyi qayoqda?" desang, hamma aytib beradi, — debdi.

Chol Laylakni qo'yib yuboribdi. Ertasi kuni ertalab turib, Laylakvoyning sovg'asini olib kelish uchun yo'lga tushdi. Yurib-yurib, bir joyga borib yetdi, qo'y boqib yurgan cho'ponlardan:

- Bu qo'yalar kimning qo'yłari? — deb so'radi.
- Bu qo'yalar — Laylakvoyning qo'yłari, — deb cho'pon cholni yo'lga solib yubordi. Bir joyga borib yilqi haydab yurgan yilqichidan:

— Bu yilqilar kimniki? — deb so'radi chol.

Yilqichi:

- Laylakvoyniki, — dedi.
- Laylakvoy sovg'a va'da qilib edi, nima so'ray? — degan edi, yilqichi bunday dedi:

— Laylakvoyning bir xumchasi bor, “Qayna, xumcha”, desa tilla qaynab chiqadi, shu xumchani so'rang, — dedi.

Chol oz yurib, ko'p yurib, ko'p yursa ham, mo'l yurib, yetti kecha-yu yetti kunduz deganda Laylakvoyning uyiga borib yetdi. Eshikdan kirib:

— Assalomu alaykum, — dedi.

Laylakvoy:

— Haq saloming bo'lmasa, ta'ziringni berardim. Sen sovg'a uchun kelgan bo'lsang kerak, qani, nima so'raysan? — dedi.

— Men sendan “Qayna, xumcha”ni so'rayman, — dedi chol.

Laylakvoy o'ylab qoldi.

— Chol, senga bir tovoq tilla beray, — desa ham, chol ko'nmadid. Oxiri Laylak “Qayna, xumcha”ni berishga rozi bo'ldi. Chol “Qayna, xumcha”ni olib jo'nadi. Yo'l yurib, bir joyga yetdi. Dam olish uchun o'tirdi. Qishloqning bolalariga qarab: “O'g'illarim, mana bu xumchaga qarab turing, men bir oz mizg'ib olay, faqat “Qayna, xumcha” demanglar”, — deb tayinlab ketdi. Bolalar chol ketishi bilan “Qayna, xumcha”, deb baqirishib edi, xumdan tilla qaynab chiqdi, ular shoshib-pishib, tillalarni yig'ib, xumni uylariga olib kirib bekitib qo'ydilar. Chol uyqudan turib, “Qayna, xumcha”ning o'rniga boshqa bir xumchani olib jo'nadi. Yetti kecha-yu yetti kunduz yo'l yurib, uyiga yetib keldi.

— Qani, kampir, dasturxonining yoz, hozir tillaga boy bo'lamiz, — dedi. Kampir dasturxon yozdi, dasturxonning o'rtasiga xumchani qo'yib, chol bor kuchi bilan: “Qayna, xumcha”, deb baqirdi. Xumchadan tilla qaynab chiqmadi. Chol yana baqirdi, tilla chiqmadi. Cholning jahli chiqib: “Ha, padaringga la'nat, Laylakvoy aldab, boshqa xumcha beribdi, men ertaga borib boshqa sovg'a so'rayman”, — deb qo'ydi.

Ertasi saharlab chol yo'lga chiqdi. Yilqichining oldiga borib:

— Laylakvoy meni aldadi, endi nima sovg'a so'ray, — dedi.



Yilqichi o'ylab turib:

“Ochil, dasturxon”ni so‘rang, dasturxонни yozib, “Ochil, dasturxon”, desangiz, har xil taomlar tayyor bo‘ladi, — dedi.

Chol Laylakvoyning eshididan kirib:

— Assalomu alaykum, — dedi.

Laylakvoy:

— Haq saloming bo‘lmasa, ta’ziringni berardim. O’tgan gal senga “Qayna, xumcha”ni berib edim, ko‘ngling to‘lmadimi? — dedi. Chol hamma voqeani ayтиб:

— Meni aldading, “Qayna, xumcha”ning o‘rniga boshqa xumcha beribsан, endi sendan “Ochil dasturxon”ni so‘ragани keldim, — dedi. Laylakvoy o'ylab qoldи. “Ochil, dasturxon”ni cholga sovg'a qildi.

Chol yo'lga tushdi. Oz yurib, ko‘p yurib, o’tgan gal dam olgan qishloqqa borib yetib, o‘ziga tanish bo‘lib qolgan bolalarni ko‘rdi.

— O‘g‘illарим, mana shu dasturxонни ushlab o‘tiring, men bir oz mizg‘ib оlay, faqat, “Ochil, dasturxon” demanglar, — deb ularga tayinlabdi. U

ketgandan so'ng bolalar: "Ochil, dasturxon", — deb baqirib edilar, yetti xil taom tayyor bo'ldi. Bolalar taomlarni o'rab, dasturxonni uylariga olib kirib, o'rniga boshqa dasturxon olib chiqib o'tirdilar. Chol uyqudan turib, dasturxonni olib, yo'lga tushibdi. Uyiga kelib:

— Kampir, nima taom desang, hozir tayyor bo'ladi, — deb dasturxonni yozibdi. Chol bor kuchi bilan: "Ochil, dasturxon", — deb edi, hech qanday taom chiqmadi. Cholning jahli chiqib: — Laylakvoy meni ikkinchi marta aldadi, ertaga borib boshqa sovg'a so'rayman, — dedi.

Ertasi saharlab chol yo'lga chiqdi. Yilqichining oldiga borib:

— Laylakvoy meni aldadi, endi nima sovg'a so'ray? — dedi.
— Endi Laylakvoydan "Ur, to'qmoq"ni so'rang, dushmanlariningiz ko'pga o'xshaydi. Agar "Ur, to'qmoq" desangiz, oldingizda kim bo'lsa, urib tashlaydi, — dedi yilqichi.

Chol yo'lga tushibdi. Laylakvoynikiga yetib kelib:

— Assalomu alaykum, — deb eshikdan kiribdi.

Laylakvoy:

— Haq saloming bo'lmasa, ta'ziringni berardim. Yana nima uchun kelding?



“Qayna, xumcha”ni olding, “Ochil, dasturxon”ni olding, yana nima kerak? — dedi.

— Meni bu gal ham aldading, Laylakvoy! “Ochil, dasturxon” o‘rniga bo-shqa bir dasturxon beribsan. Endi sendan bir narsa so‘rayman — menga “Ur, to‘qmoq”ni ber, — dedi. Laylakvoy cholga “Ur, to‘qmoq”ni hadya qildi.

Chol “Ur, to‘qmoq”ni olib yo‘lga tushdi. Oz yurib, ko‘p yurib, avvalgi o‘zi bilgan qishloqqa borib yetdi. Tanish bolalarni chaqirdi: “O‘g‘illarim, mana shu to‘qmoqni ushlab turing, men bir oz mizg‘ib olay, faqat “Ur, to‘qmoq” deb gapirmanglar, — dedi.

U ketgandan so‘ng bolalar qiziqib: “Ur, to‘qmoq” deb baqirishib edi, to‘qmoq hammasini ura boshladi. Bolalarning baqirgani uchun chol yugurib keldi. Bolalar bo‘lsa yig‘lashib:

— Chol ota, biz sizning xumchangizni, dasturxoningizni olib, o‘rniga boshqa xumcha, boshqa dasturxon qo‘yan edik. Tavba qildik, ota, to‘qmoqni to‘xtating, — deyishdi. Chol: “Tur, to‘qmoq”, — deb baqirib edi, to‘qmoq urishdan to‘xtadi. Bolalar yugurib borib, uylaridan “Qayna, xumcha” bilan “Ochil, dasturxon”ni chiqarib berdilar. Chol yo‘lga tushdi. Oz yurib, ko‘p yurib, ko‘p yursa ham, mo‘l yurib, ko‘l demay, cho‘l demay, yetti kecha, yetti kunduz deganda uyiga borib yetdi.

“Qayna, xumcha”, deb edi, xumchadan tilla qaynab chiqdi. “Ochil, dasturxon”, deb edi, har xil taomlar muhayyo bo‘ldi. Umrlarida ko‘rmagan taomlarni yeb, chol bilan kampir xursand bo‘ldilar.

Tillalarga chol yaxshi uy soldirdi va xonni o‘z uyiga mehmondorchilikka chaqirdi. Xon: “Men xon bo‘lsam, o‘sha kambag‘al, qashshoq cholning uyiga mehmondorchilikka boramanmi”, — deb baqirdi.

Cholning jahli chiqib, xonni urushga chaqirdi. Ertasiga xon yetti ming askarni tayyorlab, cholning uyi oldiga tizib:

— Qani, chol, jonig bo‘lsa, urushga chiq! — dedi. Chol eshikdan chiqib, to‘qmoqqa qarab: “Ur, to‘qmoq”, — deb baqirib edi, to‘qmoq xonning askarlarini bittadan urib, yotqizib qo‘ydi, oxirida to‘qmoq xonni ura boshladi.

Xon:

— Chol, to‘qmog‘ingni to‘xtat, sen yutding. Meni o‘limdan olib qol, yurtga sen hokim bo‘la qol, — dedi.

Chol to‘qmoqni to‘xtatdi. O‘zi yurtga hokim bo‘ldi. Murod-maqsadiga yetdi.

OVCHI, KO'KCHA VA DONO

Bir zamonda bir ovchi bo'lgan ekan. Bir kuni u dalaga chiqibdi, yerga tuzoq qo'yib, o'zi pana joyda o'tiribdi. Bir gala kaptar uchib kelib, chinorga qo'nibdi, yerga tushib donlashmoqchi bo'libdi. Ularning orasida Ko'kcha degan keksa bir kaptar bor ekan. U sheriklariga qarab: "Pastga tushmanglar, tuzoq bor, ilinib qolasizlar", — debdi. Kaptarlar Ko'kchaning so'ziga quloq solmay, bitta-bitta uchib tushib, donlay boshlabdi. Oxiri nafslari g'oliblik qilib, to'r ostiga kiribdilar. Ko'kcha sheriklaridan ajralib qolishni, yolg'iz yashashni o'ziga ep bilmabdi. O'zi ham pastga tushib, to'r ostigakiribdi. Ovchi sekin-asta to'rning ipini tortibdi, hamma kaptarlar tuzoqqa ilinibdi. Ko'kcha sheriklariga qarab:

— Endi bir so'zim bor, avval xo'p desangiz, aytayin, zora qutulsak, — debdi.

Kaptarlar:

— Xo'p, aytинг, avval sizning so'zin-gizga kirmay, shu baloga yo'liqdik, endi nima desangiz, shuni qilamiz, — deyishibdi.

Ko'kcha:

— Hammamiz birdaniga qanot qoqib, to'r bilan yuqoriga ko'tarilamiz. Qutulishning yagona yo'li — shu! — debdi.

Ko'kcha qarasa, ovchi quvib kelayotgan ekan. Kaptarlar baravariga qanot qoqib juda baland ko'tarilib, ko'zdan g'oyib bo'libdilar.

Ko'kcha endi to'rdan qutulish yo'lini izlab turgan ekan, Dono ismli bir sichqon do'sti yodiga tushib qolibdi va kaptarlarni shu tomonga boshlabdi. Ular cho'l-biyobonlar ustidan o'tib, tog'lardan oshibdilar. Borib-borib Dononing ini og'ziga kelib qo'nibdilar. Dono chiqib qarasaki, do'sti Ko'kcha emish. U do'stining iltimosi bilan avval Ko'kchaning sheriklarini, keyin esa o'zini to'r dan qutqazibdi. So'ngra hol-ahvol so'rabdi. Ko'kcha butun voqeani aytib beribdi.

Dono qadrdon do'stlarni kutish uchun salqin va xushhavo yerga joy qilibdi, keyin don-dun, noz-ne'matlarni to'kib tashlabdi.



II

Chinorda o'tirib hamma voqeani ko'rgan bir qarg'a: "Kaptarlar biror yerga borib tushsa, doniga sherik bo'larman", — degan umid bilan ular orqasidan uchib kelgan ekan. Qarg'a Dononing kaptarlarga bergan yordamini ko'rib, hayron bo'libdi, o'zicha: "Do'st yordam berar ekan, men sichqon bilan do'st bo'layin", — deb o'yabdi. So'ngra borib Dononi inidan chaqiribdi. Dono chiqib qarasa, bir qarg'a turgan emish:

Dono eshikda turgan qarg'aga qarab:
— Xo'sh, keling, birodar, — debdi.

Qarg'a:

— Men jonivorlarning hech biriga

qo'shilmay yolg'iz o'zim yashab kelaman. Yor-birodarlarim, jonkuyarim yo'q, jonivorlar hamisha mendan qochishadi. Yolg'izlik jondan o'tdi, qiynalib ketdim. O'yab-o'yab, siz bilan do'st bo'lishni ma'qul ko'rdim, taklifimni qabul qilsangiz, umid bilan keldim, — debdi.

Sichqon Qarg'aga javoban:

— Durust, lekin siz meni qayerda ko'rsangiz, biror ziyon yetkazasiz, shuning uchun so'zingizga ishonish qiyin, — degan ekan, Qarg'a:

— To'g'ri aytasiz, do'stim, qayerda sichqon ko'rsam, tinch qo'ymas edim, ammo do'stlik yaxshi ekan, endi sizga sira zarar yetkazmayman, — deb chinakam va'da beribdi. Dono bo'lsa Qarg'aning so'ziga ishonib, inidan chiqibdi, Qarg'a bilan qo'l olishib, do'st bo'libdi, uni mehmon qilibdi.

Bir kuni qarg'a do'sti Dononi bog'iga taklif qilibdi. Dono rozilik beribdi. Qarg'a dononi tumshug'ida olib bormoqchi bo'libdi, lekin sichqon qiynalmasin deb, uni changalida avaylab olib ketibdi. Bu bog' jahonda bor hamma mevali daraxtlar bilan bezangan ajoyib joy ekan. Xilma-xil gullar xushbo'y hid sochib, bo'stonni yashnatib turar, shishadek tiniq suvlar shildirab oqib turar ekan. Turli-tuman mevalar pishib, tagiga tushib turar ekan. Qarg'a Dononi yaxshilab ziyofat qilibdi. Sichqon ko'p xursand bo'lib, bog'ni qarg'a bilan tomosha qilib yuribdi. Buni shu bog'da yurgan bir toshbaqa ko'rib qolibdi. Ularga havasi kelibdi. Salom berib, ular oldiga boribdi. Hol-ahvollarini, sichqon bilan qarg'a



o'rtasidagi inoqlik, mehribonlik sababini so'rabdi. Qarg'a toshbaqaga kaptarlar voqeasini aytib beribdi.

Toshbaqaning havasi ortibdi. Do'stlik, birodarlikning bahosi yo'q. Ular bilan qadrdon do'st bo'lishga so'z beribdi. Qarg'a toshbaqani ham ko'p izzat-hurmat bilan ziyofat qilibdi.

III

Bog'ning bir tomonidagi baland tepe bag'rida bir kiyik yurar ekan. U qarg'a, sichqon va toshbaqaning totuv bo'lib yurishganini ko'rib, qarg'aning makoniga qarab yo'l olibdi. Ular yaqiniga kelib, so'z qotibdi. Uni hammalari xursand-chilik bilan kutib olibdilar. Qarg'a kiyikni dasturxonga taklif qilibdi va o'zaro gaplashib o'tirishganda kiyik qarg'a, sichqon, toshbaqaning bir-birlari bilan hamjins bo'lmasalar ham, nima uchun bunchalik inoqliklarining sirini bilishga kelganini aytibdi.

Qarg'a bo'lib o'tgan voqealarni kiyikka birmabir hikoya qilib beribdi. So'ngra kiyik ham ular bilan do'stlik iplarini bog'lamoqchi bo'libdi. Do'stlar bu taklifni qabul qilibdilar. Hammalari boshqatdan o'rnidan turib ko'rishib, hol-ahvol so'rashib, kiyikni yuqoriga o'tkazib, unga ko'p iltifot qilibdilar. Shu paytda Dono kaptarlarni xotirlabdi. Qarg'a kaptarlarga bir xat yozib berishni Donodan so'rabdi. Dono xursand bo'lib xat yozib, uni qarg'aning oyog'iga bog'labdi.

Qarg'aga oq yo'l tilab, hammalari uni kuzatishibdi. Qarg'a kaptarlarning makoniga kelib xatni beribdi. Kaptarlar xatni o'qib, qarg'a bilan uchib, bog'ga kelib qo'nibdilar. Do'stlar ko'rishib, so'rashib, shirin-shirin suhbatlashib o'tiribdilar.

Bir zamon kiyik sayr-tomoshaga chiqib ketibdi. Lekin hadeganda kelaver-mabdi. Do'stlar xavotir olibdilar. Shunda Ko'kcha qarg'aga qarab:

— Kiyikdan shu choqqacha darak yo'q, undan xabar olish kerak, — debdi.



Qarg'a kiyikni ko'p axtarsa ham, topolmabdi. Oxiri xafalikdan nima qilarini bilmay hayron bo'lib ketayotganda, bir yerga ko'zi tushibdi, qarasa, bechora kiyik zolim ovchining qo'yib ketgan tuzog'iga oyog'idan ilinib yotgan emish. Tezda uchib borib, do'stlarini bu voqeadan xabardor qilibdi. Ular juda xafa bo'lib, bir-birlari bilan maslahatlashibdilar.

IV

Ko'kcha bunday debdi:

— Qarg'avoy, sen sichqonni changalingda olib bor, sichqon kiyikning tuzog'ini qirqsin.

Bu gap hammaga yoqib tushibdi. Qarg'a sichqonni changalida olib boribdi, orqasidan Ko'kcha ham uchibdi. Bularga toshbaqa ham ergashib qolibdi. Ko'kcha toshbaqaga harchand bormagin, desa ham bo'lmaabdi. Qarg'a sichqonni kiyik ilingan joyga oborib qo'yibdi. Sichqon kiyikning oyog'idagi tuzoqni qirqa boshlabdi. Ko'kcha o'ylab turib:

— Do'stim Dono, kiyikning oyog'idagi tuzoqning hammasini qirqma, uch tolasini qoldir. Tag'in ovchi buni bizdan ko'rib, zarar yetkazib yurmasin. Ovchi kelgach, kiyik bir zo'r berib, uch tolasini uzib ketaveradi, — debdi.

Dono ko'kchaning aytganini qilib, uch tola ipini qoldiribdi.

Avval qarg'a sichqonni ko'tarib uchibdi. Uning ketidan kaptar uchibdi. Ular bog'ga kelib qo'nishibdi. Qarg'a sichqonni changalidan sekin yerga qo'yibdi.

Ovchi tuzoqqa ilingan kiyikni ko'rib, yugurib kelgan ekan, kiyik bir intilish bilan uch tola ipni uzib qochibdi. Ovchi noumid bo'lib tuzoqni olib ketmoqchi bo'lgan ekan, toshbaqani ko'rib qolib, xurjunga solibdi. Kiyik allaqachon qar-g'aning bog'iga yetib kelgan ekan. Do'stlar qarasalarki, toshbaqa yo'q emish. Ko'kcha:

— Men unga harchand bormagin desam, ko'nmagan edi. Bor, qarg'a, xabar olib kel! — debdi.

Qarg'a kiyik ilingan joyga borib qarasa, ovchi toshbaqani xurjunga solib, og'zini mahkam bog'lab ketayotgan emish. Tezda do'stlariga xabar beribdi. Ko'kcha yana maslahat beribdi. Do'stlar Ko'kchaning maslahatini ma'qul topib, shunday qilibdilar: qarg'a sichqonni ko'tarib uchib ketibdi. Kiyik ovchining oldidan o'taveribdi. Ovchi kiyikni ko'rib xursand bo'libdi. "Tuzoqdan qochish

vaqtida oyog‘i sinib, cho‘loq bo‘lib qolgan ekan, endi uni ushlab olaman”, — deb kiyikning orqasidan yuguribdi. Kiyik ham oqsoqlanib qochaveribdi. Oxiri ovchi juda charchabdi, yelkasidagi xurjunni tashlab, kiyik orqasidan rosa yuguribdi. Qarg‘a sichqonni xurjun yaqiniga eltib qo‘yibdi. Sichqon xurjunni teshib toshbaqani qutqazibdi. Toshbaqa bir katta toshning tagiga kirib berkinibdi. Qarg‘a sichqonni bog‘ga olib borib qo‘yibdi. So‘ngra kiyikning oldiga borib: “Ish bitdi, endi qochaver!” — debdi. Kiyik qochib ketibdi. Ovchi kiyikning gardiga ham yetolmay qolibdi. Kiyik bilan kaptar qarg‘aning bog‘iga borishibdi. Do‘stlar xursand bo‘lishib, do‘stlik samarasidan bahramand bo‘lib, tog‘da tinch umr kechira boshlabdilar.

“PUF, SASSIQ”

Bir kuni tulki hovliga kirsa, baland bir mixda bir bo‘lak go‘sht osilib turgan emish. Tulki o‘lguday och ekan.

— Shuni yesam, rosa qornim to‘yardi-da, — debdi tulki.

U go‘sht osilgan mix tagiga kelib, bir irg‘ibdi — yetolmabdi, ikki irg‘ibdi — yetolmabdi, uch irg‘ibdi — yetolmabdi. Bir qadam orqaga tisarilib, chopib kelib sakrabdi — yetolmabdi. Ikki qadam, uch qadam, o‘n, yigirma qadamdan ham chopib kelib sakrabdi — sira yetolmabdi.

Oxiri charchab, holdan toyibdi. Keyin go‘shtga qarab turib:

— Puf, sassiq ekan! — deb yo‘liga ketibdi.



SERKABOBONING HIYLASI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, och ekan-da, to'q ekan, bir zamonda bir qari serka bor ekan, uning mingdan ortiq bolalari bor ekan. Serkaboboning bolalari har doim keng yaylovda o'tlab yurishar ekan. Bir kuni bir bo'ri paydo bo'lib qolibdi. U toshlar orasidan mo'ralab:

— Bay-bay-bay, hammasi bir-biridan semiz ekan. Bugun bitta uy topay, kunduzlari yotay, kechalari ovga chiqay, — debdi o'ziga-o'zi.

Bo'rining bu niyati echkilarga ma'lum bo'lib qolibdi. Echkilar Serkaboboning uyiga yig'ilishib, majlis qilishibdi. Majlisda bir echki bilan Serkaboboni vakil qilib tayinlashibdi.

Ertasiga Serkabobo bilan echki arslonning uyiga qarab yo'l olishibdi. Arslonning uyiga qo'l qovushtirib, salom berib kirishibdi.

— Nima ish bilan keldingiz? — deb so'rabi arslon.

Serkabobo yig'lamsirab, arz qilib, bo'lgan gapni aytibdi. Arslonning ko'zlarini yonibdi va o'rnidan turib:

— Qani, o'sha o'g'rini menga ko'rsatinglar, uning adabini berib qo'yay, — debdi.

Echkilar uni o'z joylariga boshlab ketishayotgan ekan, echkilarga qarab ketayotgan bo'ri ularning oldidan chiqib qolibdi. Arslon echkilarning oldida bo'rini tutib o'ldiribdi va bu ishi uchun ikkita echkini boshlab ketibdi. Ketish oldidan Serkaboboga qarab:

— Har kuni menga bittadan echki olib kelasan, — deb tayinlab ketibdi.

Ertasiga Serkabobo hech narsa bo'limganday arslonning oldiga quruq boribdi.

Buni ko'rgan arslon g'azablanib:

— Nega quruq kelding, qani menga olib keladigan echking? — debdi.

Serkabobo:

— Yo'lda bir arslon sizga olib kelayotgan echkilarni olib qo'ydi. Shuning uchun oldingizga quruq keldim, — debdi.

— O'sha arslon qanday arslon ekan, o'shani menga ko'rsatib qo'y? — debdi arslon g'azablanib.

Serkabobo arslonni bir quduqqa boshlab boribdi va: "Shu quduq — o'sha arslonning uyi", — deb quduqni ko'rsatibdi. Arslon quduqqa qarab o'zining quduqdagi aksini ko'ribdi va o'zini quduqqa tashlab cho'kib o'libdi. Serkabobo boshliq echkilalar yana tinch va osoyishta yashayverishibdi.



O'zbek xalq dostoni

ALPOMISH

(*parcha*)

Qadim o'tgan zamonda Alpinbiy degan kishi o'tgan ekan. Uning ikki o'g'li bo'lган ekan. Birining oti Boybo'ri, ikkinchisining oti Boysari ekan. Katta bo'lgach, ular uylanishibdi, farzandli bo'lishibdi. Boybo'rining egizaklariga Hakimbek va Qaldirg'ochoyim deb, Boysarining qiziga esa Barchinoy deb ism qo'yishibdi...

Bolalar kundan-kun o'sib, oydan-oy o'tib, birdan ikkiga kirib, ikkidan uchg'a kirib, tili chiqib, elga engandan keyin tutib, uchovini ham maktabga qo'ydi. Bular maktabda o'qib yurib, yetti yoshga kirdi. Savodi chiqib, xat o'qib yozadigan mulla bo'ldi. Shunda Boybo'riboy:

"Endi o'g'lim savodi chiqib, mulla bo'ldi,
o'g'limga endi shohlik, si pohlik ilmini
o'rgatayin", — deb mulladan chiqarib
oldi. Boysari ham Boybo'rige taqlid qildi.
Bul ham Oybarchin qizini maktabdan
chiqarib oldi. "Qizimga Ko'kqamish
ko'lida qo'y sog'dirib, chorvachilik
ilmini o'rgatayin, qo'y sog'moqqa usta
bo'lsin", — dedi.

Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinjdan (bronzadan) bo'lган parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shu o'n to'rt botmon yoyni qo'liga ushlab, ko'tarib tortdi. Tortib ko'rib, qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashindek bo'lib ketdi. Asqar tog'ining katta cho'qqila-



rini yulib ketdi, ovozasi olamga ketdi. Buni eshitgan dushmanlari: “Bu bola zo'r bo'pti, nazar topibdi, bularga hech kim barobar bo'lolmaydi, yetti yashar bola shunday ishni qiladimi?!” — deb xafa bo'lib yotdi. Do'stlarning vaqtı xush bo'lib yurdi.

Shunda barcha xaloyiq yig'ilib kelib aytdi: “Dunyodan bir kam to'qson alp o'tdi, alplarning boshlig'i Rustam doston edi, oxiri bu Alpomish alp bo'lsin”. Oxiri Alpomishbek alp bo'lib, to'qson alpning biri bo'lib sanaga o'tib, alplik otini ko'tarib, yetti yoshida Alpomish oti qo'yildi. Yetti yoshida yoyni ko'tarib otgani uchun alp ataldi.

Kunlardan bir kun Hakimbek kitob o'qib o'tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi. Boybo'ribiy shunda o'g'li Alpomishdan: Kishi nimadan baxil bo'ladi, nimadan saxiy bo'ladi? — deb so'radi. Unda o'g'li turib aytdi: — Vaqtı-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joyi bor bo'lsa, ko'nglini xushlab jo'natsa, bul ham saxiy; agar joyi bor turib, joy yo'q, deb qo'ndirmay jo'natsa, bul odam baxil.

* * *

Alpomish qad-qomatli, pahlavon yigit bo'lib o'sdi. Barchinoya mehr qo'ydi. Dushmanga qarshi shunday kurashdiki, dovrug'i tillarda doston bo'ldi...

O'zbek xalq afsona va rivoyatlari

BOBUR VA KABUTAR

Mirzo Bobur yoshligidan ziyrak bola bo'lib o'sibdi. Kunlardan bir kun Umarshayx saroy a'yonlari bilan qasrda o'ltirgan ekan. Bir kabutar uchib kelib, ayvon peshtoqiga qo'nibdi-da, "g'ulu-g'ulu-g'u-lu" qilaveribdi. Umarshayx a'yonlaridan: "Kabutar ne deydur?" — deb so'rab qolibdi. Anchadan buyon urush ko'rmay, qilichlari qonsirab qolgan a'yonlar: "Oliyhazrat, kabutar qilichlarni qindan sug'urmoq kerak, deydur", — deb javob berishibdi.

Gapga qo'shilmay, bir chekkada jim o'ltirgan Mirzo Bobur: "Yo'q, kabutar unday demaydur, ota, u qovun sayliga chaqiribdur. Jonivor xushxabarni keltiribdur", — debdi. Umarshayx kabutarni tutib keltirishni buyuribdi. Kabutarni tutib kelib, oyog'idagi mis xalqani olib qarashsa, ichidan bir xat chi-qibdi. Xatda: "Oliy hazrat, qovun ayni pishdi. Kelib, qo'l urib bersalar", — deb yozilgan emish. Mirzo Boburning gapi to'g'ri chiqqanidan hayratga tushgan Umarshayx o'g'lidan: "Bunchalik topqirligingga bois nedur?" — deb so'rabdi.

"Ota, — debdi Bobur, — bu kabutarga e'tibor qilmadingiz. O'tgan yili qovun sayli xushxbabini xuddi ana shu jonivor xabar qilg'on erdi, kaminaning ko'zi kabutarning o'ng qanotidagi qora xolga tushgan zahoti ani tanidim va shu so'zni taxmin etdim", — deb javob beribdi.

Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx a'yonlariga qarab: "Qilichni emas, aql-idrokni ishga solmoq lozimdur. Xabar qilinglar, barcha qovun sayliga otlansin!" — deb farmoyish beribdi.



BULBUL BILAN TO'RG'AY

To'rg'ay, aslida, so'fi bo'lgan ekan. Bir paytlar Xudoga shak keltirgani uchun, to'rg'aya aylantirilgan ekan. To'rg'ay, Bulbul, aslida, odam zotidan bo'lib, bir-birlari bilan qalin do'st, oshna-og'ayni ekan. Xudoyi Taolo ularni qo'shiq ayttirib musobaqa qildiribdi. "Kimda-kim ko'p va xo'p kuy va qo'shiq aytsa, el orasida qoladi, kuy-qo'shig'ini bog'-u rog'larda aytadigan bo'ladi, yengilgan esa cho'l-u biyobonga chiqib ketib, u yerda bo'zlab o'tadi", — debdi u.

Shunday qilib Bulbul bilan To'rg'ay navbatma-navbat kuy kuylab, qo'shiq ayta boshlashibdi. Bulbul ming bittaga yetkazibdi. To'rg'ay bo'lsa mingtaga yetkaza olibdi.

Shunda Xudoyi Taolo:

— Bulbul, sening makoning shu yerda — odamlar orasida bo'lsin. Bog'-rog'larda kuylab yuraver. To'rg'ay, sening makoning esa cho'l bo'lsin, to mah-shar kunigacha u yerlarda bo'zlab yuravergin, — debdi.

Shu-shu, Bulbul gullar orasida, bog'-rog'lar ichida ishq-muhabbat, vafo va sadoqatdan kuylasa, To'rg'ay cho'l-u biyobonlarda alamidan bo'zlagani-bo'zlagan emish...

SUMALAKNING PAYDO BO'LISHI

Bir dehqon bahor kelishi bilan urug'likka olib qo'ygan donini suvga ivitib qo'yibdi. Lekin birdan havo buzilib, yomg'ir yog'a boshlabdi. Bug'doy ivitilgan idishda nish urib, o'sa boshlabdi, ob-havo esa hadeganda ochilaver-mabdi. Shunda dehqon bobo bola-chaqasi och o'tirgan paytda ivitib qo'yilgan don baribir nishlab ketdi, uvol bo'lmasin, biron narsa pishirib bera qolay, deb o'yabdi. Bu paytda bug'doy ancha bo'y cho'zib qolgan ekan. Dehqon tavakkal qilib, nish urgan va ancha bo'y ko'targan donni qiymalabdi-da: "Bundan bir nima pishir, baribir uvol bo'ladi", — debdi kampiriga.

Kampir qiymani qozonga solib qaynataveribdi, qaynataveribdi, juda uzoq qaynatibdi. Oxiri qaynatishdan charchab, qozonning qopqog'ini bekitib, uxlagani yotibdi. Ertalab azonda uyqusi qochib, qozondan xabar olgani chiqibdi, qopqog'ini ochib ko'rsa, ajoyib hid dimog'iga urilibdi. Tatib ko'rsa, judayam

mazali emish. Bu taom hammaga xush yoqib qolibdi. U shunday shirin ekanki, hidi juda yoqimli, o'zi to'yimli, mazasi esa uzoq vaqt yodda qoladigan ekan.

Kelasi yil bahorda dehqonning bolalari yana o'sha taomdan yegilar kelibdi. Shu tariqa sumalak pishirish udumi paydo bo'libdi. Bu taom xalq o'rtasida keng tarqalib, bahorning lazzatli ne'matiga aylanib qolibdi. Keyinchalik dehqonlar donni faqat urug'likka emas, balki sumalak pishirish uchun ham olib qo'yishadigan bo'libdilar. Urug'likka olib qo'yilgan dondan mo'l-ko'l hosil ko'tarilsa, sumalakka asralgan bug'doydan esa kishilar o'zining sog'ligi, tetikligi va bardamligini tiklash uchun hayotbaxsh taom tayyorlashar ekan.



Jahon xalqlari ertaktlari

DO'STLIK – ULUG' BAXT

Qirg'iz xalq ertagi

Bir vaqtlar dunyoda donishmand bir chol o'tgan ekan. Uning yetti o'g'li bor ekan. Lekin ular otasining so'ziga kirmas ekanlar va har biri o'zicha ish tutar ekan. Kattalari kichkinalarini do'pposlasa, kichiklari kattalariga ish buyurarkan.

Odamlar ulardan kulib, aqlli cholning o'g'illari ahmoq bo'lyapti deb hisoblab, ko'pincha ularni yolg'iz uchratishsa, tutib urisharkan.

Kunlardan bir kuni chol o'rmonga borib, to'qqizta baquvvat-baquvvat tayoqni qirqib kelibdi. U o'g'illarini to'plabdi va ularga shunday debdi:

— Bolalarim, men sizlarning kuchlaringizni sinab ko'rmoqchiman. Mana bu to'qqizta tayoqni bir qilib sindirib ko'ringlar-chi.

O'g'illari navbat bilan sindirishga urinib ko'rishibdi, lekin hech qaysisi uddasidan chiqolmabdi.

Hammasi charchaganidan so'ng, otasi tayoqni o'g'illariga bittadan bera boshlabdi.

O'g'illari bittadan tayoqni olib, ularni qiyalmay sindirib tashlabdi.

Shunda chol o'g'illarini atrofiga o'tqazib, shunday debdi:

— Men sizlarning kelgusi hayotlaringizdan qo'rqiypman, agar sizlar ahil yashasanglar, unda hech qanday dushman sizlar uchun qo'rqinchli emas. Bitta tayoqni osongina sindirdingiz, ammo hammasini bir yo'la sindira olmadingiz.

Chol oradan sal o'tmay dunyodan o'tibdi. O'g'illari esa inoq yashay bosh-



labdilar. Kichiklari kattalarining so‘ziga qulqoq soladigan, hammalari ishlab, bir-birlariga ko‘maklashadigan bo‘lishibdi.

Shundan beri qirg‘iz xalqi og‘zida: “Do‘stlik — ulug‘ baxt” degan naql bor ekan.

YO‘LBARS BILAN TULKI

Tojik xalq ertagi

Bir kuni Tulki qalin o‘rmon ichiga kiribdi. To‘satdan uning ro‘parasidan Yo‘lbars chiqib qolibdi.

Tulki qo‘rqib ketib, qocha boshlabdi. Yo‘lbars esa uni quvibdi. Yo‘lning o‘rtasidan jarlik chiqib qolibdi. Tulki yugurishdan to‘xtabdi-da, bir tosh ustiga chiqib olib yig‘lay boshlabdi.

Yo‘lbars hayron bo‘lib so‘rabdi:

— Nega yig‘layapsan, Tulkivoy?

— Men sizni ko‘rishim bilan darrov otangiz yodimga tushib ketdi. Ular shunday epchil edilar-ki, hatto eng katta jarliklardan ham sakrab o‘ta olar edilar. Endi bo‘lsa bunaqangi epchillikni menga ko‘rish qayda, deysiz?

Yo‘lbars Tulkining oldida maqtangisi kelib, jardan sakrab o‘tmoxchi bo‘libdi-da, jarga tushib, til tortmay o‘libdi.

— O‘zim ham biluvdim-a, hali otangizga yetishingizga ancha bor! — debdi ayyor Tulki va o‘z yo‘liga ravona bo‘libdi.



HAYVONLAR QISHLOVI

(Rus xalq ertagi)

Bir ho'kiz o'rmonda ketayotgan ekan, oldidan qo'chqor chiqib qolibdi.

- Qayoqqa ketyapsan, qo'chqorvoy? — deb so'rabdi ho'kiz.
- Qishlov qidirib ketyapman, — debdi qo'chqor.
- Yur men bilan.

Ular birga keta boshlabdi, ro'paralaridan to'ng'iz chiqibdi.

- Qayoqqa ketyapsan, to'ng'izvoy? — deb so'rabdi ho'kiz.
- Qishlov qidirib ketyapman, — javob beribdi to'ng'iz.
- Yur biz bilan.

Uchovlon yo'lida g'ozga duch kelishibdi.

- Qayoqqa ketyapsan, g'oz? — deb so'rabdi ho'kiz.
- Qishlov qidirib ketyapman, — javob beribdi g'oz.
- Yur biz bilan.

G'oz ham ularga ergashibdi. Yo'lida xo'roz uchrabdi.

- Qayoqqa ketyapsan, xo'rozvoy? — deb so'rabdi ho'kiz.
- Qishlov qidirib ketyapman, — javob beribdi xo'roz.
- Yur biz bilan!

Ular yo'l-yo'lakay o'zaro gaplashib ketishibdi.

- Og'aynilar, sovuq kunlar boshlanib qoldi, issiq joyni qayerdan topamiz-a? — debdi ulardan biri.
- Menga qaranglar, kelinglar, o'zimizga bir boshpana qurib olaylik. Xudo ko'rsatmasin, qishda rostdan ham muzlab qolishimiz mumkin, — debdi ho'kiz.


Qo'chqor esa:

- Mening po'stinim qalin, ko'rningmi, qancha yungim bor! Men shundoq ham qishdan chiqaman, — debdi.
- Menga desa, qahraton bo'lmaydimi — qo'r mayman: yerni qazib kirib olaman-da, kulbasiz ham qishni o'tkazaman, — debdi to'ng'iz.

— Men archazorga kiraman-da, bir qanotimni ostimga yozsam, ikkinchisini ustimga yopaman, hech qanaqa sovuq o'tmaydi, shundoq ham qishlayveraman, — debdi g'oz.

Ho'kiz qarasa, ish chatoq, bir o'zi harakat qilmasa bo'lmaydigandek.

— Mayli, — debdi ho'kiz. — O'zlarining bilasizlar, men esa o'zimga uy qurib olaman.



Ho'kiz kulbani qurib yashayveribdi. Qish ham boshlanibdi, sovuq qattiq bo'lib, a'zoyi badandan o'tibdi.

Shunda qo'chqor ho'kizning oldiga yalinib kelibdi:

— Birodar, kulbangga kirib, isinib olay.

— Sening po'stining issiq, qishni shundoq ham o'tkaza olasan-ku... Bor, yo'lingdan qolma, — debdi ho'kiz.

— Agar kiritmasang, yugurib kelaman-da, bir kalla qilaman-u, kulbangni buzib tashlayman. Unda o'zingdan ko'r.

Ho'kiz: "Kel, kirita qolay, yo'qsa bu meni ham sovuqda qotiradi" degan o'yga borib, qo'chqorni kiritibdi.

Sovuq to'ng'izning ham jonidan o'tgach, ho'kizning oldiga kelib:

— Og'ayni, ichkariga kirit, isinib olay, — deb yalinibdi.

— Nima? Nima? Sen, axir, yerni qazib pastga tushib olasan-ku, qishni o'tkazaverasan-ku. Bor, yo'lingdan qolma, — debdi ho'kiz.

— Agar kiritmasang, tumshug'im bilan bir urib, kulbangni ag'darib tashlayman.

Ho'kiz, nachora, deb uni ham kiritibdi.

Shundan keyin g'oz bilan xo'roz kelib qolibdi.

— Ey, og'ayni, ichkari kirit, isinib olaylik, — deyishibdi ular.

— Senlarda qanot bor-ku, birini ostlaringga yozib, birini ustlaringga yopib, qishdan chiqaveringlar, — debdi ho'kiz.

— Agar kiritmasang, kulbangdagi to'sinlarni yulib tashlayman, o'zingga qiyin bo'ladi, — debdi g'oz.

— Kiritmaysanmi? — debdi xo'roz. — Kiritmasang, tomga uchib chiqaman-da, butun tuproqni titib tushiraman. Unda o'zingga jabr bo'ladi.

Ho'kiz sho'rlik nima qilsin? Kulbasiga g'ozni ham, xo'rozni ham kiritibdi.

Ular kulbada yashay boshlabdi. Badaniga issiq yugurgan xo'roz asta-sekin qo'shig'ini boshlabdi.

Tulki bu qo'shiqni eshitibdi-da, bir maza qilib xo'roz go'shti yegisi kelib qolibdi. Ammo uni qanday tutadi? Tulki ayyorlik yo'liga o'tibdi. U ayiq bilan bo'rining oldiga boribdi-da, debdi:

— E, qadrdon birodarlar! Men hammamizga yetarli o'lja topdim, senga, ayiqvoy, ho'kiz, senga, bo'rivoy, qo'y, o'zimga esa xo'roz.

— Juda soz, tulkijon! — debdi ayiq bilan bo'ri. — Biz sening yaxshililingni aslo unutmaymiz. Borib bo'g'izlaymiz-u, paqqos tushiramiz.

Tulki ularni kulbaga boshlab kelibdi. Ayiq bo‘riga qarab:

— Oldin sen kir! — debdi.

Bo‘ri esa chinqirib:

— Yo‘q, avval o‘zing kir, mendan kuchliroqsan! — debdi.

Ayiq “xo‘p” debdi-yu, oldinga o‘tibdi, u eshikka yetishi bilan ho‘kiz boshini egibdi-da, shoxlari bilan devorga yopishtiribdi. Qo‘chqor esa, sakrab kelib, ayiqning biqiniga kalla qo‘yibdi-yu, yerga ag‘anatibdi. To‘ng‘iz chinqirib, burda-burda qilishga tushibdi. G‘oz uchib kelib, ko‘zini cho‘qilay boshlabdi. Xo‘roz esa yog‘ochda o‘tirib:

— Bu yoqqa olib kelinglar, bu yoqqa olib kelinglar! — dermish.

Bo‘ri bilan tulki baqir-chaqirni eshitib, ura qochishibdi!

Ayiq urina-urina zo‘rg‘a qutulib chiqib, bo‘riga yetib olibdi.

— E, bo‘ladiganim bo‘ldi!.. Umrinda bunaqa qo‘rmagandim. Kulbaga kirimish bilan bir xotin qayoqdandir paydo bo‘ldi-yu, ayrisi bilan devorga qapishtirib qo‘ydi! Duv etib yig‘ilgan olomonni ko‘rsang, biri tushiryapti, biri yulyapti, biri ko‘zga bigiz tiqyapti. Bittasi esa xodaga o‘tirib: “Bu yoqqa olib kelinglar! Bu yoqqa olib kelinglar!” — deb qichqirgani-qichqirgan. Agar uning qo‘liga tushganimda, o‘lib ketishim ham hech gap emasdi!



GUL O'STIROLMAGAN BOLA

Koreys xalq ertagi

Qadim zamonlarda mamlakatga donishmand va baxtli bir qirol hukmronlik qilgan ekan. Uning kayfini faqat qarilig-u befarzandlik buzar ekan, xolos. Kunlardan bir kuni qirol: "Mamlakatdagi eng vijdonli bolani topib, uni o'zimga o'g'il qilib olsam", — deb o'yabdi va hamma bolalarga gul urug'i ulashishni buyuribdi-da:

— Kimki shu urug'dan eng chiroyli gul undirsa, shu mening o'g'lim yoki qizim bo'ladi, — deb e'lon qilibdi.

Hamma bolalar urug'ni ekib, rosa parvarish qila boshlashibdi. Ular orasida Sol Ir degan bola ham bor ekan. U ham urug'ni gultuvakka ekibdi. Rosa parvarish qilibdi. Lekin o'n kun, o'n besh kun, bir oy vaqt o'tsa hamki, gultuvakka ekilgan urug' qilt etmasmish.

— Bu qanaqasi bo'ldi? — debdi Sol Ir va oxiri onasidan so'rabdi:


— Nega men ekkan urug' unib chiqmayapti? Onasi ham shundan tashvishlanib yurgan ekan:

— Tuprog'ini yangilab ko'r-chi, — debdi.

Sol Ir gultuvakdagi tuproqni almashtiribdi. Bu safar ham urug' ko'karmabdi. Qirol gullarni ko'r-adigan kun yetib kelibdi. Ko'pgina bolalar yasanishib-tusanishib, tuvakda o'zлari o'stirgan gullarni ko'tarib yo'lga chiqishibdi. Ularning hammasi valiahd bo'lish orzusida ekan. Xo'sh, keyin nima bo'libdi, deng? Negadir qirol gullarga qarab hamma bolalarning oldidan o'tib ketaveribdi. Uning chehrasida shodlikning uchquni ham ko'rinnabdi. Ittifoqo, u bir uyning oldida bo'sh gultuvak ko'tarib, yig'lab turgan Sol Irni ko'rib qolibdi. Qirol o'sha bolani chaqirib kelishni buyuribdi.

— Nima uchun sen bo'sh gultuvak ushlab turibsan? — deb so'rabdi u.

Sol Ir piq-piq yig'lab, kunlardan bir kuni birovning bog'idan egasiga bildirmasdan olma uzganini, shuning uchun bo'lsa kerak, qancha urinsa ham, urug'ni undira olmaganini gapirib beribdi.



Bu gapni eshitib, qirol Sol Irni ko'tarib olibdi-da:

— Mana mening pok vijdonli o'g'lim, — debdi.

Odamlar orasida g'ovur-g'ovur boshlanibdi.

— Qirol nima uchun gultuvagi bo'sh bolani o'g'il qilib oldi?

Shunda qirol tushuntirib beribdi.

— Ey, xaloyiq, men bolalarga ulashgan gul urug'i qaynatilgan edi.

Shundan keyingina odamlar qirolning fikrini ma'qullashibdi. Rang-barang gullar ko'tarib turgan bolalarning yuzlari uyalganlaridan qip-qizarib ketibdi. Chunki ularning hammasi boshqa gul urug'i topib ekanlar-da.


SEHRLI KETMON

Uyg'ur xalq ertagi

Бир podshoning ikki arzanda o'g'li bor ekan. Shahzodalar biron ish qilishmay, erka-tantiq bo'lib o'sishibdi. Ular ulg'aygan sayin ishtahalari bo'g'ilib, bir piyola choy ham ichmaydigan bo'lib qolishibdi. Ularning rangi za'faron bo'lib, kasalmmand odamlarga o'xshab qolishibdi. Podsho o'z mamlakatidagi hamma tabiblarni yig'ib, o'g'illarini davolashni buyuribdi. Ammo tabiblar har qancha chora-tadbir qilishmasin, shahzodalarning ishtahasi ochilmabdi, rangiga qon yugurmabdi. Shahzodalar o'zları qo'shni mamlakatga borib ishtaha dorisi topib kelmoqchi bo'lishibdi. Podsho rozilik berib, ularni yo'lga kuzatibdi. Shahzodalar yo'lda ketishayotganida ketmon chopayotgan bir cholga duch kelishibdi. Shahzodalar otdan tushib, cholga salom berishibdi.

— Buva, bizning ishtahamiz bo'g'ilib, ovqat yeyolmaydigan bo'lib qoldik. Bizga ishtaha dorisi sotiladigan shahar qaydaligini aytib berolmaysizmi? — deyishibdi shahzodalar.

— Aytib berardim-u, biroq hozir vaqtim tig'iz. Juda ishim ko'p. Bugun mana shu dalani tekislashim, ertaga bug'doy sepishim kerak. Shu ishlardan qutulganimdan keyin, sizlarga dorini o'zim topib beraman, — debdi chol.



— Bo‘lmasa, siz uyingizga borib donni olib keling. Biz sizga qarashib, tezroq ishingizni bitkazaylik, — deyishibdi shahzodalar. Ular cholning ketmonini olib ishga tushib ketishibdi. Chol uyiga borib don olib kelibdi. Shahzodalar qora terga tushib rosa ishlashibdi. Kechqurun horib-charchagan shahzodalarni chol uyiga boshlab kelibdi. Ungacha kampiri osh qilib turgan ekan. Shahzodalar palovni talashib-tortishib yeishibdi. Biroq qorinlari uncha to‘ymabdi, yana so‘rashga iymanishibdi.

— Buvi, palov juda shirin bo‘libdi. Unga qanaqa dori qo‘shgansiz? — deb so‘rashibdi shahzodalar.

— Oshga hech qanaqa dori solganim yo‘q, sizlarni ishga soldim, — debdi chol. — Sizlar ishlatgan ketmon — bo‘g‘ilgan ishtahaning dorisi.

BO‘G‘IRSOQ

Rus xalq ertagi

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir chol bilan kampir bor ekan. Chol kampirga:

— Kampir, menga bo‘g‘irsoq pishirib bergen, — debdi.

— Axir, nimadan pishirib berayin. Un yo‘q-ku! — deb javob beribdi kampir.

— E, kampir! Suprani qoqib-sidirgin, quti ichini supurgin, qarabsanki, birpasda bo‘g‘irsoqqa yetadigan un yig‘ilib qoladi, — debdi chol.

Kampir shunday qilibdi: suprani sidirib, quti ichini supurib, bir-ikki hovuch un yig‘ibdi. Unni qaymoqqa qoribdi, zuvala yasab, bo‘g‘irsoq qilibdi, tovaga solib, moyda pishiribdi-da, sovisin deb, deraza tokchasiga qo‘yibdi.

Bo‘g‘irsoq deraza tokchasida o‘tiraverib, zerikib, birdaniga yumalab so‘ri ustiga tushibdi, yana bir yuma-lab yerga tushibdi, tag‘in bir yumalab eshik yoniga boribdi, ostonadan bir sakrab dahlizga chiqibdi, dah-



lizdan zinapoyaga o'tibdi, zinapoyadan hovliga tushibdi, hovlidan tashqariga chiqib, olg'a qarab ketaveribdi.

Bo'g'irsoq yo'lda yumalab ketayotganida bir quyon chiqib qolibdi:

— Bo'g'irsoq, bo'g'irsoq! Men seni yeyman, — debdi quyon.

— Yo'g'-e, meni yemagin, shal pangquloq, so'zimga qulq solgin, senga ajoyib qo'shiq aytib beraman, — debdi bo'g'irsoq va qo'shiq aytibdi:

Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,
Supradagi un-urvoq.
Supurishib oldilar,
Qaymoqqa xo'p qordilar.
Pishirdilar tovada,
Sovitdilar havoda.
Qochib ketdim bobomdan,
Qochib ketdim buvimdan.
Eshit, quyon, bo'ldi, bas,
Sendan qochish hech gapmas.

Bo'g'irsoq qo'shig'ini tamomlab, yana olg'a qarab yumalab ketibdi. Quyon ahmoq bo'lib qolaveribdi.

Bo'g'irsoq yumalab ketaveribdi, shunda ro'parasidan bir bo'ri chiqib:

— Bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, men seni yeyman, — debdi.

— Yo'g'-e, meni yemagin, bo'z bo'ri, senga ajoyib qo'shiq aytib beraman, — debdi bo'g'irsoq.

Bo'g'irsoq shunday ashula aytibdi:

Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,
Supradagi un-urvoq.
Supurishib oldilar,
Qaymoqqa xo'p qordilar.
Pishirdilar tovada,
Sovitdilar havoda.
Qochib ketdim bobomdan,
Qochib ketdim buvimdan,
Qochib ketdim quyondan.

Eshit, bo'ri, bo'ldi, bas,
Sendan qochish hech gapmas!

Bo'g'irsoq yana olg'a qarab yumalab ketaveribdi, bo'ri ahmoq bo'lib qolaveribdi.

Bo'g'irsoq yumalab-yumalab borayotganida, ro'parasidan ayiq chiqib qolibdi:

- Bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, men seni yeyman, — debdi.
- Yo'g'-e, meni yemagin, senga ajoyib ashula aytib beraman, — debdi bo'g'irsoq.

Bo'g'irsoq qo'shiq aytibdi:

Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,
Supradagi un-urvoq.
Supurishib oldilar,
Qaymoqqa xo'p qordilar.
Pishirdilar tovada,
Sovitdilar havoda.
Qochib ketdim bobomdan,
Qochib ketdim buvimdan,
Qochib ketdim quyondan,
Qochib ketdim bo'ridan.
Eshit, ayiq, bo'ldi, bas,
Sendan qochish hech gapmas!

Shunday qilib, bo'g'irsoq bir yumalab qochib ketibdi, ayiq ahmoq bo'lib qolaveribdi.

Bo'g'irsoq yumalab-yumalab borayotganida, ro'parasidan bir tulki chiqib qolibdi-da:

- Salom, bo'g'irsoq! Qanday chiroylisan, xuddi qip-qizil mag'izdaysan-a! — debdi.

Bo'g'irsoq judayam taltayib ketibdi-da, qo'shiq aytibdi:

Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,
Supradagi un-urvoq.

Supurishib oldilar,
 Qaymoqqa xo‘p qordilar.
 Pishirdilar tovada,
 Sovitdilar havoda.
 Qochib ketdim bobomdan,
 Qochib ketdim buvimdan,
 Qochib ketdim quyondan,
 Qochib ketdim bo‘ridan,
 Qochib ketdim ayiqdan.
 Eshit, tulki, bo‘ldi, bas,
 Sendan qochish hech gapmas!



— Ajoyib qo‘sinq ekan! — debdi tulki. — Eh, attang, bo‘g‘irsoq, men qarib qolibman, qo‘sinqingni yaxshi eshitmayapman, tumshug‘imga chiqib, yana bir marta qattiqroq aytib bergin.

Bo‘g‘irsoq tulkining tumshug‘iga sakrab chiqib, o‘scha qo‘sinqini aytibdi.

— Rahmat, bo‘g‘irsoq, ajoyib qo‘sinq ekan, yana eshitgim kelyapti, tilimga chiqib, oxirgi marta bir qo‘sinq aytib ber.

Tulki shu so‘zlarni aytibdi-yu, tilini chiqaribdi: bo‘g‘irsoq laqillab “lip” etibdi-yu, tulkining tiliga chiqibdi. Tulki bo‘lsa “xap!” etib uni yeb qo‘yibdi.

DURCHA VA BAQACHA

Birma xalq ertagi

Qadim zamonda bir kichik qishloqda beva xotin ikki qizi bilan birga yasharkan. U qizlarning kattasini Kattaoy, kichigini esa Kichikoy deb chaqirar ekan. Qizlarining ikkovi ham tug‘ishgan opa-singil bo‘lishiga qaramay, onasi kattasini kichigidan ko‘ra ko‘proq yaxshi ko‘rar ekan. Opa-singillar bir-birlaridan odobi bilan ajralib turarkan: kattasi qo‘pol, badjahl, buning ustiga, o‘lguday qizg‘anchiq ekan. Kichigi esa uning teskarisi — yoqimtoy, xushfe'l va ochiqko‘ngil ekan.

Bir kuni onasi Kichikoyni suv keltirgani qishloq chekkasidagi quduqqa yuboribdi. Kichikoy “xo‘p bo‘ladi”, deganicha suvgaga ketibdi. U quduqqa kelib, chelagiga endi suv ola boshlagan ekan, bordan yonida juldur kiyimli gadoy

kampir paydo bo'libdi. Aslida, u sehrgar bo'lib, Kichikoyning yuragini sinamoqchi bo'lib, uning oldiga kelgan ekan.

— Bolaginam, men bechora kampirga ozgina suvingdan ber, juda chanqab ketdim! — debdi kampir.

— Biroz sabr qiling, buvijon, men hozir chelagimni to'ldirib olay, — javob qilibdi Kichikoy. Qizcha quduqdan olgan muzdek suv bilan kampirning chanqog'ini bostiribdi.

— Sen yuragi pok, mehribon qiz ekansan, chirog'im, — debdi kampir suvni ichib bo'lib. — Bu xizmating uchun men senga bir yaxshilik in'om etaman. Shu bugundan boshlab kulganingda, og'zingdan dur yog'ilsin!



Shunday debdi-yu, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Shu-shu, har gal Kichikoy kulganda, og'zidan dur to'kiladigan bo'libdi. Buni ko'rgan odamlar unga Ma Pale, ya'ni Durcha deb nom qo'yib olishibdi.

Opasi Kattaoy singlisi Kichikoyni aldabsuldar bu qanday ro'y berganini surishtirib bilib olibdi. Chunki u ham singlisidek bo'lishni juda istabdi. Kunlardan bir kuni Kattaoy o'zi suv keltirgani quduqqa boribdi.

Uning yoniga ham gado kampir kelib, suv berishni so'rabdi. Lekin Kattaoy juda qizg'anchiq ekan, u singlisining gaplari ni eslasa ham, kampirga suv berishni xohlamabdi va qo'pollik bilan unga shunday debdi:

— Duch kelgan isqirt gadoyga suv uzatishim qoluvdi! Qani, yaxshilikcha jo'nab qol, bo'lmasa, adabingni berib qo'yaman!

— Sen badjahl, qizg'anchiq, qo'pol va toshbag'ir qiz ekansan! Buning ustiga baxil ham ekansan, o'z singlingga hasad qilasan. Iloyim, har gal kulganingda, og'zingdan baqa chiqsin! — deb qarg'abdi uni kampir.

O'shandan beri bevaning katta qizini qishloqdagilar masxaralab Ma Pxapou, ya'ni Baqacha deb chaqiradigan bo'lishibdi.

TULKI BILAN XO‘ROZ

Fors xalq ertagi

Rostmi yo yolg‘onmi, har qalay, bir qari xo‘roz bo‘lgan ekan. U bir necha bor tulkining domiga ilingan ekan-u, ammo har gal bir amallab uning qo‘lidan omon chiqar ekan. Kunlarning birida u qishloq chekkasidagi maydonchada don cho‘qilab yurgan paytda birdan bekinib kelayotgan tulkiga ko‘zi tushibdi.

Qishloqqacha qochib bora olmasligiga ko‘zi yetibdi. U bazo‘r yonidagi keksa qayrag‘och tepasiga chiqib olibdi. Tulki daraxt tagiga kelib:

— Hoy, xo‘roz! Nega meni ko‘rishing bilan daraxtga chiqib olding? — deb so‘rabdi.

Xo‘roz unga qarab debdi:

— Nima, yugurib borib seni quchoqlab olaymi?

— Ha-da! Hali hech narsadan be-xabarmisan? Shoh chor-atrofga elchilarni yuborib: “Mening sultanatimda biror odam bolasi, biror jonzot o‘zidan kichikni xafa qilmasin. Bundan keyin bo‘rilar bilan qo‘ylar bir buloqdan suv ichadilar, lochin bilan kabutarlar bir inda yashaydilar”, — deb xabar qilishlarini buyurdi. Qo‘rqmay yonimga tushaver, birga sayr qilamiz.

— Jo‘ralar bilan sayr qilish yaxshi, lekin hozir emas. Biroz sabr qil, buyoqqa shamol kabi uchib kelayotgan hayvonlar yetib kelsin, o‘shanda hammamiz birga aylanamiz, — deb javob qilibdi xo‘roz.

— U qanday hayvonlar bo‘ldi ekan?

— Bo‘rilarga o‘xshaydi, qulqlari bilan dumlari uzunroqmi?

— Balki ovchi itlaridir?



— Ha, ha, topding, xuddi o'zi!
 Ovchi itlarni ko'z oldiga keltiribdi-yu, tulki tiraqaylab qochishga tushibdi.
 Xo'roz uning ketidan:

- Nega qochib ketyapsan? — deb baqiribdi.
- Ovchi itlar bilan chiqisha olmayman.
- Hozirgina shoh barcha jonzot o'zidan kichikni xafa qilmaslikni buyurgan, demayotganmiding?
- Axir, ovchi itlar cho'lga chiqib ketgan edilar, shoh farmonini eshitma-gan bo'lishsa-chi? Meni nimtalab tashlashlari mumkin.

Shunday debdi-yu, tulki ko'zdan g'oyib bo'libdi.

MITTI SICHQONNING KATTA SARGUZASHTLARI

Eskimos xalq ertagi



Kunlardan bir kuni mitti sichqon safarga chiqishga qaror qilibdi. Buvisi unga safar uchun zarur bo'lgan narsalarni hozirlab beribdi. Va u yo'lga chiqibdi. Birozdan so'ng uning yo'lida ko'l uchrabdi. Mittivoy yon-atrofga ko'z yogurtirgan ekan, hech kim ko'rinnabdi.

— Attang, — deb chuqr uh tortibdi. — Istagan odam bilan kuch sinashishga tayyor edim-a.

Ko'lni suzib o'tib, u bir silkinibdi-da:

— Ehtimol delfin ham bunday ko'lдан suzib o'tishda charchab qolgan bo'lardi! — debdi o'zicha mag'rurlanib.

Katta ko'l esa bor-yo'g'i buvisining oyoq izicha bo'lib, yomg'ir suvidan paydo bo'lgan halqobcha ekan.

Mittivoy boshqa so'qmoqdan yo'lga tushibdi va

baland tog‘ga ro‘para kelibdi. Atrofda hech zog‘ ko‘rinmaganidan u juda xafa bo‘libdi:

— Attang, shu orada kiyiklar ko‘rinmaydimi, men ularga qanday sakrashni bir ko‘rsatib qo‘ygan bo‘larmidim.

Mittivoy yugurib kelib bir sakrab tog‘dan o‘tib olibdi.

— Durust, durust! — debdi u o‘ziga-o‘zi. — O‘zimga qolsa “Yashavor, azamat!” degan bo‘lardim.

Tog‘ga kelsak, u bor-yo‘g‘i bir tutam qurib qolgan o‘t ekan, xolos.

Mittivoy oldinga qarab yugurib borayotgan ekan, birdan ikki ayiqpolvonning hayot-mamot uchun olishayotganini ko‘rib qolibdi.

— To‘xtanglar, — deb baqiribdi u. — Olishishni darhol to‘xtatinglar, bir-biringizni o‘ldirib qo‘yasiz!

Ammo ayiqpolvonlar uning baqirig‘ini eshitmapti, shunda mittivoy o‘rtaga tushib, ularni ajratib qo‘yibdi-da:

— Men juda dovyurak va kuchliman, jo‘nab qolinglar, qayta menga duch kelmanglar! — debdi.

Olishganlar turli tomonga ketishibdi. Ularning biri dala kanasi, ikkinchisi pashsha ekan.

— Buguncha bo‘lar, — debdi mittivoy o‘ziga-o‘zi va uyiga qarab yuguribdi.

— Men nimalarni ko‘rmadim, buvijon! — deb baqiribdi u ostonadan kirar-kirmas va boshidan kechirganlarini so‘zlab beribdi.

— Voy, sen jinnivoym... — deb mittivoyni bag‘riga bosibdi buvisi.

IT BILAN TOVUQ

Afrika xalq ertagi

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, ikki o‘rtoq — tovuq bilan it bo‘lgan ekan. Ular bir uyda: it ostonada, tovuq esa uy ichkarisidagi katakda turar ekan. Kunlardan bir kun tovuqning erinchoqligi tutib, kechasi tashqari eshikni yopib qo‘y, deb itdan iltimos qilibdi. Shunda it:

— Kerak bo‘lsa, o‘zing yop, menga ostona ham, ko‘cha ham birday. Itning kuni o‘zingga ma’lum-ku, — deb javob beribdi.

Tovuq issiq o'rninisovutgisi kelmay, ko'cha eshikni borib yopib qo'yishga juda erinibdi.

— O'zing bilasan. Men katakda yashayman, qo'rqa digan yerim yo'q, — debdi.

Buni qarangki, o'sha kuni tunda ularning uyiga tulki kelibdi. U dong qotib yotgan itning oldidan lip etib o'tibdi-yu, katakni ochib, tovuqni olib, qochib qolibdi. Nima bo'lib ham, tovuq bir amallab tulkinining qo'lidan sitilib chiqibdi-yu, uyiga qochib kelibdi.


— Qayoqlarga gumdon bo'lib ketding? — so'rabdi it tovuqdan. Tovuq miq etmay o'z qo'nog'iga borib joylashibdi.

Ertasi kuni kechqurin it tovuqqa qarab:

— Eshikni yaxshilab tambala, seni tulki o'g'irlab ketishi mumkin. Men, odatda, darvozani tambalamay yotaman, tulkidan qo'rqlayman, — debdi.

Tovuq, tulki uni qanday qilib o'rmon bo'ylab sudraganini eslabdi-yu, qo'nog'idan tushib, eshikni mahkam tambalab qo'yibdi.

O'shandan buyon tovuq kataklarining eshigi quflrog'liq bo'larkan.



O'zbek bolalar adabiy ertaklari

Mahmud MURODOV

AHILLIKDA GAP KO'P

Bir yo'lbars bor ekan. U hamma vaqt: “Men kuchliman, hech nimadan qo'rqlayman”, — deb maqtanar ekan.

Bir kuni u ketayotsa, gul ustida Bulbul sayrab turgan mish.

— Jo'nab qol mening gulimdan, bo'lmasa, tilka-pora qilib tashlayman, — debdi Yo'lbars o'kirib.

— Birpas sayrasam, nima qilibdi? — debdi Bulbul hurmat bilan.

— Mana senga sayrash, — deb Yo'lbars Bulbulni urmoqchi bo'lgan ekan, Bulbul “pir-r” etib uchib ketibdi. Yo'lbarsning panjasiga esa gul tikani kirib qolibdi. U har qancha urinmasin, tikanni chiqarolmabdi.

Bir-ikki kundan keyin panjasi shishib ketibdi. Yo'lbars og'riqqa chidolmay, yig'lab o'tirgan ekan, oldidan Quyon o'tib qolibdi.

— Yo'lbars tog'a, nega xafasiz? — deb so'rabdi Quyon.

— Qo'limga tikan kirdi. Chiqarolmayapman, voy-voy, — debdi Yo'lbars. Quyonning rahmi kelibdi.

— Yuring, sizni o'rtog'imning oldiga olib boraman. Tikanni ninasi bilan chiqarib tashlaydi, — deb uni Jayraning yoniga boshlab kelibdi va bo'lgan voqeani aytib beribdi.

— Mening ninalarim tikan chiqarish uchun emas, dushmanidan saqlanish uchun xizmat qiladi. Men bilan yuringlar-chi, sizlarni bir tanishim yoniga olib boray. U asalarilarning nayzasini olishni biladi, — deb Ayiqning yoniga boshlab boribdi.

Ayiq Quyonning gapini eshitgach:

— E, bunday mayda narsa mening tishimga ham, qo'limga ham ilinmaydi. Buning ustiga, ko'zim ham xiralashib qolgan, — debdi Ayiq. — Endi nima qildik? Ha, aytganday, tikan ham yog'och-ku, shundaymi? Men sizlarni shunaqa ish bilan shug'ullanadigan tanishimga olib boraman.

Hammalari boshlashib, Filpolvon yoniga borishibdi. Ayiq bo'lgan voqeani aytib beribdi.

— Agar Yo'lbarsning qo'liga xoda kirganda edi, sug'urib tashlardim. Tikanni olish uchun esa ustalik kerak, — debdi Fil. — Yaxshisi, men sizni suvda yashaydigan do'stim yoniga olib bora qolay, balki u bilar.

Begemot kelayotgan to'dani ko'rib:

— Kim u? — deb o'kiribdi.


— Biz, — debdi Fil. Salom-alikdan keyin hamma gapni aytib beribdi.

— Bu ish mening qo'limdan kelmas ekan. Yaxshisi, men tanishimni chaqiray, u tishlagan narsasini qo'yib yubormaydi. Balki u olib tashlar, — debdi-da, suvg'a sho'ng'ibdi. Oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas Timsohni boshlab chiqibdi. Timsoh yo'lida Begemot-dan eshitgan bo'lsa kerak, suvdan bosh chiqarishi bilan:

— Hov anavi daraxtda Bulbul yashaydi. Ba'zan u menga ham yordam beradi. Iltimos qilinglar, u, albatta, olib tashlaydi, — debdi.

H a m m a l a r i
Bulbul yoniga borishibdi. Bu o'sha erta-


gimiz boshidagi Bulbul ekan. U Yo'lbarsga hech narsa demay, tumshug'i bilan tikanni olib tashlabdi. Ayiq Yo'lbarsning panjasini siqib, maddani chiqarib tashlabdi. Yo'lbars qilmishidan qizarib, avval Bulbuldan uzr so'rabdi, keyin hammaga minnatdorlik bildiribdi. Bulbul o'z yordamidan xursand bo'lib, zavq bilan sayrab beribdi.



Aziz ABDURAZZOQ

DANAK ICHIDAGI DARAXT

Bir bor ekan, bir yo'q ekan,
 Bir yo'q ekan, bir bor ekan.
 Shahrimizda chaqqon, dono
 Ra'no degan qiz bor ekan.
 U yashagan hovli bog'day,
 Daraxtlari ko'p-ko'p ekan,
 Yoz kelganda ko'm-ko'k ekan.
 Hovlidagi bir tup o'rik
 Sara ekan, zotli ekan,
 Asaldan ham totli ekan.



O'sha o'rik pishganida, Ra'no uni maza qilib yeb, ortiqchasini oftobga yoyib quritar ekan. O'rik qurib, turshak bo'lganida, oyisi uni xaltalarga solib, tikib qo'yar ekan. Bir kuni Ra'no oyisi bilan bиргалашив xaltalarga turshak solayotganida, turshak orasidagi bitta danak yerga tushibdi. Ra'no uni olib, osmonga otib o'ynay boshlabdi. U danakni osmonga otar ekan-da, pastga tushayotganida kafti bilan ilib olar ekan. Har safar danak Ra'noning kaftiga tushganida, "shiq-shiq" degan tovush eshitilar ekan. "Iya, bu nima?" deb o'yabdi Ra'no. Shunda danakning ichida kimdir ingichka ovoz bilan gapiribdi:

— Bu men — daraxtman, — debdi haligi ovoz.
 — Iya, daraxt ham danakning ichida bo'ladimi? — debdi Ra'no hayron bo'lib. — Daraxt bo'lsang, qanaqa qilib danakning ichiga kirib olding?

Ra'no danakni chaqib ko'rmoqchi bo'libdi.
 — Qani, ko'ray-chi, qanaqa daraxt ekansan? — debdi u.
 U shunday deb, danakni kattakon, sip-silliq toshning ustiga qo'yibdi. Keyin uni bolg'a bilan urgan ekan, sirg'alib uchib ketibdi. Ra'no uni qidiribdi-qidiribdi, topolmabdi.

— Hay, mitti daraxt, qayoqqa qochding? — deb chaqiribdi.
 Danak javob bermabdi.

Shunday qilib, danak yo'qolibdi. Bora-bora, Ra'no uni esidan chiqarib yuboribdi. Chunki uning ishi ko'payib ketibdi. U har kuni dadasingning yonida yurib gullarga suv quyibdi, oyisining aytganini qilib hovli supuribdi, tovuqlariga don beribdi. Xullas, ishdan qo'li bo'shamabdi. Shunday qilib, yoz o'tib,

kuz kelibdi, kuz o'tib, qish kelibdi. Bir kuni oyisi xaltalardan bittasini ochib, undagi turshakdan kompot pishirayotganida Ra'no o'sha yo'qolgan danakni eslabdi. O'sha danak turshak tamom bo'lgunicha Ra'noning esidan chiqmabdi. Turshak tamom bo'lganida qish ketib, bahor kelibdi. Ra'no yana hovlida goh o'ynab, goh dadasiga, oyisiga qarashibdi. Ular gul ekishibdi, daraxtlarning tagini chopib yumshatishibdi, eski xazonlarni tozalashibdi. Shunday kunlardan birida Ra'no ekin ekiladigan joyda o'ynab yursa, yerdan kichkinagina nihol o'sib chiqqanini ko'ribdi. Tepasiga borib, cho'nqayib o'tirib tomosha qilibdi. "Bu nima ekan?" deb o'ziga-o'zi gapirgan ekan, nihol yosh bolaga o'xshab ingichka ovoz bilan:

— Men — daraxtman, — debdi.



— Danakning ichida mag'iz edim, — debdi nihol. — Yerda, qor tagida uqlab yotib, uyg'ondim, keyin daraxt bo'lib o'sib chiqdim. Agar meni chaqib yeb qo'ysang, hozir bunaqa chiroyli daraxt bo'lib o'sib chiqmagan bo'lardim. Endi meni yulib tashlamasang, o'sib, huv anavi oyimga o'xshagan katta o'rik daraxti bo'laman.

O'sha kundan boshlab Ra'no niholni qo'riqlaydigan bo'libdi. Hozir ham uni parvarishlab yurganmish. Kimki uni ko'rmoqchi bo'lsa, uch yildan keyin bahorda Ra'nolarnikiga borsin. O'shanda danakdan chiqqan mitti o'rik gullab turgan bo'ladi.

Ra'no uni ovozidan tanibdi. U o'sha — Ra'noning bolg'asidan qochib qutulgan danak ekan.

— Men yo'qotgan danak senmisan? — debdi Ra'no.

— Danak emasman, daraxtman, — debdi nihol. — Ko'rmayapsanmi?

— Ko'rib turibman, daraxtsan, — debdi Ra'no. — Danakning ichiga qanaqa qilib sig'ding?

Akbar YUNUSOV

HARAKATDA BARAKAT...

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, dunyoda juda-juda quvnoq bir bola bor ekan. Uni ko'rganlarning dili yorishib ketarkan. Bola ashula aytishni yaxshi ko'rarkan. Ashulasi ham o'ziga mos va xos ekan: "Harakatda barakat, undan qochar falokat..." Shu qo'shiqni kuylab, dunyo kezarkan.

Bir kuni u ashulani xirgoyi qilib, bir qishloqqa kirib boribdi. Qarasa, sochi jingalak, yuzi handalak qizcha ko'zini ishqalab-ishqalab yig'lab o'tirganmish.

- Nega yig'layapsan? — deb so'rabdi unga yaqinlashib.
- Oyim kasallar, bug'doyni tegirmonga olib borishga hech kim yo'q. Havonchada un qilmoqchiydim, qo'lim...

Qizchaning qavarib ketgan jajji qo'liga ko'zi tushibdi. Rahmi kelibdi.

- Kuyinma, bug'doying, albatta, un bo'ladi, — debdi bola.
- Qanday qilib?
- Tegirmoncha yasaymiz, ikki toshni ishlashga majbur qilamiz.
- Toshni-ya?
- Ha, jonsiz toshga
jon kirtsa bo'ladi.


Bola urinib-urinib,
qo'l tegirmon yasabdi.
Dastasidan ushlab ay-
lantirgan ekan, tegir-
mon un chiqara bosh-
labdi.

Qizcha xursandlik-
dan chapak chalib
yuboribdi.

Bola yo'lida davom
etibdi.

Bir qishloqqa kelsa,
odamlar bor narsalarini
ot-ulovlarga ortishayotganmish.

- Tinchlikmi, buvajon? — deb so'rabdi bola bir choldan.
- To'g'onnei suv urib ketdi, endi bog'-rog'lar quriydi, qishloq ilon va chayonlar makoniga aylanadi, — debdi chol kuyinib.



— Ketmanglar, men falokatni haydayman. Qani, daryoni ko'rsatinglar-chi? Ular qirg'oqqa kelishsa, daryo hayqirib oqayotganmish. U toshlarni ham dumalatib-dumalatib yuborayotganmish. Bola daryo bo'yiga o'tirib ko'p o'yabdi. Keyin keraksiz arava g'ildiraklarini topibdi. Ularga ko'zachalar bog'lab, charxpalak yasabdi.

Daryo bo'yiga o'rnatilgan charxpalak aylanib, tepaga suv chiqibdi.

— Baraka top, o'g'lim. O'zing kichkina bo'lsang ham, aqling balo ekan, — debdi boyagi chol. Bola jilmayib qo'yibdi. "Harakatda barakat, undan qochar falokat..." — deb ashulasini aytib yo'lga tushibdi.

Qishloq ahli xursand bo'lib, yana charxpalak yasashga kirishibdi. Chanqoq yerlarga suv chiqib, hammayoq bog'-u bo'stonga aylanib ketibdi...

Aytishlaricha, bola hamon harakatni maqtab, falokatni quvlab, odamlar orasida yurgan emish.

Rauf TOLIB

BO'RSIQ DO'ST IZLAYDI

Olmaxon Bo'rsiqni ko'rib, undan hol-ahvol so'rabdi:

- Xo'sh, qalaysan, og'ayni?
- Uf... Yuragim tars yorilay deyapti.
- Ha, tinchlikmi o'zi?



Bo'rsiq.

— Ha, do'sting bo'lsa, zerikish nimaligini bilmaysan. Suhbatlashasan, tarallo-yallo qilib o'ynaysan, kulasan. Bexavotir, rohat-farog'atda yashaysan. Biron

dushman senga ko'z olaytirguday bo'lsa, ikkovlashib dodini berasizlar. Do'st — jonga malham, har ishda hamdam.

— E, unaqa joningga jon bo'ladigan do'st qayda?

— Topiladi, — o'ylab qolibdi Olmaxon. — Mana, quyonni olaylik. Ko'ngli sutday oq. Birovga yomonlik qilish yetti uxbab tushiga ham kirmaydi. O'zingga ishonganday unga ishonsang bo'ladi.

— Qo'ysang-chi, o'sha quyonni! Quyon hech mahal do'st bo'larmidi? Qush pir-r etsa, yuragi shir-r etadi-yu... Do'st degan pahlavon, botir bo'lsa...

— Hm... — o'yga cho'mibdi Olmaxon. — Unda Ayiq bilan do'st tutinsang, qalay bo'larkin?

— Topding, kallangga qoyil. Kimsan, Ayiqning do'sti, deb birov menga g'ing deya olmaydi. Dushmanlar ham uzoqdan meni ko'rishlari bilan juftakni rostlab qoladilar-da! — o'ylab qolibdi Bo'rsiq. — Ammo Ayiqning juda g'alati odati bor-da! Aybingni yuzingga shartta aytaveradi. Juda betgachopar. Yo'q, Ayiq menga sira do'st bo'lmaydi. Bu aniq!

— Unda yana o'ylab ko'rish kerak, — debdi Olmaxon. — Aytmoqchi, Tipratican-chi? Qalay?

— Tipraticanvoy o'zini menga juda yaqin olib yuradi. "Sen bilan do'st bo'lmoqchiman", — deb iniga borsammikan-a? Yo'q, shoshilmaslik lozim. Tipraticanvoy o'zi uncha yomon emas. Ammo o'lguday mehnatkash-da! Qachon qarasang, orqasiga nimalarnidir orqalab yurgani-yurgan. Bundoq dam olib o'tirganini ko'rmaganman. U bilan o'rtoq bo'lsam, meni tinch qo'yadi-mi? "Yur, butazorga borib kelaylik...", "Kecha shamolda rosayam mevalar to'kilgandir, yur, bog'dan xabar olib kelaylik", deb enka-tinkamni quritib yuboradi. Bu — aniq gap. Bordi-yu, yo'q, desam, jahli chiqadi, o'rtaga sovuqchilik tushadi. "O'taketgan dangasasan, bundoq harakat qilsang-chi, qishga u-bu narsalar g'amlasang-chi", deydi, albatta.

— Kel, bo'lmasa, unda ikkov do'st bo'la qolaylik, — taklif kiritdi Olmaxon.

— O, juda soz, — debdi Bo'rsiq tilyog'lamalik bilan.



Olmaxon ketgach, Bo'rsiq uning ortidan masxara qilibdi.

— Menga do'st bo'larmish. Undan boshqa do'st qurib qolibdimi? O'zi shirinso'z, muloyim ko'ringani bilan, borib turgan ziqna. Arzimagan narsa ustida o'lib qoladi. Yong'oqlarni doim iniga yashirgani-yashirgan. Undan bir yorug'-lik chiqishiga sira ko'zim yetmaydi. Do'st bo'larmikin? Yo'g'ov! Boshqa do'st topish kerak. Ammo o'sha do'st qani?

Bo'rsiq o'tirvolib yana o'ziga do'st izlay boshlabdi. Hammani bir-bir sanab chiqibdi. Birov zahar, birov anqov, birov o'poq, birov so'poq... Qiziq, hech kim unga yoqmasmish-da.

Mana, necha yildirki, Bo'rsiq yakka-yolg'iz yasharkan.

Zamira IBROHIMOVA

NO'XAT BILAN TUZ

Qadim zamonlarda kichkinagina bir no'xatcha bo'lgan ekan. U yolg'iz o'zi yashar ekan. Doim: "Mening ham o'rtoqlarim bo'lganida edi, ular bilan maza qilib o'ynardim, hech zerikmasdim", — deb orzu qilar ekan. No'xat bir kuni o'rnidan turib, tirnoqlari bilan yer kovlab, kichkinagina chuqurcha yasabdi-da, ichiga tushib olibdi. Shamol chuqurcha ustini tuproq bilan yopib qo'yibdi. Oradan bir necha kun o'tibdi. Chuqurcha ichidan no'xat unib chiqibdi. Chiqibdi-yu, tuz bilan uchrashib qolibdi. Chunki u unib chiqqan joy sho'r yer ekan. Tuz ko'm-ko'k, jajji niholga g'azab bilan qarabdi-da:

— Hey, sen! Men podsholik qilayotgan joyda qo'rqlay bosh ko'tarib chiqdingmi?! — debdi. Niholcha qattiq qo'rqlib ketibdi. U qaltirab turib, chiyildoq tovush bilan:

— Kechiring meni. Sizning bu yerda hokimlik qilishingizni men bilmabman. Agar ruxsat bersangiz, bir necha oy shu yerda yashab tursam. Keyin o'g'il-qizlarim bilan sizga rahmatlar aytib, boshqa yerga ko'chib ketardik, — deb yolvoribdi.

Shunda tuz ko'zlarini olaytirib, g'azab bilan o'shqiribdi:

— Yo'q, bo'lmaydi! Ko'payib ketganlaringdan keyin senlarni yo'qotish qiyin bo'ladi. Pishib yetilganlaringda, odamlar ko'rib qolsa bormi, darrov terib olib, pishirib yeb ko'rishadi. Mazali ekanliklaringni bilishgach, mening

yerlarimga ekishaveradi. Suv quyib, meni yo'q qilishga harakat qilishadi. Tushundingmi?! — debdi-yu, yirik-yirik tuzlaridan niholchaning yuziga sepib yuboribdi.

Sho'rlik niholcha birpasda bujmayib qolibdi. Yaxshiyamki, uning baxtiga shu payt yomg'ir yog'ibdi-yu, no'xatning barglariga o'rnashib olib, joniga azob berayotgan tuzni yuvib tashlabdi. Niholcha o'ziga kelib, tuzning zolimligidan qattiq xafa bo'libdi. Dushmanining yomg'irdan qo'rqib, qayoqqadir yashirinib olganligidan foydalanib, tuzi yo'q yerni izlab, tez-tez yurib ketibdi. Yo'l yursa ham, mo'l yuribdi. Oxiri tuzi yo'q yerni topibdi. Bu saxiy yer niholchani xursand bo'lib, o'z bag'riga olibdi...

Oradan juda ko'p yillar o'tibdi. Hozirgi tuzimiz qadimgi bobosining qilgan yomonligi uchun no'xatdan ko'p marta kechirim so'rabdi. Ammo no'xat ham qaysarlik qilib, hech tuzni kechirmabdi. Bundan tuzning ham jahli chiqibdi. No'xatdan ovqat tayyorlanayotganda unga tez tuz solinsa, u no'xat ichidagi suvlarni so'rib olarkan-da, uni burishtirib, qotirib qo'yarkan. Shuning uchun to no'xat pishib, ustidagi yupqa po'stinini yechmaguncha qozonga tuz solib bo'lmas ekan.

Shunday qilib, no'xat po'stinini yechib bo'lgach, qaytib kiyolmay, tuz bilan qozonda ahil yashashga majbur bo'lib qolgan ekan.



O'tkir HOSHIMOV

TOMCHI HAQIDA ERTAK

Qishloq chekkasida, baland tepalik ustida bir tup o'rik bor ekan. U har yili odamlarga ko'p-ko'p meva berarkan. Ammo atrofida boshqa daraxtlar bo'lmagani uchun juda zerikar ekan. Bir kuni ertalab o'rik uyg'onsa, yaprog'ida bir narsa yaraq-yaraq qilib turganmish.

- Sen qanaqa qushsan? — debdi o'rik hayron bo'lib.
- Men qush emasman. Men — Tomchiman, — debdi boyagi yaraqlab turgan narsa.
- Kel, o'rtoq bo'lamiz, — debdi o'rik.
- Bo'pti.
- Ammo ketib qolmaysan, — debdi o'rik. — Bo'lmasa, qushlardan ham o'rtoqlarim ko'p-u, hammasi kuz kelishi bilan qochib ketishadi.
- Mayli, — debdi Tomchi. — Men eng qiyin paytda doim sening yoningda bo'laman.



O'rik juda suyunib ketibdi. Ikki o'rtoq kun bo'yи maza qilib o'ynashibdi. Lekin o'rikning quvonchi uzoqqa bormabdi. Ertasiga ertalab uyg'onsa, Tomchi yo'q emish.

"Tomchi meni aldabdi" deb o'ylabdi o'rik xafa bo'lib. Endi shundoq deb turgan ekan, birov uni chaqiribdi.

— O'rikjon! Hoy, o'rikjon!

O'rik quloq solsa, tovush osmondan kehayotganmish. Osmonga qarasa, do'mboqqina, oppoq bulut suzib ketayotganmish.

— Meni kim chaqiryapti?! — debdi o'rik shoxlarini silkitib.

— Men, sening do'stingman! — debdi bulut borgan sayin pastlab. — Men — Tomchiman.

O'rik hayron bo'libdi:

- Qandoq qilib chiqib olding?
- Meni oftob bobo bulutga chiqarib qo'ydi.
- Meniyam obket, — debdi o'rik havasi kelib.
- Yo'q, sen odamlarga meva berishing kerak. Qo'rhma, men ham yaqinda qaytib kelaman.

Tomchi shunday debdi-da, bulutga minib, olis-olislarga ketib qolibdi. O'rik yana zerika boshlabdi. "O'rtog'im endi kelmaydi, — deb o'ylabdi xafa bo'lib. — Osmonga chiqib, meni unutib yubordi".

Kunlar borgan sayin isib, o'rikning rosayam suv ichgisi kelibdi. Chanqaganidan yaproqlari shalpayib qolibdi. Suv ichay desa, yaqin-orada bittayam ariq yo'q emish. Oxiri u shundoq chanqabdiki, hushidan ketib qolibdi.

Bir mahal birov uning yaproqlarini silagandek bo'libdi. O'rik ko'zini ochib qarasa, yaproq ustida Tomchi turgan emish.

— Men senga yordam bergani keldim, — debdi Tomchi. U shunaqa ko'p o'rtoqlarini boshlab kelgan ekanki, o'rikning chanqog'i birpasda bosilib, yayrab-yashnab ketibdi. Ikkala do'st rosa o'ynabdilar.

Kundan-kun, oydan-oy o'tib, kuz kelibdi, o'rikning yaproqlari to'kilib, yalang'och bo'lib qolibdi. Bu ham kamlik qilganday, birdan izg'irin shamol esibdi, o'rikning a'zoyi badani muzlay boshlabdi.

— Tomchi bo'lganida yordam berardi, — deb o'yabdi o'rik afsuslanib. Shundoq deyishi bilan osmonda bir vaqtlar Tomchini ko'tarib yurgandaqa bulutlar paydo bo'libdi. Bulutlar quyuqlashaveribdi, quyuqlashaveribdi, oxiri qor yog'ib yuboribdi. Qor uning shoxlarini ko'rpadek o'rab olibdi.

— Qalay, isib qoldingmi, o'rikvoy?

O'rik Tomchining tovushini darrov tanibdi. Ammo o'zini ko'rmabdi.

— Qayerdasan, Tomchi? — debdi shoxlarini silkitib.

— Qorning ichidaman, — debdi Tomchi kulib. — Qarasam, sovuqqotib qolbsan, qorni boshlab keldim.

— Endi ketib qolmaysan-a? — debdi o'rik yalinib.

— Yo'q, bahorgacha sening yoningda qolaman.

O'shandan beri o'rik odamlarga ko'p mevalar beribdi. Tomchi ko'p ellarni kezibdi. Ammo qayerda bo'lmasin, qiyin va zarur paytda do'sti — o'rikning yoniga yetib kelarkan.

Turg'unboy G'OYIBOV

MARSDAN KELGAN ODAM

Anorlarining sersharbatligi, shifobaxshligi bilan dunyoga tanilgan bir qishloq bor ekan. Qishloq anorazorlaridan birida qari bir chol bog'bonlik qilar, Zumradxon degan nabirasi unga yordam berar ekan. Bir kuni bog'da ishlayotgan ekanlar, osmondan ularning yoniga boshiga kosmonavtlar qalpog'ini kiygan

bir kishi kelib tushibdi. Chol mehmonni ko'rib angrayib qolibdi. Ishini to'xtatib, qaddini rostlabdi. Nimadan gap boshlashni bilmay turgan ekan, Zumradxon qiziqib:

— Amaki, kimsiz? Bunaqa kiyimlarni kiyib, buyoqda nima qilib yuribsiz? Osmonga uchishni mashq qilib yurganlardanmisiz? — deb so'radi.


Qizchaning so'zini eshitib, mehmonning yuzlari quvonchdan yorishib ketibdi. Kutilmaganda:

— Ha... Men yaxshi tushunadigan tilda so'zlashar ekansizlar. Bu juda yaxshi bo'ldi. Bo'lmasa, sizlarga o'z maqsadimni qanday tushuntira olardim, dilimda ana shu zo'r tashvish edi, — debdi.

Chol bilan qizcha bu gapga battar hayron bo'lishibdi.

— Boshqa mamlakatdan keldingizmi deyman?! — debdi chol.

— Siz yana bizga ziyon yetkazishni o'ylab kelgan bo'lmang? — debdi qizcha.



Mehmonning ki priklari pir-pir uchibdi. U jahl bilan qo'lqopini yechib, yerga popillatib bir uribdi. Maysa ustiga o'tirib olib, piqillab yig'lay boshlabdi.


Chol bilan qizcha hayron bo'lib, bir-birlariga savol nazari bilan boqishibdi. Keyin chol mehmonga yaqinroq borib undan holahvol so'rabdi:

— Yig'lama, o'g'lim, balki senga nohaq alam o'tkazgandirmiz? Nohaq ayblanishdan og'ir azob dunyoda yo'q. Do'stlashish maqsadida kelgan bo'lsang, tortinmay so'zlayver, kimsan?

Mehmon kuyunib so'z boshlabdi.

— O, yaxshilar! — debdi u. — Men yer kishisi emasman. Men Mars yulduzining fuqarolaridanman. Boshimga og'ir kulfat tushib qoldi. Onam kasal yotibdi. Uni mohir tabiblarga ko'rsatdim. Hech kim uning dardiga davo topa olmadi. Oxiri bir qari professor Abu Ali ibn Sino ismli olimning "Al-Qonun" kitobidan shunday satrlarni o'qidi: "Bu toifa kasalning dardiga anor mevasi em bo'lur. Shu mevaning sharbatidan kasalga ichirilsa, kasal shifo topur..."

— Bizning sayyoramizda anor nima ekanligini hech kim bilmaydi. Bu mevani qanday topib bo'ladi? Olimlar yig'ilishib maslahat qilishdi. Eski tarixiy



Vardeges Babayan. Yalqov mushuk

kitoblarni titkilab, anorning qayda o'sishini aniqladilar. Bir vaqtlar bobolari-mizdan biri shu tomonlarga uchib kelgan, qaytishda o'sha "Al-Qonun" kitobini va boshqa bir necha kitoblarni olib ketgan ekan. Kitoblardan ma'lum bo'ldiki, anor Farg'onanining Quva degan yerida ko'p o'sar ekan. Ana shuni izlab, yerga tomon uchdim. Qancha bo'ron-sovuqlardan, yiroq yo'l, xavf-u xatarlardan o'tib, oxiri mana shu diyoringizga yetdim. Bu orada bechora onam o'lib qoldimi yoki tirikmi? Dilim qayg'u-alamdan ming pora bo'lyapti-ku, sizlar mendan shubhalanib, ta'bimni xira qilyapsizlar...

Bu so'zlarni eshitgan chol:

— Bilmay senga ozor bergen bo'lsak, kechir. Ey, Mars o'g'loni! So'zingga ishondik. Lekin sezyapmanki, ishing tiqilinch. Vaqtning ziq. Mana... mana shu anorlardan uzib olgin-da, tezda onangga olib bor! — debdi.

Mars odami rahmat aytibdi. Shoshilib anorlardan uzmoqchi bo'lib qo'l uzatgan ekan, chol:

— To'xta, o'g'lim! Pishmaganlarini uzmoqchisan-ku, pishganlaridan o'zim uzib berayin, — deb mehmonga bir talay anor uzib beribdi.

Mehmon rahmat aytib, cholning mehnatda chiniqqan zabardast qo'lini o'pib xayrashibdi va bo'yи yuqoriga cho'zila boshlabdi. Ikki biqinida kumush qanot paydo bo'libdi. U ko'kka tomon uchib, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'libdi. Qiz bilan chol xayrashib, uni kuzatib qolibdilar.

Oradan bir necha oy o'tgach, Mars odami yana qaytib kelibdi. Bu gal u juda shod ekan. Aziz onajoni anor sharbatidan ichib sog'ayib ketganmish. Bola uchun onani shod, baxtiyor, sog'lom ko'rishdan katta baxt bormi dunyoda? Yigitning ismi avval "Xolmat" ekan. Endi u shifobaxsh meva sharafiga o'zining ismini "Anorboy" deb atabdi. Bobo bilan nabirasi Anorboyning uyiga mehmon bo'lib borishmoqchi emish. Lekin qachon borishadi, bundan xabarimiz yo'q.



Jahon bolalar adabiy ertaklari

Vitaliy BIANKI,
Rossiya

TULKI BILAN SICHQONBOY

- Sichqonboy, sichqonboy, nega burning iflos?
— Yer qazidim.
— Nimaga yer qaziding?
— In yasadim.
— Nima uchun in yasading?
— Sen tulkidan yashirinish uchun.
— Sichqonboy, sichqonboy, men seni poylab o'tiraman!
— Uyamda to'shagim bor, uxlab yotaveraman, chiqmayman.
— Chiqmaysan-a, qorning ochib, chiqarsan!
— Uyimda o'zimning omborim bor.
— Sichqonboy, sichqonboy, men sening uyangni teshaman!
— Boshqa uyacha qazib qochaman, men doim shunday qilib kelganman!



Boris JITKOV,
Rossiya

BOTIR O'RDAKCHA

Har kuni ertalab uy egasi o'rdakchalarga likopchani to'ldirib qiymalangan tuxum eltardi. U likopchani nihol oldiga qo'yib, o'zi ketardi.

O'rdakchalar likopcha oldiga qarab chopishlari bilan, bog'dan kattakon bir ninachi uchib kelib, ular ustida aylana boshlardi.

U shunday vahimali chirillar ediki, qo'rqqanlaridan o'rdakchalar qochishib, o'tlar ichiga yashirinardilar. Ular ninachi hammamizni chaqib oladi, deb qo'rqrar edilar.

Yovuz ninachi bo'lsa likopchaga qo'nib, ovqatni yeb ko'rardi-da, keyin uchib ketardi.

Shundan keyin o'rdakchalar kun bo'yi likopchaning yaqiniga kelmas edilar. Ular ninachi yana uchib keladi, deb qo'rqrar edilar.

Kechqurun uy egasi likopchani olarkan: "O'rdakchalarimiz kasal bo'lganga o'xshaydi, ular hech narsa yeishmabdi", — derdi.


U o'rdakchalarning har kuni kechasi och yotishlaridan xabarsiz edi. Bir kuni o'rdakchalar oldiga Alyosha nomli qo'shni o'rdakcha mehmon bo'lib keldi.

O'rdakchalar unga ninachi to'g'risida gapirib berdilar, u esa kula boshladni. — Yuraklaringizga balli-yey! — dedi u. — Men bir o'zim u ninachini haydab yuboraman. Mana, ertaga ko'rasizlar.

— Maqtanyapsan, — deyishdi o'rdakchalar. — Ertaga hammadan oldin o'zing qo'rqiб, qochib qolasan.

Ertasi kuni ertalab uy egasi avvalgidek qiymalangan tuxum solingan likopchani ularning oldiga qo'yib ketdi.

— Mana, ko'ringlar, — dedi botir Alyosha. — Hozir sizning ninachingiz bilan olishamiz.



U shunday deyishi bilan ninachi uchib kelib qoldi. U tepadan to'ppa-to'g'ri likopchaga qarab uchdi. O'rdakchalar qochmoqchi bo'ldilar, lekin Alyosha qo'rwmadi.

Ninachi likopchaga qo'nib bo'lganicha yo'q edi hamki, Alyosha tumshug'i bilan uning qanotidan tishlab oldi. Ninachi zo'rg'a o'zini qutqarib, qanoti singanicha uchib ketdi. Shundan beri u sirayam boqqa uchib kelmadi, o'rdakchalar bo'lsa, har kuni to'yib-to'yib ovqatlana boshladidi. Ular o'zlarigina ovqatlanib qolmay, balki ularni ninachidan qutqargan botir o'rdakcha Alyoshani ham mehmon qila boshladilar.

**Korney CHUKOVSKIY,
Rossiya**

TELEFON


1

Jing'irladi telefonim:

- Kimsiz? Ayting?
- Filman, jonim.
- Qayerdan?
- Nor tuyadan.
- Nima kerak?
- Shokolad!
- Kim uchun?
- O'g'lim uchun!
- Qancha yuborsak bo'lar?
- Besh yo olti pud yetar,
Ortiq yemasa kerak.
Chunki u hali go'dak!

2

Keyin qoqdi telefon
 Timsoh
 Bo'lib qon.
 Ko'zlarida yum-yum yosh:
 — Aziz qarindosh!
 Menu xotin, oposhga.
 Yuborgin kalosh!
 — To'xta-chi, o'tgan hafta
 Senga ikki juft a'lo
 Yuborgandim-ku kalosh.
 Nima qilding, qarindosh?
 — Ey, unimi? O'sha on
 Yeb qo'yibmiz uchovlon.
 Shundan beri kutamiz,
 Yo'lingga ko'z tutamiz:
 Yuborar deb qarindosh,
 Kechki ovqatga
 Bir dyujina
 Yangi va shirin kalosh!



3

Keyin qoqdi telefon quyonbachchalar,
 — Yuborsangiz, — deyishdi, — yung qo'lqopchalar.
 Undan keyin maymunkar qilishdi xitob:
 — Sizdan so'rov: bizlarga yuboring kitob!

4

Undan keyin telefon qildi Ayiqboy,
 Shundayam baqirdiki, so'ramang, voy-voy!
 — To'xtang, ayiq, bo'kirmang, nima gap o'zi?
 Ne istaysiz, aytinq-chi?



Olayib ko'zi:

— Mu-mu, — deydi, “mu-mu”si, bilmayman, nima?
 Nima kerak, nimaga —
 Bilmayman sira.
 — Go'shakni joyiga qo'ying, ey, to'ra!

5

Keyin ko'k qarqaralar qoqdi telefon:

— Bizga tezroq yuboring dori-yu darmon,
 Baqalarni xo'p to'yib yegan ekanmiz,
 Og'rib qoldi bizning qornimiz.

6

Keyin qoqdi telefon ona cho'chqaxon:

— Ayting, kelsin oldimga bulbul-qaqajon!
 Bu kun bulbul ikkimiz
 Aytamiz qo'shiq,
 Shunday qiziq qo'shiqki, ajoyib...
 — Yo'q, yo'q!
 Cho'chqalarga sayramas
 Xushovoz bulbul.
 Yaxshisi, chaqir, senga qarg'avoy ma'qul!

7

Yana ayiq baqirar:

— O, qutqaring morjni!
 Kecha yutgan ekan u ti pratikonni.

8

Kun bo'yi shu xil ur-sur,
 Yugur-u yugur:

Jing-jing-jing,
 Jing-jing-jing,
 Jing-jing-jing-jiring!
 Goho tyulen, goh kiyik chaqirar: Keling!
 Ikki ohu yaqinda
 So'rashdi telefonda:
 — Nahot, shu gap bo'lsa chin?
 Yongan emish
 Ot o'yin?
 — Yo'g'-e, ohujon, suyun,
 Yongan emas ot o'yin,
 Arg'imchoqlar ham butun!
 G'ulduramang, ohular,
 Kelar hafta kelinglar.
 Arg'imchoqda uchinglar,
 Otchalarda yelinglar!
 Gapga kirmay ohular
 Boyagidek g'udunglar:
 — Nahot, shu gap bo'lsa chin:
 Yongan emish
 Ot o'yin?
 Takrorlashar o'z kuyin!
 (Gapga bermas hech bo'yin).



9

Kecha barvaqt
 Kenguru:
 — Moydodir uyimi bu? —
 Desa, men jonim chiqib:
 — Yo'q-yo'q! — dedim qichqirib.
 — Moydodir qayda ekan?
 — Ayta olmayman lekin...
 Yuz yigirma beshni ter,
 Ehtimol, uyidadir...

10

Uch kecha ko'z yummadim,
Rosa charchadim.
Uxlab,
Dam olsam, devdim...
Endi yotuvdim...
Birdan bo'lди qo'ng'iroq.
— Kim u?
— Nosorog!
— Nima bo'lди?
— Ish chatoq?
Choping tez... tezroq!
— Nima gap?
— Qutqaring!
— Kimni?
— Begemotni!
Yiqildi botqoqlikka
Begemotimiz.
— Yiqildi botqoqlikka?
— Ha.
Sho'rlik-chi, bilsangiz,
Chiqolmasdan yotadi.
Agar-chi, kelmasangiz,
Botqoqlikda botadi.
Sho'rlik xarob bo'ladi,
Esizgina, o'ladi.
— Xo'p! Xo'p! Chopdim, boraman!
Darrov yordam beraman!

11

Oh, qandayin og'ir ish —
Begemotni qutqarish.

Lavrentiy CHICHINADZE,
Gruziya

ULOQCHA

Dunyoda bir Uloqcha yashagan ekan. U juda yoshligida yetim qolibdi. Ammo onasining o'limi oldidan aytgan gaplarini sira yodidan chiqarmabdi.

— Qizginam, o'rmonga bormagin. U yerda dahshatli bo'ri yashaydi. Agar seni ko'rib qolsa, tiriklayin yutib yuboradi, — degan ekan onasi.

Kunlar, kunlar ketidan oylar o'tibdi... Uloqcha ancha katta, ancha kuchli bo'lib qolibdi, peshonasida kichkinagina shoxcha ham paydo bo'libdi. Biroq qalin o'rmon uni hamon dahshatga solarkan. Uloqcha onasining bo'ridan ehtiyot bo'l, deganini unutmagan ekan.

Uloqcha hech qachon qishloqdan uzoqlashmas ekan. Avvaliga u qishloq yo'li chekkasidagi, keyin devor tagidagi o'tlarni chimdib yurib, oxiri tepalikka ko'tarilibdi.

O'rmonga olib chiquvchi so'qmoq atrofidagi barra o'tlar havasini keltirib turarkan.

Ammo uloqcha bo'rining tishlarini eslashi bilanoq, qishloqqa yugurib qolarkan.

Mana, nihoyat uloqcha o'sib haqiqiy uloqqa aylanibdi. Bir kuni u uyiga baxtiyor va quvnoq holda qaytibdi. U quvonch bilan mangrabdi, sakrabdi, hovlida uyoqdan buyoqqa yugurib, tovuq va o'rdaklarni bezovta qilibdi... Shunaqa to'polon ko'taribdiki, bir qari o'rdak bo'ynini cho'zib:

— Shu qilgan ishing yaxshimi? O'zing xursandchilik qilyapsan-u, bizga hech narsa demaysan. O'zi nima gap? — deb so'rabdi.

— Iye! Hali eshitmadilaringmi? Qari bo'ri o'libdi! Ha-ha-ha, o'libdi. Uloqchaning quvnoq mangraganini qari bo'ribosar it Boxvera eshitibdi. U oldingi oyoqlariga qo'yib yotgan boshini asta ko'tarib, uloqchaga diqqat bilan qarabdi va:

— Uloqcha, sen tushunmabsan. Bo'ri o'lgani yo'q, — debdi.


— Qanaqasiga? Demak, meni aldashibdi-da?

— Yo'q, seni hech kim aldagani yo'q. Bo'ri o'ldi, lekin o'z ajali bilan o'lgani yo'q, uni men o'ldirdim! — Qari Boxvera erinchoqlik bilan kerishib, boshini oyoqlariga qo'yib, yana mudrab ketibdi.

Endi uloqcha uchun baxtli kunlar boshlanibdi. Shuning uchunki, xohlagan joyida o'tlar, qishloqdan tashqariga chiqib, kechgacha qolib ketar ekan. Nihoyat, u qo'rqmay o'rmongacha boradigan bo'libdi.

"Axir, bo'ri o'ldirilgan-ku, endi nimadan qo'rqaman!" – deb o'zini tinchlantiribdi u.

Mana, nihoyat, quyosh g'arbgan og'ib, daraxtlar yerga uzun soya tashlaganda, endi hech narsadan cho'chimaydigan bo'lib qolgan uloqcha maza qilib o'tlagach, uzoqroqqa ketmoqchi bo'libdi. U joniga tekkan tanish qishloq va tanish hovliga borgisi kelmabdi.

Uloqcha sho'xlik qilib, goh zumrad o'tloqda yugurib, goh chopib kelib, yosh daraxtlarning po'stlog'ini uchirib, zarb bilan suzib, goh quvnoq mangrab olg'a boraveribdi.

Nihoyat u charchab dam olgani to'xtabdi-da, atrofga mammun alanglabdi-yu...

O'rmondan shoshilmay lapanglab kelayotgan katta kulrang bo'rini ko'rib qolibdi. Uloqcha ko'zlariga ishonmay, quloqlarini ding qilib, ko'zini yumib-ochibdi. Yo'q, tush emas! Haqiqiy tirik bo'ri. Nahotki, qari, vafodor Boxvera aldagan bo'lsa?...

Och, ozg'in bo'ri to'g'ri uloqchaga qarab yuguribdi.

Bechora uloqcha qo'rqqanidan qimirlamay qotib qolibdi, keyin shunday qochib qolibdiki, asti qo'yaversiz.

Yugurayotib cho'zib-cho'zib mangrarkan, uning ovozini eshitib qishloq-dagilar vahimaga tushishibdi.

Boxvera dugonasiga nima bo'lganini darhol tushunibdi. Hovlidan yugurib chiqib, uzoqda yelkasida uloqcha bilan iniga ketayotgan bo'rini ko'ribdi. Uloqcha bo'rining yelkasida qopdek osilib turarkan.

Boxvera yugurib, qaroqchiga yetib olibdi va uning bo'yniga o'tkir tishlarini botiribdi.

Bo'ri uzoq olishibdi, ammo tajribali, qari itni yenga olmabdi. Boxvera jonsiz raqibining tepasida turganida, baxtsiz, baqiraverganidan xirillab qolgan uloqcha shivirlab unga minnatdorchilik bildiribdi.

- Rahmat, do'stim Boxvera! Agar sen bo'limganiningda, hozir mening suyaklarim ham qolmagan bo'lardi.
- Sen, esi past, nega bunchalik uzoqqa bording? Bo'ri esingga kelmadimi?
- Nega esimga kelmas ekan. Oyim: "O'rmonga bormagin, u yerda dahshatli bo'ri yashaydi", — deb vasiyat qilgan. Sen bo'rini o'ldirgan eding-ku, shuning uchun men...
- Bundan keyin ehtiyyot bo'l! Men hamma vaqt ham yordam berolmayman. Oyingning vasiyati bilan yashab bo'lmaydi. Miyani ishlatalish kerak. Bitta bo'ri bo'lgan joyda boshqasi bo'lishi mumkin. Men bittasini o'ldirdim, butun bo'rilar avlodini qirib tashlayolmayman-ku.



O'zbek bolalar she'riyati

O'ZBEKISTON — MENING VATANIM

Qudrat HIKMAT

MEN TUG'ILGAN O'LKA

Men tug'ilgan hur o'lka —
Ozod Sharqda nur o'lka.

Ko'r kam qishloq, shahari,
Shod o'tar har mahali.

Metall berar Bekobod,
Farhod GESdan el obod.

Nur olar har xonamiz,
Gullagan Farg'onamiz.

Xalqqa ust-bosh pillasi,
Bebaho oq tillasi.

Mevazor bog'-u bo'ston,
Serquyosh O'zbekiston.



Mahmudjon DADABOYEV

O'ZBEKISTON

O'zbekiston —
Nurli bo'ston,
Noming sening —
Tilda doston.

Jahon ichra
Yagonasan,
Xalqing ulug‘,
Mardonasan.

Senga hurlik
Omon keldi,
Eling kutgan
Zamon keldi.


Sensan mening
Baxt-iqbolim,
Bo‘lsin mangu
Istiqlolim.

Muqimjon QODIROV

TALPINAMAN QUYOSHGA

Ona-Vatan bag‘rida
Ulg‘ayaman baxtiyor.
Muncha suluv, bepoyon
O‘zbekiston — gul diyor.

Sirdosh bo‘lgim keladi
Har giyohga, har toshga.
Zamin mehriga qonib,
Talpinaman Quyoshga!



Yo‘Idosh ESHBEK

EY, VATAN

Ey, Vatan! Polvonlaring
Bor bo‘lsin! Uyg‘oq bo‘lsin!
To‘rt buyuk tomonlaring
Sog‘ bo‘lsin! Porloq

Bo'lzin!
Ey, Vatan, tuprog'ingda
Xalqim doim shoh bo'lzin!
Har mayin titrog'ingda
Bahordan nigoh bo'lzin!

Saodat TOJI

VATAN



Ona-Vatan,
Dono Vatan,
Hammamizga
Xona Vatan.
Beg'ubor yer,
Osmonlaring,
Chegarada
Qo'riqlaydi
Posbonlaring.
Quchog'ingda
Yayrab o'sdim.
Yo'q birorta
Kam-u ko'stim.
Onam kabi
Bag'ring ochding,
Yuragimga
Mehring sochding.
Orzu-havas
Tilagimda,
Vatan doim
Yuragimda.
Payvandiman,
Dilbandiman,
Ona-Vatan
Farzandiman.

Habib RAHMAT

YAXSHI SO'Z

Uchrashib qoldi
 Burgut va kaptar.
 Biri-biridan
 Hol-ahvol so'rар...

- Nima gap tog'da?
- Tinchlik tog'larda!
- Nima gap bog'da?
- Tinchlik bog'larda!

Dil ravshan tortib,
 Chaqnar edi ko'z.
 Hammaga yoqar
 Tinchlik degan so'z.

**“BINAFSHANI SOG‘INDIM ...”***Yil fasllari haqida*

Qutlibeka RAHIMBOYEVA

BAHOR

Bahorning turli ta'riflari bor. “Fasllar kelinchagi”, deya e'zozlaydilar bahorni. “Zumard bahor”, deb sevadilar. Shoirlar: “Pari fasl”, deya she'r ataydilar. Haqiqatan ham, bahor — chiroqli fasl. Eng avval quyosh haroratini his etamiz. Kunlar iliy boshlaydi. Qish bo'yи osmondan qorayib, xo'mrayib boqqan bulutlarning rangi oqaradi. Yumshoq, yengil, momiq patlarga o'xshab ko'rindi. Hatto qo'llarimiz bilan silagimiz keladi. Tog'larning cho'qqilariga oq qalpoqqa o'xshab qo'nib olgan qorlar eriydi. Shunday paytlarda adirlar oralab o'tsangiz, qorlarning suv shakliga kirib, pastga jilg'a bo'lib oqayotganini ko'rasiz. Bo'g'otlardagi sumalak muzlar erib tushadi, tomlarda yal-yal yonib lolaqizg'aldoqlar ochiladi. Aslida, bahorning ilk chechagi lolaqizg'aldoq emas, boychechakdir.



Och sariq rangli, qaymoq rangli mitti gul — boychechaklar hali yerdan qor ketmasidan ochiladi. Tog'dan qishloq, shaharlarga olib kelingan boychechaklarni sho'x bolakaylar bog'lam-bog'lam qilib uyma-uy tarqatadilar:

Qattiq yerdan qaqrab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak...

Bu jarangdor qo'shiqlarni eshitib, eshik, darvozasini ochgan momolar boychechakni olib, manglayiga surishadi, "omonlik-somonlik, yetkazganingga shukur", deya shukronalar aytishadi. Bahorda issiq kunlarning boshlanganini daraklab, qaldirg'ochlar uchib keladi. El orasida: "Qaldirg'och tinch, baxtli yashaydigan oilalarning derazalari, shiftlariga in quradi", degan naql yuradi. Daraxtlardan eng avval bodom gullaydi: oppoq bo'lib, u xuddi oppoq ko'ylak kiyan kelinchakka o'xshaydi. So'ng olcha, o'rik, olma gullaydi...

Bahorda eng chiroyli bayram — Navro'z bayramini nishonlaymiz. 21-mart kuni yurtimizga Navro'z kiradi. Dehqonlarimiz qor, yomg'irdan to'yingan tuproqqa urug' qadaydilar. Mahallalarda sumalak sayillari boshlanadi. Tog', adirlar orasida Navro'z sha'niga ko'pkarilar uyuştiriladi. Chavandozlar uloqni bir-biridan olishga urinib, poyga qiladilar. Eng mohir chavandoz, eng chopag'on ot uloqni oladi. Maydonlarda polvonlar kurash tushadilar, dorbozlar tomosha ko'rsatishadi.

Bahorda tez-tez yomg'ir yog'ib, momoqaldiyoq bo'ladi. Tushayotgan yomg'ir tomchilari durdek yarqiraydi. Har gal yomg'irdan so'ng ariqlar bo'yida yalpizlar ko'karadi. Ariqlarda — suvning to'lqinlarida bog'lardan uchgan daraxt gullari oqadi. Havodan atirgul hidlari keladi.



OYBEK**ERTA BAHOR**

Ko'k, moviy... Unda-bunda
 Bulutlar asta yozar
 Kumush qanotlarini.

Iliq, yoqimli kunda
 Erkin o'ynaydi qushlar
 Chizib sirli xatlarni.

Ariq yoqalaridan
 Yashil ko'zli boychechak
 Jimgina mo'ralaydi.

Go'zal bog'chamda har yon
 Ko'klamning mayin, ipak
 Nafasi tarqaladi...



Abdulla ORIPOV

BAHOR SHAMOLI

Bahor kelayotir,
 Toza, musaffo.
 Moviy kengliklarda o'ynaydi shamol.
 Daralar qo'ynida zangor bir havo,
 Tumanli shaharda yotmoqlik malol.

Qoyalar ko'ksida shodmon, beqayg'u,
 Oniy umri bilan sollanar chechak.
 Bahor, bu – eng toza shabbodadir bu,
 Bahor, bu – eng toza shamoldir, demak.

Kengliklar bag'riga uraman o'zni,
 Ko'zimga ko'ringay dilbar diyorim.
 Go'dak nafasidek yupatar yuzni
 Qish bo'yli intizor kutgan bahorim.

Bahor-ku o'tadi shamoldek shitob,
 Mayli, o'tajak u va o'tar bo'lsin.
 Azizim, umringda havo bo'lsin sof,
 Umring shamollari muattar bo'lsin.

Do'stjon MATJON

KO'KLAM SEP YOYDI

Ko'klam yoydi sepini
 Shahar-u qishloqlarga,
 Gulladi o'rik, bodom,
 Chiroy berdi bog'larga.

Maftun bo'lib o'lkamga,
 Uchib keldi turna, g'oz,
 Quvnoq qo'shig'imizga
 Qushlar bo'ldi jo'rovoz.



Taralar gullar atri,
 Osmon moviy, xush havo.
 Mening Ona-Vatanim,
 Ey, naqadar dilrabo.

Kavsar TURDIYEVA

BAHOR

Bilolmadim ilk bahor
 Qaysi yerdan boshlandi,
 Birdan zumrad poyandoz
 Dalalarga tashlandi.

Hech sezdirmay ishladi
 Uning chaqqon qo'llari,
 Bir kechada gilamga
 Chatib chiqdi gullarni.

Qalin, sovuq muzlarni
 Eritoldi iydirib.
 So'ngra har bir daraxtga
 Chiqdi chopon kiydirib.

Tursunboy ADASHBOYEV

BAHOR KELGACH

Qish qorini supurdi,
 Quyosh nurin ufurdi,
 Yalpiz hidi gupurdi
 Bahor kelgach.

Chaqmoq ko'kda yong'oq chaqdi,
 Qizg'aldoqlar selda oqli,
 Quyosh yana kulib boqdi
 Bahor kelgach.

Qo'ziqorin terdik tog'da,
 Odil bormay qoldi dog'da,
 So'ng qovurib yedik yog'da
 Bahor kelgach.

Yalangoyoq qirda chopdik,
 Savat-savat jag'-jag' topdik,
 Ikki tandir somsa yopdik
 Bahor kelgach.



NAVRO'Z

Toblanib
 Qish ayozida,
 Qaldirg'ochning
 Bayozida
 Navro'z tushib kelar tog'dan.

Boychechakdan
Chambar boshda,
Ta'zim qilib
Yurt, quyoshga,
Navro'z tushib kelar tog'dan.

Qo'lga olib
Yangroq torin,
Ko'z-ko'z qilib
Bisot-borin,
Navro'z tushib kelar tog'dan.



Fayz ularshib
Tong-azonda,
Sumalaklar –
Doshqozonda,
Navro'z tushib kelar tog'dan.

Aziz ABDURAZZOQ

BINAFSHANI SOG'INDIM

Binafshaning isini
Sog'indim qish kunida.
Uning inja husnini
Sog'indim qish kunida.

Tezroq bahor kelsaydi,
Binafshani ko'rsaydim...
Tezroq bahor kelsaydi,
Binafshani tersaydim...

Biroq bahor ko'pincha
Kelar sekin, imillab.
Biroq bahor kelguncha,
Yer qolar sal qimirlab.

Chunki uning bag'rida
 Nafas olar binafsha.
 Hademay qish qa'ridan
 Chiqib qolar binafsha.

Yo'ldosh SULAYMON

BOYCHECHAK

Gunafshadan o'zishga
 Yuguribsan, boychechak.
 Undan erta chiqishga
 Ulguribsan, boychechak.

Umring qisqa bo'lsa-da,
 Turmasang-da kuzgacha,
 Ko'klamni boshlab kelding,
 Senga mehrim o'zgacha!

Shukur SA'DULLA

BOYCHECHAK

Kun ketidan kun o'tar,
 Tun ketidan tun o'tar.
 Keldimi deb gulbahor,
 Hamma yo'lga ko'z tatar.

Yumshoq yerdan yumilib,
 Tong nuriga cho'milib,
 Kulib chiqar boychechak,
 Olqishlarga ko'milib.

Ochildimi boychechak,
 Endi har yon gul, demak,
 Chunki bahor elchisi —
 Shu mitti gul — boychechak.






Qudrat HIKMAT

GUNAFSHA

Ariq bo'yin yoqalab
Borardim uy tomonga.
Yoni qalin daraxtzor
O'xshar xuddi o'rmonga.

Yo'l-yo'lakay ko'rdim men –
Ochilibdi gunafsha.
Egilib salom berdi,
Sevinib dedim: "Yasha!"

Sen – bahorning elchisi,
Sendan yashnar dalalar.
Yellarning qanotida
Xush bo'ylaring taralar.



Habib RAHMAT

QUYOSH CHIQQACH

Bulut bo'lib birpasda,
Eh, hammani shoshirdi.
Xayriyat, shamol bo'lib,
Bulutlarni qochirdi.
Osmon go'yo tiniq ko'l,
Sur bulut ketdi, ketdi.
Quyosh kulgach, hammayoq
Gul bo'lib ketdi, ketdi.





Rauf TOLIB

MAYSA

Quyosh biroz jilmaysa,
Kulib boqadi maysa.
Ko'rib ko'zim quvnaydi,
Dilim tongday yashnaydi.

Maysa, maysa, maysajon,
Senda bahor namoyon.

Shabnam kabi tiniqsan,
Yulduzlarday yoniqsan,
Senda bahor nafasi,
Senda yashash havasi.

Maysa, maysa, maysajon,
Bog'imizga bo'l mehmon!

Gullarday yo'q chiroying,
Sen yurtimga fidoyi.
Sen uyg'onding uyqudan,
Gullar hali qo'rquvda.

Maysa, maysa, maysajon,
Qishni yenggan qahramon!

Ma'mur QAHHOR

CHAQMOQ CHAQQANDA


Chaqmoq chaqdi
Qasir-qusur.
Yomg'ir yog'di
Tasir-tusur.

Uyga qarab
Dikir-dikir,
Qochdi ma'rab
Buzoq-sigir.
Qochdi uzib
Arg'amchini,
Ko'kda ko'rib
Zo'r qamchini...

Yong'in MIRZO

YOMG'IR

Yomg'ir yog'aloq,
Yashnaydi tuproq.
Vaqtida quysa,
Don bo'lar ko'proq.



Gullasin dala,
Ochilsin lola.
Tog'lar qo'yidan
Oqsin shalola.

Yomg'ir – yerga jon!
Xursand har dehqon.
Yomg'ir tinganda
Yorishar osmon.

Temur UBAYDULLO

YOMG'IR YOG'ALOQ

Shivir-shivir shivirlab,
Yomg'ir yog'di shitirlab.
Bo'g'otlarga berkindi
Sho'x chumchuqlar pitirlab.

O'ynab-o'ynab tushar suv,
Kuylab-kuylab tushar suv.

Yer bag'rini to'ldirib,
Quvnab-quvnab tushar suv.

Yomg'ir yog'ar paqirlab,
Chuchvarasi vaqirlab.
Har tomchi – qut, baraka,
Yashnaydi dala, qirlar.



Dilshod RAJAB

VARRAKLAR QUVONCHI

O'tib ketdi badqovoq
Qishning achchiq ayozi,
Tabiat kiymoqda shod
Bayramona libosin.

Guldirab kular osmon,
Chaqnab chaqmoq toshlari,
Kulgusining zo'ridan
Chiqib ketar yoshlari.

Ichga sig'may sevinchi,
Qaynab toshar buloqlar.
O'zaniga sig'masdan
Toshar soy-u irmoqlar.

Yumshoq yerdan yumalab
Chiqar xandon boychechak,
Qattiq yerdan qatalab
Chiqar polvon boychechak.

...Bizning ham ko'ksimizga
Shamol tegadi endi.
Quvonchlardan boshimiz
Ko'kka yetadi endi.



**“O'RGILAY, FASLI YOZIM,
SENGA RUBOBIM – SOZIM...”**


Qutlibeka RAHIMBOYEVA

YOZ

Bahorning tansiq ne'matlaridan qulupnay, tut, gilos pishib, tugagandan so'ng yoz boshlanadi. Ertalabdanoq quyosh porillab chiqadi. Soylardagi suvlar choshgohga borib-bormay quyosh shu'lalaridan jimirlay boshlaydi. Dehqonlarning ishi ham qizigandan qiziydi. Bug'doyning, ayniqsa, paxtaning hosil to'playdigan pallasi boshlanadi. Kechalar qisqa, kunduzlar uzun bo'ladi. Bog'larda chillaki uzumlar, yozgi olmalar pishadi. Polizlar yonidan o'tganda qovun-tarvuzlarning shirin hidlari ishtaha uyg'otadi. Yoz o'rtalariga kelib havo juda isib ketadi. Tollarning suvdagi soyalariga ham odamning havasi keladi. O'sha soyalar izidan suvgaga sakraging keladi. Ayniqsa, ota-bobolarimiz "Chilla" deb ataydigan iyul oxiri, avgust boshidagi oraliq fursatda quyosh yer-uko'kni quchib yotganga o'xshaydi. Shabadalar bog'larda jon saqlayotgandek tuyuladi. Lekin bizning mehnatkash dehqonlarimiz bunday tuproqdan, suvdan harorat ko'tarilib turgan kunlarda ham dalani tashlab qochmaydi. Bug'doyzorlar oltinlanadi, qo'shiq aytayotganday shovullaydi. G'o'zalar ko'saklar og'irligidan engashadi. Kechalari suvchilar g'o'za sug'orishadi, egatlar oralab oqayotgan suvda oy shu'lalari kumushday yarqiraydi.

Maktab o'quvchilari, litsey, kollej, institut, universitet talabalari ta'tilga chiqishadi.

Avgust o'rtalaridan boshlab havo harorati pasayadi. Anjirlar, husayni uzumlar pishib, bozorlarimiz noz-ne'matga to'lib ketadi.



Obid RASUL

YOZ

Yoz keldi-yu, yoz keldi,
 Ko'lga o'rdak, g'oz keldi,
 To'kinchilik soz keldi.

O'rgilay, fasli yozim,
 Senga rubobim — sozim.

Quyosh bobom — saxiy qo'l,
 Rang-bisoti juda mo'l,
 Ko'zlagani — to'g'ri yo'l.

O'rgilay, oltin fasl,
 Senga yot qing'ir, hazil.

Polizga qo'ysang qadam,
 Fe'li keng dehqon dadam
 Yozib dasturxon shu dam,

O'rgilay, — deb, — gulyuzdan,
 So'yar qovun-tarvuzdan.

Bog'da chilgi, husayni
 Yetilgan mahal ayni,
 Kelib qolsang, og'ayni,

O'rgilay, — deb bol yeysan,
 Ekkanga rahmat, — deysan.




Dilshod RAJAB

YOZ TONGI

Chekinadi qora g'am-zulmat,
Yorishadi yuzi osmonning.
Dalalarni oladi chulg'ab
Oppoq shodlik kabi yoz tongi.

Sevinchdan ko'z yoshlar maysa-o't,
Yig'loq chigirtkalar ovunar.
Ichlariga sig'may quvonchi,
"Tars" yorilib ketar qovunlar.



Nurullo OSTON

YOZ TUNIDA

O'yinqaroq, xush bo'lib,
Tunlar o'tar tush bo'lib.
Bosilar kun hovuri,
Tinar qushlar shovuri.
Bo'y taratar chechaklar,
Tun aytadi ertaklar.



QUYOSH KULGUSI

So'lim bog'larga
Zavqli yoz keldi.
Bizni chorlagan
Sho'x ovoz keldi.
Tonglar g'uborin
Shudringlar yuvdi,

Ko'zlarim bog'da
 Kapalak quvdi.
 Tilimda qoldi
 Qovunlar toti,
 Erkalab o'tdi
 Shamol qanoti...

Valijon AHMADJON

OLTIN BOSHOQLAR

Shabadada to'lqindek
 Chayqaladi boshoqlar.
 Dalalarda yaralar
 Rizq-ro'zimiz shu chog'lar.

Dehqon bobo shod boqar,
 Kaftga olib donlarni.
 Mana, endi onalar
 Yopar oppoq nonlarni.



Po'lat MO'MIN

KAPALAK VA HANDALAK

Uchib yurgan kapalak,
 Yangilikdan ber darak.

Kapalak der: — Polizda,
 Yaqin emas — olisda

Ko'rganmisan ko'k palak,
 Pishib yotar handalak.



Kapalakning ketidan,
Chopdim uvat chetidan.

Uchib yurgan kapalak
Topib berdi handalak.

Rahmat senga, kapalak,
Shirin ekan handalak.



Muhammadjon QO'SHOQOV

OQ BULUT

Oq bulut, sut bulut –
Baraka, qut bulut.

Dalalar, qirlarga
G'alviring tut, bulut.

Suzilsin tomchilar,
Yerga don sochilar.

Bolalar taqsin deb,
Gul-lola ochilar.

HOY, OLMA

— Hoy, olma, shirin olma,
Bargga yashirin olma,
Nega buncha shirinsan?
Ayt menga siring, olma?

— Ha, men shirin olmaman,
Ikki yuzi lolaman.
Shirinlikni, o'rtoqjon,
Men quyoshdan olaman.



Tursunboy ADASHBOYEV

TUT QOQDIK

Biz yozda-chi,
 Tut qoqib,
 Hech qo'ymasdan
 But qoqib,
 Undan shinni
 Pishirdik.
 Nonga bulab,
 Tushirdik...

**"KUZ KELGANI SOZ BO'LDI..."**

Qutlibeka RAHIMBOYEVA

KUZ

Daraxtlarning yaproqlari tillo rangga kira boshlaydi. Ertalab va kechki shabadada ular xuddi zarqanot qushchalarga o'xshab uchadilar. Yoz bo'yi shovqin solib, ba'zi joylarda loyqalanib oqqan suvlar sokinlashadi, tiniq tortadi.

1-sentabr — kuzning birinchi kuni Vatanimizda qo'shaloq bayram nishonlanadi. Eng katta bayramlarimizdan biri — Mustaqillik bayrami 31-avgust — yozning so'nggi kunidan boshlab bayram qilina boshlaydi. Bayram sayillari poytaxtimizdagi Bosh maydondan boshlanib, shahar-u qishloqlarimizda davom etadi. 1-sentabr kuni yangi o'quv yili boshlanadi va shu kuni Bilimlar kuni ham nishonlanadi. Kuz O'zbekistonimiz uchun pishiqchilik fasli hisoblanadi. Dalalarda milliy boyligimiz hisoblangan paxtalar oppoq bo'lib ochiladi. Kuzgi olmalar, behi, yong'oq pishadi. Tunlari bog'larda "to'p-to'p" qilib birovlar yurib chiqayotgandek tuyuladi. Bu — aslida, daraxtlardan uzilayotgan mevalar tovushi. Shamollar xuddi "k-u-u-z" deya uzun-uzun nafas chiqarib, bog'dan bog'ga yelib yurgandek tuyuladi. Polizlarda qovoq, lavlagi, turp pishadi. Erta ko'klamda ko'kka arg'imchoq solib uchib kelgan turnalar yana o'shanday chiroqli bir saf bilan issiq o'lkalarga uchib ketishadi.

Kuz o'rtalarida o'lkamizda Mehrjon bayrami nishonlanadi. Bu dalalarimiz bizga mo'l-ko'l hosil in'om etganiga shukronalik bayramidir.

Valijon AHMADJON

SOZ BO'LDI

Kuz kelgani soz bo'ldi,
Omborlar donga to'ldi.
Pishdi shirin mevalar,
Tatib ko'ngil chog' bo'ldi.



Bobodehqon mehnati,
Ona-yerning himmati.
Chanoqdagi paxtalar
Osmon qadar tog' bo'ldi.

Nurullo OSTON

YANA KUZ KELDI

Buloqlar zilol,
Charaqlar hilol,
Shivirlar shamol,
Yana kuz keldi.

Xazonlar o'ynar,
Turnalar kuylar,
Boshlandi to'ylar,
Yana kuz keldi.

Yo'laklar xomush,
Yurakda yonish,
Chechakda nolish,
Yana kuz keldi.

KECH KUZ

Tilla bandli yaproqlar
Dov-daraxt-la xushlashar.
Bargi xazon fasl bu.
Kuz qish bilan uchrashar.

Yuklaridan bo'shanib
Yastangandir dalalar.
Quchog'ida yayraydi
Qirmiz yuzli bolalar.

Orifxon SHOKIROV

SHIRINAK BAYRAMI

Ali, Omon — ikki do'st
Juda erta turdilar.
Shirinak bo'layotgan
Bog'ga tomon yurdilar.

Shirinak deganlari —
Dehqonlarning bayrami.
Mo'jizakor, mirishkor
Bog'bonlarning bayrami.

Maydonda, yo'laklarda
Rastalar qator-qator.
Qovun-tarvuzlar to'p-to'p,
Mevalarning bari bor.

Rastada noz-ne'matlar
O'zlarin ko'z-ko'zlashar.
Bolalarga navbat-la
Xislatlarin so'zlashar.

QOVUN

Navlarimiz rang-barang,
Shakarpalak, bosvoldi.
Bilganlar
Qanchamizni
Uy shiftiga osvoldi.



TURP

Men bo'lmasam, oshxo'rlar
 Xafa bo'lib qoladi.
 Palov do'stim yuzimdan
 Doim o'pib oladi.

**TARVUZ**

Beqasam to'n tarvuzman,
 Bozorlarga yuboring.
 To'yib yesin yaxshilar,
 Qolmasin hech g'ubori!

Muzaffar TUROBOV**ASAL QOVUN**

Ananas qovun so'ydim,
 Tatib ko'rdim-u, to'ydim.
 Bir tilimi bas, yetar,
 Og'zimda erib ketar.
 Qani, kim bilar sirin,
 Ne uchun qovun shirin?
 — Bu — oltin kuz ne'mati,
 Dehqon bobo mehnati,
 Ter to'kkan, sarflab kuchin,
 Shirindir shuning uchun.



Dilshod RAJAB

MANZARA

Tinar yomg'ir-yog'aloq —
 Bo'shar ko'kning suvdoni.
 Jila boshlar ohista
 Qora bulut karvoni.
 Sovuq yel kelar shoshib,
 Kun chiqmasdan charaqlab.
 Qaltirar usti-boshi
 Jiqqa ho'l dov-daraxtlar.

“ROSA MAZA QISH, QORLARI – KUMUSH...”

Qutlibeka RAHIMBOYEVA

QISH

Qish deganda, eng avvalo, ko'z oldimizga poda-poda bulutlar, ayozdan kichrayib qolgan quyosh keladi. “Qor-r-qor-r” deya qorlarni chaqirayotgan qarg'alar tovushi qulog'qa eshitilgandek bo'ladi. Yaproqlarini shamollarga berib bo'lgan daraxtlar ayozga bardosh berib turgan bahodirlar safiga o'xshaydi. Qishning eng katta quvonchi — qor. Katta qorlar gupillab yog'ganida, dalalar oq ko'rpara burkanib, uyquga ketadi. Bog'lar xuddi qor yog'gan kechada gullab chiqqanga o'xshaydi. Sayhonliklarda bolakaylar yaxmalak uchishadi. Qishda ko'p o'zgarishlar bo'ladi: suvlar muzlaydi, dalalar qorlar suvini shimib, bahorga kuch to'playdi. Faqat archalar yam-yashil bo'lib, hayot manguligidan ertak aytib turadi.

Qor tog'larga kumush liboslar kiydiradi. Qish o'rtasida yangi yilni kutib olishga hozirlanamiz. Aslida, Sharq taqvimi bo'yicha bahorda — Navro'zda yil yangilanadi. Ammo biz ham butun dunyo mamlakatlari qatori yangi yilni tantanali qarshilaymiz. Yilning barcha fasllari bir-biridan yaxshi. Ammo kunlarga, fasllarga inson o'z aqli, tafakkuri, yaxshi ishlari bilan yana ham chiroy baxsh etadi.

Nurullo OSTON

QISH BOSHLANDI

Dov-daraxtlar mizg'igan,
Izg'irin yel izg'igan.
Ko'chalar yaraqlaydi.
Yulduzlar charaqlaydi.
Jamlab barcha kuchini,
Kelmoqda qish qo'shini.

Qutbi NOSIROVA

LAYLAK QOR



Qor yog'ar elak-elak,
Yog'ar bo'lib charxpalak.
Qo'ngan zamon kaftimga,
Erib ketar taftimga.
Quvnoq qor,
Oppoq qor.

Qorni yig'ib olaylik,
Bir shaklga solaylik.
Bolalar, keling, qani,
Qorbobo yasa, G'ani.

Qara, burning uchini,
Bilgin sovuq kuchini.
Shal pang quloqlar tikka –
Qarab qolibdi ko'kka.

Qor yog'ar hamon-hamon,
Kulamiz xandon-xandon.
Qizib ketdi o'yin ham,
Shodlikni ko'rар baham.
Quvnoq qor,
Oppoq qor.

Zafar DIYOR**QOR**

Oppoq — tiniq,
 Oppoq qor,
 O'ynab tushar osmondan.
 Qor qo'ynida
 O'ynoqlab
 Yurar yoshlар shod-xandon.

Mohir qo'lli
 Tabiat
 O'z hunarin ko'rgizar...
 Marhabo, —
 Deb, bizlarga
 Sepayotir zar va zar...

Issiq-issiq
 Kiyinib,
 Qor qo'ynida o'ynaymiz...
 Oyoqlarda
 Konkilar
 Ham chang'ilar, quvnaymiz.

Oppoq — tiniq,
 Oppoq qor.
 O'ynab tushar osmondan,
 Qor qo'ynida
 O'ynoqlab
 Yurar yoshlар shod-xandon.

**Narimon ORIFJONOV****QISHDA**

Rosa maza qish,
 Qorlari — kumush.

Oq kiygan atrof.
 Qish havosi sof.
 Konki uchamiz,
 Hech charchamay biz.
 Goho qorbo'ron
 O'ynab, kim chaqqon? —
 Bilib olamiz,
 Qoyil qolamiz.

Safar BARNOYEV

QORQIZNING QORMOMOSI

Qorbobom bilan kelsam,
 Quvonasiz chindan.
 Qormomong ham bormi, deb
 So'ramaysiz mendan.
 Qormomom ham bor mening,
 U tog'larda yuradi.
 Yo'limiz oq bo'lsin deb,
 Qor yog'dirib turadi.

Shukur SA'DULLA

QISH

Dala-dashtda tindi ish,
 Keldi mehmon bo'lib qish.
 Qish emas, u — qor bobo,
 Sovg'alari bor bobo.
 Uyda bezog'lik archa,
 Tepasida oyparcha.
 Xuddi yozday, bahorday,
 Iliq kuzgi nahorday.
 Qor yog'ar kecha-kunduz,
 Suv sovqotib kiygan muz.
 Dala-dasht — oppoq gilam,
 Qoqib bo'lmas sira ham.




Orom berar qor yerga,
 Dam-badam tushib terga.
 Kela qolsa gulbahor,
 Erib ketar yerdan qor...

Dilshod RAJAB

QISHKI SAFAR

Mo'risidan dud chiqqan
 Uylar misli poyezdlar,
 Yelayotir manzilga
 Shitob bizning poyezdlar.

Ular to'xtamas, toki
 Sovuq qorlar ketguncha.
 Toki so'nggi bekati --
 Navbahorga yetguncha.



Mahmud YUNUS

QISH BO'LSIN


Qor yog'sin-u,
 Qish bo'lsin.
 Menga o'yin --
 Ish bo'lsin.
 Meni kutar
 Chang'i ham.
 Uchsam, ketar

Zangi ham.
Chiniqtirib
Tananjni,
Ishga soldim
Chanamni.
Qor yog'sin-u,
Qish bo'lsin.
Ko'nglim doim
Xush bo'lsin.

Abdurahmon AKBAR

NIMA KUCHLI?

Izg'irin zo'rmi, shamol?
Muzmi, qor,
Nima asli?
Hamma narsadan kuchli
Momooftob, qish fasli.
Bulutlar qurshasa ham,
Nur sochar to'rt tomonga.
Sovuqlardan qo'rqqanda,
U chiqmasdi osmonga...




QISH SABOG'I

Shimimda to'rtta cho'ntak,
Paltomda to'rtta cho'ntak.
Birma-bir kirib chiqar
Bariga ikki qo'lim.
"Kuh-kuh"lab qo'llarimga
Oyimlar koyir andak,
— Shunaqa chatoq bo'lar
Qo'lqop yo'qotish,
O'g'lim!

SUHBAT

— Ayoz dedim, ayoz dedim,
 Mehring buncha sayoz dedim.
 Shashtdan tushsang, senga atab
 Yozardim bir bayoz dedim.
 Ayoz dedi: — Sha'nimga she'r
 Yozmasang ham, rahmat senga.
 Qizdiraman oyoq-qo'ling,
 Birpas o'ynab bersang menga...



"BILSANG, YAPROQLI SHOXCHA – BIZGA SEVIMLI BOG'CHA..."

Qushlar haqida

Abdulla ORIPOV

QUSHCHA

Goh butoqqa, goh gulga qo'nar,
 Tinim bilmas sayroqi qushcha.
 Nechun bahor seni rom etgan,
 Qayda eding bahor kelguncha?

Kel, yashaylik hamisha birga,
 Bizda bahor, gullar barchasi.
 Bilsang, men ham chaman o'lkamning
 Sho'x va quvnoq, shod o'g'ilchasi.



Qambar OTA

QUSHLAR BOG'CHASI

— Salom, — dedim, — ey, Qushcha,
 O'g'ilchami, sen qizcha?



Ne qilasan shoxchada?
Der: – O'ynayman bog'chada.
O'g'ilchamiz, qizchamiz,
Quvnoq jajji qushchamiz.
Bilsang, yaproqli shoxcha –
Bizga sevimli bog'cha.



Shukur SA'DULLA

QALDIRG'OCH

Mening otim qaldirg'och,
Eshigingni tezroq och!
Eshigingni ochmasang,
Don-duningni sochmasang,
Ashulalar aytmayman,
Uchib ketib, qaytmayman.

Anvar OBIDJON

TO'RG'AY QO'SHIG'I

Shiringina tilim bor,
Fyu-fyu.
Boshimda kokilim bor,
Fyu-fyu.
Zeriksangiz shaharda,
Fyu-fyu,
Dashtga keling bahorda,
Fyu-fyu.



JO'JA QO'SHIG'I

Hatto chivin ham erkin,
Katakdaman men lekin,
Chip-chip-chip.

Birovlarga qaramman,
Don sochsa deb qarayman,
Chip-chip-chip-chip.

Ochlik — juda yomon ish,
Mushuk — yana bir tashvish,
Chip-chip-chip-chip.

Hamma balo — tuxumda,
Sinib ketdi uyqumda,
Chip-chip-chip-chip.



Fayzi SHOHISMOIL

TURNA

Ko'l bo'yiga
Qo'ndi turna.
Tumshug'i-chi,
Xuddi surnay.

Men chalayin
Siz jo'r bo'ling,
Hoy, baqalar,
O'ynab-kuling, —

Deb borar u
Ko'l yoqalab,
Lekin qochar
Qurbaqalar.



Temur UBAYDULLO

XO'ROZ

— Sizlarning uyingizda
Kim turar avval?
O'zingmi yo ukangmi,
Ayt-chi, Tavakkal?

— Uyimizda ertalab
Chalib o'z sozin,
Uyg'onadi birinchi
Babaq xo'rozim.



Abdurahmon AKBAR

MAQTANMA, DAKAN

Sahar payti qichqirib,
Maqtanar xo'roz:
— Mendan erta uyg'onar
Qaysi bir shovvoz?

G'ashi kelib kuchuk der:
— Kerilma, dakan!
Kechadan beri uyg'oq
Olapar akang!

“FAQAT GULDA ISHI BORDIR, TEGAJOQQA NISHI BORDIR...”

Asalarilar haqida

Quddus MUHAMMADIY

BOLARI

G‘uv-g‘uv uchar bolari,
Duv-duv uchar bolari.
Guldan-gulga qo‘nishib,
Sharbat ichar bolari.

— Bolari, hoy, bolari,
G‘uv-g‘uv nag‘mang chal, ari!
Bog‘chamizda yayrashib,
Uchib, o‘yin sol, ari!


Sen — qadrdon do‘stimiz,
Asaling yeb, o‘sdkik biz,
Yasab beray in-quti,
Bog‘chamizda qol, ari!

Jonibek SUBHON

ASALARI

Asalari —
Asil ari.
Mehnatsevar
Nasl ari.

Guldan-gulga
Uchib zuv-zuv,





Ishlar, qo'shiq
Aytib g'uv-g'uv.

Faqat gulda
Ishi bordir.
Tegajoqqa
Nishi bordir.

Xabari yo'q
Baxillikdan.
Boli shirin
Ahillikdan.

Anvar OBIDJON

ASALARILAR QO'SHIG'I

Gulni yaxshi ko'ramiz,
G'uv-g'uv-g'uv.

Undan sharbat so'ramiz,
G'uv-g'uv-g'uv.

Bizga quring uychalar,
G'uv-g'uv-g'uv.

Bolga to'lar xumchalar,
G'uv-g'uv-g'uv.

Maqsuda EGAMBERDIYEVA

ASALARI

Dalama-dala,
Bog'ma-bog',
Uyma-uy

Chalib yuradi kuy
 Bir asalari.
 Sho'x bitta pari.
 Ikkita qanot
 Uchadi ozod,
 Ko'y lagi yo'l-yo'l,
 Kuylari mo'l-mo'l.
 — Zuv-zuv-zuv,
 Bet qo'lingni yuv,
 G'ung-g'ung-g'ung,
 Ishing kelsin o'ng.

**"QUYONCHADIR ISMIMIZ,
 MOMIQQINA JISMIMIZ..."**

Quyonlar haqida


Olim QO'CHQORBEKOV

QUYON

Qimir etmay yoz chog'i
 Hovliga tikilgancha,
 Dikkaytirib qulog'in
 O'tirardi quyoncha.

Pirillatib ko'zini,
 Pashsha uchsa qo'rqrar u.
 Goho siypab yuzini,
 Soyasidan hurkar u.

Hovlida-chi, o'ynashar
 Xo'roz-u g'oz, mushukcha,
 Bir-birini yalashar
 Buzoq bilan kuchukcha.





Biroq chiqmay quyoncha
Uyasida o'tirar.
Havas qilib, kechgacha
Ikki ko'zi mo'lтирар.

Sim to'rlardan mo'ralab,
G'oz so'zlardi: — G'oq, g'oq, g'oq!
Biz-la o'yna yumalab,
Hovliga chiq, hoy, qo'rqoq!

Mushukcha der o'shanda:
— Miyov, miyov! Quyonjon,
Chiqsang-chi, sen yonimga,
O'ynaymiz "mehmon-mehmon".

O'shqirardi kuchukcha:
— Bu nimasi, vov, vov, vov?
Yalintirding namuncha,
Safimizga kel darrov!

Quyoncha der: — Qo'rqaman,
Talaysizlar-da meni.
Ular aytar: — Do'st bo'lsang,
Xafa qilmaymiz seni.

Oyoq, qo'li uvishib,
Quyon zo'rg'a turibdi.
Hatto ko'zları tinib,
Astagina yuribdi.

Chiqar ekan hovliga,
Sevinibdi do'stlari.
Uni olib o'rtaga,
O'yin tushibdi bari.

Shundan beri quyoncha
 Qo'rmas emish hech kimdan.
 Do'stlar bilan kechgacha
 Zerikmasmish o'yindan.

Eson RAHIMOV


QUYONCHALAR QO'SHIG'I

Quyonchadir ismimiz,
 Momiqqina jismimiz.
 Chopsak, hech kim yetolmas,
 Bizdan o'zib ketolmas.
 Sabzi, karamlar bering,
 Qoplab, g'aramlab bering.
 Qitday qoldirmay yeymiz,
 Katta bo'laylik deymiz.
 Kimki bizga chin o'rtoq,
 O'ynab yashaymiz inoq.
 Yaxshi boqing, bolalar,
 To'lsin bizga dalalar.

Ollobergan PO'LATOV

EPCHIL QUYON

Qaramay orqasiga,
 Terlab-pishsa ham chunon,
 Yelib-yugurar edi
 Tulkidan qo'rqqan Quyon.
 Holdan toyganda bexos,
 Bo'rivoya keldi duch.
 Yana chopayin desa,
 Topolmadi mador, kuch.
 Hatto jon asrashga ham,





Bo'lmay qoldi-ku iloj.
 U dedi: — Kelgan edim,
 Yotgandirsiz deya och.
 Madad kutganday bo'ri,
 Quyonga talpinib der:
 — Bir oyog'im qopqonda,
 Quyon do'stim, yordam ber.
 Bu xabardan shodlanib
 Irg'ishlab dedi Quyon:
 — Banddan seni qutqarib,
 Tentak emasman, ishon.

Aziz ABDURAZZOQ

QORDA QOLGAN OQ QUYON



- Qorda qolgan oq quyon
 Uyon-buyon boq, quyon.
 Bolalaring sovqotdi,
 Gulxaningni yoq, quyon.
- Qoldim qorli, oq qishga,
 Muzday qattiq, qoq qishga.
 O'tinim yo'q, o'tinim,
 Gulxanimni yoqishga.
- Ish bilmagan oq quyon,
 Uyon-buyon boq, quyon.
 Agar o'tin topmasang,
 Cho'pak terib yoq, quyon.
- Qor tagida cho'pak ham,
 Sinib qolgan gupchak ham.
 O'tinim yo'q, o'tinim,
 Bir qarichlik cho'pdak ham.

— Ish bilmagan oq quyon,
Uyon-buyon boq, quyon.
Yozda o'tin yig'mading,
Oyog'ingni yoq, quyon!

“QO‘LINGDAGI TOSHINGNI OTMA BIZGA, HOY, BOLA...”

Suvda suzuvchilar haqida

Ravshan FAYZ

BALIQ

Baliq-baliq, baqaloq,
Akulaga chaqaloq.
Qani, endi zo'r bo'lsang,
Akvariumdan chiqib boq.

Nurullo OSTON

ITBALIQ

Qo'rqlay baqa — yovuzdan
Tutib keldim hovuzdan.
Tutolmadim kit baliq,
Mana sizga itbaliq.



Odil ABDURAHMON

QURBAQA

Qur-qur, qur-qur,
Qurbaqa,

Sening ishing qanaqa?
Suvga irg'ib "shop" etdi,
Deya "ishim shunaqa".



Anvar OBIDJON

BAQA QO'SHIG'I

Egnimda ko'k ko'ylagim,
Vaq-vaqa-vaq.
Oldimda toshoynagim,
Vaq-vaqa-vaq.



Kulcha ekan yuzlarim,
Vaq-vaqa-vaq.
Shahlo ekan ko'zlarim,
Vaq-vaqa-vaq.



Usmon SHUKUROV

O'YNAYMIZ MUSOBAQA

— Qo'lingdagi toshingni
Otma bizga, hoy, bola,
Qara, qanday sho'x kuylar
Anov quvnoq, shalola.

Biz ham unga jo'r bo'lib,
Kuylayapmiz: vaq-vaqa.

— Unda toshni tashladim,
Ko'nglim emas, toshdaqa.

— Uyimiz shu hovuzcha,
 Nomimiz-chi, sho'x baqa.
 Kel, yaxshisi, suzishda
 O'ynaymiz musobaqa.

Aziz ABDURAZZOQ

O'RDAK VA BAQA


O'rdak sayrar "g'aq-g'aq" deb,
 Baqa sayrar "vaq-vaq" deb.
 O'rdak quvar baqani,
 "Boplay, — deb sendaqani, —
 Nimaga sen, tasqara,
 Meni qilding masxara?"

Ergash RAIMOV

G'ÖZCHALAR

Oppoq-oppoq ko'yvakda,
 O'ynab yurar ko'lmakda
 Aka-uka g'ozchalar.

Shamol g'ir-g'ir yelganda,
 O'xshashadi yelkanga
 Aka-uka g'ozchalar.





Bir-biriga mehribon,
Ajrashmaydi hech qachon
Aka-uka g'ozchalar.

“G‘aq-g‘aq” qo‘sish quylashar,
Suvda yayrab quvnashar
Aka-uka g'ozchalar.

Juda usta suzishga,
Bir-biridan o‘zishga
Aka-uka g'ozchalar.

Ulg‘ayishmoqchi tezda,
Suzishmoqchi dengizda
Aka-uka g'ozchalar.

Muhammadjon QO'SHOQOV

BOLALAR VA G‘OZLAR



Bolalar: — G‘ozlar, qo‘sish quylaysiz,
G‘oq-g‘oq-g‘oq.
Qayerlarda o‘ynaysiz,
G‘oq-g‘oq-g‘oq?

G‘ozlar: — Uchib-o‘ynab ko‘klarda,
G‘oq-g‘oq-g‘oq,
Cho‘milamiz ko‘llarda,
G‘oq-g‘oq-g‘oq.

Bolalar: — G‘ozlar, bizga aytингiz,
G‘oq-g‘oq-g‘oq.
Nega oppoq patingiz,
G‘oq-g‘oq-g‘oq?

G‘ozlar: — Chunki, suvlar to‘lqini,
 G‘oq-g‘oq-g‘oq,
 Bizni yuvar har kuni,
 G‘oq-g‘oq-g‘oq.

Bolalar: — Keling, o‘rtoq bo‘lamiz,
 G‘oq-g‘oq-g‘oq.

G‘ozlar: — Birga o‘ynab-kulamiz,
 G‘oq-g‘oq-g‘oq,
 G‘oq-g‘oq-g‘oq.

“QALBIM TO‘RI – SENIKI, TILI SHIRIN BIYRONIM...”

Onalar va bolalar haqida

Ergash RAIMOV

ALLA

Yiroq, yiroqlargacha,
 Olis qirg‘oqlargacha
 Oqshom cho‘kar, oppog‘im,
 Oy nur to‘kar, oppog‘im,
 Sening mitti yoshingda,
 Onajoning qoshingda.
 O‘rgilay, qo‘zim, uxla,
 Quralay ko‘zim, uxla.

Bahaybat tog‘lar uxlar,
 Uzumzor bog‘lar uxlar.






Qir-u o'tloqlar uxlар,
Obod qishloqlar uxlар.
Cho'qqida burgut uxlар,
Xotirjam el-yurt uxlар.
O'rgilay, qo'zim, uxla,
Quralay ko'zim, uxla.

Mehrim qo'ri – seniki,
Qalbim to'ri – seniki.
Tili shirin biyronim,
Senga qoqindiq jonio.
Elim, baxting – qo'riqching,
Buzilmasin hech tinching.
O'rgilay, qo'zim, uxla,
Quralay ko'zim, uxla.




Raim FARHODIY

QUYOSHJON



Quyosh osmonda kulib,
Chertar oynani kelib:
— Yetar uyqu, Savrioy,
Turgin, uyat bo'lar, voy!
Yuvin,
Kiyin,
Bo'l tezroq,
Men bilan yur, qizaloq!
Savri yotar burkab bosh,
Arazlab ketdi quyosh.
Muzlarni eritdi u,
O'ynab, toshib oqdi suv.
Shunda uyg'onar anhor,

Qo'liga olib dutor,
 Chala ketdi quvnoq kuy,
 Baliqlar boshladi to'y.
 Yo'l-yo'lakay quyoshjon,
 Dedi: — Hoy, bug'doy, uyg'on!
 Bo'lsa-da yum-yumaloq,
 Bordir unda qo'l-oyoq.
 Ko'zini ochdi shu choq,
 Chiqardi yashil yaproq.
 Quyosh qildi tabassum,
 Jo'jalar yorib tuxum,
 Uyg'ondi o'rdak, g'ozcha,
 Yuz-yuz tovuq, xo'rozcha.
 Dalada ma'rар uloq,
 Uyda miyovlar baroq.
 Butun yer,
 Butun olam
 Quyoshga yo'llar salom!
 Shovqindan,
 To'polondan
 Savri uyg'onmas hamon.
 Quyosh esa osmonda,
 Uyg'ota olmay hayron.
 Choyshabni burkab battar,
 U olamdan bexabar.



Ollobergan PO'LATOV

BORA QOL

Oppoqqinam,
 Och ko'zing.
 Tez yuva qol
 Qo'l-yuzing.



Bog'chasiga
Ichib choy,
Jo'nar opang
Gulchiroy.

Surib turma
Ko'p xayol,
Bog'changga tez
Bora qol.



Tolib YO'LDOSH

OYIM UYDA BO'LALAR

Oyim uyda bo'lalar,
Uyimiz to'lib ketar.
Dadam ishdan kelsalar,
Yana to'y bo'lib ketar.

Bo'lmasalar, ularning
O'rirlari yo'qlanar,
Hammamiz bir burchakda
Shodligimiz yo'qolar.

Kamol O'SAR

OYIJONIM

Kulcha yuzli
Munchoq ko'zli,
Shirin so'zli,
Erkatoym, —
Derlar meni
Oyijonim.

Ko'kda ko'rdim.
 Oy deb bildim.
 Sen-chun kuldim,
 Qo'zichog'im, —
 Derlar meni
 Oyijonim.

Gul bo'l, so'lma,
 Urush ko'rma.
 Yigit, o'lma,
 Ko'zmunchog'im, —
 Derlar meni
 Oyijonim.

Erkin MADRAHIMOV

O'ZIMNING ONAGINAM

Qo'shiq

Mehri misoli daryo,
 Qalbi to'la nur, ziyo,
 Ko'zlarimga to'tiyo —
 O'zimning onaginam.

Yuzin nuridan chunon
 Atrof bo'lar charog'on.
 Doim menga gиргиттон
 O'zimning onaginam.

Uningsiz o'tmas to'ylar,
 Baxtli ertamni o'ylar,
 Har oqshom ertak so'ylar
 O'zimning onaginam...



Tursunboy ADASHBOYEV

ONAJONIM

Ma'no to'la gapida,
O'ng qo'lida rapida,
Onajonim non yopar.

Chopar edim bog' ora,
Qo'lida singgi zog'ora,
Jonajonim non yopar.

...Jang borardi o'lkada,
Yurt tashvishi yelkada,
Charog'bonim non yopar.

Otam tishlagan patir,
Hamon mixda turadi...
Nurjahonim non yopar.

O'sha to'qochga moslab,
Zuvala uzib, rostlab,
Mehribonim non yopar.



Asom ZIYOMAT

MEN – OYIMGA YORDAMCHI

O'tin yorib taqillatib,
Suv qaynatib shaqillatib.
Sovun surtib,
Ko'pik bo'rtib,
Kir yuvaman,
Gard quvaman,
Men – oyimga yordamchi!

Oq choyshabni tekis yoyib,
 Yordam berar ukam Soyib.
 Izillatib,
 Jizillatib,
 Dazmollayman,
 Pardozlayman,
 Men — oyimga yordamchi.

Har bir ishda chaqqon, bardam,
 Ish qidirar ko'zim har dam.
 Oyim meni
 Olqishlaydi,
 Bor mehrini
 Bag'ishlaydi,
 Men — oyimga yordamchi.



Tolib YO'LDOSH

ONA

Oftobday kulib ona
 Qiziga oppog'im, der,
 Qizi oynaga qarab,
 Uyatidan bosar ter:
 — Nega, men oq emas-ku?
 Oppog'im, derlar oyim...
 Oqmi, qora — bolasi
 Onaga oppoq doim.

Raim FARHODIY

OQSHOM CHOG'IDA

Oqshom chog'ida
 Ko'kqarg'a xola
 Bolasiga der:
 — Oppog'im, bolam!


Oqshom chog'ida
Kirpixon xola
Bolasiga der:
— Yumshog'im, bolam!

Oqshom chog'ida
Janjalkashga ham
Onasi deydi:
— Sen — dono, bolam!

Po'lat MO'MIN

BUVIJONIM, BUVIJON

Oq paxtaday sochingiz,
Omon bo'lsin boshingiz,
Ayta qoling, buvijon,
Hozir qancha yoshingiz?



So'zlarining xo'p qiziq,
Yuzining nega chiziq?
Achomlasam, buvijon,
Bag'ringiz muncha issiq?

Dadamlarni boqqansiz,
Oyimlarga yoqqansiz.
Topishmog'-u ertakka,
Buvijonim, chaqqonsiz.

**“QO'RQMASLIK UCHUN...
QO'SHIQ AYTSANG, BAS...”**

Bolalar dunyosi

ZULFIYA

KAPALAK

Hulkar degan qizchaman,
Gul ichida o'saman.
Ko'kda uchsa kapalak,
Yo'llarini to'saman.

Unga deyman: “Hay, go'zal,
Borayapsan qayoqqa?
Pastga tusha qol bu gal,
Kelib qo'n bizning bog'ga...”

Kapalak rozi bo'ldi,
Kelib qo'ndi bog'imga.
Men ham unga tutdim gul,
Sig'mayin quchog'imga...”

Kapalak xursand bo'ldi,
Sevinib, qanot qoqdi.
Dedi: “Endi ketmayman,
Bog'ing menga ko'p yoqdi”.

O'ynadik oqshomgacha,
Quyosh uyiga ketdi.
So'ng dedim kapalakka:
“Uxlamoqqa vaqt yetdi.



Toza o'y nab charchadik,
Endi uxbab orom ol.
Men ham uxlashga yotay,
O'rtoqjonim, yaxshi qol".

Hamid OLIMJON

LOLA

Lola bog'chaga chiqib,
Kechga qadar gul terdi.
Etak-etak to'pladi,
Har kungidan mo'l terdi.



Sochiga gul bog'ladi,
Chakkasiga taqdi gul.
Yelkalaridan tashlab
Gulga ko'mildi butkul.

So'ngra uyga keldi-yu,
Birpas yotib dam oldi.
Kiprigi yumildi-yu,
Gul kabi uxbab qoldi.

Umida ABDUAZIMOVA

YOMG'IR

Yomg'ir, yomg'ir, shaloplاب
Loyqalatting bulog'im!
Opamga aytay,
Boplab
Cho'zib qo'ysin qulog'ing...



Qutlibeka Rahimboyeva. Bahor

Erkin VOHIDOV

UKAMNING “JANGI”

Ukam minib “saman ot”ini,
 “Qilich” ushlab chiqibdi jangga.
 Beshta dushman samolyotini
 Yiqitdim, deb maqtandi menga.

Avvaliga kuldim rosa ham,
 Hazildir deb ukam so‘zлari.
 So‘ng hovliga chiqib qarasam,
 Yotar edi besh o‘lik ari.



Hamza IMONBERDIYEV

SIR

Ukasining qaymog‘ini
 Ayyor Sayyor yeb qo‘ydi.
 So‘ngra: — Jo‘ra, oyimga
 Aytma, xo‘pmi, — deb qo‘ydi.
 Oqshom Jo‘ra maqtanar:
 — Men va’damdan qaytmayman.
 Akam qaymoq yeganin,
 Oyi, sizga aytmayman.

KIMGA SHAPALOQ?

Mana, shaftoli,
 Yeysanlar hali.
 — Men yey, — der Yo‘ldosh. —
 Qornim juda och.

 — Hoy, Tosh, ma, uzum,
 Buni ye o‘zing.
 — Men yey, — der Yo‘ldosh. —




Bilsangiz, ada,
Qornim juda och.

— Kim yer bir tovoq
“Shirin” shapaloq?

— Men ye... a?

Yo‘q, yo‘q,
Qornim to‘q.
Mayli, bunisin
Tosh yeya qolsin.
Bir to‘yib olsin!



Husanjon AMINOV

ACHCHIG'I CHIQDI

Suvga qarmoq tashlagancha
Salim turar qirg‘oqda.
Baliqchalar ilinmasa,
Der:
— Hammasi qo‘rkoq-da!

Muqimjon QODIROV



OG‘IR SO‘Z

Ol menda bor o‘yinchoqni,
Samolyot-u fil, toychoqni.
Senga koptok, tank, kema,
Faqat qizg‘anchiq dema!

DOVYURAKLAR

— Cho‘milyapmiz
Maza qilib!
Qo‘rkoqlarni
Izza qilib!

Dovyurakmiz,
Qara, biz!
Cho'ng tog'ora —
Zo'r hovuz.

Abdurahmon AKBAR

BOTIRLIKNING SIRI

— Seni botir, deb
Maqtadi Hasan.
Tunlari qo'rqlmay
Qanday yurasan?

— Qo'rqlmaslik uchun
Hamroh shart emas.
Baland ovozda
Qo'shiq aytsang, bas.

Tursunboy ADASHBOYEV

QO'G'IRCHOG'IN AVAYLAB

Ariqdan o'tayotib,
Gulnora toyib ketdi.
“Muncha anqaydim”, — deya
O'zini koyib ketdi.

O'rnidan turib darhol,
Ko'ylaklarini qoqdi.
So'ngra qo'g'irchog'iga
Mehr-la kulib boqdi.

— Voy, qattiq yiqildingmi,
Ko'zlari munchoqqinam?
Boshing toshga tegdimi?
Yig'lama, oppoqqinam.




Po'lat MO'MIN

BO'SHASHMAYMAN

Bo'shashmayman,
Ishga shayman,
Bo'shashsa kim,
O'tirsa jim,
Uni ko'plar
Turtib o'tar,
Shuning uchun
O'zim har kun
Chiniqaman,
Kuch yig'aman
Bilagimga,
Yuragimga.
Bo'shashmayman,
Ishga shayman!

Safar BARNOYEV

UYQU QAYDAN KELADI?



Nevaramdan so'radim:
— Bu sirni kim biladi,
Uyqu degan uyimizga
Qay teshikdan keladi?
Mening bu savolimga
Birdan qoldi angrayib.
So'ngra kulib dedi u,
Qashib turib manglayin:
— Oppoq dada, uyqu degan
Ko'rsatmaydi qorasin.
Izlasangiz, topasiz,
Ko'rpa-to'shak orasin.

Abdusaid KO'CHIMOV

TOPIB KELAMAN

Buvi:

— Hech uyqum kelmayapti,
Endi nima qilaman?

Nevara:

— Qaydaligin aytsangiz,
Hozir topib kelaman.

Temur UBAYDULLO

ARI

O'pkasini tutolmay
Yig'lab kirdi-da Dildor,
Gapin to'la aytolmay:
“Ari... ari”, — der takror.

— Voy, ari qursin, qachon
Chaqdi sen do'm bog'imni?
— Meni emas, oyijon,
Chaqdi qo'g'irchog'imni!..



Muhammadjon QO'SHOQOV

DO'STLAR UCHUN

Suv bo'yiga
Ekdim jiyda.
Bargi kumush,
Go'zal juda.

Gullar bir kun,
Har gul — tugun,
Meva tugar
Do'stlar uchun.

Tolib YO'L DOSH

QO'G'IRCHOG'IM O'YNASIN



Yoqalari tugmali,
Etaklari burmali
Ko'y lagi xo'p yarashgan
Qo'g'irchog'im o'ynasin.

Sochi jingalak bola,
Yuzlari qizil lola.
Ko'rgan hamma qaragan
Qo'g'irchog'im o'ynasin.

Qizaloqlar havasda,
Kimdir baland, kim pastda,
Berkinib, mo'ralashgan,
Qo'g'irchog'im o'ynasin.

Oydin HOJIYEVA

"DULDUL" OT

— Voy, bilasanmi, Dilshod,
Tug'ilgan kunim dadam
Sovg'a qildi menga ot.
Otmisan — ot, chinakam.

O'ng qulog'in burasam,
Sahrolardan oshadi,
Chap qulog'in burasam,
Daryolardan oshadi.

Tog' uchrasa, tog' nima,
Bir tislansa, o'tadi.

Qamchi bosgan chog'imda,
“TU”dan o‘zib ketadi...


Havasdan ko‘zi yonib:
 — Ko‘raylik, — dedi Dilshod.
 — Dadam kelsin, ko‘tarib
 Olib chiqaman, — der Farhod.

“YONG‘INLARGA QARSHIMIZ...”

Umarali QURBONOV

GUGURT

Jajjigina
 Boshim bor.
 O‘zimga xos
 Ishim bor.
 O‘yinchoq deb
 Boqmangiz.
 Behudaga chaqmangiz.
 Ishlatinglar
 Aql-la,
 Qo‘lga olmang
 Jahl-la!



Qambar OTA

GUGURT

Bir qutida oltmis cho‘p,
 Turibmiz bo‘lib to‘p-to‘p.
 Hammamiz o‘tyurakmiz,
 Odamlarga kerakmiz.

Bizni chaqib o'ynamang,
Ermak qilib o'ynamang,
O't bo'lsak ham garchi biz,
Yong'inlarga qarshimiz.

Muhammadjon QO'SHOQOV

SVETOFOR SO'ZI


— Hoy, ko'chamiz ustida
Chaqnab turgan ko'k fonar,
Nega yalt-yult yonasan?
Bizga qanday foydang bor?

Fonar asta jilmayib,
Dedi: — O'zing sinab ko'r.
Bilsang, mening otimni
Deyishadi svetofor.

Uchta chaqnoq ko'zim bor:
Qizil, yashil, sap-sariq.
Yashil ko'zim chaqnasa,
Demak, bilki, yo'l ochiq.

Qizil ko'zim chaqnasa,
Yo'l bekilar tappa-taq.
Sariq ko'zim chaqnasa,
Biroz kutgin hamma vaqt.

Ko'zlarimga, og'ayni,
Nazar tashla hamisha.
Ko'chalardan o'tganda,
Kapalakdek shoshilma!



Jahon bolalar she'riyati

Grigore VIERU,
Moldaviya

BAHOR

Uyg'ondi nafis maysa,
Uyga qaytdi qaldirg'och.
Nam tuproq karaxt hali,
Irmoqlar otar quloch.
Yashil bog'da o'rik ham
Ochilib ketdi yashnab.
Otilib chiqdi quyosh,
Qaynoq tuxumga o'xshab.



Aleksandr BLOK,
Rossiya

YOZ OQSHOMI

Shafaqning eng so'nggi nurlari
Javdar xirmon ustiga qo'nar.
Shom tushib, qosh qoraygan sari
Maysalar tinch uyquga cho'mar.

Shamol yotgan, qushlar – inida,
Oy terak shoxiga ilindi.
Oqshom sukunati qo'ynida
O'roqchi qiz qo'shig'i tindi...

Shtefen TUDOR,
Moldaviya

ONAM HAQIDA

Bu dunyoda onamlardek
Menga aziz inson yo'q.
Yiroq ketsa, ko'zlarimni
Ololmayman ko'zidan.

Onam shunday mehribonki,
Onam shunday muniski,
Bog'ga kirsa, atirgullar
O'pa boshlar qo'lidan.

Qodir MIRZOALIYEV,
Qozog'iston



ISQIRT BOLA

Isqirt bola, isqirtsan,
Tozamassan — kir-chirisan,
Oqni qora etasan,
Kiyim-boshing yirtasan.
Kirdan ola-bulasan,
Qachon toza bo'lasan?!

ERINCHOQ

Erinchoqmi, erinchoq,
Unga odat kerishmoq.
Ovqat yeyar,
Choy ichar,
Qolganini kim yig'ar?
Qo'l uzatsa kim agar,
Ko'rishmakka erinar.

Shaukat GALIYEV,
Tatariston

BAQIROQ

Yig'layotgan kim o'zi?
 Kim o'zi u baqiroq?
 Og'zi buncha ochiq-a,
 Bitay dedi-ku quloq.
 Ehtimol, u ayiqdir,
 Dodlar topa olmay bol?
 Balki it qopgan uni,
 Ari chaqqan ehtimol?
 Yo'q, yo'q, u ayiq emas,
 Tishlamagan uni it.
 Sochini oldiryapti
 Bor-yo'g'i bizning Rashid.

Turar XO'JAMBERDIYEV,
Qirg'iziston

CHUMOLI

Havo issiq,
 Yo'l xoli.
 Ishga borar
 Chumoli.
 Uyon, buyon
 Bo'ylaydi.
 Tugmani
 Olib qo'lga,
 Tashladim uni
 Yo'lga.
 Tog' ekan deb
 O'yaldi.





Vardeges BABAYAN,
Armaniston

YALQOV MUSHUK

Qo'shnimizning mushugi
Yursa-tursa mudraydi.
O'ta yalqov, erinchoq,
Dumin arang sudraydi.



Chunki uyqu band etgan
Uning fikr-u yodini.
Kampir koyir: — Bersang-chi,
Sichqonlarning dodini!

Sichqon so'zlar burchakdan
Sal ko'tarib boshini:
— Mushuk polvon dam olsin,
Uyg'otmanglar shoshilib...

Valentin BERESTOV,
Rossiya

ERTA TONGDA

Erta tongda,
Erta tongda
Baliq ovi bo'lar soz.

Erta tongda,
Erta tongda
Bulbul kuylar xushovoz.

Erta tongda,
Erta tongda
Quyosh yerni oqlaydi.

Erta tongda
Faqatgina
Dangasalar uxlaydi.

Nil GILEVICH,
Belorussiya

ASIR TUSHGAN CHIGIRTKA

Yasvoy chigirtka tutdi —
Rosa bir soat ketdi.
Qutichaga kiritdi:
— Kuyla, o'rtoqjon, endi!

Jimib qolding, chiqar un,
Chirillarding tun-u kun.
Tushunmayman, ne uchun
Kuylamaysan men uchun?



Tor qafasga tushganday
Chigirtka ko'p xafaqon:
— Joyidami hushing, hay!
Qanday kuylay, o'rtoqjon?

Do'stlarimsiz ko'p og'ir,
Tutqunlikda kuylamoq.
Tezroq qo'yib yuborgin
O'tloqzorga, ey, o'rtoq!

Ona o'lkamdan bo'lak
Aziz joy yo'q, sen tushun!
Mehmon bo'lib kel, ko'plab
Qo'shiq aytay sen uchun.

Lyudmila BARBAS,
Rossiya

QIZIQ ODAM

Ko'rdim qiziq odamni,
Yedi bir qop bodomni.
Yarim chelak ichdi sut,
So'ngra yedi o'nta tort.
Yarim vagon kolbasa
Yo'q bo'libdi, qarasak.
Shundaylikka-ku, shundoq,
Biroq undan mushukcha Baroq
Tilab ololmas uvoq.

O'zbek bolalar hikoyalari

Normurod NORQOBILOV

DO'ST

Nosirning Mutual akasi — taniqli bokschi. Katta uyning to'ridagi baland javon u turli mamlakatlarda, turli musobaqalarda qo'lga kiritgan sovrinlar bilan liq to'la. Mutual akasi ertalab, ko'pincha oqshomlari hovli to'ridagi o'rik shoxiga osilgan qopni do'pposlab, uncha-muncha odam o'rnidan jildirol-maydigan toshlarni ko'tarib, mashq qiladi.

Nosir bokschining ukasi sifatida g'ururlanishni yoqtirsa-da, lekin akasidek bokschi bo'lishni hech xayoliga keltirmagandi. Keyin birdan...

Bungacha u avval rassomlikka havas qo'ydi. Olti yoshga to'lishi munosabati bilan onasi sovg'a qilgan rangli qalamlarda og'zini katta ochib, kulib turgan bolaning suratlarini chizib yurdi. So'ng bog'bonlikka havas qo'ydi. Uning bu havasi hovli etagidagi gulzordan bir nechta atirgulni chopish bilan yakunlandi. Bir kuni u uchuvchilarning qahramonliklarini ko'rib, uchuvchi bo'lishga ahd qildi. Yurganda ham, turganda ham samolyotga o'xshab g'uvillayverib, uydagliarni bezor qildi. So'ng... so'ng bundan ham hafsalasi sovidi. Ana shunday kunlarning birida u birdan zo'r bokschi bo'lishga qaror qildi. Hovliga chiqib, o'rik tagiga bordi. Akasidek mashq qilmoqchi edi, bo'yi qopga yetmadi. Kech-qurun akasiga dedi:

- Men bokschi bo'lmoqchiman.
- Juda soz, — dedi akasi mammun jilmayib. — Yaxshi sportchi bo'lish uchun ko'p mashq qilish, ko'p ter to'kish kerak.
- Mashq qilmoqchi edim, qopga bo'yim yetmadi, — dedi Nosir. Mutual akasi kulimsiraganicha chorboqqa chiqib ketdi...

Ko'p o'tmay, hovlidan turib ovoz berdi: "Nosir, bu yoqqa kel!".

U akasining yoniga yugurib borib, o'zida yo'q quvonib ketdi. Akasi o'rikka uning bo'yiga moslab "qop"cha osgandi. Nosir u tutqazgan qo'lqopni shoshapisha kiyib, qopga yaqin bordi-yu, qo'llari o'z-o'zidan shalvirab pastga tushdi. Qop deb o'ylagani bir paytlar sevimli o'yinchog'i bo'lgan paxmoq ayiqchasi

edi. U to'rxaltada "meni urma", degandek shisha ko'zlarini mo'ladiratib turardi. Nosir o'yinchog'iga birpas qarab turdi-da, akasidan uni olib berishni so'radi.

— Nega? Axir, bu senbop qop-ku! Bemalol mashq qilaver.

— Yo'q! — dedi Nosir jiddiy. — U — mening do'stim!

Akasi o'yinchoqni to'rxaltadan bo'shatishga majbur bo'ldi. Nosir uni bag'-riga mahkam bosib, uy tomon ketdi.

Yayra SA'DULLAYEVA

G'ISHT

Ravshanlarning hovlisiga yaqin joyda yangi uy qurilibdi. U taxta devor bilan o'ralgan, lekin orqasidan odamlar bemalol kirib chiqaverishadi. Ravshan u yerga sira kirmagan. O'rtoqlari bilan o'ynab yurib, qurilishni ko'rgisi keldi. Dam olish kuni bo'lgani uchun qurilish huvillab yotibdi.

Ravshan doim "mayna" degan ovoz kelib turadigan haybatli kranning oldiga yaqin bordi. Uning eng uchiga qaragan edi, do'ppisi tushib ketdi. Keyin nariroqdagi tog' barobar uyib qo'yilgan g'ishtlar yoniga borib, tomosha qildi. Dadasi hovlining etagida buvisiga uy qurayotgan edi. Uning "G'isht yetmayapti", — degan so'zlari qulog'iga kргandi. Mana, g'isht. Shu yerdan olib ketsa bo'lmaydimi? Hozir uning dadasiga, yangi uying bitishini anchadan beri kutayotgan buvisiga rahmi kelib ketdi. O'rtoqlari bilan bittalab tashishsa ham, ancha-muncha tashib qo'yishadi.

Shu fikr bilan Ravshan ikkita g'ishtni ustmaust qo'yib, ko'tarmoqchi edi, og'irlik qildi.

Bittasini olib, pildirab keta boshladи. Lekin besh-olti qadam yurgach, to'xtab qoldi. Ravshan sal ikkilaniб, oldinga yana bir qadam tashladi. Yana to'xtadi. Birdan esiga televizorda ko'rgan multfilmi tushdi. Birovning polizidan maykasini to'ldirib bodring olgan bola, qorovulning miltig'i, oyisining koyishi...

Ravshan sergak tortdi. Shart burilib, orqasiga qaytdi... G'isht bizlarnikimas-ku. Men olib ketsam, o'rtoqlarim olib ketsa... Bog'cha opamiz: "Birovning



narsasiga tegmanglar”, — deganlar-ku!” Ravshan g‘ishtni joyiga qo‘ydi. Qo‘lini qoqib, o‘rtoqlari yoniga yugurib ketdi.

Farhod MUSAJONOV

YAXSHILIK

Fazliddin o‘rtog‘i Nabi bilan ko‘chada o‘ynab yurardi. Shu payt qo‘snilari Normamat boboning kelayotganini ko‘rib qoldi. Cholning qo‘lida tugunchasi ham bor edi. Fazliddin hovliqib, o‘rtog‘iga kerildi:

— Hozir-chi, men borib Normamat bobomlarga yordam beraman. Bilasan-mi... men doim qariyalarga yordam beraman. Meni Normamat bobo juda yaxshi ko‘radilar. Ishonmasang, men bilan yurgin, o‘zing ko‘rasan.

Bolalarga yaqinlashib kelgan Normamat bobo Fazliddinning so‘zlarini eshitdi chog‘i, miyig‘ida jilmayib qo‘ydi. Fazliddin boboning oldiga yugurib bordi va uning qo‘lidan tugunchasini oldi.

— Bobo, keling yordamlashib yuboray, sizga doim yordam beraman-a? — so‘radi Fazliddin, Nabi eshitishi uchun jo‘rttaga baqirib.

— Ha, har doim yordam berasan, — boshini liqillatib tasdiqladi Normamat bobo.

Fazliddin oldinda, Normamat bobo orqada, yo‘lga tushdilar.

Uyiga yetganidan keyin Normamat bobo Fazliddinning qo‘lidan tugunchani oldi. Lekin har galgidek “Barakalla, bo‘talog‘im, odobli bola ekansan”, deb maqtamadi. Faqat quruqqina qilib: “Rahmat“, — dedi va engashib Fazliddinning qulog‘iga allanarsalar deb pichirladi. Keyin kulimsiraganicha uyiga kirib ketdi.

Fazliddin noqulay ahvolga tushib qoldi. Labini tishlab, chap oyog‘i bilan yer chizdi. Uning yoniga yugurib o‘rtog‘i keldi.

— Ha, nega nafasing ichingga tushib ketdi? — so‘radi Nabi. — Normamat bobo nima dedilar?

Fazliddin boshini ko‘tarolmasdi.

— Nega indamaysan?

— Yaxshilik qil, lekin ketidan maqtanib, uni yuvib yuborma, — dedilar Normamat bobo, — zo‘rg‘a javob berdi Fazliddin.

Hakim NAZIR

PALTOCHA

Qahraton qish. Oynaday muzlagan asfalt ko'cha. Uning chetida bir kampir diydiragancha turib, o'tgan mashinalarga qo'l ko'taradi. Uzoqdan bo'sh mashina ko'ringandi, kampir sirg'ana-sirg'ana uning qarshisiga chiqdi. "Volga" g'iyyillagancha siypanib to'xtadi. Kabinadan haydovchining barmoq o'qtalib bo'g'ilgancha allanima degani eshitildi. Jonholatda kampir mashinaga yopishdi, yalinib-yolvorgach, basavlat kiyangan haydovchi ilojsiz eshikni ochdi.

— Qayerga borasiz, xolamoyi?

Shartta mashinaga o'tirib olgan kampir uzoqqa imo qildi.

— Vaqtim ziq, xolamoyi. Tushadigan joyingizni ayting.

— Esginam qursin, — deb kampir peshonasiga urdi. U bundan bir soatcha burun allaqaysi avtobus bekatida sumkasini unutib qoldirgan ekan, shuni yig'lamoqdan beri bo'lib gapirdi.

— Sumkada nimalar bor edi, xolamoyi?

— Yangi paltocha, yana boshqa mayda-chuydalar...

— Vey, qoldirgan joyingizda turarmidi. Boshko'zingizdan sadaqa endi. Sumkangizda tilla yo'q ekan-ku, ishqilib!

Kampirning gumoni oshib, yuragi achishdi:

— Bugun nevaramning tug'ilgan kuni.

Paltochani maktabga kiyib bormoqchiydi.

— O'sha bekatda odam ko'pmidi, xolamoyi?

— U yonimda bir kishi, bu yonimda yelkasiga papka osgan qizaloq o'tiruvdi.

— Ko'rsangiz, taniysizmi o'sha bekatni?

Kampir indamay har tarafga alangladi. Haydovchining toqati toq bo'ldi.

— Ortiq olib yurolmayman ko'chama-ko'cha, xolamoyi. Vokzalga chiqib ketyapman.

— Tag'in ozroq yur, jon bolam, manavi ko'chaga, — deya turib, kampir birdan qichqirib yubordi. — Ana, ana shu.

U cho'ntagidan pul chiqardi-da, haydovchining yoniga tashladı. Haydovchi



buni bilmaganga olib, kampirni mashinadan tushirdi. Ko'k soyabon ostidagi skameykada o'n yoshli chamasi qizcha yelkasida papka, tizzasida jigarrang sumkani quchoqlaganicha diydirab o'tirardi. Kampir inqillab-sinqillab bordi-yu, qizchani bag'riga bosdi. Ko'karib ketgan betlarini silab-siypab:

— Voy, umringdan baraka topkur, tasaddug'ing ketay, bolajonim-e, yaxshiyam sen borsan-a! — deya duo qila ketdi.

— Hali avtobusga chiqayotganingizda ketingizdan sumkani oborgan edim, qaramasdan ketib qoldingiz, — dedi qizcha.

— Esginam qursin, — deb kampir duxoba paltosi cho'ntagidan bir so'm chiqarib qizga uzatdi. Qizcha xuddi xunuk narsaga ko'zi tushganday ijirg'andi, pulni olmasdan kampirning betiga "nima uchun?" deganday kinoyali qarab qo'ydi-da, yo'lakdan pildirab jo'nadi. Kampir uning ketidan:

— Munchayam orli, tortinchoq bo'lmasang, hoy, qiz, otingni ham ayt-mading-a, — deb angraygancha qoldi.

Nurxon RAIMOVA

YALPIZ

Zebo bog'chadan kelishi bilan oyisi:

— Qizim, yalpiz terib kelsang-chi, ko'k somsa qilib berardim, — dedi. Zebo savatchasini olib ko'chaga chiqdi. Ariq labiga bordi. Endi yalpiz tera boshlagan edi, dugonasi Dildora kelib qoldi.

— Nima qilyapsan? — deb so'radi u.
— Yalpiz teryapman, kel, birga teramiz.
— Ho, qo'lim kir bo'lib qolsinmi?

Sal nariroqda ariqdan suv olayotgan qo'shni ayol ularning gapini eshitib qoldi. Paqirni yerga qo'ydi-da, yaqin keldi.

— Aylanay, qizim, yalpiz teryapsanmi? — dedi Zeboga va savatchadan yalpiz olib ko'ziga surtdi. — Bahor qanday yaxshi-ya!

Zebo suyunib ketdi...

Ayting-chi, bolalar, Zebo nega suyundi?



Sunnatulla ANORBOYEV

QORBOBO SOQCHI

Ulug'bek archa yasatdi. Bunga siz ajablanarsiz. Ulug'bek endi to'rt yoshta kirgan, kichkina bola bo'lsa-yu, qanday qilib archa yasata oladi dersiz? Chin gap. Ulug'bek ham archa yasatdi: u karton quti ichidan o'yinchoqlarni bittabitta olib, oyisiga uzatib turdi. Oyisi esa ularni archaning shoxlariga ildi. Ulug'bek bunday qarasa, o'zining laychasiga o'xshagan kuchukcha filning shundoq tagida turibdi. Ulug'bek hayvonot bog'iga oyisi bilan borganida chinakam filni ko'rgan: burni xariday, o'zi uyday.

— Oyi, fil tushib ketsa, kuchukni bosib qoladi-ku? — dedi kuchukka rahmi kelib.

Oyisi kului-da, kuchukni olib, filning orqa tomoniga osib qo'ydi.

— Vu-uy, kuchuk filga vovillayapti! — quvonganidan chapak chalib yubordi Ulug'bek.

Archani yasatib bo'lishdi. Ostiga paxta solishdi. Bilmagan odam qor deb o'ylaydi. Oppoq. Keyin Qorboboni o'rnatib qo'yishdi.

Ulug'bek archani aylanib tomosha qila boshladi: Bir chiroyli! Ana yam-yashil bodring. Anovi — bir tomoni sariq, bir tomoni qizil nashvati. Narigisi — shaftoli bilan olma... Qog'ozli muzqaymoq ham bor. Ulug'bek ularga qarab "qult" etib yutindi: "Vuy-y, yulduzlar ham yondi".

— Endi uxlaymiz. Ertaga o'rtoqlaring kelishganda birga o'ynaysizlar, — dedi oyisi. Ulug'bek archaga qaray-qaray ichkariga kirib ketdi.

U o'rniga yotib, ko'zini yumdi. Nimanidir o'yladimi, boshini ko'tardi:

— Oyi!

Allanarsa tikib o'tirgan oyisi unga qaradi.

— Miltig'imni Qorboboga berib qo'ysak bo'lar edi, — dedi Ulug'bek xavotir olganday.



- Nega?
- Kecha laycha mening botinkamni hovliga olib chiqib tashlabdi-ku! Olma, muzqaymoqlarni o'shanaqa qilmasin tag'in!
- Mayli, — dedi oyisi unga.

Ulug'bek sakrab o'rnidan turdi. Karovatining bosh tomonida turgan miltiq-chani Qorboboga ushlatib qo'ydi. Qorbobo soqchi turdi. Ulug'bek qaytib kirib o'rniga yotdi-yu, sal o'tmay uxlab qoldi.

Zamira IBROHIMOVA

AZAMAT VA G'UNCHA

Bir kuni Azamatning dadasi tuvakda o'stirilgan gul olib keldi. Azamat juda xursand bo'ldi. Barglari yashil va qizg'ish, tani tikonsiz gulning atrofidan hech ketgisi kelmadi. Uni har tomonidan tomosha qildi. Qarasa, gulning kichkina g'unchasi bor ekan. Azamat g'unchaga juda qiziqib qoldi. Uni uzib olmoqchi bo'lib, qo'llarini bir necha bor uzatdi, lekin yuragi dov bermadi. Axir, dadasi gulni yaxshi ko'rgani uchun uyga olib kelgan-ku. Yomon bolalargina otanasing ruxsatsiz ish qiladi. Azamat esa yaxshi bola.

Azamatning harakatlarini kuzatib turgan dadasi uning oldiga keldi.

- Nima qilmoqchisan, o'g'lim? — deb so'radi.
- Buni qarang, tugmachasi bor ekan, — dedi Azamat jajji barmog'ini g'unchaga uzatib.

Dadasi kulib: — Yo'q. Bu tugmachasi emas. Bu — gulning g'unchasi, — dedi.

Azamat hayron bo'lib:

- Guli qani? — deb so'radi.

Dadasi miyig'ida kulib, biroz o'yladi-da:

- Gul ochilguncha kichkina g'uncha bo'ladi. Unga yaxshi qarasang, vaqtida suv bersang, g'uncha sekin-sekin katta bo'ladi. Keyin



“Bu bola juda yaxshi bola ekan, qani, uni bir ko‘ray-chi”, — deydi-da, ko‘zlarini ochib, senga qaraydi, dedi.

Azamat biroz o‘ylanib qoldi. Keyin dadasingin yuziga qarab:

— Dada, gulning og‘zi yo‘q-ku, suvni qanday ichadi? — deb so‘radi. Dadasi tushuntira boshladi: — Gullarning, daraxtlarning og‘zi bo‘lmaydi. Ularning ildizlari bo‘ladi. Ko‘rdingmi, tuvakning ichiga tuproq solingan. Shu tuproqning orasida gulning ingichka-ingichka, uzun-uzun ildizlari bor. Sen tuvakka suv quysang, gulning ildizlari mazza qilib ichadi-da, g‘unchasi ko‘zini ochadi.

Azamat:

— Ha, endi men har doim suv quyaman, — dedi-da, yugurbanicha oshxonaga kirib ketdi. U piyoladagi to‘la suvni to‘ka-to‘ka dadasi yoniga keldi. Dadasi piyoladagi suvdan ozginasini tuvakka quyib bo‘lgach:

— O‘g‘lim, gulga suvni har kuni bir marta, ertalab bersang, gul sendan xursand bo‘ladi, — deb uqtirdi.

Shu kundan boshlab Azamat gulni parvarish qilishga kirishdi. Lekin g‘uncha bir kun o‘tdi, ochilmadi, ikki kun o‘tdi, ochilmadi. Azamatning toqati-toq bo‘la boshladi. “Nega ochilmayapti, balki suvga qorni to‘ymayaptimi?”, — deb o‘yladi. Shunday xayollar bilan gulga beriladigan suvga non ham qo‘shtmoqchi bo‘ldi, onasi gulning non yemasligini aytgach, u bu niyatidan qaytdi.

Azamat bog‘chada o‘yinchoqlari bilan ham, o‘rtoqlari bilan ham tuzukroq o‘ynamay qo‘ydi. Uning ko‘z o‘ngidan tuvakdagi guli hech ketmasdi.

U bugun ham “G‘uncha ochildimi, ochilgan bo‘lsa meni qidirgandir”, degan xayollar bilan kech kirishini sabrsizlik bilan kutdi. Yon qo‘snilari Botirning opasi bilan bog‘chadan uyiga qaytdi. Azamat ostonada tuflisini yechidda, gul turgan xonaga yugurib kirdi. Tuvakdagi gulning g‘unchasi hali ham ochilmay, xo‘mrayib turardi. Azamat chiday olmadi, yer tepinib yig‘lay boshladi.

— Nega g‘uncha ko‘zini ochmadi? — deb so‘radi onasidan.

Onasi o‘g‘lini erkalab, boshini ko‘ksiga bosdi-da:

— Yig‘lama, toychog‘im! Gulning g‘unchasi bolalarga o‘xshab kam uxlamaydi. Ular juda ko‘p uxlaydi. Agar uyquga to‘ymasa, ochilmaydi. Yur, yuz-qo‘lingni yuvib ol. G‘unchani xafa qilma, u, albatta, uyg‘onadi...

Azamat bugun ham ertalab turishi bilanoq gul turgan xonaga kirdi. Kirdi-

yu, sevinchidan ko'zlaricha qaqnab ketdi. G'uncha ochilibdi. Azamatga: "Hali sen shunaqa yaxshi bolamisan?" — deganday jilmayib qarab turardi.

— Oyi, dada, g'uncha uyg'onibdi, ana, ana! — deya Azamat sakrab-sakrab qo'yadi. Dadasi o'g'lini quchib, gulga qaradi-da:

— Azamat, qara, o'g'lim, guling yana bir g'uncha qilibdi, — dedi.

Qizg'ish gul shoxining uchginasidagi g'unchaniga ko'rgan Azamat hayron bo'lib:

— Voy, dada, bu g'uncha qayerdan keldi? — dedi.

— Ochilgan g'uncha seni yaxshi ko'rib qolibdi. Chunki sen unga yaxshi qarading, suv quyishni unutmading. Shuning uchun u: "Azamat juda yaxshi bola ekan, kel, birga yashaymiz", — deb o'z o'rtog'ini ham chaqiribdi. Sen gulga yana ham yaxshi qarasang, ular yana juda ko'p o'rtoqlarini chaqirishadi, — dedi dadasi. Dadasining bu gapi Azamatning sevinchiga sevinch qo'shdi. U gulga qarab, gulday yashnab ketdi.

Latif MAHMUDOV

BARNO BILAN BUVISI

Barnoning buvisi:

— Bir qoshiq achchiqqina sho'rva qila qoling, kelin, — dedi.

Ovqat pishar mahalda nima ham bo'lib Barno oshxonaga kirgan edi, qozonga ko'zi tushib:

— Oyi, — dedi hayron bo'lib.

— Nima, qizim?

— Nega buvimning aytganlarini qilmadingiz?

— Voy, ana, — dedi oyisi. — Sho'rva qilyapman-ku.

Barno labini burib oyisiga qaradi:

— Buvim bir qoshiq sho'rva qilgin desalar, siz bir qozon sho'rva qilyapsiz-ku!

BARNO

Barnoostonaga chiqib, oftobda isinib o'tirgan edi, Munira o'rtog'i chelakcha ko'tarib uyidan chiqib qoldi. Barnoga qaradi-yu, indamay ariqdan suv olib kirib ketdi. Birpasdan keyin yana chiqdi. Yana ariqqa chelakchasini botirib, kirib ketayotgan edi, Barno o'rnidan turib oldiga bordi.

- Munira?
- Ha...
- Nega indamaysan?

— Ish qilyapman, — dedi Munira va zing'illagancha uyiga kirib ketdi. Barno hayron bo'lib, uning orqasidan qarab qoldi. Ostonaga kelib yana oftobda isinib o'tirdi. Munirani kutdi. Munira chiqmadi. Anchadan keyin Muniraning eshigi "g'iyq" etib ochildi. Barno qarasa, qiya ochiq eshikdan Munira mo'ralab turibdi. Barno oldiga bormoqchi bo'lib, o'rnidan turgan edi, Munira taq etib, eshikni yopib oldi. Barno nima qilishni bilmay, ko'chaning o'rtasida turib qoldi. Keyin sekin Muniraning eshigiga bordi. Bir ko'zi bilan eshikning kalit solinadigan teshikchasiдан mo'ralasa, Munira tesha bilan halloslab yer chopyapti. Barno hayron bo'ldi. Ikkinchı ko'zi bilan yana qaradi.

Munira teshani bir chetga uloqtirib, yumshagan yerni qo'li bilan kovladi. Keyin chelakdag'i suvni qo'ydi. O'rnidan turib ko'chaga chiqa boshladı. Barno orqasiga qaytdi. Hovliga kirdi. Eshikni qiya ochib, mo'ralab turdi. Ko'zlari olakula bo'lib, ko'chaga Munira chiqdi. Barnolarning eshigiga, ko'chaning boshiga qaradi — hech kim yo'q. Yo'l yoqasiga chiroyli qilib ekilgan gullarning atrofida aylana boshladı. Barnolarnikiga yana qarab oldi-da, ko'chadagi bir tup gulsafsarni tag-tugi bilan yulib, uyiga qochib kirib ketdi. Barno turgan yerida qotib qoldi. Shu topda Munira uning ko'ziga juda-juda yomon ko'rinib ketdi. Barno bo'sashib, lunjlari osilib, oshxonaga, buvisining oldiga keldi.

- Ha, nima bo'ldi, qizim?
- Munira o'g'ri ekan, — dedi Barno va to'satdan ho'ngrab yig'lab yubordi. Buvisi hayron bo'lib, Barnoga qarab qoldi.
- Voy, o'lmasam, bu nima deganing, qizim?
- O'zim ko'rdim-ku.
- Nimani?
- Ko'chada gul o'g'irlayotganini, — dedi Barno yana o'pkasi to'lib. Buvisi afsuslanganday boshini chayqab qo'ydi.

— Munira tushmagur, ko'chaning fayzini o'g'irlab nima qilar ekan? Qo'y, u bilan o'rtoq bo'lma, yomon qiz ekan.

Barno qarasa, buvisining jahli chiqib, ko'zlarini pir-pir uchyapti. Buvisining xafa bo'lganidan Barnoning yuragi achidi. Bir nima qilib ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ldi. Buvisiga qarab jilmaymoqchi bo'lgan edi, yuzlari burishib, yana yig'lab yubordi.

— Qo'y, qizim, xafa bo'lma, — dedi buvisi Barnoni yupatib, hali oyisi ishdan kelsin, aytib beray!

Shu kuni kechgacha Barnoning chiroyi ochilmadi. Kechga yaqin hovliga kursi qo'yib, oyog'ini osiltirib o'tirgan edi. Xayoliga g'alati bir fikr keldi. Quvonib, qiyqirib yubordi.

— Buvi, hoy, buvi, — Barno kursidan irg'ib tushib, oshxonaga yugurdi. — Buvi, tesha qani?

Buvisi urishib berdi.

— Teshani nima qilasan? Qo'y, o'ynama, oyog'ingni chopib olasan!

— Voy, o'ynamayman! — Barno teshani oldi. Buvisi nima qilar ekan, deb ketidan chiqib qaradi. Barno gulzorga kirib, ochilib turgan bir tup gulsafsarning tepasida turib qoldi. Ko'chirib oglani ko'zi qiymay, bir buvisiga va bir gulga qaradi. Buvisi Barnoning niyatini sezdi, shekilli, mayli, deganday imlab kulib qo'ydi. Barno avaylab gulni oldi. Munira yulib ketgan gul o'rniga o'tqazdi.

Barno o'z ishidan quvonib ketgan edi. Buvisining oldiga yugurib kirib keta-yotganida, Munira eshikka chiqib, xuddi surat oldirayotgan odamday qotib turardi.



Abdulla AVLONIY

TAQSIM

Bir kuni ikki bola ko'chada yurgan zamonda bir adad (dona) yong'oq topdilar. Biri aytdi: "Man olurman, avval man ko'rdim". Ikkinchisi: "Yo'q, birodar, man olurman, yerda man ko'rdim", — deb ikkisi g'ovg'a qilib turar edilar. Bir yigit kelub: "Ey, chirog'larim! Shoshmang, talashmang, man sizlarga yaxshilab taqsim qilib berurman", — deb yong'oqni qo'llaridan olub, ikki falla qilub, bir falla po'choqini birinchi bolaga berur, ikkinchi falla po'choqini ikkinchi bolaga berur: "Mana, qolgani taqsim qilgan kishiga", — deb mag'zini og'zig'a solub, jo'nab ketdi. Bolalar bo'lsa po'chog'ini ushlab, baqraysayishib qoldilar.

Hissa: ozga qanoat qilmagan ko'bdan qolur.

OCHKO'ZLIK

Bir bola ko'chada yig'lab o'tirur edi. O'tub-ketub turg'on kishilardan biri: "O'g'lim, sanga nima bo'ldi? Na uchun muncha yig'larsan?" — deb so'radi. Bola: "Bir tiyin aqcham bor edi, yo'qotib qo'ydim. Shuning uchun yig'larman", — dedi. U kishining bolaga rahmi kelub: "Mana, o'g'lim, aqchang yo'qolgan bo'lsa, man sanga boshqasini berurman", — deb cho'ntagidan bir tiyin chiqorub berdi. Bola aqchani olub, yana avvalgidan ortuq yig'lamoqqa boshladи. Ul kishi: "Dag'i nimaga yig'larsan?" — desa, bola: "Oh, otajon! Agar o'z aqcham yo'qolmagan bo'lsa edi, hozir aqcham ikki tiyin bo'lur edi", — dedi.

Ko'zing och bo'lmasun, o'g'lum, ko'zing och,
Qanoatsiz kishini uxlatub, qoch.

Farhod MUSAJONOV

QAND BERSANGIZ, QILAMAN

Nosirjon shirinlikni juda yaxshi ko'radi. Kattalardan birortasi ish buyursa: "Qand bersangiz, qilaman", — deb javob beradi. Rostdan ham, qand bermasangiz, qilmaydi.

Bir kuni to'satdan Nosirjonning qari buvisi kasal bo'lib qoldi. Uyda Nosirjondan bo'lak hech kim yo'q, dadasi bilan oyisi ishda edi. Kampir qo'shnilariga ayttirib, doktor chaqirtirdi.

Doktor Nosirjonning buvisini sinchiklab ko'zdan kechirdi, keyin har xil dorilar yozib berdi.

— Qoningiz kamayib qolibdi, ko'proq shakar-qand yeng, — deb tayinlab ketdi doktor.

Kechga yaqin karavotda yotgan buvisining qorni ochdi. U karavotning tagidan termosni olib, piyolaga choy quydi. Keyin rasmli kitob ko'rib o'tirgan nabirasiga qaradi:

— Nosirjon, qanddonni opkelib bergen, choy ichmoqchi edim, — dedi.

— Qand bersangiz, opkeb beraman, — dedi Nosirjon odati bo'yicha.

— Mayli, bolam, beraman, qand sendan aylansin, — dedi buvisi.

Nosirjon qanddonni buvisiga oborib berdi. Buvisi qanddonni ochsa, aksiga olib, ichida bittagina qand qolgan ekan, olib Nosirjonga berdi. Nosirjon qandni og'ziga soldi-da, parvoyi falak o'tirib, yana rasmli kitobchasini varaqlay boshladi.



Yayra SA'DULLAYEVA

QAYTARIB BER

*G*o'zalning tug'ilgan kuniga hamma o'rtoqlari kelishdi. Nodir-u Nizom, Gulshod-u Kozim...

Bahodir she'r o'qidi. Gulshod biram chiroyli o'ynadiki, eng yaxshi raqqosa deb mahallada nom chiqargan Go'zalning ham havasi kelib ketdi. Hammalari bir bo'lib "Paxtaoy" qo'shig'ini kuylashganda-ku, Rahima opa ham qo'shilib ketay dedi.

Nodir o'yin-kulgidan chetda qolmadi. Birpas ashula aytgan bo'lib qarsak chalib turdi. Shunda stol ustidagi "Qoraqum" shokoladidan biram yegisi kelib ketdiki...



Bunday atrofiga razm solsa, hamma o'zi bilan o'zi ovora. Stolga ohista yaqinlashib, bittasining qog'ozini ochib, og'ziga soldi. Chaynasa, shunaqangi totli tuyuldiki, yana bittasiga beixtiyor qo'l uzatdi. "Oq oltin" bo'lsa "meni ye!" — deyayotganga o'xshardi. Undan bittasini apil-tapil yeb, qog'ozini g'ijimlab stol ustiga uloqtirdi. Keyin... uch-to'rttasini olib, shiminining cho'ntagiga solayotgan edi, Gulshodning ko'zi tushib qoldi. "Voy, tavba" — dedi-yu, g'alati bo'lib ketdi. Hatto o'zidan-o'zi uyalib, yuzi lovullay boshladi. Indamay desa, Nodirning qilmishiga tushunmayapti. "Nega endi cho'ntagiga soladi?" — shahd bilan uning oldiga bordi. "Nima, uyingda konfeting yo'qmi?" — dedi qoshini chimirib. — "Olib tashla!" — shunday dedi-yu, uning cho'ntagiga qo'l solayotgan edi, Nodir turtib yubordi va o'zi konfetni olib, dasturxonga uloqtirdi. Kutilmag'an shov-shuvdan o'yin taqqa to'xtadi. Hamma ularga qaradi. Nodir esa qovog'ini uygancha hovliga otildi. Hali bolalar nima bo'layotganiga tushunib yetmayoq, orqasiga qaytdi-da, to'g'ri Go'zalning oldiga bordi.

— Qaytarib ber! Sovg'amni qaytarib ber!

U qo'shni qizga ayiqcha sovg'a qilgan edi.

Xudoyerdi TO'XTABOYEV

TA'ZIR

... Endi men sizlarga so'lim qishloqda yashaydigan, dangasa desa, dangasamas, quloksiz desa, quloksizga o'xshamaydigan, o'zi xiyla o'yinqaroq bo'lgan Bahromboy degan bir bola haqida hikoya aytib bermoqchiman. Dadasi, onasi har kuni dalaga ketib, Bahromboy uyda buvijoni bilan yolg'iz qoladi. Buvijoni:

— O'g'lim, narigi uydan ko'zoynagimni olib chiqib ber! — desa, Bahromboy:

— Xo'p bo'ladi, — derdi-da, o'yinchoqlarini o'ynab o'tiraverardi.

Biroz fursatdan so'ng buvijoni:

— Ko'zoynak, deyapman senga, — desa, Bahromboy boshini ham ko'tarmay:

— Hozir deyapman-ku, — derdi-da, o'yinga battarroq berilib ketardi.

Oxiri, buvijoni o'rnidan turib, ko'zoynagini o'zi olib chiqishga majbur bo'lardi. Ertasi ham shu, indiniga ham shu — Bahromboyning qulog'iga hech narsa kirmasdi.

— Buvijon! — deb qoldi bir kuni Bahromboy. — Qornim juda ochib ketyapti, non olib bering.

Buvijoni ko'rpa qaviyotgan edi.

— Xo'p bo'ladi, — dedi-yu, o'rnidan qo'zg'almay ishini qilib o'tiraverdi.

— Non deyapman, — dedi Bahromboy betoqt bo'lib.

— Xo'p deyapman-ku, — deb qo'ydi buvijoni juda beparvo bir ohangda.

Biroz fursatdan so'ng Bahromboy yer tepinib:

— Non! — deb qichqirdi.

— Hozir! — dedi-yu, buvijoni ko'rpaning bu etagini tugatib, narigi etagini qavishga tushib ketdi. Yana biroz fursatdan so'ng Bahromboy to'satdan yumshab:

— Buvijon, ignangizga ip o'tqazib beraymi? — deb qoldi o'zidan-o'zi.

Nega desangiz, shu paytda Bahromboy: "Buvijonimning aytganini qilmay, xato qilgan ekanman — bilmay yurgan ekanman-da" deb o'zicha afsuslanyotgan edi. Buni sezgan buvijoni o'rnidan turib:

— Tilingdan o'rgilay, — deb qo'ydi.

O'sha kundan boshlab Bahromboy deganlari ham buvijoni aytgan ishni darrov bajaradigan bo'lib qoldi.

Abdusodiq IRISOV

TOLIB OTGAN TOSH

Tolib qo'shni tomiga qo'ngan kaptarni haydayman deb, tosh otdi.

Kaptar uchib ketdi-yu, tosh kelib tom shiferiga tushdi, shifer "chars" etib sindi. Tolib esa egasi chiqib qolmasin deb, tiraqaylab uyiga qochdi.

Uy egasi ishda bo'lganligi uchun bundan bexabar qoldi.

Shu kuni kechasi bilan yomg'ir yog'ib, ertalab qorga aylandi, birdan chakillab uydan chakka o'ta boshladi. Uy egasining boshi qotib, tomni tuzatgani chiqqan edi, sirg'anib, tomdan yiqilib tushdi. Shu bilan oyog'i sinib, yigirma kun kasalxonada yotib chiqdi. Xayriyat, bundayroq yiqilgan ekan, bo'lmasa undan yomonroq bo'lishi ham mumkin edi.

Xo'sh, Tolib otgan toshim birovning oyog'ini sindiradi, deb o'ylaganmidi?



Shukur SA'DULLA

QAYSAR BOLALAR

Alijon bilan Valijon degan aka-uka bo'lardi. Ko'rganlarning havasi kelardi. Ikkalasi ham chiroyli. Qaddi-qomatlari kelishgan, kiyimlari yarashgan, yaxshi bola edilar. Ammo...

Kunlardan bir kun ona non yopdi-da, o'g'ilchalariga:

— Tez dadalaringga olib boringlar, issig'ida yesin! — dedi.

Bolalar yer haydayotgan dadalari oldiga — dalaga qarab yo'l oldilar.

Ko'cha oxiriga yetib, o'ngga buriladi. Buyoq — dala. Keng o'tloq...

Alijon non o'ralgan dasturxонни yerga qo'ydi. Aka-uka maysa ustida yonboshlab,

tiniq osmonni tomosha qildilar. Yovvoyi arpa boshog‘ini yulib olib, beshiktervat qilib urishtirdilar. Keyin bir-birlarini bosib ag‘anadilar, turtkilashdilar... Nihoyat o‘rinlaridan turib, dala tomon yo‘l olmoqchi bo‘ldilar. Alamzada Valijonning qovog‘i solig‘roq edi.

— Qani, ketdik! — dedi akasi. — Ko‘tar!

— O‘zing ko‘tar, — dedi ukasi.

— Sen ko‘tar!

— Sen ko‘tar!

Akasi bir qadam oldinga yurdi. Ukasi o‘chakishib ikki qadam oldinga yurdi.

— Olib kel! — dedi akasi.

— O‘zing olib kel! — dedi ukasi qaysarlik bilan.

— Menga nima, olib kelmasang, men ham olib kelmayman.

Aka-uka bir-birlariga o‘chakishib nari ketaverdilar. Non solingan oq dasturxon uzoqda qolib ketdi. U arang oqarib ko‘rinardi.

San-manga borib ketayotgan aka-uka oldidan mактабдан qaytayotgan o‘quvchi bola chiqib qoldi. Ikki bolaning xarxashasini eshitib, ular orasiga tushdi.

— Bittalaring borib olib kela qolinglar!

Bolalarga gap kor qilmadi. Qaytaga aka-ukani murosaga keltiraman deb, o‘quvchi bola bir musht yedi. Shu payt tugun oldida daydi kuchuk paydo bo‘lib qoldi. U non solingan dasturxонни iskay boshladи. Keyin paypaslashga tushdi. — Nondan ajradinglar! — dedi o‘quvchi bola.

Urush-janjal taqqa to‘xtadi. Qaysar aka-uka jonlari boricha tugun tomon yugurdilar.



O'tkir HOSHIMOV

CHANA

Farhodga dadasi chana olib keldi. Tag'in qanaqa deng? Orqasida suyanchig'i bor. Sirpanchiq qanotlari yaraq-yaraq qiladi.

— Chanangni-chi, o'rtoqlaring bilan uchgin, xo'pmi? — deb tayinladi dadasi.

Farhod indamadi. Ertasiga nonushta qilar-qilmas chanasining ipidan tortib, ko'chaga olib chiqdi. Osmondan kapalakqor yog'ar, bolalar qiy-chuv ko'tarib o'ynashar, birov sirpanchiq uchar, birov qorbobo yasar edi.

Ular Farhodni ko'rishlari bilan atrofini o'rab olishdi.

— Vuy, Farhodning chanasini! — deb qichqirdi Bahodir.

— Qara, suyanchig'iyam bor ekan! — Dildora chananining suyanchig'ini ushlab ko'rdi.

— Yaltirashini qaranglar! — dedi Shavkat qoyil qolib.

— Qoch, bosib ketadi! — Farhod chananining ipidan mahkam ushlab oldida, Shavkatni turtib o'tib ketdi. Ko'chaning narigi betidagi tepalikka chiqa boshladi.

— Meniyam uchir, Farhod, — dedi Dildora unga ergashib.

— Ho, sinib qoladi-da! — Farhod chanasini sudrab ketaverdi.

Tepalikning eng ustiga chiqib, chanaga o'tirib oldi. Keyin oyog'i bilan bir siltagan edi, chana shuvillab pastga uchib ketdi. Farhodning yuziga qor uchqunlari urilar, chana esa qushdek uchib borar, uning qulog'i ostida shamol g'uvillar, ammo sovqotmas edi. Maza!

Chana pastga tushganidan keyin to'xtab qoldi. Farhodning yoniga Bahodir yugurib keldi.

— Galma-galdan ucha qolaylik, Farhod, — dedi u yalinib. — Bir gal sen tortasan, bir gal men.

— Yo'q, ipi uzilib ketadi, — Farhod qovog'ini solib oldi.

— Qizg'anchiq ekansan! — Bahodir shunday dedi-da, sirpanchiq uchayotgan bolalarning oldiga ketib qoldi.

Farhod yana tepalikka chanasini sudrab chiqdi. Keyin pastlikka uchib tushdi. Besh-olti marta shunday qilgandan keyin charchab qoldi. Pastlikka sirg'anib tushish maza edi-yu, chanani yuqoriga sudrab chiqish yoqmasdi. Tekis joyda uchay desa, birov chanani tortmaguncha sirpanmas ekan.

Farhod chanani sudrab, bolalarning oldiga bordi.

— Yur, Bahodir, — dedi o'rtog'ini chaqirib. — Mayli, galma-gal uchamiz. Bir gal sen tortasan, bir gal men.

— Kerakmas! — Bahodir qo'l siltadi. — Men bolalar bilan o'ynayman.

Farhod chanasining ipidan ushlaganicha, qorbobo yasayotgan qizlarning oldiga bordi. Dildora endi qorboboning qo'lini yasayotgan ekan.

— Yur, Dildora, ikkalamiz tepalikdan chanada tushish o'ynaymiz, — dedi Farhod.

— Hali bermading-ku, chanangni. Endi kerakmas. — Dildora boshqa qizlar bilan qorbobo yasayverdi.

Farhod ularning o'yinini birpas tomosha qilib turdi-da, zerikib ketdi. Bolalarning oldiga boray desa, Bahodir bilan Shavkatdan uyaladi. Bitta o'zi chana uchay desa, hecham qizig'i qolmadi. U alam qilganidan yig'lab yuboray dedi. Dadasi nima uchun "Chanangni bolalar bilan birlashib uchgin" deganini endi tushundi. Sekin-sekin bolalarning oldiga bordi-da, chanani ularning oldiga surib qo'ydi.

— Hammamiz galma-galdan uchamiz. Bo'ptimi? — dedi sekkingina.

Bolalar bu safar yo'q, deyishmadi. Birpasdan keyin Farhodning yaltiroq chanasi tag'in tepalikdan shuvullab tusha boshladi. Endi unda bolalar, qizaloqlar maza qilib uchishar edi.

Jahon bolalar hikoyatari

Lev TOLSTOY,
Rossiya

DANAK

Она олxo'ri sotib oldi va ovqatdan so'ng bolalariga bermoqchi bo'ldi. U olxo'rini tarelkaga solib qo'ydi.

Vanya olxo'rini hech yemagan edi. U hadeb olxo'rilarni hidlayverdi. Olxo'-rilar unga juda yoqdi. Vanya ularni yeb qo'ygisi keldi. U olxo'rining yonidan nari ketmadi. Uyda hech kim qolmaganida u chidab turolmadi, bitta olxo'rini oldi-da, yeb qo'ydi. Onasi ovqat oldidan olxo'rilarni sanadi, qarasaki, bittasi yo'q. Buni bolalarning otasiga aytdi.

— Hay, bolalarim, bitta olxo'rini birortanglar yedilaringmi? — deb so'radi ovqat vaqtida otasi.

— Hammalari: "Yo'q!" — deyishdi. Vanya esa, qip-qizarib ketdi, u ham: "Yo'q, men yemadim", — dedi. Shundan keyin otasi:

— Qaysi biringlar yegan bo'lsanglar ham, yaxshi qilmabsizlar, ammo gap olxo'rida emas, gap shundaki, uning ichida danagi bo'ladi, kimki bilmay uni yutib yuborsa, ertasi kuni o'ladi. Men faqat shundan qo'rqaman, — dedi.

— Yo'q, men danagini derazadan otib yubordim, — dedi Vanya oqarib. Hammalari kulishdi. Vanya bo'lsa, yig'lab yubordi.

Valentina OSEYEVA,
Rossiya

QAYSI BIRI OSON?

Уч bola o'rmonga qarab jo'nashdi. O'rmonda maymunjon, qo'ziqorin va qushlar ko'p edi. Bolalar maymunjon va qo'ziqorin terib, o'ynab yurib, kech kirganini bilmay qolishibdi. Uylariga qaytgani qo'rqibdilar.

— Kechikkanimiz uchun uydagilar rosa adabimizni berishadi!
Bolalar yo'lda to'xtab: "Yolg'on gapirsakmikan yoki rostini aytsakmikan?" — deb maslahatlashishibdi.

Bir bola debdi:

— O'rmonda meni bo'ri taladi, — deyman.

Otam qo'rqib ketib, meni urishmaydi.

Ikkinchchi bola debdi:

— Men bo'lsam yo'lda bobomni uchratdim, — deyman. Oyim sevinganlaridan meni urishmaydilar.

Uchinchi bola:

— Men rostini aytaman. Rost gapirish yolg'on gapirishdan osonroq, — debdi. Shundan keyin bolalar uy-uyiga tarqalishibdi. Bolalarning bittasi — meni bo'ri taladi, — deb aldab turgan paytda, birdan uyiga o'rmon qorovuli kelib qolibdi.

Qorovul:

— Yo'q, u taraflarda bo'ri bo'lmaydi, — debdi.

Otasining jahli chiqibdi, bolasini kech qolgani uchun bir urishsa, yolg'on gapirgani uchun battarroq urishibdi.

Ikkinchchi bola endigina onasiga: — Bobomni uchratdim, — deb, turgan ekan, birdaniga bobosi mehmon bo'lib kelib qolibdi.

Yolg'on gapirgani uchun onasining jahli chiqibdi. Kech qaytgani uchun bir urishsa, yolg'on gapirgani uchun battarroq urishibdi.

Uchinchi bola hamma gapning to'g'risini aytib, aybini bo'yniga olibdi. Faqat xolasi biroz koyibdi-yu, gunohidan o'tibdi.



Vasil SUXOMLINSKIY,
Ukraina

YURKANING QO'RQIB KETGANI

— **Б**оғдан олма теріб келгін, о'глим, — деди онаси кечкі пайт Юркага. Юрка боққа борди. Дараст устига чиқіб, саватни то'лдиріп олма терди. Yerga tushib

ketgan bitta olmani ham olib, endi uyga qaytmoqchi bo'lib turgan edi, bir qop-qora, dumaloq narsaga ko'zi tushib qoldi. Shunisi qiziq ediki, u qora narsa qimirlab ham qo'yardi.



Dumaloq, tikanli qora narsa haqida gapirib bergandi, onasi kulib yubordi:

— U tipratiqan-ku, o'g'lim!

Yurka savatni olib kelish uchun boqqa qaytdi. "Endi tipratiqanni ko'rsam, qo'rqmayman", — deb o'yladi o'zicha. Lekin daraxtning

tagiga borib qarasa, tipratiqan ham yo'q, yerga tushgan olmalar ham, faqat savati turibdi.

Tipratiqan bilan olma qayoqqa ketdiykin-a?

Konstantin USHINSKIY,
Rossiya

TO'RT ISTAK

Mitya qor tepaliklaridan pastga qarab chanada uchdi. Toshdek qattiq muzlagan ariq va hovuzlarda o'rtoqlari bilan yaxmalak otdi. Uyga qip-qizarib, tetik va quvnoq qaytib keldi-da, otasiga qarab:

— Otajon, qish qanday yaxshi-ya! Men hammavaqt qish bo'lishini istar edim, — dedi.

Otasi uning istagini o'zining yon daftariga yozib qo'ydi.

Bahor keldi. Mitya ko'm-ko'k maysazorlarda rohatlanib o'ynadi. Binafshalar terdi. Bahri dili ochilib ketdi. Yana otasiga:

— Otajon, bahor qanday ko'ngilli, men hammavaqt bahor bo'lishini istar edim, — dedi.



Otasi Mityaning bu istagini ham yon daftariga yozib qo'ydi. Yoz keldi. Mitya yozning issiq kunlarida bog'larda quvnab o'ynadi. O'rik, gilos, shaftolilardan to'yib-to'yib yedi. Kechqurun otasining oldiga kelib:

— Otajon, yoz qanday go'zal! Men hammavaqt yoz bo'lishini istar edim, — dedi.

Otasi uning bu istagini ham yon daftarchasiga yozib qo'ydi. Kuz keldi. Bog'larda turli uzumlar yetilib pishdi. Qovun-tarvuzlar hammayoqni bosib ketdi. Paxta terildi. Mitya bularni ko'rib quvonib:

— Otajon, kuz qanday yaxshi-ya! Men hammavaqt kuz bo'lishini istardim, — dedi.

Otasi yon daftarchasini ochib Mityaga ko'rsatdi. Mitya esa qish, bahor, yoz haqida ham xuddi shu istakni bildirgan edi.

Spiridon VANGELI,
Moldaviya

“OLTIN KO‘ZA”

Salom, buvijon! Men ham kartoshka ekkani keldim. Buvisi hayron bo'ldi.

— Kartoshka ekkani deysanmi? Belkurakni ko'tara olmaysan-ku?!

— Ko'taraman. Katta bo'lib qoldim.

Mitti Shtefan belkurakni bor kuchi bilan bosib, yerni kavladi. Kartoshka ekishga chuqurcha tayyor bo'ldi.

Biroz nafas olgach, kaftini ishqaladi-da, yana bitta chuqurcha kovladi.

Buvisi uning ko'nglini ko'tarib qo'ydi:

— Zo'r ekansan, bolam. Qani, endiyam bitta-yarimta seni mittivoy deb ko'rsin-chi!

Shu payt parvona uchib kelib, qanotlarini qoqdi:

— Shtefan, mitti Shtefan, yur, o'tloqda o'ynaymiz.

— Vaqtim yo'q. Buvimning tomorqalariga “oltin ko‘za” ekyapman, — deya javob berdi bola.

Boris VOVK,
Ukraina

EH, DIMAVOY

Dima bilan Volodya bolalar o'ynaydigan qum yonidagi o'rindiqda gapla-shib o'tirishardi.

- Katta bo'lsam, kosmosga uchaman, — dedi Dima g'urur bilan.
- Qoyil! — dedi Volodya unga havasi kelib.
- Okean tagigayam tushaman. Suv osti kemasida-da, albatta. Oynasidan hamma narsa ko'rinadi.
- Akulayam ko'rinadimi?
- Akula nima bo'libdi? Har xil dengiz hayvonlari ham ko'rinadi. Men ularning hech qaysisidan qo'rqmayman.

Dima yana nimadir demoqchi edi, qum o'ynayotgan Nastya birdan yig'lab qoldi. Qarashsa, Mikola qizchaning paqirchasi bilan kurakchasini tortib olayotgan ekan. Volodya yordam berish uchun o'rnidan qo'zg'alayotgan edi Dima uni to'xtatdi.

- Indama, Mikolaga bas kelib bo'lmaydi.
- Volodya uning gapiga quloq solmay, Mikolaning oldiga bordi.
- “Ber!” — deya qo'lini shaxd bilan ko'targan edi, Mikola paqirchani qumga tashlab, qochib qoldi. Dima bo'lsa, o'rindiqda ko'zlarini pirpiratib o'tirardi.



Buyuk siymolar haqida

* * *

Aziz bolajonim! Mana, ancha katta bo‘lib qoldingiz. Endi Siz bilan ulug‘ ajdodlarimiz, Navoiy, Bobur kabi dunyoga tanilgan porloq yulduzlarimiz haqida suhbatlashsak ham bo‘ladi.

Bolajonim, buyuk bobomiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan zamon bilan bizning davrimizni besh asrdan ko‘p vaqt ajratib turadi. Lekin shunga qaramay, xalqimiz ularning yaratgan beباho asarlarini sevib o‘qiydi, hikmatlariga suyanadi, g‘azallarini qo‘shiq qilib kuylaydi, kitoblarini qayta-qayta nashr ettiradi. Zero, ijodkor bobolarimiz o‘z asarlarida odamiylik, vatanparvarlik, adolat, muhabbat, do‘slik, vafo, halollik, mardlik singari insoniy go‘zal fazilatlarni tarannum etganlar.

Ulug‘ bobolarimiz o‘z yurtini, xalqini nihoyatda sevgan. Urushni qattiq qoralganlar. Odamlar bir-birlari bilan urishmasdan, tinch-totuv, o‘zaro hurmatda, to‘kinlikda, baxtli yashashlarini orzu qilganlar.

Aziz bolajonim! Navoiy va Bobur bobomizning asarlari go‘zal xulqning, do‘slik, sadoqat, vafoning ulug‘ligi, birovga yaxshilik qilishning zavqliligi, aksincha, yomon xulqning xunukligi haqida Sizga saboq berib, hayotda adashmay, to‘g‘ri yo‘ldan yurishga da‘vat etadi.

Tuzuvchi-muallif

ALISHER NAVOIY

Alisher Navoiy buyuk shoir, katta olim va nihoyatda dono inson bo'lganlar. Alisher Navoiy Hirot shahrida tug'ilgan.

Alisher Navoiy siz kabi bolalik paytlaridayoq juda ziyrak, aqlli, odobli bola bo'lgan ekan. Alisher uch yoshidan boshlab she'r, musiqa eshitishni nihoyatda yaxshi ko'rgan. Otasi, onasi va tog'alari she'r o'qib berganida, u darhol yodlab

olgan ekan. Alisher 10 yoshligida Farididdin Attor degan shoirning "Mantiq ut-tayr" nomli katta kitobini yoddan bilar ekan. Alisher nihoyatda aqlli va g'ayratli bola bo'lganligi uchun, otasi uni to'rt yoshga to'lganida maktabga bergen. Kichkina bo'lishiga qaramay, katta bolalarni qoyil qoldirib, juda ham yaxshi o'qigan.

Biroq Alisherning Hirotda o'qishi uzoqqa cho'zilmadi. Chunki bu yerda urush, janjallar, har xil to'polonlar boshlanib ketdi. Shuning uchun ko'pgina oilalar boshqa joyga ko'chib keta boshladi. Alisherlar oilasi ham ko'chib ketishga majbur bo'ladi.

Bolalar, u paytlarda samolyot, poyezd, mashinalar bo'lmagan. Agar odamlar uzoq joylarga boradigan bo'lishsa, tuyalarda, otlarda, aravalarda ketishgan. Alisherlarning oilasidagilar otda ketishgan. Yo'l uzoq, havo issiq... shuning uchun ular kunduzi dam olib, kechasi yo'l yurishgan. Bir kuni kechasi Alisher ot ustida ketayotganida charchab, uxbab qolibdi. U otdan yumshoqqina qum ustiga sirg'alib tushib ketibdi va uxlayveribdi. Karvondagilar buni bilishmay, ketishaveribdi.

Ertalab, quyosh chiqqanda Alisher uyqudan uyg'onibdi. Atrofga qarasa, hech kim ko'rinxabdi. Alisher bir zum qo'rqib ketibdi, yuragi duk-duk uribdi. Birdan o'z otini ko'rib qolibdi. U ketib qolmay, Alisherning uyg'onishini kutib turgan ekan. Alisher rosa xursand bo'lib ketibdi. U darhol otining yoniga borib, uni mehr bilan silab-silab qo'yibdi. So'ng sinchkovlik bilan qumlarga qarabdi. Otlarning izini qidiribdi. Otlar izi quyosh chiqadigan tarafga cho'zilib ketgan ekan. Alisher ham otiga minib, ana shu izlar bo'ylab yo'lga



tushibdi va omon-eson ota-onasining yoniga yetib boribdi.

Alisherning kichkinagina bo‘lishiga qaramay, bu qadar dovyurak, aqli, bilag‘on bola ekanligiga karvondagilar qoyil qolishibdi.

Urush-janjallar to‘xtagach, Alisherlar oilasi ham Hirotga qaytib keladi. Alisher yana maktabda o‘qishini davom ettira boshlaydi. Alisher darsdan keyin juda ko‘p kitob o‘qir va ko‘p she’rlarni yodlab olishga harakat qilar edi. Uning o‘zi ham she’rlar yoza boshlabdi. Lutfiy, Jomiy degan katta-katta shoirlar Alisherning she’rlarini o‘qib, uni rosa maqtashadi.

Alisher Navoiy o‘z she’rlarida odamlarni yaxshilik qilishga, halol yashashga chaqiradi. U yana o‘z she’rlarida odamlar bir-birlari bilan urishmasa, tinch-totuv yashasa, bir-birlarini hurmat qilsa, yaxshi ishlasa, hamma narsa mo‘lko‘l bo‘ladi deganlar.

Alisher Navoiy 60 yil yashagan. Ammo nihoyatda ko‘p ajoyib kitoblar yozganlar. Sizlar maktabga borganingizda o‘qishni, yozishni o‘rganasizlar va Alisher Navoiy yozgan asarlarni maza qilib o‘qiysizlar.

Alisher NAVOIY

SHER BILAN DURROJ

“Hayrat ul-abror” dostonidan

Bir o‘rmonda zo‘r Sher va Durroj yashar ekan. Sherning kichkinagina bolasi bo‘lib, u hali yurishni bilmas ekan. Onasi uni juda yaxshi ko‘rar va qumursqa halok qilmasin deb, doimo tishida tishlab olib yurar ekan. Kunlardan bir kuni Sher bolasini tishlab olib yurganida Durroj pir etib, sherning boshi ustidan uchib o‘tibdi. Sher cho‘chib ketibdi va bolasini qattiq tishlab olibdi. (Bolasining joni og‘rib, yig‘lab yuboribdi)¹. Sher bu ishdan juda xafa bo‘libdi. (U bolasining yara bo‘lgan joyini tili bilan yalab-yalab qo‘yibdi. Bolasi tinchlanibdi).

Durroj Sherni doim shunday cho‘chitib yurishni odat qilibdi. Nihoyat,

¹ Bog‘cha bolalariga moslashtirib kiritilgan qo‘shimchalar qavs ichida beriladi.

Sher Durroj bilan do'stlashmoqchi bo'libdi va unga: "Kel, shu o'rmonda birga do'st bo'lib, tinchgina yashaylik... Sen ashulalar aytib, meni xursand qil. Biron kimsa seni xafa qilsa, men hamma vaqt senga yordam beray", — debdi. ("Xo'p, kel, do'st bo'lamiz", — debdi Durroj ham).

Kunlardan bir kuni Durroj: "Men tuzoqqa tushdim, yordam ber!", — deb qichqiribdi. Sher yordam berish uchun yuguribdi. Qarasa, Durroj uni aldabdi. U hech qanaqa tuzoqqa tushmagan ekan. Sher do'stidan xafa bo'libdi. Unga qarab: "Yolg'on so'zlamagin, yolg'onchi el oldida uyalib qoladi", — debdi. Ammo Durroj Sherning gapiga qulq solmabdi, yolg'onchiligini, aldashini qo'ymabdi.

Kunlardan bir kuni Durroj rostdan ovchi qo'ygan tuzoqqa tushib qolibdi. "Dod! Meni tutib oldilar! Yordam ber!" — deb jon-jahdi bilan qichqiribdi. Sher uni eshitibdi. Yordamga bormoqchi bo'libdi-yu, keyin o'ylab qolibdi: "Har galgidek bu gal ham meni aldayotgandir. Bormayman". Shunday qilib, Durroj o'z yolg'onchiligi tufayli do'stidan ayrilibdi va ovchi tuzog'iga ilinibdi.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Zahiriddin Muhammad Bobur katta podshoh, zo'r lashkarboshi, iste'-dodli shoир, olim bo'lганlar. Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon shahrida tug'ilgan. Uning otasi Umarshayx Mirzo Farg'onada hokim bo'lган. Boburning bitta opasi, ikkita ukasi va beshta singlisi bo'lган. Bobur saroyda malakali muallimlardan ta'lim olgan. U juda zehni o'tkir bola bo'lган. She'r, musiqa eshitishni yaxshi ko'рган. Bulardan tashqari Bobur kamonda o'q otish va qilichbozlikdan ham saboq olgan.

Bobur 12 yoshga kirganda Farg'ona viloyatining hukmdori bo'ladi. Albatta, hukmdor bo'lish yosh Bobur uchun juda qiyin edi. Unga bu masalada onasi Qutlug' Nigorxonim va "otaxon begi" Boboxon Alibek katta yordam berishgan.

12 yoshida hukmdor bo‘lgan Bobur umrining oxiriga qadar juda ko‘p urush va yurishlar bilan band bo‘ladi. Bobur nihoyatda botir, jasoratli, pahlavon sarkarda edi. U jang paytlarida doim eng oldinda borardi, qo‘rqmasligi bilan navkarlariga namuna ko‘rsatardi. Shuning uchun navkarlari uni nihoyatda hurmat qilishar va unga o‘xhashgina harakat qilishardi.

Bobur faqat podshoh va zo‘r lashkarboshigina bo‘lib qolmay, balki buyuk shoir, yozuvchi va olim hamdir. U 16 yoshidan boshlab she’rlar yoza boshlagan.

Bobur umrining yarmidan ko‘prog‘ini ona-yurtidan uzoqda — Hindistonda o‘tkazadi. U tug‘ilgan vatanini nihoyatda sog‘inib yashagan.

Bobur Hindistonda tug‘ilgan vatanimning hidi, nafasi kelib tursin deb, katta bir bog‘ga Farg‘onadan olib kelingan olcha, o‘rik, behi, gilos, olxo‘ri, tok va yana boshqa juda ko‘p ko‘chatlarni ektiradi.

Boburning ko‘pgina she’rlarida Vataniga bo‘lgan muhabbati, sog‘inchi bilinib turadi. Bobur odamlarning hayoti xafachilik bilan emas, xursandchilik, quvnoqlik bilan o‘tishini, odamlar bir-biriga faqat yaxshilik qilishlari kerakligini orzu qiladi va o‘z she’rlarida shular haqida yozadi.

Bobur tug‘ilgan Vatanidan uzoq — Agra shahrida 47 yoshida vafot etadi. Bu inson umri uchun nihoyatda qisqa vaqtadir. Undan bizga she’riy kitoblar, “Boburnoma”, “Mufassal”, “Harb ishi” va boshqa ko‘plab asarlar meros bo‘lib qolgan.

Bolalar, sizlar maktabga borgach, o‘qishni, yozishni bilib olasizlar va xuddi Alisher Navoiyning kitoblari kabi Zahiriddin Muhammad Boburning kitoblarini ham maza qilib o‘qiysizlar. Ular juda-juda qiziqarli yozilgan.





ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Ruboiylar

* * *

Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi,
Shod etmas emish ko‘ngilni mehnatda kishi.
Ko‘nglum bu g‘ariblikda shod o‘lmadi, oh,
G‘urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

* * *

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlig‘ hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidur.

BADIY SO‘ZNING QUDRATI

Maktabgacha yoshidagi bolalar adabiyotining o‘ziga xosligi, eng avvalo, uning o‘quvchilarga emas, asosan, tinglovchi bolalarga mo‘ljallanganligida ko‘rinadi. Ma’lumki, kichkintoylarning ruhiy va jismoniy tomondan rivojlanishi har bir yosh bosqichida turlicha bo‘ladi. Shu ma’noda Tayanch dasturida ularga tavsiya etilayotgan badiiy asarlar ham bir-biridan farq qiladi.

Inson dunyoga kelgan ilk kunlaridan boshlab, allaning yoqimli ohangidan ruhan tinchlanadi, orom olib uxlaydi. 4 – 5 oylikdan boshlab esa kuy tovushlariga, erkalamaga, ovutmachoqlarga hissiy javob qaytarishga harakat qiladi. 9 – 10 oylik chaqaloq bola ana shu emotSIONAL ta’sirlanishini qiqirlab kulish, chapak chalish, qo‘lchalarini o‘ynatish va boshqa harakatlar orqali ochiq namoyish eta boshlaydi. Majmuaning chaqaloqlik davri (1 yoshgacha) bo‘limidan xalq og‘zaki ijodi namunalari: alla, erkalamaga, olqish qo‘shiqlar, shuningdek, yozuvchilar tomonidan ijod etilgan she’riy asarlar joy olgan.

Ikki yoshga qadam qo‘ygan “bola jismoniy hamda ruhiy jihatdan jadal rivojlana boshlaydi”¹. Ayniqsa, kichkintoylarning mustaqil yurish ko‘nikmasini egallaganligi uning tevarak-atrof bilan “muloqot” o‘rnatish imkoniyatini ken-gaytiradi. Endilikda badiiy adabiyot yordamida bolaning nutqini rivojlantirish, boshlang‘ich diqqat, tinglash qobiliyatini tarbiyalashga e’tiborni kuchaytirish kerak. Shuning uchun bolaga bir yarim yoshdan boshlab alla, ovutmachoq, erkalamalar bilan bir qatorda, ertak va hikoyalar ham tavsiya etiladi. Asarlar qiziqarli, ixcham shaklda, shtirokchilari kam, tili sodda, ravon va tushunarli bo‘lishiga ahamiyat beriladi.

Uch yoshli bolalar “..jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Ular asta-sekin o‘z xatti-harakatlarini idora qilish ko‘nikmasini egallay boshlaydilar, mustaqillik tobora ortib boradi”². Bu davrda bolada idrok, xotira, nutq, tafakkur ancha rivojlanadi. Ammo diqqat barqaror bo‘limganligi sababli ular tezda charchab qoladilar. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarga ham qisqa ertak, hikoya va she’rlar tavsiya etiladi. Bolalar kattalar tomonidan so‘zlab yoki o‘qib berilayotgan asarni tinglab, qahramonlar xatti-harakatlarini ancha qiziqish bilan kuzata boshlaydilar. Tushunganlarini qisman gapirib bera oladilar. Bu

¹. Uchinchi mingyllikning bolasi. Tayanch dasturi. T., 2000-y., 52-b.

². Shu kitob. 53-bet.

yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan asarlar nisbatan murakkabligi, syujetining qisqa-qisqa bir necha voqealardan tashkil topishi bilan farqlanadi.

“Bola to‘rt yoshga yetganida uning miyasi tez rivojlanadi... Boladagi asosiy harakatlarining rivojlanishida jiddiy sifat o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi”¹. Bu yoshdagi bolalarda qiziquvchanlik keskin o‘sadi. Pedagoglarning ta’kidlashlaricha, ularda voqeа-hodisalarining sodir bo‘lish sabablariga qiziqish kuchayib, ko‘plab savollar bera boshlaydilar. Bolalarning nutqida, idrok va tafakkurida ham muhim o‘zgarishlar yuz beradi. Lug‘at boyligi ortadi, fikrlarini ancha murakkab gaplarda ifodalay boshlaydilar. Demak, bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan asarlar yanada murakkablashadi, syjeti bir necha voqealardan tashkil topadi, personajlar soni ko‘payadi.

Shu o‘rinda majmuadan joy olgan ayrim xalq og‘zaki ijodi namunalari va adabiy asarlar xususida, ularni kichkintoylar ongi va qalbiga yetkazish yo‘llari haqidagi fikr-mulohazalarimizni qisqacha bayon etishga intilamiz.

XALQ OG‘ZAKI IJODI

QO‘SHIQ

Majmuada xalq og‘zaki ijodi namunalariga nihoyatda katta o‘rin ajratilgan. Unda alladan tortib — dostongacha har bir yosh bosqichiga moslab, oddiydan — murakkabga tartibida joylashtirilgan. Chaqaloqlik davri (1 yoshgacha) va ilk yosh davri (1 – 3) bo‘limlariga alla, erkalamo, ovutmachoq, olqish qo‘shiqlari, kichik (3 – 4) va o‘rta (4 – 5) yosh davri bo‘limlariga mavsum qo‘shiqlari, yalinmachoqlar, qiziqmachoqlar, cheklashmachoqlar, o‘yin qo‘shiqlari va boshqalar kiritilgan. Oltin meros qo‘shiqlarimiz bolalarning murg‘ak qalblarini hayajonlantirish orqali, ularni ma’naviy-estetik jihatdan tarbiyalaydi, ona tilimizdagи tovush ohanglari jozibasini his etishga, asta-sekin so‘zlar ma’nosini tushuna borishlariga yaqindan ko‘mak beradi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida kichkintoylarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish xalq qo‘shiqlaridan boshlanadi. Bolalarga bag‘ishlangan o‘zbek xalq qo‘shiqlarida chaqaloqqa nafaqat uxlatayotganda, balki uyg‘onganda, yig‘laganda, tili chiqqanda, o‘tira boshlaganda, toy-toy turganda, yurganda, yugurganda, chapak chalganda, yangi kiyim kiydirilganda, cho‘miltirayotganda

¹Uchinchi mingyllikning bolasi. Tayanch dasturi. T., 2000-y., 54-b.



aytiladigan qo‘shiqlar bor. Bu qo‘shiqlarning nomi olqish qo‘shiqlar¹ deyiladi. Ya’ni kattalar bolalarning ilk harakatlarini olqishlaydilar. Ushbu qo‘shiqlarning yaxshi tomoni shundan iboratki, ularni oila sharoitida bolaga kun davomida aytish mumkin. Yasli va kichik guruh tarbiyachilari ham bu qo‘shiqlarga tez-tez murojaat etsalar, nur ustiga nur bo‘lar edi. Zero, shunday qilinganda, eng avvalo kichkintoy bilan tarbiyachi o‘rtasida jonli, mehrli munosabat vujudga keladi, bog‘cha muhiti oila muhitiga yaqinlashtiriladi, natijada bola bog‘cha sharoitiga nisbatan yengillik bilan moslashadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida xalq og‘zaki ijodining kichik janrlari: alla, erkalamda, ovutmachoq, qiziqmachoqlarga bag‘ishlangan mashg‘ulotlarni qismlarga bo‘lib o‘tkazish maqsadga muvofiq. Mashg‘ulotlarning qismlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq tarzda, bosqichma-bosqich bir necha kun davomida o‘tkaziladi. (*Agar bolalar tushunishga qiyngalsalar yoki yana bir bor eshitishga istak bildirishsa, mashg‘ulotning alohida qismini bemalel takroran o‘tish mumkin.*) Tayanch dasturida bolalarning qiziqish, o‘zlashtirish darajalariga qarab, mashg‘ulot vaqt vaqt belgilangan: kichik guruhlarda 5 – 10 daqiqa, o‘rtalarda 12 – 15 daqiqa.

Tarbiyachi mashg‘ulot samaradorligini oshirishga xizmat etuvchi ko‘pgina omillarga e’tibor berishi kerak, albatta. Jumladan, mashg‘ulot uchun tanlangan badiiy asar matnini o‘rganib chiqishi, uni kichkintoylar qalbiga yetkazish usullarini izlashi, bolalarning yosh va tabiatiga xos asosiy xususiyatlarga alohida ahamiyat berishi, kichik va o‘rtalarda ko‘rgazmali materiallardan, didaktik o‘yinlardan unumli foydalanishi zarur. Bu usullar bolalarning diqqatini bir nuqtaga qaratishda tarbiyachiga qulaylik yaratadi, mashg‘ulotning qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi hamda badiiy asarning emotsional-estetik qimmatini yanada oshiradi. Shuningdek, tarbiyachi bu mashg‘ulotlar, avvalo, bolalar uchun ekanligini unutmasligi lozim. Buning uchun guruhdagi har bir kichkintoyni shaxs sifatida hurmat qilish, ularning mashg‘ulotda faol ishtirokini ta’minalash, bildirayotgan fikrlarini samimiyl gaplar bilan qo’llab-quvvatlash o‘ta muhimdir. Fikrimizni kengroq isbotlash uchun “Alla” qo‘srig‘iga bag‘ishlangan mashg‘ulot bayonini to‘liq keltiramiz.

Avvalo, alla haqida ikki og‘iz so‘z. Inson dunyoga kelib eshitgan ilk qo‘srig‘i ona allasi hisoblanadi. Shuning uchun xalqimiz orasida, alla bolaga ona suti bilan kiradi, degan ibora bor. Jumladan, Sharqning buyuk qomusiy olimi Abu Ali

¹. Safarov O. O‘zbek bolalar poetik folklori. T., 1985-y. 44–45-betlar.



ibn Sino shunday degan edi: “Go‘dakning tanasini chiniqtirish uchun ikki narsa zarur. Biri – uni asta tebratish, ikkinchisi – ona allasi. Birinchisi bolaning tanasiga, ikkinchisi esa ruhiyatiga zarur”. Demak, oila sharoitida yosh ota-onalar allaning bir nechta xilini yodlab, farzandlarini uxlatalayotgan paytda ohangi bilan aytsalar, foydadan xoli bo‘lmaydi.

Yuqorida aytganimizdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida qo‘shiqni bolalarga o‘rgatish ancha erta boshlanadi. Ya’ni 3 – 4 yoshdagi bolalarga “alla” yodlatish uchun tavsiya etiladi. Mashg‘ulot gilam ustida o’tkaziladi. Imkoniyat darajasida gilamning to‘rt tomoniga ko‘rpachalar to‘shaladi, xonaning bir tomoniga beshik (karavot yoki belanchak) qo‘yiladi. Birinchi qismda tarbiyachi guruhgaga yo‘rgaklangan “chaqaloq”-qo‘g‘irchoq bilan kiradi. Bolalarning faol ishtirokida unga chiroyli ism qo‘yiladi. (*Ma ’lumki, ilk va kichik guruh bolalarining diqqat, idrok etish kabi ruhiy jarayonlari hali yaxshi rivojlanmaganligi tufayli, tashqi ta’sirga juda tez beriluvchan bo‘ladilar. Mashg‘ulot jarayonida ham ular tarbiyachining qo‘lidagi qo‘g‘irchoqqa qiziqib, uning gaplariga e’tibor bermay qo‘yishlari, bir-birlari bilan gaplashib, shovqin ko‘tarishlari mumkin. Tarbiyachi bunday vaziyat yuzaga kelmasligi uchun, qo‘g‘irchoqqa haqiqiy chaqaloqqa qaraganday munosabatda bo‘lishi, bolalar e’tiborini chaqaloqning nihoyatda kichikligiga qaratib, uni avaylash, ehtiyyot qilish, uxlaganda shovqin qilmaslik, sekin-asta gapirish zarurligi haqida uqtirib boradi. Agar shovqin-suronli vaziyat yuzaga kelsa, tarbiyachi “chaqaloq”-qo‘g‘irchoqqa qarab, quyidagi so‘zlash usulini qo‘llashi mumkin: “Kichkinaginam, shovqindan qo‘rqib ketdingmi? Qo‘rqligim, asalim, guruhimizdagi bolalarning hammasi yaxshi, aqli, odobli. Ular chaqaloqlarning yonida qattiq gapirishmaydi, Erkin ham yaxshi bola. Ana, qaragin, Olimjon ham endi shovqin qilmayapti. To‘g‘rimi, Olimjon? Ko‘rdingmi, ularning hammasi yaxshi bolalar. Faqat bugun ular chaqaloq uxlatalayotganda shovqin qilish mumkin emasligini bilmay qolishibdi” yoki “ular chaqaloqlar qattiq ovozdan, shovqindan cho‘chib ketishlarini bilmay qolishibdi” v. h.)*

Tarbiyachi mashg‘ulotning ikkinchi qismida bolalar bilan birlashtirishda qo‘g‘irchoq-chaqaloqni beshikka belaydi va asta tebratib “alla” aytadi. Qo‘g‘irchoq-chaqaloq “uxlagach”, beshik boshqa joyga olib qo‘yiladi. Endi mashg‘ulotning bevosita “alla”ga oid uchinchi qismi boshlanadi.

Asosiy qismda tarbiyachi qo‘sish qoida qisqacha so‘zlaydi. “Bolajonlarim, “Alla” qo‘sishiga juda qadim zamonlarda yaratilgan. Katta momolarimiz, katta



buvilarimiz beshikni asta tebratib alla aytganlar. Beshikda yotgan chaqaloq alla kuyidan orom olib uxlagan. Chaqaloq paytingizda oyijoningiz ham sizni uxlatish uchun alla aytgan... Esingizdami?” deb bolalarga quvnoq ohangda murojaat etilsa, ularning yuzida tabassum paydo bo‘lganligining guvohi bo‘lasiz. Bolalar o‘z xotiralari bilan o‘rtoqlashsa yoki beshik, allaga oid biror voqeani ikki og‘iz so‘z bilan hikoya qilib bersalar, demak, bilingki, sizning mashg‘ulotingiz o‘zlashtirilyapti.

Mashg‘ulot davom etadi.

Ma’lumki kichkintoylarga atalgan xalq allalari, erkalamada va ovutmachoqlarda bola obrazi markaziy o‘rinni egallaydi. Ularda kattalar: buvi, bobo, ota-onas, amma, xola, opa-aka va boshqalar dunyodagi eng aziz, eng dilbar so‘zlar bilan kichkintoyni erkelaydilar, sevib ardoqlaydilar. Tarbiyachi ham ana shunday so‘zlarga, o‘xshatish va sifatlashlarga alohida e’tiborini qaratishi lozim. Ayrim shunday so‘zlarning ma’nosini sharhlash orqali bolaning oilasiga, onasiga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘usi kuchaytiriladi. Shu jihatdan, kichik guruh bolalariga yodlatish uchun tavsiya etilayotgan “Alla”ning birinchi to‘rtligini ko‘rib chiqamiz:

Alla, bolam, alla-yo,
Ko‘rar ko‘zim, alla-yo.
Suyar so‘zim, alla-yo,
Alla, bolam, alla-yo.

Tarbiyachi bolalarga allaning so‘zлари juda ma’noli ekanligi haqida gapirib, “Onajonlarimiz o‘z bolalarini “ko‘rar ko‘zim” deb erkelaydilar. (*Ma’lumki, kichkintoylar mavhum narsalarni tushunishga qiynaladilar. Demak, tarbiyachi so‘zlar ma’nosini sharhlar ekan, ular tushunchasiga mos turli xarakterdagи taqlidiy o‘yinlar taklif etishi mumkin. Bunday o‘yinlar orqali bolalar qо‘shiqdagi so‘zлар ma’nosini, nima sababdan ishlatalganligini osonlik bilan o‘zlashtiradilar*). Shirintoylarim, agar odamning ko‘zлари ko‘rmasa, unga qanchalik qiyin. Qani, ko‘zларимизни bir zumga yumib ko‘raylik-chi, atrof qop-qorong‘i, to‘g‘rimi? Endi ko‘zларимизни ochamiz, hammayoq yop-yorug‘, charog‘on, chunki biz ko‘ryapmiz, qanday yaxshi. Onajonlarimiz o‘z bolalarini sevib, erkalab ko‘rar ko‘zga o‘xshatishadi”. Tarbiyachi qо‘shiqdagi ushbu misralarni ifodali tarzda qayta o‘qiydi. Ikkita-uchta bolaga qaytartiradi.



So‘ng tarbiyachi keyingi misradagi “suyar so‘zim” haqida to‘xtalishi, dunyodagi yaxshi so‘zlar – “ona”, “bola” “beshik” v. h. bo‘lsa, yomon so‘zlar ham borligi, – “yovuz”, “yolg‘onchi” “chaqimchi” v. h. haqida ham aytib o‘tadi. (*Shu o‘rinda tarbiyachi, albatta, bolalarning fikrlari bilan qiziqib, ular qanday yaxshi va yomon so‘zlarni bilishlariga e’tibor beradi va shundan so‘nggina fikrlarini xulosalaydi*). “Onajonlarimiz o‘z farzandlariga eng yaxshi, eng aziz so‘zlarimni senga bag‘ishlayman, deb, tinchlantirib, erkalatib uxlatar ekanlar”.

Tarbiyachi allaning birinchi bandini ifodali tarzda qayta o‘qiydi va ikkita-uchta bolaga qaytartiradi. She’rning keyingi to‘rtliklari ham shu tarzda o‘rgatilsa, bolaning xotirasida qoladi va yodlash osonlashadi.

Mashg‘ulotning keyingi qismida tarbiyachi bolalar e’tiborini beshikdagи chaqaloq “bezovta” bo‘layotganiga qaratadi va asta beshikni tebratib, alla aytadi. Bolalar ishtirokida qo‘shiq bir necha marta takrorlanadi.

Mashg‘ulotning navbatdagi qismlarida chaqaloq-qo‘g‘irchoq beshikdan yechib olinadi va uni suyib erkalamalardan biri aytildi, yig‘lasa, yana suyib, sevib ovutmachoqlar aytildi.

Xalq qo‘sqliariga bag‘ishlangan mashg‘ulotlar bolalarning qiziqish va o‘zlash-tirishlariga qarab ertalabki yoki kechki soatlarda 20–30 kungacha va undan ko‘p vaqt davom etishi mumkin. Tarbiyachi bu mashg‘ulotlarni shoirlar tomonidan yozilgan allalarga bog‘lagan holda yana davom ettiradi. Shuningdek, oradan ma’lum vaqt o‘tkazib, allaga bag‘ishlangan mashg‘ulotlar takroran o‘tkazilishi mumkin.

Xullas, xalq og‘zaki poetik ijodi kichkintoylar ruhiyatiga kuchli ta’sir etadi, uni quvontiradi, qalbida mehr-muhabbat tuyg‘ularining paydo bo‘lishida, shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

ERTAK

Majmuada o‘zbek xalq ertaklari, adabiy ertaklar va jahon xalq ertaklariga katta o‘rin ajratilgan. Zero, kichkintoy bir yarim yoshdan boshlaboq ertaklar olamiga qiziqa boshlaydi. Unda aks etgan g‘aroyib, ajoyib va sehrli olamga maftun bo‘lib qoladi. Ertak o‘zining jozibali qudrati bilan bolani o‘ziga tortadi, uning vataniga va xalqiga sadoqatli, dovyurak, mehnatsevar, kattalarni hurmat qiluvchi, kichiklarga mehribon, halol va pok vijdonli inson bo‘lib shakllanishida g‘oyat muhim tarbiyaviy rol o‘ynaydi. Shuning uchun dunyodagi barcha xalqlar

asrlar davomida farzandlariga ertak aytib keladi. Bolalar ertaklarni yanada yaxshiroq tushunishlari uchun tarbiyachi asar ustida jiddiy ishlashi kerak. Mashg‘ulot uchun tanlangan (deyarli hamma janrdagi) asarni sinchiklab o‘qib, o‘rganib, kerakli o‘rinlarini belgilab oladilar. Jumladan, asarning qaysi jihatlari bolani qiziqtiradi, qahramonlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar qay tarzda yechiladi, asar bolalarga nimani o‘rgatadi? Ertak, hikoya va she’riy asarlar bo‘yicha mantiqli savollar tuzish kabi vazifalarni bajarishlari zarur. Shuningdek, tarbiyachi o‘z imkoniyatlardan kelib chiqqan holda kitob burchagini to‘ldiradi. Asar voqealari asosida ishlangan turli rasmlar, surat (illyustratsiya)lardan ko‘rgazmalar tashkil etadi. Bularning hammasi maqsadga yo‘naltirilgan, bolalarning estetik didini o‘stirishda, tafakkur doirasini kengaytirishda ma’lum xizmatni o‘taydigan bo‘lishiga e’tiborni qaratadi.

Kichik guruhlarda mashg‘ulotning kirish qismidanoq bolalarning (“Qo‘sish” maqolasida ta’kidlaganimizdek, mashg‘ulotda bolalarning yosh va tabiatidagi asosiy xususiyatlariga alohida e’tibor berish, turli ko‘rgazmali usullardan foydalanish lozim) diqqatini bir nuqtaga to‘plash maqsadida quyidagi usuldan foydalanish mumkin. “Fil bilan Xo‘roz” — o‘zbek xalq ertagi bo‘yicha mashg‘ulot o‘tilayotganda, ertakning bosh qahramoni Xo‘rozning rasmi yoki o‘yinchog‘i ko‘rsatilib, bolalarning bu parranda haqida nimalarni bilishlari aniqlanadi. So‘ngra: “Shirintoylarim, hammangiz xo‘rozni ko‘rgan ekansiz. Kim aytadi, u qanday qichqiradi? Juda to‘g‘ri. “Qu-qu-qu-qu”, deb qichqiradi. Kelinglar, hammamiz birgalikda xo‘rozga o‘xshab qichqirib ko‘ramiz”, — deb bolalar bilan birgalikda bu taqlidiy harakatni bir-ikki marta qaytarish mumkin. Ertakning ikkinchi qahramoni, Filning rasmi yoki o‘yinchog‘ini ko‘rsatib: “Xo‘rozni hammangiz yaxshi bilar ekansizlar, mana bu hayvonni ham taniysizlarmi?...Ha, barakalla. Bu — Fil. Fil issiq o‘lkalarda yashaydi. Ular, ayniqsa, Hindistonda ko‘p uchraydi. Mana bu uzun xartumi unga ovqatlanshida, cho‘milishida yordam beradi”, — deb ertakning har ikki qahramoni haqida qisqacha to‘xtalgach, “Ana endi men sizlarga Fil bilan Xo‘roz haqida ajoyib bir ertak aytib beraman, diqqat bilan eshitininglar”, — degan gaplar bilan mashg‘ulotni boshlasa, bolalarda ertak eshitishga qiziqish uyg‘onadi.

O‘zbek xalq ertaklarida hamisha mehnatsevarlik ulug‘lanadi, dangasalik, ishyoqmaslik, uyquchilik qoralanadi. “Fil bilan Xo‘roz” ertagining g‘oyasi ham shunday. Ma’lumki, ertakda juda qiziqarli voqeа bayon etiladi. Unda Fil bilan Xo‘roz kim ko‘p ovqat yeyishga musobaqa o‘ynashadi. Ana shu favqulodda topilgan voqeа bolalarning qiziqishini yanada orttiradi. Negaki ikki qahramonning



tashqi ko‘rinishi bu musobaqada kim g‘olib chiqishini oldindan aytib turibdi. Lekin xalq ertaklarida buzilmas bir qonuniyat bor. Kimki qahramonlik ko‘rsatsa, tashqi ko‘rinishi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, muvaffaqiyat qozonadi, g‘olib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ertakka e’tibor berilsa, bunday musobaqaga rozi bo‘lish Fil uchun go‘llik, ahmoqona soddalik bo‘lsa, Xo‘roz uchun chinakam qahramonlik hisoblanadi. Albatta, ertakda Xo‘roz muvaffaqiyatga osonlik bilan erishmaydi. U tinmay harakat qiladi. Fil bo‘lsa Xo‘rozga nisbatan juda ko‘p ovqat yesa-da, uyquchiligi tufayli musobaqada yengiladi. Tarbiyachi ertak g‘oyasiga singdirilgan ana shu ma’nolarni bola shuuriga yetkazish uchun ertakning ayrim o‘rinlarini, qahramonlar xatti-harakatlariga oid joylarini ta-kidlab so‘zlashi, ovoz ohangi orqali ularga o‘z munosabatini bildirishi kerak. Shunday qilinganda, tinglovchi bolalar qahramonlar xulq-atvorini tushunib boradilar va ertakdan zavqlanadilar.

“Fil bilan Xo‘roz” ertagi bo‘yicha savollar: Ertak sizga yoqdimi? Ayting-chi: Xo‘roz kattami yoki Filmi? Qaysi biri ko‘p ovqat yeydi? Ular nimadan garov o‘ynashibdi? Nima uchun Xo‘roz dam olmasdan, uxlamasdan, tinmay donlab yuribdi? O‘ylab ko‘ring-chi: Nima uchun Fil nihoyatda ko‘p ovqat yesa-da, kichkinagina Xo‘rozga garovda yutqazib qo‘yibdi? Musobaqada yutish uchun o‘ziga ishonishning o‘zi yetarlimi yoki astoydil harakat va yana harakat qilish zarur ekanmi? Xo‘roz xursandligidan qanaqa qichqirgani esingizdam? Kelinglar, birgalikda Xo‘rozga o‘xshab qichqiramiz v. h.

Maktabgacha yoshdagি bolalarni milliy axloqimizning asosini tashkil etuvchi halollik, to‘g‘rilik, poklik ruhida tarbiyalashda xalq ertaklarining alohida o‘rni bor. Chunki ko‘plab xalq ertaklari mag‘ziga ana shunday yuksak insoniy xislatlar chuqur singib ketgan. O‘rta yosh davri bolalariga tavsiya etilayotgan “Halollik” ertaginiн sarlavhasidan bilinib turibdiki, unda halollik, to‘g‘rilik bosh planda ko‘rsatiladi. Ertakning diqqatga sazovor tomoni shundaki, unda haqiqiy ma-nodagi halollik tushunchasining mohiyati har bir odamga namuna bo‘larli darajada badiiy talqin etilgan. Inson kambag‘al bo‘ladimi yoki boymi — buning farqi yo‘q. Muhimi, uning iymoni butun, ko‘zi to‘q bo‘lishi kerak, birovning haqiga xiyonat qilish, katta gunoh, degan ibratli fikr asar mag‘ziga singdirilgan. Halollik inson qon-qoniga singib ketib, nafas olish qanchalik tabiiy ehtiyoj hisoblansa, ana shunday tabiiylik kasb etishi kerakligi ertakdagи boy va kambag‘al dehqon obrazlari misolida aks ettirilgan. Ertakda har ikki obrazning ma’naviy dunyosi milliylikdan kelib chiqqan holda aniq, yorqin, hayotiy, muhimi, bola tushunchasiga mos, sodda voqealar badiiy tasviri orqali ko‘rsatilgan.

Tarbiyachi ertak mag‘ziga singdirilgan ana shu g‘oyani bolalarga yetkazish uchun suhbat jarayonida maqollardan: “Halol mehnat – yaxshi odat, Berur senga saodat”. Hadislardan: “Halol rizq topish har bir mo‘min uchun vojibdir” v. h. foydalanishi mumkin. Shunda ertakka singdirilgan halollik inson tabiatini toza qiladigan, dilini poklaydigan xislatdir, degan ibratli tushuncha bola tafakkuriga yanada to‘liqroq yetib boradi.

O‘rta yosh davri bolalariga tavsiya etilgan “Ovchi, Ko‘kcha va Dono” ertagi bir nechta mustaqil voqealardan tashkil topgan. Ertakda ramziy obrazlar orqali milliy odatlarimizga xos xarakterli xususiyatlar yorqin ko‘rsatiladi. Ayniqsa, ertakdagи keksa kaptar — Ko‘kcha obrazida aqli, mulohazali keksa donishmandni ko‘ramiz; Sichqon obrazi orqali esa do‘stlikni qadrlovchi, mehmondo‘st odam gavdalantiriladi. Ular ishtirokida qiziq-qiziq voqealar hikoya qilinadi. Ertakdagи har bir voqeada mustaqil syujet, kulminatsiya va ma’lum tugallanma bor. Shunisi diqqatga sazovorki, har bir voqeada do‘stlikning bir qirrasi — vafodorlik, sadoqat, samimiylig, g‘amxo‘rlik, mehr-muhabbat kabilar yanada kengroq talqin etiladi. Do‘stlikning naqadar katta kuch ekanligi voqeadan-voqeaga o‘tgan sari yanada to‘laroq gavdalantiriladi. Tarbiyachi ertakning har bir voqeasi asosida alohida mashg‘ulot o‘tkazishi va uni bolalar ijrosida bemaol sahnalashtirishi mumkin. Ushbu ertak bo‘yicha savollar: Nima uchun “Ovchi, Ko‘kcha va Dono” asarini ertak, deb aytamiz? (*Hayvonlar, parrandalar odamlarday hayot kechiradi, so‘zlashadi. Hayotda sodir bo‘lmaydigan voqealar hikoya qilinadi*). E’tibor berdingizmi, ertak qanday so‘zlar bilan boshlanadi? Qanday so‘zlar bilan tugaydi? Ertak sizga yoqdimi? Ertakda Ko‘kcha nima uchun sheriklarini “pastga tushmanglar” deb ogohlantiribdi? Nega sheriklari keksa kaptarning gaplariga qulq solishmabdi? O‘ylab ko‘ringlar-chi, nega Ko‘kcha sheriklaridan ajralib qolishni istamabdi? Kaptarlar to‘rdan qanday qutulishibdi? Shu voqeani gapirib bering. Nima uchun Qarg‘aning sichqon va kaptarlarga havasi kelibdi? Qarg‘aning bog‘ini qanday tasavvur etasiz? Do‘stlarning safiga yana kimlar qo‘silibdi? Kiyik ovchining tuzog‘idan qanday qutulibdi? Kim yordam beribdi? Toshbaqa ovchining xurjunidan qanday ozod bo‘libdi? Unga kim yordam beribdi? Ertakdagи qaysi obraz sizga ko‘proq yoqdi? Sizningcha, kaptarlar, sichqon, kiyik, qarg‘a va toshbaqa do‘st bo‘lishmaganlarida ovchining tuzog‘i-dan qutula olarmidilar? Hayvonlar o‘rtasidagi do‘stlik sizga yoqdimi? Sizning do‘stingiz bormi? va h. k.

Tavsiya etilayotgan savollarning hammasi bitta suhbat doirasida berilmaydi,



albatta. Bu ertak hajm jihatdan katta bo‘lganligi uchun, qismlarga bo‘lib o‘qiladi, shunga hamohang ravishda savollar ham bo‘lib beriladi. (*Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tarbiyachi ertak yoki boshqa janrdagi badiiy asar bilan bolalarni tanishtirgach, darhol asar bo‘yicha turli xarakterdagi suhbatlar uyushtirishi shart emas. Asar takroran o‘qilgach, suhbat-munozara tarzida o‘tkaziladi.*)

Suhbat jarayonida har bir savol bo‘yicha bir nechta bolaning javobi eshitiladi. Tarbiyachi bolalarni faollashtirish maqsadida “Zumrad to‘g‘ri aytdi. Gulnora, siz nima deysiz?” “Qanday o‘ylaysiz?”, “Nimani qo‘s Shimcha qila olasiz?”, “Sardor to‘g‘ri aytdimi? Nega?” kabi qo‘s Shimcha savollar ham berib boradi. Agar bolalar ayrim savollarga javob berisholmasa yoki tarbiyachi javobdan qanoat hosil qilmasa, demak, bola yo ertakka yoki savol mohiyatiga yaxshi tushunmagan bo‘ladi. Bunday hollarda tarbiyachi: “Kelinglar, bolalar, ertakning shu joyini qayta o‘qib ko‘ramiz”, — deb o‘sha parchani takroran o‘qiydi. Shunday yo‘l tutilsa, bolalar ertak asosida berilgan savol mohiyatiga, qahramonlar xulq-atvoriga, asar g‘oyasiga chuqurroq tushunadilar.

DOSTON

